

*Istiqlol qahramonlari*

*Mahmudxo'ja*  
**Behbudiy**



*Manlangan asarlar*

8417112

BEHIBDIY

YAYINDAN



84. (Y3)  
1364

4

Istiqol qahramonlari

---

*Mahmudxo'ja*  
**BEHBUDIY**

---

**TANLANGAN  
ASARLAR**



TOSHKENT «MA'NAVIYAT» 2009

Nashrga tayyorlovchi, to'plovchi, so'zboshi va izohlar  
muallifi — **prof. Begali Qosimov**

Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi, ma'rifatparvar olim, yozuvchi va publisist Mahmudxo'ja Behbudiyning ushbu majmuasiga uning badiiy asarlari, sayohat xotiralari, xalq ma'naviyatini yuksaltirish, ma'rifat orqali millatni jahonning eng ilg'or xalqlari darajasiga ko'tarishga da'vat etuvchi maqolalari jamlangan.

Uning ilm olishga, ko'plab tillarni o'rganishga, ruhiy barkamollikka chorlovchi fikrlari bugungi kun uchun ham qimmatlidir.

B 64

**Behbudiy M.**

Tanlangan asarlar// To'plovchi, so'zboshi va izohlar:  
B. Qosimov. — T.: «Ma'naviyat», 2009.—280 b. — (Istiqlol qahramonlari).

Uz 1

**B 4702620204-15**  
**M25(04)-09**

ISBN 978-9943-04-093-9

© «Ma'naviyat», 2009

## KARVONBOSHI

Siyosiy, ijtimoiy faoliyati va bilimining kengligi jihatidan Turkistonning o'sha vaqtdagi jadidlaridan unga teng keladigani yo'q deb o'ylayman.

*Fayzulla Xo'jayev*

Mahmudxo'ja Behbudiy uyg'onish davri o'zbek adabiyotida birinchi o'rinni olurga loyiq zotdir.

*Hoji Muin ibn Shukrullo*

Mahmudxo'ja Behbudiy XX asr bo'sag'asidagi Turkistonning orzu-armonlaridan biri sifatida maydonga keldi. U o'z davrining ijtimoiy-siyosiy harakatlarida faol qatnashgan eng yirik namoyandasi, yangi zamon o'zbek madaniyatining asoschisi edi. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, mustaqil jumhuriyat g'oyasining yalovbardori, yangi maktab g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o'zbek dramachiligini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist edi. U tariximizning g'oyat og'ir va murakkab bir davrida yashadi. XVI asrdan boshlangan inqiroz va turg'unlik, jaholat va mutaassiblik avj pardasiga chiqqan, o'zaro janjal, mahalliy urug'chilik nizolari millatni behad holdan toydirgan ediki, bu imkondan foydalanib o'lkani zabt etgan Rossiya zo'r berib, uni turg'un va tutqun saqlashga urinar edi. Mana shunday bir sharoitda millatni butunlay mahv bo'lish va Vatanni butkul g'orat etilish xavfidan asrab qolish, avlodlarni erk va ozodlik, mustaqillik ruhida tarbiyalash, ma'rifat va taraqqiyotga boshlash jadidlar nomi bilan tarixga kirgan Behbudiy boshliq fidoyilar zimmasiga tushdi.

Tariximizning so'nggi yuz yildan ortiqroq davrida xalqimizning eng katta armoni bo'lib kelgan bugungi istiqloq kurtagi dastlab mana shu jadidlar ko'ksida nish urib yetilgan edi.

XX asr o'zbek maorifi va madaniyati, qolaversa, bugungi mustaqillik tafakkurimiz, ehtimolki, shu jadidlar oldida

burchlidir. «Usuli jadid», «usuli savtiya» nomlari bilan shuhrat topgan yangi maktabni Turkistonda shular tashkil qildilar. Shular birinchi bo'lib zamonaviy oliy maktab g'oyasini ilgari surdilar, o'nlab jamiyatlar, shirkatlar uyushtirib, ular yordamida qanchadan qancha yoshlarni taraqqiy qilgan Ovrupo mamlakatlariga o'qishga yuborishga muvaffaq bo'ldilar. O'zbek teatrining birinchi g'ishtini qo'ygan, nashr-u matbuotini boshlab bergan ham shulardir.

Jadidlar o'z hisoblaridan maktablar ochib, yosh avlodni istiqloлга tayyorladilar, she'r va maqolalar, sahna asarlari orqali milliy ongni shakllantirishga, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini singdirishga urindilar (Rusiya qonunlari imkon bergan darajada Turkiston musulmonlarining sha'n-u sharafini himoya qildilar), inqilob yillarida esa mustaqillik bayrog'ini baland ko'tardilar.

Mahmudxo'ja Behbudiy mana shu fidoyilar orasida mumtoz bir o'rinni egallaydi. U mana shu Turkiston jadidchilik harakatining boniysidir. Uning hayoti va ijodiy faoliyati haqida 20-yillarda mahalliy matbuotda Sadridin Ayniy, Hoji Muin ibn Shukrullo, Laziz Azizzoda kabi zamondoshlari tomonidan bir qator maqola, xotiralar e'lon qilingan. Keyingi yillarda, xususan, mustaqillikka erishilgandan so'ng jadidlar faoliyatini o'rganishga harakat kuchaydi. Behbudiy asarlari ham qayta nashr etila boshlandi. Shu munosabat bilan 20-yillar adabiyotshunosligi materiallariga ehtiyoj o'sib bordi. Jumladan, Behbudiy tarjimayi holini yoritishda Hoji Muinning 1922–1923-yillarda o'zi muharrirlik qilgan «Mehnatkashlar tovushi» (1922), «Zarafshon» (1923) gazetalarida chop etgan maqolalari muhim ahamiyatga ega. Behbudiy haqida 70-yillardan bugungi kungacha e'lon qilinib kelayotgan Solih Qosimov, Ahmad Aliyev, Naim Karimov, Sirojiddin Ahmedov, Sherali Turdiyev va bugungi yosh tadqiqotchilar Halim Sayid, Normurod Avazov, Zebo Ahrorova ishlarining barchasida mana shu Hoji Muin ma'lumotlari asos qilib olinadi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Aslida ham Hoji Muin (1883–1942) Behbudiyning yaqindan bilgan, uning e'tiboriga sazovor bo'lgan hamkasabasi, shogirdi edi. 1914-yilda Behbudiy haj safariga ketar ekan, «Oyna» jurnalining muvaqqat muharriri qilib Hoji Muinni qoldirganligi ma'lum.

Uning keltirishicha<sup>1</sup>, Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875-yilning 19-yanvarida (hijriy 1291, 10-zulhijja<sup>2</sup>) Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida ruhoniy oilasida dunyoga kelgan. Otasi Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomondan bobosi Niyozxo‘ja urganchlik bo‘lib, amir Shohmurod zamonida (1785–1880) Samarqandga kelib qolgan.

1894-yilda otasi – imom-xatiblik bilan shug‘ullanib kelgan Behbudxo‘ja vafot etadi. Yosh Mahmudxo‘ja tog‘asi qozi Muhammad Siddiqning tarbiya va qaramog‘ida o‘sib voyaga yetadi. Arab sarf-u nahvini kichik tog‘asi Odildan o‘rganadi. 18 yoshidan qozixonada mirzolik qila boshlaydi. Darvoqe, Behbudiyning maktab-madrasa hayoti haqida ham ma‘lumotlar nihoyatda kam. Uning zamondoshlari bilan bo‘lgan suhbatlaridan ayon bo‘ladiki, Behbudiy dastlab Samarqand madrasasida, so‘ngroq Buxoroda yaxshigina tahsil ko‘rgan. An‘anaviy madrasa ilmini puxta egallagan Behbudiy 1915-yilda etnograf G. Andreyev savollariga javob berar ekan, madrasa tahsilini alohida tilga olgani ma‘lum<sup>3</sup>. Xullas, an‘anaviy tahsil, so‘ng esa o‘z ustida qunt va sabot bilan ishlash orqali u shariatning yuksak maqomlari – qozi, mufti darajasigacha ko‘tariladi.

Taxmin qilish mumkinki, yosh Mahmudxo‘ja dunyoqarashining shakllanishida Rusiya jadidchilik harakatining asoschisi Ismoilbek Gaspralining xizmati katta bo‘lgan. Sharq-u G‘arbning tarix va madaniyatini chuqur bilgan, arab, fors tillari bilan bir qatorda ingliz, nemis, fransuz tillarida ham erkin so‘zlasha olgan bu kishi 1881-yilda rus tilida «Rusiya musulmonligi» kitobini yozadi. Bu kitobda u, Rusiyada yashovchi barcha musulmonlarning o‘zligini saqlab qolish yo‘li

<sup>1</sup> *Qarang. Hoji Muin.* Mahmudxo‘ja Behbudiy. «Zarafshon» gazetasi, 1923- yil, 25-mart.

<sup>2</sup> Ayrim tadqiqotlarda bu sana 1874-yil mart («Sovet O‘zbekistoni san’ati» j., 1989-y., 2-son) deb, bizningcha, yanglish ko‘rsatiladi. 1291-yilning boshlanishi (1-muharram) 1874-yilning 18-fevral chorshanba kuniga to‘g‘ri keladi. (*Qarang.* Таблица согласования... X. K. Baranov. Арабско-русский словарь. М., 1977, 940–942-betlar.) Zulhijja so‘nggi oydir. Uning 10-si 335-kun bo‘lib, jamlanganda 1875-y. 19-yanv. kelib chiqadi.

<sup>3</sup> *Andreyev G.* Самаркандский журнал «Ойна» и его редактор-издатель Махмуд Ходжи Бегбуди, «Туркестанские ведомости» gazetasi, 1915, 17-sent.

bitta, u ham bo'lsa, ma'rifat va u orqali mamlakatning ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayotiga tengma-teng aralashishga erishmoqdir, degan fikrni ilgari suradi. Bu yo'ldagi birinchi qadam «usuli jadid», «usuli savtiya» nomlari bilan tarixga kirgan yangi maktablarni tashkil qilish bo'ldi<sup>1</sup>. «Al-on Rusiyadagi minglar ila nizomlik maktablar va sobiq nashr bo'lgan va hozir fe'lan nashr bo'lib turgan yuzlar ila islomiy majalla va jaridalarining barcha muharrir va muridlari ul zoti sutuda sifotni shogirdlaridurlar»<sup>2</sup>, deb yozgan edi Behbudiy 1914-yilda.

1884-yilda Ismoilbekning mashhur «Tarjumon» gazetasiga obuna bo'lgan 1000 kishining 200 tasi Turkistondan edi.

Ismoilbek 1892-yilda Turkistondagi maktablarni isloh qilish, «usuli savtiya»ni joriy etish taklifi bilan general-gubernator baron Vrevskiyga murojaat etdi<sup>3</sup>. Javob ololmagach, 1893-yilda Toshkentga keladi, Samarqand, Buxoroda bo'ladi. Mahalliy xalq bilan gaplashib, dastlabki yangi usul maktablarini ochishga muvaffaq bo'ladi. So'ng 1897-yilda yana Turkistonga keladi...

---

<sup>1</sup> Gasprali 1884-yilda Boqchasaroyda bir maktab ochadi va unga «usuli jadid maktabi» deb nom beradi. «Musulmonlar avval bu maktabga uncha ishonqiramay qaradilar, — deb yozadi u bu haqda, — ammo birinchi ommaviy ochiq imtihondan so'ng o'quvchilarning soni birdaniga 9 dan 30 bolaga ko'paydi... o'qitishda «usuli savtiya» (tovush usuli) qo'llanilishi tufayli, mening rahbarligimda xo'ja (muallim) bolalarga olti oyda turkcha va arabcha o'qitishni, turkcha yozish va boshlang'ich diniy qoidalarni o'rgatishga muvaffaq bo'ldi» (*qarang*: «Guliston» j., 1995-yil, 2-son).

<sup>2</sup> «Oyna» j., 1914-y., 50-son.

<sup>3</sup> Baron Vrevskiy Gasprali xatini Turkiston o'qituvchilar seminariyasi direktori, «Turkiston viloyatining gazetisi» muharriri, mashhur missioner N. P. Ostroumov bilan Turkiston haqida ko'plab kitoblar yozgan V. P. Nalivkinlarga berib, ularning bu boradagi fikrlarini so'raydi. Ularning har ikkalasi ham Gasprali takliflarini rad etadilar. Ostroumov yozma javobida shunday muhim masalaning «Turkistonga mutlaqo aloqasi bo'lmagan (?) janob Gasprinskiy... tomonidan muhokama qilinishi yo'l qo'yib bo'lmaydigan ish» deb hisoblaydi. «G'ayrijinslarni ruslashtirish sekin va ishonchsizroq tarzda borayotganidan nihoyatda qayg'urganligini» izhor etadi va «Gasprali singarilarni» «eng zararli kishilar» sirasiga kiritadi.

Gasprali murojaati («Turkiston general-gubernatoriga maktub») va «Ostroumovning javobi» tarixchi S. Xolboyev tomonidan «Guliston» jurnalining 1995-yil 2-sonida e'lon qilindi.

Baron Vrevskiy har ikki mutaxassis munosabatini aniqlagach, Gasprali xatiga: «Oqibatsiz qoldirilsin», — deb imzo qo'yadi.



Barcha narsaga qiziquvchan Mahmudxo‘janing Yaqin va O‘rta Sharqda nomi tanilgan Ismoilbek Gaspralining Turkiston safarlaridan bexabar qolishi qiyin edi. To‘g‘ri, Ismoilbek kelib Turkistonda ochib ketgan yangi maktablar uzoq davom etmadi, g‘ayrishar‘iy sifatida mutaassiblar tomonidan yopildi. Lekin «Tarjumon»ning mushtariylari ko‘payib bordi. Ustozshogird munosabatlari samimiy do‘stlikka aylandi. Behbudiy o‘z xotiralarida ustoz bilan uchrashuvlarini ixlos va muhabbat bilan tilga oladi.

1899–1900 -yillarda Behbudiy buxorolik do‘sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqadi<sup>1</sup>. «1318-sanai hijriyasi tavofi Baytullog‘a Kafkaz yo‘li ila Istanbul va Misr al-Qohira vositasi-la borib edim. Muddati safarim sakkiz oydan ziyoda cho‘zilub edi»<sup>2</sup>, – yozadi Behbudiy bu haqda. Dunyo ko‘rishi izziz ketmaydi. Safar yangi maktab haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi. Uning tashabbus va g‘ayrati bilan 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi (S. Siddiqiy), Rajabamin (A. Shakuriy) qishloqlarida yangi maktablar tashkil topadi. Adib ushbu maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Ketma-ket uning «Risolai asbobi savod» (1904), «Risolai jug‘rofiyai umroniy» (1905), «Risolai jug‘rofiyai Rusiy» (1905), «Kitobat ul-atfol» (1908), «Amaliyoti islom» (1908), «Tarixi islom» (1909) kabi kitoblari paydo bo‘ladi.

1903-yilda Halvoyida qurilgan maktab binosi hozir ham saqlanib kelmoqda. Shakuriy maktabini esa Behbudiy 1908-yilda Samarqandga o‘z hovlisiga ko‘chirib olib borgani ma‘lum.

Toshkentda, Farg‘ona vodiysida yangi maktablar tashkil topa boshlaydi. Ibrat, Munavvarqori, Avloniy, So‘fizoda nomlari tilga tushadi. Bular hali kifoya emas, millat bolalarini taraqqiy topgan shaharlarga o‘qishga yuborish kerak. Mirmuhsin Shermuhamedov va bir qator o‘zbeklar Markaziy Rusiyaga – Ufadagi «Oliya» madrasasiga yo‘l oladilar. «Oliya» da o‘ndan ortiq o‘zbek o‘qiydi. 10-yillarda Varshavada, Olmoniyada, Moskva, Peterburgda o‘zbeklar o‘qigani ma‘lum. Mahmudxo‘ja 1903–1904-yillarda Moskva, Peter-

<sup>1</sup> Qarang. **Hoji Muin**. Mahmudxo‘ja Behbudiy. «Zarafshon» gazetasi, 1923- yil, 25-mart.

<sup>2</sup> Qarang. **Mahmudxo‘ja Behbudiy**. Qasdi safar, «Oyna» j., 1914-y., 31-son.

burgga boradi, 1906-yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodda bo'ladi. Bular sayohat emas, xizmat safari edi. Masalan, Nijniy Novgorodda 1906-yilning 23-avgustida Rusiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag'ishlangan qurultoy chaqiriladi. Behbudiy bu qurultoyda turkistonliklar guruhini boshqaradi va katta nutq so'zlaydi<sup>1</sup>.

25 kunga cho'zilgan bu safar haqida Behbudiy so'ngroq shunday ma'lumot bergan edi: «1325-sanai hijriyasinda Rusiya musulmonlarining muhtaram ziyoli va akobirlarining Nijni Yorminkasinda milliy ishlar to'g'risida mashvarat qila turgan majlisig'a musharraf bo'lmoq uchun O'runburg yo'li ila Maskuf, Peterburg, Qozon vositasi-la Nijni Novago'rd borib edim»<sup>2</sup>.

Ma'rifat uchun birgina maktab kifoya qilinmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo'lmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o'z qabohatini ham, malohatini ham ko'ra olsin.

Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyni teatr va matbuot sari boshladi. «Padarkush» shu tariqa maydonga keldi. Biroq uning dunyo ko'rishi oson kechmadi. Bunga sabab: birinchidan, chor hukumati mustamlaka Turkistonining ma'rifat yo'liga kirib, o'z huquqini tanishidan manfaatdor emas edi. 1916-yildagi Turkiston general-gubernatori N. R. Kuropatkinning o'z kundaligida yozgan va bugun juda mashhur bo'lib ketgan: «Biz tubjoy xalqni taraqqiyotdan, maktabdan, rus hayotidan 50 yil chetda tutdik», — degan so'zlarini eslash kifoya. Ikkinchidan, turg'unlik va tutqunlik tufayli avj olgan jaholat, mutaassiblik. «Kimiki sahnada ko'rsang, oni jasorati bu», — deb yozgan edi shoir Tavallo. Bu, bejiz emas. (Xullas, 1911-yilda yozilgan «Padarkush» dramasi 1913-yildagina bosilib chiqadi. Kitob jildidagi: «Borodino jangi va Rossiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo'lishining yubiley sanasiga bag'ishlanadi», — degan yozuv va uning Tiflis senzurasii-

<sup>1</sup> *Qarang. A. A. Pyaskovskiy. Революция 1905—1907 годов в Туркестане. М., 1958, 559-бет. 1905-yildan Rusiya musulmonlari siyosiy faollashdilar. 1905-yil 15-avgustda Nijniy Novgorodda ularning I syezdi, 1906-yil 13—23-yanvarda Peterburgda II syezdi chaqirildi. «Rusiya musulmonlari ittifoqi» tuzildi.*

<sup>2</sup> «Oyna» j., 1914-yil, 31-son, 598-bet.

ning ruxsati bilan chop etilishi shuni ko'rsatadiki, ish oson ko'chmagan. Pyesa bosilib chiqqandan keyin ham, uni sahnaga qo'yish uchun yaqin bir yil vaqt ketdi. Muallif bu haqdagi xatlarga javoban: «O'ynayturgon odam yo'q. Azbaski, Turkistonda bekor odam yo'qki, xalq uchun ishlasa. Bekor kishi yo'qki, teatru sahnasiga chiqib, «masxarabozlik» qilsa»<sup>1</sup>, — deb yozadi.

«Padarkush» — o'zbek dramachiligining hamma yakdil e'tirof etgan birinchi namunasidir. Mutaxassislar uni ham janr, ham mazmuniga ko'ra yangi o'zbek adabiyotini boshlab bergan bir asar sifatida baholaydilar. Muallif «Milliy fojia» atagan 3 parda 4 manzarali bu drama hajman juda ixcham, mazmunan nihoyatda sodda va jo'n. U jaholat va nodonlik haqida o'qimagan bolaning buzuq yo'llarga kirib, o'z otasini o'ldirgani haqida hikoya qiladi. Orqa-oldini o'ylamagan boyning Toshmurod ismli o'g'li bor. O'g'li o'qimagan. Boy atrofida gilarining gapiga kirmaydi. O'g'lini o'qitmaydi, oqibatda u ko'cha bezorilariga qo'shiladi. Restoranda maishatga puli yetmay, sheriklarini tunda uyiga boshlab keladi. Boy uyg'onib, ularni sezib qoladi, lekin uni o'ldirib, pulini olib ketadilar. Xulosa: jaholat va nodonlik otaning ham, bolaning ham boshiga yetadi. Agar butun millat shu ahvolga tushsa-chi?!

«Padarkush» dastlab, Samarqandda 1914-yilning 15-yanvarida sahnaga qo'yildi. «Xalq nihoyat ko'p kelib, belat yetmagani va joyni yo'qligi uchun uch-to'rt yuz kishi qaytib ketdi»<sup>2</sup>, — deb yozadi mahalliy matbuot.

Yana o'sha yerda o'qiymiz: «Belatlar bir-ikki kun avval yoshlarni g'ayrati ilan sotilib tamom bo'lub edi. Ba'zi kishilar belatlarini ikki bahog'a foidasi ilan boshqag'a sotdilar. Soat yettidan minglab xalq ibratxonaga hujum qilgan. Ammo belat yo'q, Uch so'm<sup>3</sup> berib, tikka turmoqg'a ham rozi, yana yer yo'q...»

Spektakl o'z maishatiga o'ralib dunyoni unutilgan millatdoshlarga chaqmoqdek ta'sir etdi. Unda boy rolini Abdusalom Abdurahim o'g'li o'ynagan edi. «Boyni hamboza (xur-

<sup>1</sup> «Oyna» j., 1913-yil, 5-son.

<sup>2</sup> «Oyna» j., 1914-yil, 14-son.

<sup>3</sup> Muqoyasa uchun: 1914-yilda 2 so'mga o'rtacha bir qo'y kelgan.

rak) va uyqusi hamda harakatidan aholi ixtiyorsiz va fosilasiz kulardi», — yozadi taqrizchi. «Domla (Mardonqul Shomahmud o'g'li) va ziyoli (Mirza No'mon Mulla Fozil mufti o'g'li) ni nasihati xaloyiqni ko'nglig'a ta'sir etardi, hatto, va'z-u pandga yig'laganlar bor edi» — o'qiyimiz taqrizda. Ayniqsa, boyning o'z o'g'li yordamida o'ldirilib, mol-dunyosining fahsh-u ishrat uchun olib ketilishi voqealari kishilarni larzaga solgan. «Bu foje va alamlik manzarani parda yopar. Xalqg'a haddan ziyoda ta'sir. Ba'zi kishilar fojiadan ko'z yumarlar...»

Chamasi, asarning ijrosi ham baland saviyada bo'lgan. Taqrizdagi: «Rus, yahudiy va musulmonlar tahsin etardi. Hatto, 20 yildan beri teatr ma'muriyatidagi odamlar ta'rif qilurdi... Aholidagi olqish ibratxonani gumbirlatur...» — degan jumlar shunga ishora qiladi.

Toshkentda 1914-yilning 27-fevralida qo'yildi. Avloniyning «Turon» truppasi Kolizey (hozirgi Savdo birjasi binosi)da o'z faoliyatini mana shu «Padarkush» bilan boshlagan edi. Spektakl oldidan mashhur Munavvarqori teatrning jamiyat hayotidagi roli va o'rni haqida nutq so'zlaydi. Boy rolini Abdulla Avloniyning o'zi ijro etadi. Mahalliy matbuot bu kunni «tarixiy kun»<sup>1</sup> deb yozadi.

«Turon» truppasi 1914–1916-yillarda bu spektakl bilan butun Farg'ona vodiysini aylanib chiqdi. «Padarkush» Turkistonni junbishga keltirgan qirg'in-barot inqilob yillarida ham sahnadan tushmadi. Bir tomondan, millatni ma'rifat va taraqqiyot sari undashda buyuk rol o'ynagan bo'lsa, ikkinchi yoqdan, professional o'zbek teatri va dramachiligining maydonga kelishi hamda taraqqiyotida muhim xizmat qildi.

Bu asarning o'z davrida adabiy harakatchilikka yetkazgan ta'siri haqida qaydlar ko'p. Buning shohidi sifatida Abdulla Qodiriyning mashhur: «1913-yillarda chiqqan «Padarkush» pyesasi ta'sirida «Baxtsiz kuyov» degan teatr kitobini yozib yuborg'onimni o'zim ham payqamay qoldim», — degan e'tirofini eslash kifoya. 1916-yilda Toshkentga kelib Kolizeyda «Turon» ning qator spektakllarini ko'rgan A. N. Samoylovich

---

<sup>1</sup> *Qarang.* Turkiston viloyatining gazetasi (TVG), 1914-y., 18-son, 2-mart.

yozadi: «Turkistonda yangi adabiyot maydonga keldi. Bu men uchun kutilgan hol edi... Yangi adabiyotning markazi — Samarqand... Yosh qalamkashlarning bosh ilhomchisi samarqandlik mufti Mahmudxo‘ja Behbudiydir»<sup>1</sup>.

Dramaning birgina o‘zbek emas, tatar, ozarboyjon teatr-chiligiga ham ta’siri haqida gapirish mumkin. Turkistonda shu yillari Zaki Boyazidskiy, Aliasqar Asqarov, Sidqiy Ruhillo, Ilyosbek Oshqozorskiy kabi ko‘plab qardosh rejissorlar faoliyat ko‘rsatganini xotirga olaylik.

1913-yildan Behbudiy matbuot ishlari bilan shug‘ullandi. Apreldan «Samarqand» gazetasini chiqaradi. Gazeta turkiy va forsiy tillarda, haftada ikki marta, dastlab ikki, so‘ng to‘rt sahifada chop etilgan. 45 ta sonidan keyin moddiy tanqislik tufayli chiqishi to‘xtagan. O‘sha yilning 20-avgustidan u «Oyna» jurnalini chiqara boshlaydi. Bu suratli haftalik majalla, asosan, o‘zbek tilida bo‘lib, unda ixcham forsiy she‘r, maqolalar, ruscha e‘lonlar ham berib borilardi... «Boshda haftada bir marta va ikkinchi yildan e‘tiboran 15 kunda bir qatla chiqib, yigirma oy chamasi davom qildi... Kafkaz, Tatariston, Eron, Afg‘oniston, Hindiston va Turkiyagacha tarqalar edi... Jadidlarning sevikli jurnallari edi. Shuning uchun ular tomonidan hurmatlandi, sevilib o‘qildi»<sup>2</sup>, — deb yozgan edi Ziyo Said. Jurnal redaksiyasi muharrirning Yangi shahardagi uyida (Reshetnikov, 3; hozir Mirsaid Baraka, 1, aloqa xodimlari kasaba uyushmasining viloyat tashkiloti binosi) joylashgan.

Behbudiy shu yillari nashr ishlari bilan qizg‘in shug‘ullandi. «Nashriyoti Behbudiya» nomi bilan o‘z xususiy nashriyotini ochdi. Fitratning «Bayonoti sayyohi hindi» asarini 1913-yilda ruschaga tarjima qildirib, nashr etdi<sup>3</sup>. Turkiston xaritasini tuzib bosmadan chiqardi. Kutubxonani yo‘lga qo‘ydi.

<sup>1</sup> A. Samoylovich. Драматическая литература сартов. Вестник, «Имп. об-ва вост.», № 5, Petrograd, 1917, 4-bet.

<sup>2</sup> Ziyo Said. Tanlangan asarlar. T., 1974, 44–45-betlar.

<sup>3</sup> Qarang. A. A. Pyaskovskiy. Революция 1905–1907 гг. в Туркестане. М., 1958, 546-bet. Darvoqe, bundan ikki yil oldin Fitratning «Munozara» asari ham rus tiliga tarjima qilingan ekan. Biroq u chor ma‘muriyatining maxsus xizmati uchun mo‘ljallangan bo‘lib, alohida kishilargina foydalanганlar. Tarjima polkovnik Yagello tomonidan amalga oshirilgan (Qarang: A. A. Pyaskovskiy, o‘sha bet).

O'sha davr vaqtli matbuotida «Behbudiy kutubxonasi» haqidagi xabarlarga tez-tez duch kelasiz.

1914-yilning 29-mayida Behbudiy ikkinchi bor arab mamlakatlariga sayohatga otlanadi.

Muallif sayohati arafasidagi kayfiyatini shunday ifodalaydi: «7 sanadan beri ikki daf'a Buxoro va bir daf'a Farg'onani ziyoratidan boshqa safarga chiqqanim yo'q edi. Azbaski, tiriklik kasalig'a mubtalolik, ro'zg'or qaydig'a giriftorlik sayohat ne'matidan mahrum etar. Yetti yillik xonanishinlik, digar tarafdin aloyiqi ro'zg'or, tijorat va 7–8 risolalar tahrir va nashri, dorulqazo ishlari, xususan, bir sanadan beri sobiq «Samarqand» jaridasi va hozirgi «Oyna» idorasining ishlari ruhan va jisman zaif etdi. A'zou havoslarg'a kasolat paydo bo'ldi. Singir (asab)... g'ayri muntazam ishlaydur. Atibbo istirohat va sayohatg'a mashvarat berarlar. Tabiat u qadar noqobil va buzuqki, sayohatdan ham nafrat etar, istamaz».

Shunga qaramasdan, safarga chiqmasa bo'lmaydi. Avvalo, «Kutubxonai Behbudiya» uchun Istanbul, Misr, Qrim, Kavkaz, Qozon, Rusiya va xorijiyanning manzaralari, imoratlar, kishilarining suratlari, turli-tuman qolip (klishe)lar va yana boshqa juda ko'p narsalar kerak. Xullas, bormasa bo'lmaydi. Marshrut: Kavkaz, Qrim, Istanbul, Yunoniston, Bayrut, Misr Qohirasi va yana orqaga — Istanbulga qaytib, temir yo'l bilan Bulg'oriston, Avstriya va Berlin orqali Rusiyaga, undan Turkistonga kelish. Muddati ikki oy. Birinchi iyunga qolmay yo'lga tushish kerak. Behbudiy Peterburgda bo'ladigan Milliy majlis maslahatiga taklif qilingan edi. Savollarga javobini yozib yuboradi, uzrini aytadi. Xullas, 29-mayda yo'lga tushadi. Poyezdga o'tirib Bayramali orqali Ashxobodga o'tadi. Krasnovodskdan paroxod bilan Bokuga boradi. 2-iyunda Mineralniye Vodi — Kislovodsk — Pyatigorsk, Jelevnovodsk — Rostov — Odessani kezib, 8-iyunda Istanbulga kirib keladi. Undan Adirnaga sayohat qiladi. Yana Istanbulga qaytib, 21-iyunda suv yo'li bilan Quddusga yo'l oladi, Bayrut, Yofa, Xalil ar-Rahmon, Port Said, Shom shaharlarini tomosha qiladi. Sayohat iyulning boshlarida ham davom etadi...

Sayohat xotiralari har jihatdan g'oyat muhim bo'lib, Behbudiy ularni o'z jurnali «Oyna» ning 1914-yil sonlarida

mazkur nom ostida peshma-pesh berib boradi (hozircha 18-sonda uchratdik)<sup>1</sup>.

«Sayohat xotiralari»ning birinchi qismi jurnalning 14-iyun 34-sonida chop etilgan. Muallif unga «31-may, Bahri Hazar. Mahmudxo‘ja» deb imzo chekadi. Raqamlash va sana hamda yozilgan joyini ko‘rsatishga birinchi olti sonidagina rioya qilingan. Bu «Xotiralar» ham ma‘rifiy, ham adabiy-estetik jihatdan nihoyatda muhim. Ular adabiyotimizdagi an‘anaviy tarixiy-memuar janrining XX asr boshidagi o‘ziga xos namunasi. Muallif bu memuarlarda yo‘l taassurotlariga, mashhur yoxud oddiy kishilar bilan uchrashuvlarining ibratli tomonlariga keng o‘rin beradi. Qaysi shaharga bormasin, uning tarixi, obidalari, u yerdan chiqqan buyuk zotlar haqida ma‘lumotlar to‘playdi. Turli-tuman millatlar, ularning urf-udumlari, turmush madaniyati bilan qiziqadi. Qishloqlardagi dehqonchilikdan tortib, shaharlardagi eskalator («osonsur») gacha uning e‘tiboridan chetda qolmaydi. Ayniqsa, din, e‘tiqod masalalariga katta ahamiyat beradi. Qadimiy muqaddas obidalar, Rasululloh poyqadami tekkan qutlug‘ dargohlar, xususan, Quddusi sharifdagi mashhur Masjid al-Aqso ziyoratidan nihoyasiz zavq-shavqqa to‘ladi. Sajdaga bosh qo‘yarkan, dilining tub-tubidan Olloh ishtiyoqi qalqib chiqadi. «Oh, na ruhoniy holatlar, na laziz vajdangiz ubudiyatlar, na ashkrez noz-niyozlar... Nuroniy, fusunkor, porloq moziy-kim, aning asari qudsiyat samari ming bu qadar sana so‘ngra bizni mahviyat darajasinda kelturar», — deb yozadi u.

Muallif Ollohga nido qiladi: «Iloho, u aziz va faol bandalaring hurmatig‘a bizg‘a basirat ber. Eshitar quloq, anglar aql ber...

Ey Ollohi azim-ush shon. Bu magar sening g‘azabing-midur. Afv et, biz insonlarni. Hidoyat et. Yer yuzinda sulh va silohi umumiy ato ayla. Insonlarg‘a insoniyat ber. Zolimlarni qahr et, mahv bo‘lsun zulm. Yashasun adolat va haqqoniyat, omin...»

---

<sup>1</sup> Afsuski, jurnalning 1913-yil 20-avgustdan 1915-yil iyungacha chiqqan 1720 sahifalik 68 sonining to‘la, mukammal komplektini topish ancha qiyin. Olmon olimasi prof. I. Baldauf ham Moskva, Leningrad, Xelsinki kutubxonalaridagi «Oyna» sahifalarining sukutli ekanligidan zorlangan edi (*qarang*: «O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati», 1993-y., 21-may, 21-son).

«OʻzAS» haftaligi Ingeborg Baldaufning mazkur xotiralarning olmoncha tarjimasini munosabati bilan yozilgan «Mahmudxoʻja Behbudiy Falastinda» (1993 № 21) maqolasini eʼlon qildi. Muallif unda Behbudiy kuzatishlarining oʻziga xosligi haqida yozgan, adib qalbini oʻrtagan eng katta dard — erk va maʼrifat ekanligini aytgan.

Behbudiyning ushbu safari bilan bugungi kun orasida 80 yildan ortiqroq tarix turibdi. Sakson yilda mubolagʻasiz sakkiz yuz yillik voqealar boʻlib oʻtdi. Shularga qaramay, «Xotiralar»dagi maʼrifiy ruh, iztirob toʻla fikr-mulohazalar, muallifning tashna nigohi sizni befarq qoldirmaydi. Xususan, Vatan tuygʻusi bugun siz bilan biz uchun aytilgandek tuyuladi. U Quddusi sharifdagi Hazrati Dovud maqbarasini, Bibi Maryam va Hazrati Iso kalisolarini ziyorat qilar ekan, toshkentlik yosh bir attorga duch keladi. «Doʻkonigʻa biroz oʻlturdik, — yozadi Behbudiy, — mamlakatdan soʻradi. Qoʻligʻa bir necha nusxa «Oyna» va Turkiston xaritasini berdim. Ahli savod ekan. Toshkand shahrini koʻrsatdim. Beixtiyor xarita ustindagi Toshkandni oʻpib, koʻzigʻa surtdi. («Hubbul vatani min al-iymon».) Xususan, vatan va ahli diyorni qadri musofiratga maʼlum boʻlur. Haqiqatan vatan muqaddasdur. Qadrini bilmoq kerak».

«Oyna» jurnali maʼrifat va madaniyat tarqatishda juda katta xizmat qildi. Unda millat va uning haq-huquqiga, til-adabiyot masalalariga, dunyo ahvoriga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Ayniqsa, til masalalari muharrirning hamisha diqqat markazida boʻlgan. Behbudiy millatning taraqqiyoti uchun bir necha til bilishni shart hisoblardi. Masalan, jurnalning 1913-yil 20-avgust, birinchi — nishona sonidayoq, «Ikki emas, toʻrt til lozim» degan maqola bilan chiqqan edi.

Fitratning jurnalda bosilgan maqolalaridan biri «Himmat va saboti boʻlmagan millatning haqqi hayoti yoʻqdur» deb nomlangan. «Tushundigim zamon koʻnglum yonar, yigʻlamoq istarman, koʻzyoshlarim kelmaydur», deb boshlanar edi maqola. Adib taraqqiyot va turmushda Ovrupodan yer va osmon qadar uzilib qolgan Turkistonning fojiali ahvolidan soʻz ochgan edi (1915-y., 7-son). «S. A.» imzoli kishining «Har millat oʻz tili ila faxr etar» (1914-y., 35-son) maqolasida boshqa tillarni oʻrganish qatorida har bir millat oʻz tilining




muhofazasi bilan shug'ullanishi shart, degan fikr juda ko'p dalillar bilan isbot qilib beriladi. «Agarda til va adabiyotimizni muhofaza qilmay, anga ajnabiy lug'at va so'zlarni qo'sha bersak, biroz zamonda til va milliyatimizni yo'qoturmiz. Milliyatimizni yo'qotganda diyonatimiz o'z-o'zi ila albatta, yo'qolur», — deb yozadi muallif va «Bas, bizg'a tilimizni ajnabiy so'zlardan muhofaza qilmoqlik eng birinchi muhim bir vazifadur», — deb xulosa chiqaradi.

Jurnalning 1915-yil 11–12-sonlarida bosilgan Behbudiyning «Til masalasi» maqolasida tillarning o'zaro munosabati haqidagi bahs davom etadi. Ulug' ma'rifatchi tillarning bir-biridan o'rinli lug'at olishini tabiiy jarayon deb qaraydi. Eng boy tillardan bo'lgan inglizchaning ham «o'n minglar ila begona lug'atlarni majburan olganligini» dalil qilib ko'rsatadi va masalaning boshqa jihatiga — yagona adabiy til, til birligiga diqqatni qaratadi.

Behbudiy adabiy tanqidga katta e'tibor berdi. Navoiydan keyingi bir necha asrluk sukunatdan so'ng bu sohaning xos xususiyatlarini tayin etib, adabiyotda uning teng huquqligi masalasini o'rtaga qo'ydi. «Tanqid saralamoqdur» (1914-y., 27-son) deb nomlangan edi uning ushbu mavzuga bag'ishlangan jiddiy maqolalaridan biri.

Turkiston zabt etilgach, ruslar mahalliy xalqqa «sartlar» deb nom berdilar. N. Ostroumovning bir kitobi xuddi shunday nomlanganligi hammaga ma'lum. Bu so'z aslida turli vaqtda, turli etnik qatlamga, goho sotsial qatlamga nisbatan aytilgan. 10 yillarda bu so'z atrofida yana bahs ketdi. Chunonchi, Buxoro amirining ruschaga tarjimoni Bahrombek 1911-yilda «Sho'ro» jurnaliga: «Biz, Turkiston va Buxoro xalqining turkligi ma'lum bo'lib turib... na uchun sart ataydurlar?» — degan savol bilan murojaat qiladi. Jurnalning 19-sonida Behbudiyning: «Sart so'zi majhuldur», — degan javobi bosiladi. 24-sonida esa samarqandlik Baqoxo'ja «Sart so'zi aslsizdur» degan maqola bilan chiqadi. Bu bilan bahs bosilganday bo'ladi. Biroq oradan 2–3 yil o'tib, «Sadoyi Farg'ona»ning 1914-yil 30-sonida Mulla Abdullabek degan kishining «Sart so'zi ma'lumdur» degan maqolasi bosiladi. Tabiiyki, Behbudiy undan qanoatlanmaydi, chunki unda mavzuga doir biror yangi gap aytilmagani holda, «ma'lum» deb da'vo qilingan edi. Shu sababli Beh-



budiy «Sart soʻzi maʼlum boʻlmadi» degan maqola yozib, «Sadoyi Fargʻona» ga yuboradi. Biroq gazeta maqolani bosmaydi. Shundan soʻng muallif maqolani oʻz jurnalida (1914-y., 39-son) berishga majbur boʻladi.

Jurnalda Behbudiyning «Sart soʻzi majhuldur» maqolasi ham qayta bosilgan. Maqola hajman salmoqli, jurnalning bir necha sonida davom etgan. Adib ushbu kalimaning xalqona etimologiyasidan tortib, Alisher Navoiy, Bobur, Muhammad Solih, Abulgʻozi Bahodirxonning asarlarigacha, N. Ostroumov kitobidan D. G. Logofetning «Buxoro xonligi»-yu L. M. Budagov lugʻatlarigacha, I. I. Geyer «Sayohatnoma»laridan A. Vamberi «Kundaliklari»gacha, jadidchilik harakatining Ahmad Zaki Validiydan Ismoilbek Gasprinskiygacha boʻlgan namoyandalarning bu sohada kuzatishlarini toʻplab, xulosalaydi.

Adibning barcha tarixiy-ilmiiy mavzudagi maqolalari singari bu ham oʻtmishga kamoli ehtirom va eʼtiqod bilan yozilgan. «Qabilasini(ng) ismini va yetti otasining otini bilmaydurgonlarni «qul» — «marquq» derlar»,— deb yozadi u (1914-yil, 23-son, 340-bet). Bu soʻz Ch. Aytmatov tufayli «manqurt» boʻlib, yangi umrini boshladi.

Behbudiy, millat oʻzini anglagandagina ijtimoiy-siyosiy masalalarga boshqalar bilan teng aralasha oladi, degan fikrda boʻldi. Shuning uchun ham tarixga alohida eʼtibor berdi.

«Hayot va mamot masalalari qadar muhim boʻlgan necha masalalar koʻzimiz oldigʻa turgan holda alarni ehmol etub, faqat sart soʻzi ila shugʻullanib, fursatlarni boʻshqa oʻtkarmoqlik yaxshi emas»,— deb yozadi u. «Lekin,— davom etadi,— yovrupolilar qoshida milliyat masalasi muhim va muqaddas tutilgan bir zamonda bizlar ham milliyat masalasidan sanalgan «sart» haqida goh-goh bahs etub, milliyatimizni xotirlab turganda, zarar koʻrmasmiz».

Umuman, Behbudiyning publitsist sifatidagi faoliyati adib isteʼdodining juda yorqin bir qirrasini tashkil etadi. U oʻz umri davomida yuzlab maqolalar yozdi. Oʻzining Millat va Vatan, jamiyat va axloq haqidagi fikrlarini koʻproq maqola va chiqishlarida ifoda etdi. Baʼzilar uning maqolalari adadini 200, boshqalar 500 deb belgilaydilar. Uning barcha yozganlari

hisoblab chiqilmagan, hatto, aniqlanmaganlari qancha. Mualliflar o'zlarining ismi shariflarini o'z gazeta-jurnallarida ko'p-da qo'yavermaganlar. Har qanday holda ham Behbudiy g'oyat sermahsul qalamkash edi. Muhimi shundaki, u XX asr boshidagi Turkistonning yirik siyosiy arbobi edi. Uning Millat va Vatan taqdiri haqidagi barcha qarashlari, avvalo, mana shu maqolalarida aks etgan edi. Bu jihatdan uning 1906-yil 10-oktabrda «Xurshid» gazetasida (6-son) bosilgan «Xayrul umuri avsatuhu» («Ishlarning yaxshisi o'rtachasidur») maqolasi xarakterli. Bu maqola uzoq yillar sho'ro tarix fani nuqtayi nazaridan baholanib Behbudiyning qoralash uchun nishon bo'lib keldi. Gap shundaki, Behbudiy o'sha 1906-yildayoq sotsialistik ta'limotni va uni Rossiyada amalga oshirishga bel bog'lagan Lenin partiyasini keskin rad etgan edi. Muallif maqolada Rusiyadagi mavjud siyosiy partiyalar haqida to'xtalganda quyidagilarni tilga oladi:

1. Mustabid firqasi (hukumat partiyasi).
2. Mashrutai avomiya (kadetlar partiyasi).
3. Ishtirokiyuni ommaviy (sotsial-demokratlar partiyasi).
4. Rusiya musulmonlari ittifoqi<sup>1</sup>.

Behbudiy «ishtirokiyuni ommaviy»ning «shariatga zid» tomonlariga diqqatni qaratadi va uni «xayoliy», hatto, «zararli» («bu toifaga qo'shilmog biz, musulmonlar uchun nihoyatda zaralikdir») hisoblaydi. Kadetlar partiyasini qo'llaydi. «Rusiya musulmonlar ittifoqi»ning ham, pozitsiyasi kadetlarga yaqin ekanligini ta'kidlaydi<sup>2</sup>. Tabiiyki, bu fikrda u yakka emasdi. Uning bu xususdagi fikrlari ustozlari Ismoilbek Gasprinskiyning «mazhabi ishtirokiyuni»ni qattiq tanqid qilgan

---

<sup>1</sup> «Rusiya musulmonlari ittifoqi» Rusiya musulmonlarining 1906-yil 13–23- yanvarda Peterburgdagi II syezdida tuzilganini yuqorida aytgan edik. Tarixchi A. A. Pyaskovskiyga ushbu tashkilot Behbudiy tomonidan partiya sifatida tilga olinishi va umuman, muallifning siyosiy qarashlari yoqmaydi, shekilli, uni «g'irt savodsiz»ga chiqarib qo'yadi (*qarang*: A. A. Pyaskovskiy. Революция 1905–1907 годов в Туркестане. М., 1958, 559-bet).

<sup>2</sup> Rusiya musulmonlarining 1905-y. Nijniy Novgorodda bo'lgan I syezdi kadetlar partiyasiga qo'shilish taklifi bilan chiqqan, II syezdda esa bu qaror bilan tasdiqlangan (*qarang*: yuqoridagi asar, 544-bet). 1917-yilda Behbudiy, Munavvarqori ko'plab Buxoro jadidlari qatorida kadetlar qarashidan ham qaytganlar (*qarang*: Заки Валиди Тугон. Воспоминания. Ufa, 1994, 186-bet).

«Ovrupo madaniyatiga bir nazari muvozana» risolasi va «Dor ur-rohat musulmonlari» hamda «Yuz yildan soʻng 2000-sana» romanlaridagi mulohazalarga tayanar edi. Behbudiy ham oʻz ustozlari kabi sotsializmni zoʻravonlik hisobladi, ijtimoiy tenglikni adolatsizlik deb bildi. Shaxs manfaatdorligida, millat ravnaqida taraqqiyotning buyuk omilini koʻrdi. Xuddi shu eʼtiqod uni Turkistonning mustaqilligi uchun kurashga yetakladi.

Behbudiy bir qator darsliklar yozdi. OʻzSE dagi «Behbudiy» maqolasi muallifi marhum S. Qosimov adibning 6 ta darsligini qayd etadi: «Muntaxabi jugʻrofiyai umumiy» («Qisqacha umumiy geografiya»), «Kitobat ul-atfol» («Bolalar maktublari»), «Muxtasari tarixi islom» («Islomning qisqacha tarixi»), «Madxali jugʻrofiyai umroniy» («Aholi geografiyasiga kirish»), «Muxtasar jugʻrofiyai Rusiy» («Rusiyaning qisqacha geografiyasi»<sup>1</sup>).

Shulardan bittasiga — «Muntaxabi jugʻrofiyai umumiy»-ga toʻxtaymiz. Asarning toʻla nomi «Kitobi muntaxabi jugʻrofiyai umumiy va namunai jugʻrofiya». 1905-yil 24-avgustda Sankt-Peterburg senzurasidan ruxsat olinib, 1906-yil Samarqandda G. I. Demurov matbaasida chop etilgan. 106 sahifadan tashkil topgan. Muallif bu «qadim fan»ga taalluqli «turkiy, arabiy, forsiy, rusiy lugʻatlarga tasnif boʻlgan oʻttuz qadar qadim va jadid kutub va risoiili jugʻrofiya, hayʼati riyoziy, tarixiy, tabiiy»lardan va yana juda koʻp turli-tuman maʼlumot — manbalardan foydalanib yozganini qayd qiladi (1-bet).

«Jugʻrofiya degan soʻz yunoniy, lugʻati arabiyga taʼrifi ard maʼnosigʻa, yaʼni yer va tufroqni bayon qilaturgʻon ilmni aytilur», — izoh beradi muallif. Soʻng Behbudiy uning turlariga toʻxtaydi. «Chunonchi, — yozadi u, — Yerni shakldan, osmon ila Yer arosidagi xosiyati va osmondagi nimsalar ila nisbati va harakatidan bayon qilaturgʻon ilmni «jugʻrofiyai riyoziy», Yerni xosiyati, tufroq past-u ba-

---

<sup>1</sup> *Qarang.* OʻzSE, 2-jild, 202–204-betlar. S. Qosimov «Behbudiy va jadidchilik» (OʻzAS, 1990, 3–4-sonlar) maqolasida qomusdagi mazkur maqolaning qanday kurashlar bilan dunyo koʻrganligini himoya qilar ekan, «qayta ishlash»lar natijasida «afandining qushi»ga aylantirib nashr etilganini aytadi (ushbu gazeta, 1990, 3-son).

landligi, har xil giyoh-u konlari, tog'-daryo, ko'l, mijoz-u havosidin bahs qilaturg'on ilmni «jug'rofiyai tabiiy» ataladur».

Muallif xulosa qiladi: «Yer ustig'a bo'lgan voqealar to'g'risinda har bir nav' ishni ushbu ilmg'a bayon qilib, jug'rofiya kalimasini oxiriga o'shal ishga taalluq ilm va fanni oti qo'shiladur. Chunonchi, «jug'rofiyai tarixiy» va boshqalaridek. Xulosa, bu zamong'a jug'rofiya ilmi dunyoni va andagi xaloyiq, hayvonot, umronot (obodlik) va harnaki dunyog'a bordur, bildiraturg'on keraklik bir ilmi jahonna-modur».

Kitobning dastlabki sahifalarida jug'rofiyaning fan sifatida maydonga kelish tarixi, qadim Turkiston olimlarining bu sohadagi xizmatlari yoritiladi, asarlari keltiriladi. Muallif Shamsiddinbek Somiyning (1850–1904) 6 jildlik mashhur «Qomus ul-a'lom» va Ismoilbek Gasprinskiyning «Turkiston ulamosi» kitoblaridagi hujjat va dalillarga suyanib fikr yuritgan.

Boblarning biri «Jug'rofiyani o'qumoq musulmonlarg'a lozimdur» deb atalgan. Unda Yer haqidagi xurofiy tushunchalar tanqid qilingan. Chunonchi:

«Ammo hozirgi jug'rofiya ilmi, tajriba va ro'yati boshlarindan bilinadurki, Yer kurraviy — yumaloq, ostig'a ho'kuz, balig' yo'q, atrofiga devori yo'q va Yer aylanadur, havog'a muallaq turadur. Bizni nazarimizg'a sokin va ammo haqiqatda aylanadur» (14-bet).

«Eski va yangi donishmandlar» faslida qadim Batlimus (Ptolomey) dan qolgan geosentrizm va unga qarama-qarshi geliosentrizm haqida gap ketadi. Ilmi hay'atdagi «sab'ayi sayyor», «to'qquz osmon» iboralari izohlanadi.

«Ahli hay'ati jadida, ya'ni yangi hukamolar aytadurki, Oftob dunyoni o'rtasig'a xalq bo'lubdurki, Atoruddan boshlab qadimda besh sayyora va yangi topilgan ikki sayyora va ko'z ila ko'rilmay, yangidan durbin ila topilgan uch yuzga yaqin sayyoralar va bularni ichig'a biz ustida turg'on Yerimiz Oftobni atrofig'a har biri o'zig'a tegishli doira aylanasig'a aylanib yuradurlar. Yerimiz Oftobg'a nisbatan uchlanchi sayyora — yurguvchi yulduzdur! Yuguruvchi yulduzlarni hammasi benur va yorug'likni Oftobdan oladur» (22-bet), — o'qiymiz kitobda.

Muallif, shu tariqa, juda sodda qilib osmon jismlarining

joylashish va harakatini tushuntirib beradi. Bularning ayrimlari Qur'on va Hadis xabariga rost kelmasligini ham aytadi. Shunga qaramasdan «Yangi hukamolar osmondagi yulduzlarni ahvolidin eskilardin ko'ra yaxshiroq ogoh bo'lubturlar»,— deb yozadi. Chunonchi, Oy, Mirrix (Mars) haqidagi zamondoshlari ma'lumotlarini jamlab va ularning qadim hukamoga nasib etmagan aniq va puxta zamonaviy asboblardan yordamida to'planganini ta'kidlab, «...hukm qiladurlarki, albatta, Mirrixda odam bor va ilmi bizlardan ziyodadur!» degan fikrni ilgari suradi.

«Bizni Yerimizdek boshqa yulduzlarda odam bo'lsa, bizni Yerimizni ham yulduzdek yorug' ko'rmoqlari tayindir»,— o'qiydiz yana bir o'rinda, «Olami shamsiya jadvali»da Atorud, Zuhra, Yer, Oy, Mirrix, Mushtariy, Zuhal, Uran, Neptun sayyoralarining Quyoshga nisbatan joylashgan o'rni, masofasi, harakati va hokazo haqida muhim ma'lumotlar berilgan. «Yerni shakllari», «Hukamo qavlicha, Yerni(ng) yumaloqligi alomatlarini fasllarida muallifning o'z kuzatishlari ko'proq seziladi. Ushbu fasllarga Peterburg, Toshkent vaqti dunyoning boshqa shaharlariga qiyosan berilgan 2 jadval ilova qilingan.

Yerning tuzilishi, tog'lar, daryolar, ko'llar, quruqlik, Oy tutilishi, quyruqlik yulduzlar, havo, atmosfera, kuntun, yoz, qish, tuproq, suv holatlari haqidagi fasllar ham ancha maroqli yozilgan. Kitobning ma'lum qismi dunyo kishilarining maishiy hayotlariga — ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy masalalarga bag'ishlangan.

«Martabai insoniyatg'a noil o'lmakg'a, har bir insonni jamiyati insoniyatg'a va dini ilohiyag'a ehtiyoji bor,— yozadi muallif. — Ushbu sababdandurki, insonlar komil insonlarni qo'l ostig'a jamiyati bashariyani barpo qiladurlar. Ollo taolo anbiyo vositasi ila qonuni shariat, xavf-u qalb-u rijo yuboribdurki, ango doxil va solik bo'lmoq lozim va vojibdur. Dinsiz dunyoda yashamoq insoniyat va madaniyatdan emas, hayvoniylikdur. Dinsiz mutamaddun (madaniyatli) bo'lmoq muhol (qiyin)dur. Jamiyati bashariyani barqaror turmoqig'a din, shar' (shariat), nizom va bularni boshqaruvchilarg'a birinchi sababdur. Bas, jamiyat ilm, insof va hunar sabablari ila uch xil bo'linadurki, vahshoniyat, badaviyat, madaniyat

atalgan. Va bularni(ng) har birini yana bir necha sinfg'a taqsim qilmoq odamlarni ahvolig'a qarab mumkin bo'ladur».

Behbudiy ularni shunday farqlaydi:

«Vahshoniyat martabasi faqat odamni holi hayvoniyatg'a istiqomatidurki, na aql-komil va na ilm-ma'rifat, din-diyonat, insof-diyonat — hech-hech bir insong'a yoqimlik holati, harakati, fe'li bo'lmaydur. Bu nav' odamlardan Afriqo cho'llarig'a, Ameriqo tog'larig'a, Avstraliya jaziralarig'a bordur. Ilm, hunar, din, diyonatdin butun bebahra, umrlari hayvoniyatg'a o'tib ketadur. Mahali istiqomatlari boshqa hayvonotdek daraxtlar ustida, ichida yoinki in-uya chuqurlarda o't-xashaklar ila panoh bo'lgan kazolardadur. Yemoqlari xom o't-giyoh, murdorlar. Xulosa, har na topilsa, udur. Sayd-u shikor, yana topilsa, odam yemoq ila mashg'uldurlar. Shakllari inson va barcha harakatdagi it-ko'ppakdan badtardurki, insonlarni bidoyat holi yoinki ilm-u adabsizlik martabasidur.

Hozirgi zamonamizda ham bu sinf odamlar mavjud va adadlari ko'pdur.

Badaviyat odamlari. Ikkinchi xili badaviylardurki, vahshoniyatdan taraqqiy yoinki madaniyatdan tanazzul qilib, bir holg'a kelg'on vahshiy ila madaniy arosida vositadurki, badaviy va sahroyi mahz ataladurlar. Bularni makonlari sahro va cho'llarda, tog'-u toshlar arosida chodir ichida yo tufroq to'la ichlarinda va aksar ko'chib yurguvchi ilm-u hunardin bebahra xalqdur. Bu toifani umrlari mol boqmoq, yemoq, yotmoq ila sarf bo'lub, jamiyati bashariyag'a keragicha yordamlari yetmaydur. Chunki ilmlari kamdur. «Ko'chmanchi», «badaviy», «sahroyi», «bodiyanishin» ataladurlarki, har birining arosida yana farq ko'pdur. Madaniylarg'a yoqmayturg'on fe'llar bularda kamilmlik va tarbiyatsizliklaridan ko'broq voqe' bo'ladur. Alarni ichida madaniylarni(ng) istiqomati qariyb mumkin yo'qdur. Ushbular «el», «urug'», «qabila», «ashirat»larg'a taqsim bo'lub, bek, biy, shayx, rais, sardorlarni qo'l ostida cho'llarda, shaharlardan uzoq joylarda yuradurlar. Alarni(ng) ba'zisi o'z ishlarini, rasmlarini ma'qul va odamiyatga munosib bilib, shahariy va madaniylarni uyat va hatto, nafrat qiladur. Ushbularni tamaddun doirasig'a kirgizmoq mavrudu zamon ila bo'ladur.

Madaniyat. Shaharlarda va katta jamiyatlik, ilm-u hunarlik, mahallalarda turatgʻon, ilm, fazl va hunarlik xalqni va yo alar ila birga turguvchi insonlarni «madaniy» ataladurki, boshqa ism ila «shahariy» ataladurlar. Bularni aksar ishlari tartib va tajriba, ilm va fan va qoida boʻyicha boʻladur. Maktab, madrasa, masjid, mahkama, ruhoniylar, ibodatxona, amir, hukmron, podshohlari bordur. Bovujud shul madaniylar ichida vahshiy yo badaviyga oʻxshash insonlar, feʼl-u odatlar koʻp-dur. Hanuz yer yuzida bir shahar yoʻqki, barcha odamlari insoni komil hisoblansin, bu uch xilni har biri yana nim madaniy, nim vahshiy degan qismlargʻa boʻlinadurlar».

«Yer yuzidagi badaviy va madaniy xalqlarni hukmdor va sardorlari boʻladurki, — deb boshlanadi «Hukumat va hukmronlar» fasli, — bek, amir, shoh va boshqa ism-u lugʻatlar ila ataladurlar. Har bir tilda hukmdorlarni lugʻati boshqadur. Ovrupo xalqi imperatoʻr, qirol, doʻqa, prins, prezident, knaz, sar (sar) va boshqa lugʻatlar ila atalgan har bir hukmdorni martaba va hukumati boshqa navʻdur».

Behbudiy zamonasidagi mavjud idora usullari haqida fikr yuritib, ularni uchga boʻladi.

1. Idorai mustaqilla (idorai mutlaqa — monarxiya).
2. Idorai mashruta (konstitusiyali parlamentli hokimiyat).
3. Idorai jumhuriyat (Respublika).

Behbudiy bu idora usullarini shunday izohlagan:

1. «Ani ustidan qaraguvchi podshoh sohibi ixtiyor va har bir royi va amri zakun va nizom boʻladur. Amri, hukmi royi nofiz (qonun)dur. Qoʻl ostidagi barcha masjidlar, maslahatxonalarni ittifoqi, xohishi, hukmi oʻshal imperatoʻrni mustahkam qilish imzosigʻa mavkufdur. Shunday imperatoʻrlarni yangidan mansub boʻlishi har bir davlat va hukumatda muqarrariy qonun va odatlar boʻyicha meros yoinki valiahdlik qoidalari va oʻshal hukumatni qoʻygan «tartib va tadbirga muvofiq boʻladur».

2. Idorai mashruta — «...bu hukumatga tobeʻ odamlar aksar ahli ilm va hunardurlar. El-u urugʻlari ilm, hunar va dunyo ishlarigʻa taraqqiy qilgandurki, shul tariqa fuqarolar oʻz arolaridan insonlik, ilm va dunyodan xabarlik odamlarni oʻzlarigʻa katta va boshqargʻuvchi vakil saylaydurlar va shul tariqa saylangan vakillarni podshoh jamlab, muqarrariy mah-



kamalarga mamlakatdorlik ishlarig'a aralashib, mashvarat ila tuzatilmoq va muhofazat qilinmoqig'a ko'z bo'lmoqlari uchun qaror beradurki, alarni(ng) majlis va mahkamalarini «Millat majlisi», «maslahatxona», «parlamento'», «Go'sudarski Dum», «Majlisi sinodiy» (senat majlisi), «El majlisi» degan ismlar ila yod qilinadur. Yana ba'zi maslahatxonalar borki, maslahatboshilarni, hukmdorlarni (podshohning) o'zi tayin qiladur.

Ushbu millat majlisini(ng) chilon (a'zo)lari mashvarat ila mamlakatdorlik ishlarig'a aralashib, nizom va qonun tuzatib, hukmdor va podshohlarni qilaturgon ishlarig'a aralashadur. Podshoh bu majlis amrig'a tobe'dur. Majlis ma'buson (deputatlar) ni(ng) royi bo'lmaguncha katta ishlarni boshlanmoqig'a amr va hukm qilolmaydur. Xulosa, imperato'r sohib ixtiyor bo'lmay, durustroq ishlarga qonun va nizomlarni chiqarilmoqig'a butun el majlisig'a tobe' bo'lub turadur.

3. «Idorai jumhuriyat... aksar fuqarosi ahli ilm bo'lub, bu ahli donish aholini saylagan vakillari, ya'ni hukumatg'a yetti yilg'acha o'z mamlakat va hukumatlarini boshqarmog'i uchun o'z arolaridan bir nafar donishmand odamni boshliq saylaydurlarki, «raisi jumhuriyat», «sadrnishini millat», «prezident» ataladur. Bu rais go'yo bir oriziy (vaqtincha), omonat podshohdur. Har bir hukm va amr-u tartibni, mamlakat va ko'yga taalluq ishni, Millat majlisini(ng) qilib bergan dasturulamal, ya'ni qonun va nizom nomalarig'a muvofiq qilib, butun elg'a tobe' bir kishidur. Har bir ishg'a Millat majlisi hukmig'a tobe', alarni(ng) hukm-u talablarini o'ring'a keltiruvchidur.

Bu ikki toifani(ng) podshohi ba'zi mamlakatda «elg'a tobe' bo'lub turarman» deb qasam ichib, ba'd (keyin) mansabg'a chiqadur. Katta vazirlar va mamlakatdorlik mutasaddilarini taftish qilmoqg'a, tergovg'a bermoqg'a, hatto, o'shal soatda birdan bekor qildurmoqg'a ba'zi Millat majlislarini(ng) ixtiyori bordur. Hozirgi Ovrupo hukumatlarini(ng) raftori, odati shu uch usulni(ng) biriga doxil, tobe' va muvofiqdur.

Mustaqil hukmdorlarni(ng) qo'l ostida ham majlislar va mashvarat mahkamalari bordur. Ilimsiz hukumatlardek necha milyo'n xalqni(ng) maishati, raftori, ixtiyori bir nafar odam

(podsho) ni(ng) ixtiyor yo royi va hukmig'a yo'qdur. Bir nafarni(ng) aqli, fikri ila o'n nafar arosida naqadar farq bordur? Ushbu sabablardandurki, ozgina Ovrupo xalqi butun kurrayi arzga hokim va mutasarrif (ega) durlar. Sabab: hukumat, ilm va daroyat, qonun, musovot (tenglik), mashvarat (maslahat) va tadbirdur».

Kitobda muhim o'rinlardan birini «Din va odat» fasli tashkil qiladi. «Bani odamni hama firqa va toifasi ushbu olam barcha odam va hayvonlarning xoliqi borlig'ig'a iqror. Ammo sone'i olam-u ilm, xudoshunoslik, ya'ni e'tiqod to'g'risinda har toifa va har millat va mazhab ahlini e'tiqodi boshqadur. Ilm-u hidoyat topgan firqalar Olloh taoloni bemisl va besharik va bir biladurki, shunday firqani «muvahhid» (bir xudolik) atabdurlar. Olloh taoloni bir bilmay, adad ta'yin qilaturg'onlarni «mushrik» (ko'p xudolik) yoinki ma'jus ataladur. Muvahhid va mushrik firqalarni(ng) har biri yana bir necha din va har bir din bir necha mazhabga bo'lunub ketgandur. Hatto, har bir din va mazhablarg'a bir necha odat, rasmlar qo'shilub, agarchi haqiqatda muxolif mazhablari bo'lsa ham odat bo'lgani uchun ayni mazhab sanalib amal qilinadur».

«Irqi bashar — odamlarni(ng) jinsi» bobida oq, qora, qizil, sariq tanlilar, ularning o'zaro farqlari, ijtimoiy-maishiy turmushlari, hozirgi mavqe'-martabalari haqida gap ketadi.

Shuningdek, kitobda o'lchov-miqyos tushunchalari, metrning kelib chiqishi, arshin, sarjin, vershok, dyuym, funt, desyatinalarning o'zaro farqlari, mamlakatlarning pul birliklari ham keng yoritilgan.

«Yerni harakatiga ixtilofi ulamo va ahli din» faslida dunyoning qurilishi haqidagi geliosentrik tuzilma va uning Yevropa ilmidagi vakillari Nikolay Kopernik, Kepler, Galileylar faoliyati haqida gap ketadi. Cherkov va ular o'rtasidagi kurash hikoya qilinadi. Bunday hol ahli islom orasida ham bo'lganligiga to'xtab, zamonida ikki yuzdan ortiq kitob yozib «kofir» deb e'lon qilingan, o'lganidan keyin mozori johil va bexiradlar tomonidan toptalgan Muhyiddin Arabiy taqdiri misol keltiriladi.

Muallif ko'hna Sharqda ham ilm g'oyat qiyinchilik bilan o'ziga yo'l ochganini qayd qiladi va shayx ur-ra'is Abu Ali

ibn Sinoning mutaassiblar tomonidan «kofir» deb e'lon qilingani voqeasiga to'xtaydi va uning:

Kufri chu man gazof va oson nabuvad,  
Mahkamtar az imoni man, imon nabuvad.  
Dar dahr chu man yake on ham kofir,  
Pas, dar hama dahr yak musulmon nabuvad

(Meni kofirlikda ayblash oson bo'lmas. Chunki dunyoda mening imonimdan mahkamroq imon yo'q va u ham kofir bo'ladigan bo'lsa, bu dunyoda musulmonning o'zi yo'q ekan), — degan mashhur ruboiysini keltiradi. Hatto, bunday misollarni bugun ham keltirish mumkinligini aytib, ayrim zamondoshlarining Misr muftiysi Shayx Muhammad Abdulloh va «Mir'ot» jurnalining muharriri Abdurashid bin Ibrohimlarni badnom qilishga bo'lgan urinishlari haqida yozadi.

Kitobda «Amriqoni(ng) topilishi» degan fasl bor. Unda Kolumb safari va yangi qit'aning kashf etilishi voqealari bayon etilgan.

So'nggi fasl «Tafsil va tanbih»da dunyoning qurilishi, Yer, Osmon, yulduzlar haqidagi ikki qarama-qarshi fikr — eski va yangi nuqtayi nazar maxsus mavzu qilib olingan. Muallif «yetti qavat yer», «yetti qavat osmon» tushunchalariga to'xtaydi, ayniqsa, Yerning ho'kiz shoxi ustida turishi haqidagi xurofotni tanqid qiladi. Strabon, Batlimusdan keyingi davr ulamolarigacha bo'lgan olimlarning qarashlariga to'xtaydi. Turkistonliklarning falakiyot haqidagi tasavvuri o'rta asrchilik doirasida qolganini aytadi. Ayni paytda jug'rofiya kitoblarida bir qator sahv-u xatolar borligini, bu haqda kitob yozmoqchi ekanligini xabar qiladi.

Kitobda bir qator ilovalar bor. Masalan, hijratdan 4500 yil oldingi Misr voqealaridan 1324–1906-yillardagi Rusiya Davlat Dumasi ochilishigacha bo'lgan jahon tarixidagi hodisalar sanasi «Ahvoli tarixiyadan namuna» sarlavhasi bilan berilgan. Shuningdek, «Yevropa», «Oziyo», «Afriqo» «Amriqoi shimoliya», «Amriqoyi janubiy», «Avstraliya», «Mamlakati Rusiya»ning alohida-alohida xaritalari, kurrai arz yarim sharlari maxsus sahifalarda keltirilgan. Ko'rfaz, bo'g'oz, daryo va ko'llarning jug'rofiy shakllari, tabiat hodisalarini, osmon yoritqichlari harakatini tushuntiruvchi turli-tuman suratlar, irqlarni farqlab ko'rsatuvchi

rasmlar ham bor. Tabiiyki, bu xil ko'rgazmalilik kitobning ilmiy-ma'rifiy ahamiyatini oshirgan. Mazkur jug'rofiya kitobini hozir ham nashr etish foydalidir.

1906-yilda «Turkiston viloyatining gazetisi» sahifalarida Behbudiyning jug'rofiya kitoblari munosabati bilan qator taqrizlar chiqadi. Uni maqtaydilar, rad etadilar. Gazeta xodimi Mulla Olim muallif kitoblarining tili og'irligidan shikoyat qiladi. Behbudiy izoh beradi<sup>1</sup>. Ish bular bilan cheklanmaydi, sekin-asta uni musulmonlar manfaatiga xiyonat qilishda, o'risparastlikda ayblay boshlaydilar. Va bu ancha davom etadi. Gap rasmiy doiralarga borib yetadi. 1914-yil 3-yanvarda Mirzo Ulug'bek madrasasi jomesida bir necha ming kishi huzurida «usuli jadidachilar», «ruscha o'qimoqqa tashviq qilaturg'onlar» «kofir», «har kim bolasini usuli jadida maktabiga bersa, o'zi kofir, xotini taloq»<sup>2</sup> deb e'lon qilinadi. Yig'inda Behbudiyning bir qator maslakdoshlari (Siddiqiy-Ajziy, Shakuriy) tilga olingan edilar. Behbudiyning o'g'li Mas'udxo'ja gimnaziya-da o'qir edi. Behbudiy bir munosabat bilan yozadi: «Samarqandni katta ulamo va qozilaridan muhtaram bir kishi katta majlislarga va hukumatga so'ylaganlari uchun tubandagi so'zlarni yuz birinchi daf'a yozarmiz: «Oyna» muharririning maslaki o'n sanadan ziyoda bir muddatdan beri jarida va risolalarga yozgan maqolalari ilan hukumatga va butun xaloyiqga ma'lumdir. Qozi hazratlari «Oyna» muharririga ikki nimarsani nisbat berurlarki, kayfiyati yuqorig'a yozildi. Ammo ikkisida vahmiy so'zlardir. Biz xalqni rus va nasoro qilmoqchi emas(miz) va dini mubini islomni xarob qildurmoqchi emas(miz), balki muhtaram ahli dinimizni moddatan taraqqiy etdurmoqchi va dini sharifimizga mahkam turib, Rusiyada yashamoqchimiz. Rusiyaning grajdani, ilm va huquqlik chin tabaasi bo'lib va ruslardan qochmay, balki (qo'l) ni qo'lg'a berib, Rusiya vatanig'a bolfe'l sherik bo'lub, taraqqiy qilmoq va Rusiya davlatining mansablariga mustahiq qilaturg'on Rusiyaning ilm-u fani zamoniy o'qutaturg'on maktablariga ruju' qilmoqga muhtaram hamvatanlarimizni da'vat va tashviq etguvchi bir kishimiz»<sup>3</sup>...

<sup>1</sup> Qarang. TVG. 1906-yil, 15 mart, 12-son.

<sup>2</sup> «Oyna» j., 1914-yil, 12-son, 295-bet.

<sup>3</sup> «Oyna» j., 1914-yil, 44-son, 157-bet.

Millat ozod bo'lib, o'zining mustaqil davlatini o'rnatmaguncha, ijtimoiy adolatni tiklab bo'lmaydi. Bu Behbudiy kelgan birinchi xulosalardan edi. Uning «Vaqt» gazetasida chop etilgan maqolalaridan birida shunday mulohazalarni uchratamiz:

«Bir madrasaga 20 talaba gapi ila bir noahl mudarris saylanur. Bir volostda 40 nafar el boshlarindan 21 nafarni sadosi ila bir johil qozi saylanur va Rusiya ma'murlarinda ma'qul o'lur. Bir ming faqirning raddu mudoxalasi mo'tabar o'lmaz va so'zlari eshitilmas. Ishta bizim Turkiston shaharlarining bu kungi qozi, mufti va mudarris ham imom va o'zga ruhoniylarining yuzdan saksoni, sahra va qariyalarda o'lanlarining o'ndan to'qqizi sho'yla nomunosib kishilardan iboratdir»<sup>1</sup>. Shu gazetaning o'sha yili 4-noyabrda bosilgan «Duma va Turkiston musulmonlari» maqolasida esa chor mustamlakachilik siyosati, xususan, o'lkadan yetmish ming rusdan olti deputat bo'lgani holda yetti million musulmonga besh o'rin ajratilgani oshkora tanqid qilinadi. Shularga qaramasdan, Behbudiy, istiqlol haqida fikr yuritar ekan, har qanday zo'raonlikni rad etadi. Uningcha, zo'raonlik g'ayriaxloqiy, binobarin, g'ayriinsoniydir. Umuman olganda esa, mustaqillik uchun kurash olib borgan bobolarimiz, jumladan, jadidlar kelajak haqida fikr yuritar ekanlar, istiqlolga erishish borasida bir-birlaridan farq qiluvchi uch yo'ldan bordilar:

1. Rusiyaga tobelikdan zo'rlik yo'li bilan qutulish, kuch bilan istiqlol olish (Dukchi eshon qo'zg'oloni, 1916-yil voqealari, «bosmachilik»).

2. Murosa yo'li. Ruslar yordamida ma'rifatga erishish. Ma'rifat masalasida haq-huquq olish, milliy xususiyatlarini tiklash (Ismoilbey Gasprali, Mahmudxo'ja Behbudiy).

3. Hamkorlik yo'li. Chor ma'murlari, so'ng esa Sho'ro hukumati bilan birga ularning programmalarida qatnashish va imkon bo'lishi bilan mustaqillikni qo'lga olish. Buning uchun ma'lum tayyorgarlik ko'rib borish (Munavvarqori, Hamza, Avloniy).

---

<sup>1</sup> «Vaqt» gazetasi, 1907-yil, 3-fevral.

Behbudiy hamisha xalq bilan birga bo'ldi.

Vatan taqdiri kun tartibiga qo'yilgan 1917-yilning 16–23-aprelida Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston musulmonlarining 150 vakili ishtirok etgan o'lka qurultoyida hayajonli nutq so'zladı. Millatni o'zaro ixtiloflardan voz kechishga, buyuk maqsad yo'lida birlashishga, ittifoq bo'lishga chaqirdi.

Xuddi shu ixtilofimiz sababli «mustamlakat qoidasi ila bizni idora eturlar» deb ochiq aytdi.

U haq edi. Mustamlakachilar «50 yil ilm-ma'rifatdan chetda saqlab kelgan»lari (Kuropatkin) Turkistonni osonlik bilan qo'ldan chiqarmas edilar. Fitna va ig'vo tinimsiz davom etar edi. Shundaylardan biri 1917-yilning bahorida Buxoroda yuz bergan edi. Amir fevral o'zgarishlarini hisobga olib, rus elchixonasining maslahati bilan islohot e'lon qiladigan bo'ladi. Va bu farmonni ushbu elchixonaning boshlig'i janob Miller tayyorlaydi. Har xil anglashilmovchiliklarning oldini olish maqsadida sobiq general-gubernator, endilikda Rusiya Muvaqqat hukumatining Turkiston komissari Kuropatkin topshirig'iga ko'ra Samarqand Ijroiya qo'mitasi Buxoroga bir necha kishilik hay'at yubordilar. Ular orasida Behbudiy ham bor edi. 7-aprel islohot e'loni oldindan mo'ljallanganidek tantanaga, tantana esa fojiaga aylanadi. Amir va yoshlar, mul-lalar va jadidlar o'rtasida o'tib bo'lmas choh paydo bo'ladi. Miller buning aybini Behbudiyga qo'yadi. Faqat Miller emas, Toshkentda 9-aprelda boshlangan Turkiston Ishchi va soldat deputatlari sovetlarining birinchi o'lka syezdida ayrim rus deputatlari Buxoro fojiasining sababini — Samarqanddan «o'z ixtiyorlari ilan» borgan deputatlarga to'nkaydilar. Millatni ich-ichidan qayrash va nizo chiqarish izchil davom etadi. Behbudiy mazkur syezdda minbarga chiqib bor voqeani tushuntirib bergan va bu haqda «Buxoro voqealari va daf'i tuhmat» («Hurriyat» gazetasi, 1917-yil, 1-may) degan max-sus maqola yozgan edi<sup>1</sup>.

Shu yil noyabrning 26 sida Qo'qonda O'lka musulmon-

---

<sup>1</sup> Bu haqda batafsilroq ma'lumot uchun qarang: Ibrohim G'afur. «Amir nega Behbudiyga qo'l bermadi?», «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gaze-tasi, 1994-yil, 6-may, 16–17-sonlar.

larining IV favqulodda qurultoyi ish boshladi. 27-noyabrga o'tar kechasi «Turkiston muxtoriyati» e'lon qilindi. Bu mustamlakadan mustaqillik tomon qo'yilgan jiddiy va jasoratli qadam edi. Uning ma'naviy otasi, shubhasiz, Behbudiy edi. «27-noyabrda Qo'qonda Turkiston muxtoriyati umumiy musulmon syezdida e'lon qilindi. Muborak va xayrli bo'lsun! Kamina ham majlisda bo'lushtan iftixor etaman. Yashasun Turkiston muxtoriyati!»<sup>1</sup> — deb yozgan edi Behbudiy. Fitrat muxtoriyat e'lon qilingan tunni «Milliy laylatul qadrimiz» deb atadi. Shoirlar she'rlar bag'ishladilar. Bolshevizm esa tubjoy millatning «qadim» va «jadid»ga bo'linganidan ustamonlik bilan foydalanib mahalliy xalq orasiga ham sekin-asta kirib bordi. Ayni paytda millatlar orasiga qutqu solib ajratish va jamiyatni sinfiy asosga qurish harakati kuchaydi.

«Muhtaram Samarqandiylarg'a xolisona arz» deb nomlangan maqolalaridan birida Behbudiy yoshlarni «og'ir, xushso'z»<sup>2</sup> bo'lishga undagan edi. Muxtoriyat ishlarining esa «sulh ila hal qilinur»iga, «muhoraba» va muqotala ehtimoli yo'q»ligiga astoydil ishonadi<sup>3</sup>. Bu qadim otalar yurtini unda yashab turgan barcha qon-qarindosh millatlarning birligi, hamkorligi bilangina saqlab qolish mumkinligini teran anglaydi. Butun vujudi bilan Turkistonni birlikka chorlaydi.

«Bovurlar! — deb yozadi qozoq birodarlariga ochiq xatida, — bilingki, hozirda Turkistondagi barcha xalqlar uchun muxtoriyat e'lon qilindi va siz bilingki, haq olinur, lekin berilmas. Inchunun, muxtoriyatda olinur, lekin berilmas. Ya'ni muxtoriyatni Turkiston bolalarining o'zi birlashib g'ayrat ila olurlar. Albatta, boshqalar tarafidan berilmas. Boshqalarning qo'lidan kelsa, bermaslar. Biz bo'shlik qilsak va Turkistondagi xalqlar birlashib, muxtoriyat yo'liga sa'y qilmasak, albatta, hozirgi qog'oz ustidagi muxtoriyatimizni ham yo'q qilurlar. Bul, albatta, shundaydur va bul so'zga hech kim ixtilof qilolmaydur... Endi ishlar shu holda ekan, biz hammamiz, ya'ni qirg'iz, qozoq, o'zbek, turkman, arab, fors, xullas,

---

<sup>1</sup> «Hurriyat» gazetasi, 1917-yil 19-noyabr.

<sup>2</sup> «Hurriyat» gazetasi, 1917-yil 13-may.

<sup>3</sup> Shu gazeta, 1917-yil 19-dekabr.

Turkistondagi, Qozog‘istondagi va Turkmanistondagi barcha musulmonlar va ham mundagi yahudiy va xristianlar birlashib, ittifoq ila shu muxtoriyatning amalg‘a kelishiga sa‘y va ehtimom etmog‘imiz lozimdur...

Chirog‘larim! Boshqa xalqlar, masalan, serblar, italiyanlar, armanlar, slavyanlar, polyaklar va boshqalar, hatto, dunyoning u bir uchidagi qarindoshlari ila birlashur ekanlar, boshqa katta va quvvatli davlatlarga tobe‘ bo‘lub, yutilub, hatto, tilini yo‘qotgan o‘z jinsdoshlarini ajratib olib, birlashmoqg‘a jon va kuchlarini sarf etar ekanlar, biz o‘z ichimizdagi qarindoshlarimizdan ayrilsak, uyatdur, ahmoqlikdir. Turk tomurig‘a bolta urmoqlikdir»<sup>1</sup>.

Darhaqiqat, muxtoriyat boy berildi. Uni otalarimiz saqlab qololmadilar. U Sho‘rolar tomonidan xoinona bostirildi. 19–20-fevral kunlari shahar to‘pga tutildi. 10 mingta turkistonlik o‘ldirildi. 180 ta qishloqqa o‘t qo‘yildi.

Behbudiy iztirob bilan mayning boshida Samarqandga qaytadi. U yerda tura olmay, Toshkentga keladi. Turkiston rus sovet hukumati rahbarlari bilan muzokara olib borishga urinadi. Tabiiyki, muzokaralar natija bermaydi.

Mutafakkir adib Turkiston fojiasining navbatdagi silsilasi boshlanganligini butun vujudi bilan his etadi. Behbudiy o‘limi bilan bog‘liq ayrim hujjatlar va bu fojia munosabati bilan o‘rtaga qalqib chiqqan ayrim materiallarning so‘nggi yillarda e‘lon qilinishi uning 1918–1919-yillardagi iztiroblarga to‘la hayotini bir qadar tasavvur qilishga imkon beradi. Chunonchi, Behbudiy «Mehnatkashlar tovushi» gazetasining 1918-yil 27- avgust sonida shunday yozadi:

«Kaminani Samarqand Maorif komissarligiga Samarqand musulmon sho‘rosi saylab edi. Bayoni uzr etdim. Qabul qilinmadi. Bir necha vaqt qo‘limdan kelganicha ishladim. Maktablar to‘g‘risinda ba‘zi loyihalar yozib topshurdim. Oxiri bezgak va oyoq og‘rushi va ham yilning qimmatchiligi vajhidan ro‘zg‘or va dehqonchilik ishlarim ko‘bligi va boshqa bir necha sabablardan komissarlikdan iste‘fo berdim. Yana qabul qilinmadi. Muning ustinda Toshkanddin telegraf bilan muhtaram Musulmon maorif qurultoyi Butunturkiston

<sup>1</sup> «Hurriyat» gazetasi, 1918-yil 26-yanvar.



Maorif komissarligini qabul etishimg'a taklif etibdurlarki, manga etgan e'timod va chin zanlarig'a qat-qat tashakkur va qurultoyg'a arzi ehtirom etgandim, so'ngra kasal va noxushlig'imni uzr maqominda ojizona bayon etib tiligrom berdim. Yana ushbuning ila bayoni uzr va tarzi tashakkur etib, ma'ruzatimizning qabul etilmagini rijo etaman». «Mehnat-kashlar tovushi»ning Behbudiyga bag'ishlangan 1920-yil 8-aprel sonidagi materiallar, jumladan, uning hayoti va merosini o'rganish uchun tuzilgan 7 kishilik komissiyaning «Mahmudxo'ja Behbudiy hazratlarining qisqacha tarjimayi holi» deb nomlangan xulosasi muallifning yuqoridagi «arzi e'tirozi»ni tushunishga yordam beradi:

«1918-yil «Ittifoq» jamiyati<sup>1</sup> Mahmudxo'jani Musulmon maorif sho'basiga mudir tayin qildi<sup>2</sup>. Lekin u vaqtdagi tor, millatchi ruslar bul ishga istehzo bilan javob berdilar. Mahmudxo'jani yolg'iz komissiya a'zosi, deb qabul qildilar, lekin maorif kollegiyasida, musulmon maorifi uchun voqe' bo'ladurgon har bir masalani Mahmudxo'jaga anglatmasdan o'zlaricha hal qila berdilar. Nochor Mahmudxo'ja iste'fo berdi.

Yana: Osipov voqeasidan so'ngra Samarqandda ko'b talon-torojlar boshlandi. Nohaq hibslar ko'paydi. Katta ta'minotlarga xalq tahmil qila olmasdan yer va yurtlarini tashlab qochdilar. Maorif ishi nihoyat darajada tazyiqqa tushdi. Xalqning hissiyoti diniyasi tahqir qilindi. «Bu ishlarga biror chora topa olurmanmi», — deb fevral oyinda Toshkentg'a bordi. Lekin bu safardan hech bir natija qo'lga kirguza olmadi»<sup>3</sup>.

Darhaqiqat, iste'fo uchun Behbudiyning sog'lig'i va tirikchiligi bilan bog'liq muammolardan tashqari ham jid-

---

<sup>1</sup> 1917-yil fevraldan keyin Samarqandda tuzilgan musulmonlar jamiyati. Oktabr voqealaridan keyin asta-sekin bolsheviklashib borgan. 1918-yil 8-maydan Sho'roga aylantirilgan. 9-may kuni Behbudiy Maorif komissari etib saylangan.

<sup>2</sup> Siddiqiy-Ajziy bu haqda «Samarqandda musulmon komissar» (Hurriyat» g., 1917-y., 23-son) degan xabar ham e'lon qilgan.

<sup>3</sup> 1917–1918-yillarda Toshkentda qahatchilik avj olib, Rusiyadan oziq-ovqat yordami kelganida eserlar uni faqat rus aholisiga tarqatish kerak, degan boshqa rus partiyalarini quvvatlab chiqadilar. Zaki Validiy shu sababli eserlar partiyasini tark etgan edi (*qarang*: Ko'rsatilgan asar, 181-bet).

diy gaplar bo'lishi kerak. Millatni, milliy taraqqiyotni inkor etgan sho'rolar yo'li aldov va zo'ravonlikka asoslanganligini Behbudiy bilardi. Shuning uchun ham uni 1906-yildayoq, aql va shariatga zid, deb e'lon qilgan edi.

Orzulari chil-chil bo'lgan Behbudiy 1919-yilning bahorida — 25-martda parishon bir holda yo'lga chiqadi va Shahrisabzda qo'lga olinadi.

Qayoqqa ketmoqda edi u? Ko'nglida qanday tug'yonlar kechayotgan edi?

Savollarning bir qismi hali ham ochiq turibdi. To'g'ri, ayrim taxminlar bor. Masalan, yosh iste'dodli tadqiqotchi Halim Sayid bir maqolasida «Behbudiyni qatl etgan kim?» (O'zAS, 1995-yil 6-yanvar, № 1) savolini qo'yib, bir qator dalillar asosida qotil bolshevizm va uning qizil imperiyachilik siyosati ekanligini isbotlashga harakat qiladi. Ikkinchi bir maqolasida («Majburiy haj tafsilotlari», O'zAS, 1995-yil 14-aprel, № 15) esa mazkur voqeaning tafsilotlariga oid teran kuzatishlarini hukmingizga havola etadi. Shu haqda qisqacha to'xtab o'tamiz.

Behbudiyning so'nggi kunlariga bag'ishlangan barcha maqolalarda uning 1919-yil 25-martda Samarqanddan chiqqanligi, «asrorangiz» (sirli ravishda) g'oyib bo'lganligi aytiladi. Sadridin Ayniy u bilan so'nggi uchrashuvini shunday xotirlaydi: «1919-yil fevral oyida Toshkentga borib qaytdi. Maktab programi va Toshkentdagi ilmiy hollar bilan Samarqand muallimlarini tanishtirmoq uchun muallimlar majlisini chaqirishga buyurdi. Shundan keyin ko'chada ko'rishub, mazkur majlisga nima sababdan kelmaganini, ikkinchi majlis uchun qaysi kun tayinlansa, kela olishini so'radim. — Hozir biroz xastaman, kayfim va fursatim bo'lsa, xabar berarman,— dedi»<sup>1</sup>.

Behbudiydek batartib bir ziyolining o'zi majlis belgilab, kelmasligi va bunga biror izoh bermasligi, uning ustiga keyingi uchrashuvni ham mujmal qilib qo'yishi, chindan ham u bilan «asrorangiz» bir ishlar ro'y berayotganiga ishora qiladi. U nimadandir qattiq larzada ekanligi aniq.

Halim Sayidning aniqlashicha, Behbudiyning «g'oyib

---

<sup>1</sup> «Zarafshon» gazetasi, 1922-yil, 25-mart.

bo'lishi» haqida dastlabki xabar voqeadan bir oy o'tar-o'tmas, ya'ni 1919-yilning 23-aprelida «Mehnatkashlar tovushi» gazetasida bosilib chiqqan. So'ng u «Ishtirokiyun»ga ko'chirib bosilgan. Maqola muallifi Hoji Muin bo'lib, u xalq orasida tarqagan mish-mishlarni yig'adi va ularning tagiga yetishga urinmayotgan yoshlardan zorlanadi. Unda keltirilishicha, shu yil mart oyining oxirlarida samarqandlik yoshlardan 4 kishi (Mahmudxo'ja Behbudiy, Mardonqul Shohmuhammadzoda, Muhammadqul O'roqboy o'g'li va turk muallim Naim afandi) «Moskvaga yoki bir yerga bormoq qasdi-la yo'lga chiqq'on»lar, «ot bilan Buxoro tuprog'idan o'tayotganlarida Qarshi shahrida» qo'lga olinganlar, ayrim ma'lumotlarga qaraganda vahshiyona o'ldirilganlar. Chamasi, bu mish-mishlar yana ko'payib boradi va ushbu «Mehnatkashlar tovushi» 1919-yil 30-noyabr sonida Istanbulda o'qiyotgan samarqandlik Temurxon degan kishining ma'lumotlarini va unga Hoji Muin sharhini e'lon qiladi.

«Temurxon afandining ma'lumotiga ko'ra, — deb yozadi Hoji Muin, — Behbudiy afandi Samarqanddan chiqib Buxoro muzofotida hibsb qiling'oni hamon bu xabar Bokuda shoye' bo'lg'on. Bokuda turguvchi turkistonli Sayid Nosir ismli bir zot bir vosita topib, Buxorodan Behbudiy haqida ma'lumot so'rab, taxlisi un ko'shish qilg'on. Lekin bu haqda Buxorodan hech bir xabar ola olmag'on.

Bu mansuq xabardan ma'lum bo'lurki, mundin burunroq Moskvadan kelib, «Ishtirokiyun» gazetasi idorasida «Behbudiy afandi Qofqozda ekan», — deb xabar bergan I. M. Afandining so'zi ham xorijiy komissariati vositasi-la musulmon o'lka byurosining Behbudiy haqida so'rag'on savolig'a Buxoro hukumatining: «Mahmudxo'ja Behbudiy-ni hibsdan chiqorib uzatib edik», — deb bergan javobi shubhali xabarlar qismindandur»<sup>1</sup>.

Ko'rinyaptiki, H. Sayid qayd qilganidek, Behbudiy-ni oradan ko'tarish masalasiga uncha-muncha tashkilotlar, rasmiy idoralar aralashganlar.

Uning biografiyasida muhim o'rin tutuvchi 1919-yilning

---

<sup>1</sup> Ko'chirma H. Sayidning «Majburiy haj tafsilotlari» maqolasidan (O'zAS, 1995, 15-son) olindi.

25-mart sanasi ayrim manbalarda Behbudiyning Samarqand sarhadidan chiqqan kuni, baʼzilarida esa qatl kuni sifatida beriladi. H. Sayid uning qayoqqa ketayotganligi haqida taxminlarni oʻzaro solishtirib<sup>1</sup> Parijga, Antanta davlatlari yigʻilishiga borayotganini tasdiq etadi. Prof. N. Karimov fakt va materiallarni qiyoslar ekan, buni yanada aniqroq koʻrsatishga harakat qiladi. Uningcha, Behbudiy Shoʻrolar Rossiyasida bolshevizmga qarshi kurash olib borayotgan muxolif guruhlarning rahbarlari qatorida Shahzoda orolida AQSh prezidenti Vilsonning taklifi bilan uyushtiriladigan kengashga bormoqda edi. Rejaga koʻra Behbudiy Bokuda Saidnosir Mirjalolov bilan uchrashishi va Istanbul orqali Shahzoda orollariga yetib borishi lozim edi<sup>2</sup>. Ular baxtga qarshi uchrasha olmadilar. Toʻgʻrirogʻi, sobiq «Turkiston muxtoriyati» hukumati vakillarining jahon afkor ommasi oldiga chiqib, Rusiya bolshevizmining gʻayirus musulmonlarni qatli om qilib, millat sifatida yoʻq qilishga qaratilgan vahshiyona siyosatini oshkor etishga imkon berilmadi. Shoʻrolar hukumati amir qoʻli bilan millatning fidoyi farzandini qatl qildi<sup>3</sup>. Soʻng esa yoshlar yonida turib, Behbudiyga koʻz yosh toʻkdi. Va oʻz maqsadiga erishdi. Birinchidan, Amir va uning saltanatiga yoshlarda gʻazab, nafrat uygʻotishga muvaffaq boʻldi. Bu esa, oʻz navbatida, Buxoroning shoʻrolashuvini tezlashtirdi. Ikkinchidan, Shoʻrolar hukumati oʻzining aqlli, jasur va gʻoyat eʼtiborli dush-

---

<sup>1</sup> Bular asosan uchta edi: Haj (Hoji Muin), Parij, Antanta davlatlari rahbarlari bilan uchrashish va shartnoma tuzish (A. Z. Validiy), Moskvaga shikoyat qilish (Sadridin Ayniy).

<sup>2</sup> **Naim Karimov.** Behbudiyning soʻnggi safari, qoʻlyozma, 34-bet. Munavvarqori 1929-yil 21-dekabr xotirasida 1917-yilda «Ittihodi taraqqiy» partiyasiga aʼzo boʻlgan Behbudiy va Mardonqullarni bir guruh, Ubaydulla Xoʻjayev va Saidnosir Mirjalolovlar yana bir guruh boʻlib Turkiyaga borish uchun yoʻlga chiqqanini yozadi (*qarang:* DXK arxivi, 670-delo, asrov № 554395). Bu faktni biroz boshqacharoq talqin bilan arxivlardan yaxshi xabardor tarixchi M. Gʻ. Vahobov ham tasdiqlaydi (*qarang:* Oʻzbek sotsialistik millati. T., 1960, 323-bet).

<sup>3</sup> N. Karimov bu borada «Milliy Turkiston» jurnalining 1950-yil 66-sonida bosilgan Behbudiy haqidagi maqoladan quyidagi xarakterli bir faktini keltirgan: «Ul Qarshi shahrinda oʻz oldiga qoʻygan vazifalarini oʻrinlov harakatida ekan, qizil Rusiyaning Buxoro elchixonona xizmatchisi Utkin vositasi-la amir tomonidan tutildi. Behbudiy amirning Qarshi shahrindagi voliysi Nuriddin Ogʻaliq tomonidan 25-mart 1919-yilda vahshiyona oʻldirildi» (**N. Karimov.** Behbudiyning soʻnggi safari, qoʻlyozma, 24-bet).

manidan qutuldi. Xullas, bizga hozircha barcha taxminlarimizga asos bo'lib kelayotgan Hoji Muin Shukrullo o'g'lining «Mehnatkashlar tovushi» gazetasining 1921-yil 29-mart sonida bosilgan va so'ngroq «Inqilob» jurnalining 1922- yil 7-yanvar sonida qayta e'lon etilgan «Mufti Mahmudxo'ja hazratlarining qanday shahid bo'lg'onlig'i va oning tomonidan yozilg'on vasiyatnoma»<sup>1</sup> da qayd qilinishicha, Shahrisabzda qo'lga olingan adib taxminan ikki oy o'tgach, sheriklari Muhammadqul va Mardonqul bilan birgalikda Qarshiga keltirilib zindonga tashlanadi. U yerda ham bir necha kun yotib, so'ng Qarshi begi Tog'aybekning buyrug'i bilan zindon yaqinidagi «podsholik» chorbog'ida o'ldirilgan. Bu taxminan yoz oylariga to'g'ri keladi.

Uning qatli haqidagi xabar o'sha paytdagi poytaxtimiz Samarqandga rosa bir yildan keyin ma'lum bo'ladi. 1920-yilning aprelida butun Turkiston motam tutadi. O'nlab marsiyalar yoziladi. «Behbudiyning sag'anasini izladim» deb atalar edi Fitratning bir she'ri.

Ayniyda bir emas, uch she'r bor.

Sani mundin buyon Turon ko'rolurmu, ko'rolmasmu?

Saning mislingni Turkiston topolurmu, topolmasmu? — deb boshlanardi uning she'rlaridan biri.

Mashhur Cho'lpon ham Behbudiyning fojiali o'ldirilganiga bag'ishlab she'rlar yozdi.

Qayg'uringiz, kishanlarni yasovchi ustalar,  
Boshqalarni tubanlar deb atovchi xo'jalar!  
Sizlar uchun yoz boshining qoridek  
Erur kunlar keladur!  
Sizlar uchun alvastining zoridek  
Yig'lar kunlar keladur! —

deb yozgan edi u.

Qarshi shahri 1926—1937-yillarda 11 yil Behbudiy nomi bilan yuritildi. Biroq uning asl qiyofasi xalqdan sir saqlandi. Adib nomining abadiylashtirilishi shunchaki bir niqob edi.

---

<sup>1</sup> «Vasiyatnoma» ushbu kitobda e'lon qilinmoqda. H. Sayid va N. Karimov «Vasiyatnoma»ning asl mazmuniga, uni yetkazuvchi Hojimurod Xudoyberdi o'g'lining samimiyatiga asosli ravishda shubha bildiradilar. Behbudiy o'limiga bag'ishlangan «Maorif qurbonlari» dramasini Sho'ro tashviqotchiligi mahsuli hisoblaydilar.

Qarshi shahriga uning nomi qo'yilgan o'sha 1926-yildayoq, u mansub bo'lgan jadidchilikni aksilinqilobiy, aksilsho'raviy harakat sifatida qoralash kampaniyasi boshlab yuborilgan edi. Aslida ham shundoq bo'lgan. Jadidlar zulm va zo'ravonlikni, sinfiy kurashni, millatni qoq ikkiga ajratib, orasiga nifoq va dushmanlik solishni rad etdilar va haq bo'lib chiqdilar. Bugun ular muqaddas tutgan yurt ozod va mustaqil bo'ldi. Ular jon fido etgan istiqlol avlodlariga nasib etdi. Millat va Vatan mustaqilligi yo'lida fido bo'lganlar esa shu Millat va Vatan umri qadar boqiydurlar.

Gap so'ngida yana teatrchi Behbudiyga qaytamiz, chunki uning bu sohadagi xizmati eng buyuk xizmatlaridan bo'lib, milliy ong va madaniyatimiz tarixida g'oyat katta rol o'ynadi. Buni faqat dindoshlari, millatdoshlari emas, boshqalar ham e'tirof etganlar. Mashhur turkolog A. N. Samoylovich 1916-yilda, «Padarkush»ni Toshkentning «Kolizey»ida Avloniy truppassi ijrosida tomosha qilar ekan, Toshmurodning o'z uyiga o'g'irlikka kirib otasini o'ldirishidan xalqning junbishga kelganini yozadi<sup>1</sup>.

B. A. Pestovskiy 1922-yildagi «Inqilob» jurnali sahifalarida e'lon qilgan «O'zbek teatri tarixi» maqolasida uning maydonga kelish tarixi haqida fikr yuritar ekan, «O'zbek teatrining asosini qo'yib beruvchi samarqandlik Mahmudxo'ja Behbudiydir», deb yozadi. Taniqli arxeolog Vyatkinning dalolatiga suyanib, «Padarkush»ni yozishda Fonvizinning «Fahmsiz» («Nedorosl») idan ta'sirlanganini qayd etadi. Adib nomida Toshkentda maorif klubi, Samarqandda kutubxona va dramtruppa, Turkistonning deyarli hamma shaharlarida uning nomiga ochilgan maktablar, Buxoroda esa markaziy bosmaxona borligini ta'kidlaydi.

1929-yilda Qozonda bosilib chiqqan «O'zbek adabiyoti» kitobida esa: «O'zbek milliy adabiyotining negiz toshini Behbudiy bilan Fitrat qo'yib berdi» (8-bet),— degan e'tirofga duch kelamiz.

Behbudiydan uch o'g'il va bir qiz qolgan edi. «Sayohat xotiralari»da nomi tilga olingan 1897–1898-yillarda tug'ilgan Mas'udxo'ja gimnaziyada o'qigan, rus tili mutaxassisi bo'lgan.

---

<sup>1</sup> *Qarang. A. Samoylovich. Драматическая литература сартов, Petrograd, 1917, 3–6-betlar.*

Tarjimonlik bilan shug'ullangan. 1953-yilda vafot etgan. Uning farzandlari Shavkat (1919–1990), Midhat (1922-y. tugʻ., Dushanbeda yashaydi), Nadimxon (1922–1995, SamDU professori edi). Nazirxon (tijoratchi) va ularning avlodlari turli sohalarda xizmat qiladilar. Midhat Behbudiyning Toshkentda 1945-yilda tugʻilgan oʻgʻli Sarvat Behbudiy – mashhur sirk artisti.

Qolgan ikki oʻgʻilning biri Maqsudxon (1910–1931) geografiya ilmiga iqtidorli va qobiliyatli boʻlib, erta vafot etgan. 1914–1916-yillarda tugʻilgan Matlubxon urushda bedarak ketgan. Qizi Parvin (Surayyo) 82 yoshda 1984-yilda vafot etdi.

Behbudiyning ushbu saylanmasi 1997-yilda chop etilgan edi, qisqa muddatda tarqab ketdi. Ehtiyojni koʻzda tutib, tuzatilgan va toʻldirilgan mazkur nashrini hozirladik. Adib asarlarini toʻplash, saralash, nashrga tayyorlash endi boshlanmoqda. Oldinda ish koʻp.

1997-yilgi nashrda uni mukammallashtirish borasida yordam berishlarini soʻrab hamkasabalarimizga murojaat qilgan edik. Musiqashunos va tarixchi olimamiz D. Rashidova («Xayrul umuri avsatuhu»), yosh behbudiyshunoslar Halim Sayid («Millatlar qanday taraqqiy etarlar?», «Muhtaram samarqandiylargʻa xolisona arz», «Gʻalla, askarlik, yer va tanzimoti harbiya», «Qozoq qarindoshlarmizgʻa ochiq xat»), N. Ochilov («Ehtiyoji millat») aks sado berib, adibning olti maqolasini nashriyotga tayyorlab yetkazdilar. Imkondan foydalanib, ularga oʻz minnatdorchiligimni bildiraman.

Begali QOSIMOV

## BADIIY ASARLAR

---

### PADARKUSH

#### yoʻxud oʻqumagan bolaning holi

(Turkiston maishatidan olingan ibratnoma)

3 parda 4 manzarali, milliy birinchi fojia

#### Qatnashuvchilar

Boʻy — 50 yashar.

Toʻsh murod — boʻyning oʻgʻli, 15–17 yashar.

Domulla — yangi fikrlik bir mulla, 30–40 yashar.

Ziyoli — (ovroʻpo libosida) oʻrischa oʻqugʻon, millatchi musulmon.

Xayrullo — boʻyning mirza va mahrami, 18–20 yashar.

Tangriqul — boʻyning qotili.

Davlat ila Nor (boʻz bolalar) — kissalariga 4 soʻm qadar mayda kerak.

Liza — rus xotuni, qabiha shaklinda.

Artun — armani mayxonachi.

Pristuf — 2 politseyskiy, 2 qorovul, boʻyning 3 nafar erkak hamsoyasi.

Boʻyburchcha — boʻyning xotuni, 35–40 yashar.

#### Kerak nimarsalar

Bir laʼli shiravor, non, dasturxon, choynak, piyola, chilim.	Bir katta pichoq.
Mehmonxonaga keraklik gilam, koʻrpa, yosti.	Bir tapponcha.
Boʻyni(ng) yotoq asbobi va karavot.	Sanduqni ochaturgʻon temur asbob.
Bir kaltak.	Mukammal pristuf libosi.
Oʻn shisha suv va kivas.	2 politseyskiy mukammal libosi.
Besh-olti istakon.	2 qorovul kaltagi.
Bir sanduq.	1 hushtak.
Bir hamyon ichida pulgʻa oʻxshagan nimarsa.	1 shohsaqa.
	1 kanob.
	1 qoʻl kishani.



## BIRINCHI PARDA

Boy mehmonxonada o'tirar, Xayrullo ila domulla kirar:

– Assalomu alaykum.

BOY. Vaalaykum assalom, marhamat qilsinlar (*turib mu-loqot qilub, domullaga joy ko'rsatib, o'ttirur*).

DOMULLA. Boy davlatini Ollohi taolo mundan ham ziyoda qilg'ay (*fotiha qilur*).

BOY. Nafas (lari)ji muborak, inshoolloh, duolari qabul-dir.

DOMULLA. Balli, jum'a oqshomi duoni qabul vaqtidir.

BOY. Xush keldilar, taqsir.

DOMULLA. Salomat, salomat (*qo'lini ko'ksiga qilib*).

BOY. Xayrullo! Choy va la'li keltur.

XAYRULLO. Xo'sh! (*Choy va la'li keltirar, choy suzar, alar tanavvul aylar, Toshmurod kirar, salomsiz, beadabona*).

TOSHMUROD. Ota, tomoshag'a boraman, pul bering.

BOY. O'g'lum, kim ila borasan?

TOSHMUROD. Tursun akam ila.

BOY (*kissasidan pul berib*). Albatta, vaqtli kelinglar va yomon yerlarga bormanglar.

TOSHMUROD. Xayr, xayr, hov ko'p gapura(r) siz-da (*chiqib ketar. Domulla boy va Toshmurodg'a badbinona boqib, boshini solar*).

BOY. So'zlashib o'turing, taqsir.

DOMULLA. Xo'b, xo'b, boyvachcha katta bo'lubdur, Xudo umr bersin, usuli jadida maktabigami o'quydur yoinki eski maktabga?

BOY. Ikkisiga ham bormaydur.

DOMULLA. O'z hovlingizda o'qutaturg'onsiz?

BOY. Yo'q, yo'q. Men o'g'lumni o'qutmoqg'a o'ylaganim yo'q.

DOMULLA. Ajoyib, sabab nedurki, o'qutmaysiz? Vaholanki, o'qumoq qarz va ilm sababi izzati dunyo va sharo-fati oxiratdur.

BOY. Mani xayoling'a dunyoning sababi, izzati – boy-lik. Oxiratga bo'lsa, Xudoning qilgan taqdiri bo'lur. Chunonchi, biz ko'ramizki, odamlar boyni mullodan ziyoda izzat qiladurlar. Xususan, mana, banklar ko'paydi. Katta boylar chilen bo'lub, har kim chilenlarni izzat qilur, hatto, ishi tushaturg'onlar chilen molini qimmat olur, azbaski,

chilen iltifotiga olmagan odamlarga banklar pul bermaydurki, so'ngra muomiladorlar sinib, mayda-mayda bo'lur, bildingizmi?

DOMULLA. Bu so'zlaringiz hozirgi zamonaga ma'qul, lekin chilen va boylarni izzatlari vaqtincha va xalqni ko'zi ochilgunchadir. Holbuki, alarni ishi tushganlar izzat qilur, mulloni bo'lsa, barcha xalq izzat qilur, ya'ni mulloni ilmi izzat qilinadur.

BOY. Bizni ham boyligimiz izzat qilinadur, hatto, musulmonlar nari tursun, o'rus va armanlar-da izzat qilur.

DOMULLA. Izzatni nari qo'yduk, agarda o'g'lungizni o'qutsangiz, daftaringizni yozar, namozingizni va musulmonchiligini yaxshi bilur va ham sizga savob bo'lur.

BOY. Mirzalik oson, mana, Xayrulloaga oyinda yetti so'm beraman, kunduzlari mirzalik va oqshomlari mehmonxona ishini qilar va hatto, uyqum kelguncha xodimi qilar, kitob ham o'qub berar.

DOMULLA. Shariat ilmi va zaruriyati diniyani bilmoq uchun boyvachchani o'qutmoq, albatta, sizg'a lozimdir.

BOY. Shariat ilmini o'qutmoqni lozim bilmayman, chunki ani mufti yo imom va muazzin qilmoqchi emasman, azbaski davlatim anga yetar.

DOMULLA. Zarurati diniyaga ne dersiz?

BOY. Men o'zim besh vaqt namozni keraklik duolari ila bilurman. O'zim o'rgaturman.

DOMULLA. Xat va savodga ne dersiz? Holbuki, savodi yo'q odam hech nimaga yaramaydur.

BOY. Bu fikringiz g'alat, chunki mani savodim yo'q, bovujud, bu shahrimizning katta boylaridandurman va har ishni bilurman.

DOMULLA. Siz ilgari zamonda bir navi ila boy bo'lub-siz, ammo endi boy bo'lmoq nari tursun, faqat ro'zg'or o'tkarmoq uchun (ham) ilm kerak. Ko'ramizki, yigirma-o'ttiz yildan beri barcha savdo ishlari armani, yahudiy va boshqa ajnabiylar qo'lig'a o'tdi, muni sababi bizlarning o'qumag'onimizdur. O'qumagan boyvachchalarni ko'ramizki, ota molini barbod etar va oxiri xor va zor bo'lur, binobarin, o'g'lungizni o'qutmoqni sizga taklif qilurman.

BOY. Ay, domullo! Siz manga tahqiqchimi? O'g'ul maniki, davlat maniki, sizga nima? O'quganni biri siz, yemoqg'a noningiz yo'q, bu holingiz ila manga nasihat qilursiz:

Xayrullo! Mehmonxonani qulfla, uyqum keldi (*Xayrullo la'li va asboblarni jamlab, muntazir turar*).

DOMULLA (*odamlarga qarab*). O'qumoq va mulla bo'lmoq uchun pul kerak, badavlatlarimizni holi bul, bas, bu ketish ila nauzambilloh, dunyo va oxiratga rasvo bo'lurmiz, o'qumoq barcha musulmonga, erkak va yo xotin bo'lsun, farz edi. U qayda qoldi? Oh, voy bizni holimizga! (*Boyga qarab*) Boy, man sizga amri ma'ruf etdim va menga shariat bo'yicha lozim bo'lgan ishni bo'ynumdan soqit qildim. Inshoolloh, mo'ylab chiqarib, alifni tayoq demayturgan o'g'lungiz holini ko'rarmiz va o'qutmaganingiz uchun gunohkor bo'lursiz (*domulla nos chekar*).

BOY. Ay, domullo! Manga nasihatchi keragi yo'q, bezor qildingiz, (*odamlarga qarab*) ishimdan, uyqumdan bu odam mani qoldirdi. Xayrullo, mehmonxonani qulfla (*domulla arazlab chiqib ketar, boyni dimog'i kuyib o'turar. Ziyoli musulmon kirar, palto va asosini mixga qo'yar, boy ola-ola qarar, xushlamas*).

ZIYOLI. Assalomu alaykum.

BOY (*karaxtlik ila*). Vaalaykum assalom, Xayrullo, kursi keltur. Bu kishi yerga o'lturolmaydur (*kelturar, ziyoli o'turub, papirus chekar*).

ZIYOLI. Janob boy, sizni kayfsiz ko'raman, mumkinmi sababini bilsam?

BOY. Bir mullo kelib edi, o'g'lungni o'qutmaysan deb, juda jonimni oldi, quvlagandek qilib zo'rg'a qutuldim, faqat mushtlashmadik.

ZIYOLI. Ah-ha, qiziq va interesniy hodisa emish, (*odamlarga qarab*) bu shaharda boylarga amri ma'ruf qilaturg'on mulla bor ekan, Xudoga shukur. Ul janobi haqqoniy domullani topib, ziyorat qilmoq kerak. Boy afandi, sizga malol kelmasun, ushbu to'g'ridan men ham sizga qachonlardir bir necha so'z aytmoqchi edim. Va ammo soati ushbu daqiqaga mavquf ekan, endi sizdan iltimos qilamanki, bir necha daqika menga quloq bersangizki, ilm nafi to'g'risida so'zlayin.

BOY (*ola-ola qarab*). Endi bildim, siz ham o'g'lungni o'qut, deb mani qisar ekansiz, (*odamlarga qarab*) bugun chap yonim ila turganman, o'ylamagan ishlar oldimdan chiqar, mazmuni — qordan qutulib, yomg'urga uchraymiz.

Xayrullo! Chilim keltur! (*Tarafayn sukut, chilim kelar. Boy chekar, yo'talar*).

BOY. Xayrullo!

XAYRULLO. Labbay, taqsir!

BOY. Joyimni tashla, uyqum keldi (*homuza tortar*), ertaga ish ko'p, vaqtlik yotmoq kerak (*yana homuza*).

XAYRULLO. Xo'sh, hozir.

ZIYOLI (*jiddiyat ila*). Boy afandi! Men sizga dedimki, millatga keraklik ilmlar to'g'risida so'zlamog'chiman, ammo siz meni(ng) so'zimni eshitmoqg'a xohlaymaturg'ong'a o'xshaysiz. Ikkinchi daf'a aytamanki, quloq bering va bu so'zlar sizni(ng) va millatni(ng) naf'idur.

BOY. So'zingizni jabr va zo'r ila eshittirasizmi? Va yo meni azob bermakkami keldingiz?

ZIYOLI. Yo'q, men asli boshqa ish uchun kelib edim va lekin ilm bahsining ustidan chiqib qoldim. Ushbu sababli muddaoni tabdil qilib, ilm to'g'risidan sizga bayon qilmoqni qasd etdim. Shoyadki, janobingizdek boylar millat bolalarini o'qutmoqqa sa'y qilsalar.

BOY (*xalqqa qarab*). Koshki, domullo hikoyalari yetmasa edi. Xo'b, modomiki qo'ymaysiz, ertaroq so'ylab tamom qiling, uyqum kelgan (*homuza tortadi*), odamlar bolasini o'qut, deydur-a.

ZIYOLI. Hozir yangi va boshqa bir zamondir. Bu zamonga ilm va hunarsiz xalqni boyligi, yeri va asbobi kundan kun qo'ldan ketgandek, axloq va obro'yi ham qo'ldan chiqar, hatto, dini ham zaif bo'lur. Buning uchun biz musulmonlarni o'qutmoqg'a sa'y qilmog'imiz lozimdur, vaholanki, dini sharifimiz har nav naflik ilm o'qumoqni beshikdan mozigigacha bizlarga farz qilgandir. Bu hukm — hukmi shariatdir. Biz musulmonlarga, alalxusus, bu zamonda ikki sinf ulamo kerakdur: biri olimi diniy; digari olimi zamoniyy. Olimi diniy: imom, xatib, mudarris, muallim, qozi, mufti bo'lub, xaloyiqni diniy va axloqiy va ruhoniyy ishlarini boshqarar, bu sinfga kiraturg'on talabalar, avvalo, Turkistonda va Buxoroda ilmiy, diniy va arabiy va biroz ruscha o'qub, so'ngra Makka, Madina, Misr va Istanbulga borib, ulumi diniyani xatm qilsalar kerak yoki komil mullo bo'lsunlar (*boy mudraydur*), angladingizmi boy?

BOY (*boshini ko'tarib*). Ha, ha, aytabering, qulog'im sizda.

ZIYOLI. Olimi zamoniy bo'lmoq uchun bolalarni, avvalo, musulmoniy xat va savodini chiqarub, zaruriyati diniya va o'z millatimiz tilini bilaturg'ondan so'ngra hukumatimizni(ng) nizomli maktablariga bermoq kerakdur, ya'ni gimnaziya va shahar maktablarini o'qub tamom qilg'onlaridan so'ng, Peterburg, Maskov dorilfununlariga yuborib, dokturlik, zakunchilik, injenerlik, sudyalik, ilmi san'at, ilmi iqtisod, ilmi hikmat, muallimlik va boshqa ilmlarni o'qutmoq lozimdir. Rusiya vatanina va davlatina bilfe'l sherik bo'lmoq kerakdir va davlat mansablariga kirmoq lozim. Toki maishati ehtiyoji zamonamiz to'g'risida vatan va millati islomga xizmat qilinsa va ham davlati Rusiya podshohlik mansablariga kirib, musulmonlarga naf yetkurulsa va ham davlati Rusiyaga sherik bo'linsa, hattoki, shul tariqa o'qugan musulmon bolalarini Farangiston, Amerika va Istanbul dorilfununlariga tarbiya uchun yubormoq kerakdur. Hazrat payg'ambarimiz: ilm Xitoyga ham bo'lsa, talab qilingiz, demadilarmi? (*Boy uyquda.*) Bul ishlar bo'lmas, magar pul ila, sizdek katta boylarni himmati ila, chunonchi, Kafkaz, Orenburg va Qozon musulmonlarini boy va ahli g'ayrati ilm yo'liga ko'p pullar sarf etarlar va kambag'al bolalarini o'qutdirarlar (*boyga qarab*), albatta so'zlarimga tushungansiz, janobi boy. Boy bova, hoy!

BOY (*mudraydi, bosh ko'tarib, esnab*). Ha, ha...

ZIYOLI. Al-on biz Turkiston xalqiga bir yomon odat borki, bir kishi ruscha o'qub, podshohlik ishiga kirib, rasmiy formasida yursa, masxara qiladurlar, agar izvoshchilik va yo qora mehnatkash bo'lub, ovro'palilarni eski libosini kiysa va yo o'yinchilarning libosini kiysa, hech kim bir nima demaydirki, bu kamoli nodonlik va dunyodan xabarsizlikdir. Shunday emasmi, boy amaki.

BOY (*o'turish yeridan bir tarafga og'ib yotib*). Xur, xur, xurra, xurra, xurra...

ZIYOLI. Ilohi xudoyo! Ummati islomiyaga, xususan, biz turkistonliklarga rahming kelsun!.. (*ro'hmoli ila ko'z yoshini artib, chiqib ketar*)

Parda inar

## IKKINCHI PARDA

Pivaxona manzarasi: boyvachcha ila uch nafar o'lturarlar.

TANGRIQUL. Bu oqshom, bilmayman, nima uchun ichkilik meni tishlamaydur. Namozni digardan beri bir dyujina shishani bo'shatdim. Dayusni pivosi qulog'imni qizit-madi. To'ldir, ichaylik (*Nor qadahlarini to'ldirar*).

HAMMASI. Toshmurod boyvachchani salomatligiga ura! Ura! Ura! (*icharlar*)

DAVLAT. Jo'ralar. Manuvni ichdim, endi yodimga Lizajon tushdi. O, Lizajon!

HAMMASI. Oh, Lizajon, voh, Lizajon, qaydasan?

NOR. Zolim falak firoqig'a kuydirdi mani; billohki, kelmasa, bo'miydi.

DAVLAT. Bu dod-u bedod ila hech nima bo'lmas. Xo'jayinni chaqirarmiz, otam o'ldi bazmi qilarmiz.

NOR. Qo'lingni ber, ey, nomard, topding (*qo'lini siqar*). Bo'ldi.

DAVLAT. Ey, to'taburut Tangriqul, daming chiqmaydur. Shuncha odam so'zini o'g'irlab o'lturasan. Yerga navbat, sherga navbat. Gap berib o'ltur. Yo bu odamlarni pisand qilmaysanmi? Bizlarni ham yonimizga besh tangalik aqchamiz bor. Jo'ra! Bu mastlik rostlikdir. Qovog'ingni ochib o'ltur.

TANGRIQUL. Jo'ralar, sizlardan yashiraturg'on so'zimiz yo'q. To'g'risini desam, manuni ichdim, qulog'im qizig'an, sen Liza deding, endi o'zim shunda bo'lsam-da, hushim Lizaga, to Lizani kelturmasang, mani gapirturilmaysan. Ammo gap kelturganingga, Davlat zo'r!

DAVLAT. G'am yema, muddaong Liza bo'lsa, shul zamon yoningga ko'rarsan, kelmasami? Boshini olarman.

NOR. Boyvachcha! Barishnaga tobingiz bormi?

TOSHMUROD. Mayli, odam yuboringlar, bazm qilsun.

TANGRIQUL. Gap, gap ila vaqtzni o'tkararsizlar, buyuraturg'on bo'lsanglar, buyuringlar, ertaroq kelsun, kayf qilaylik (*Davlat qo'ng'iroq chalar. Artun armani mayxonachi kirar*).

ARTUN. Nima deysan?

DAVLAT. Lizaga birovni yubor, kelsun.

ARTUN. Bunda?

DAVLAT. Ha, munda kelturmasdan mozorgami keturarding?

ARTUN. Izvinit, so'rishdim-da.

DAVLAT. Bo'l. Bo'l. Birovni yubor.

ARTUN. Bah, ne vor, bilursin, Liza banga demishki, o'n besh manatsiz banga kishi ko'ndarma. Ha, o'n besh manatda va faytun pulini-da ver, geyin Nikolayi ko'ndarayum. Liza o'lmasa, boshqasini getirsin, kayfing nechik?

DAVLAT. Avval kelturub, so'ngra pulni olsang bo'l-masmi?

ARTUN. Davlat zo'r! Ban sana demishimki, Liza aqcha olmayincha gelmaz, bana ne? Sen o'zing bilirsanki, u gavur qizi, banim degil.

TANGRIQUL. Artun. Biroz to'xta, pul beramiz.

ARTUN. Bosh ustina, hoziram (*chiqar. Jo'ralari kayflari uchub, sukut etarlar*).

DAVLAT. Suz. Ichaylik! (*Nor suzib quyar*).

TANGRIQUL. Pulni peshaki talab qilgani ishni belini sindurdi.

DAVLAT. Ish aksiga olsa, shunday bo'lur. Pullaring bormi? Hammalaring chiqaring (*hammasi chiqaradi, Davlat sanar, besh so'm yetmas*). Bu minan hech nima bo'lmas. Bir ilojini topmoq kerak.

NOR (*ta'magirlik ila*). Ey, boyvachcha, bizlar-ku, kam-bag'al. Sizga nima, kissangizdan pul chiqmaydur? Ana boyvachchanning holi (*qo'li ila ko'rsatur*).

DAVLAT. Parvo qilma. Nor, Men bir nimarsa o'yladim, agar boyvachcha ko'nsa.

TANGRIQUL. Nima ekan? Nima?

DAVLAT. To'xta, nima ekanligini bilarsan. Avval boyvachchani(ng) salomatligiga ichaylik (*Tangriqul suzar, icharlar boyvachchanning salomatligiga*).

DAVLAT. Boyvachcha. Bu kechadek chahorshanba sayri oyda-yilda bir bo'lur va (yo) yo'q, bir kecha ming kecha bo'lmas, agar qabul qilsangiz, Tangriqulni sizga qo'sharman. Birga borib, otangizni sandug'ini ko'rsatursiz. Boshqa ishni Tangriqul bajaradur.

TOSHMUROD. Tangriqul aka, borasizmi?

TANGRIQUL. Ulfatlar buyursa, u dunyoga boraman. U-ku sizning hovlingiz.

DAVLAT. Sen nima dersan. Nor?

NOR. Men ham ko'pni biri, bor desang, borarman.

DAVLAT. Yo‘q, ikkov bas. Ko‘rganlar badgumon bo‘lmasin. Bukunni ertasi bor.

NOR. Boyvachcha! Otangiz sandig‘ini joyini bilasizmi?

TOSHMUROD. Otamning yotaturg‘on uyinda.

DAVLAT. Yotaturg‘on uyni necha eshigi bor?

TOSHMUROD. Uch.

DAVLAT. Qaysi eshikdan kirasizlar?

TOSHMUROD. Eshikning biri onamning uyindan ochilur, men kirib, hovli tarafidagi eshikni ocharman, so‘ngra Tangriqul akam kirar.

DAVLAT. Barakalla! Ilgari ham o‘g‘irlik qilganga o‘xshaysiz. Nor! To‘ldur, ichaylik! (*Nor to‘ldurar, icharlar. Tangriqul va Toshmurodga qarab*) Endi boradurgansizlar?

TANGRIQUL. Albatta. Bormay nima bo‘lubdur (*Davlat to‘pponchasini boyvachchaga berar. Nor etik sog‘idan pichoqni olib, Tangriqulga berar. Alar ehtiyot qilib turarlar*).

DAVLAT. (*ikkisiga qarab*) Yo‘l bo‘lsin, botirlar?

TANGRIQUL. Olgani (*Davlat Tangriqulni bir chetga olib, ishorat va xufiya ma‘lumot va amr berar*).

NOR. Omin, Ollohu... (*Hammasi*) Ollohu akbar (*Davlat fotiha berar*).

Parda inar

## UCHINCHI PARDA

Odat bo‘yicha boy yotar karavot ustiga uyquda, uyni bir tarafga sanduq. Toshmurod bir eshikdan ohistalik ila kirar, bu taraf, u tarafga qarab, boshqa bir eshikni ochar va bir chetga turar. Tangriqul kirar, qo‘lida kalid va temir asbob, beliga pichoq, sanduq tarafga borib, kalid solar, sanduq ochilmas. Toshmurodga qaraydur. Ishorat ila maslahat so‘raydur. Toshmurod sanduqni temir asbob ila sindirmoqg‘a amr berar. Tangriqul temir asbob ila sanduqni sindirar. Sanduqni ovozi ila boy uyg‘onur. Boy cho‘chib turar, kaltakni olib, voy, voy deb Tangriqulga yugurar. Toshmurod kaltakni kelib ushlar. Tangriqul pichoq ila boyni qo‘ltig‘iga urar.

BOY (*taraqlab yiqilar*). Voh, jonim (*jon uzar, tipirlar, xirillar. Tangriqul sanduqdan tanga xaltasini ko‘tarar, pichoq va temir asbobni o‘ziga berkitar, tashqaridan bir necha odam tovushi eshitilur*).

ODAMLAR. Nima gap, birov dod dedi? (*Bir necha erkak ila boy xotuni kirarlar, Tangriqul ila Toshmurodni ko‘rarlar*.)



TANGRIQUL. Toshmurod, ot! (*Toshmurod havoga to'pponcha otar va hozir kishilarga siloh ko'rsatib qocharlar.*)

BOYVUCHCHA. Voy zolim dastidan! Bu qanday kun edi, voy dod! (*Chapak chalar, boy ustiga o'zini tashlar, yuz va sochini yular*). He juvonmarg Toshmurod! Qon qus! Koshki chechakda ketsayding! Voy, padarkush! Toshmurod! Voy, dod-ey!

DOMULLA (*kirar*). Onajon, sizga sabrdan boshqa chora yo'q. Bu badbaxtlik va musibatga sabab jaholat va nodonlikdir, bema'nilik va tarbiyasizlikdir. Uyingizni nodonlik buzdi. O'g'lungizni beilmlik Sibirga yuboradi. Joningizdan aziz farzandingizni tarbiyasizlik balosi sizdan umri ayritadur. Bolangizni otasi tarbiya etmadi, o'qutmadi. Oxiri baloga uchradi, yomon rafiqlar yo'ldan chiqardilarki, qurboni jaholat bo'ldingiz.

BOYVUCHCHA (*to'lg'onib*). Oy, voy-voy bolam! Voy boyim, oh, voy u-u-u!

DOMULLA. Boyingiz-da nasihatga quloq solmadi va oxiri ushbu yomon hodisa paydo bo'ldi. Endi sizga, ochig'i, sabrdan boshqa iloj yo'qdir, onajon. Oллоh sizga sabr bersun.

BOYVUCHCHA (*kamoli betoqatlik ilan oh-vovaylo etar*). Dod, voy bolam! Voy boyim! Ikkisidan ham ayrildim, erimni mozorga, bolamni Sibirga yuborarlar! Voy, voy, voy u-u-u!..

## TO'RTINCHI MANZARA (Ikkinchining ayni, mayxona)

Nor, Davlat ichib, ashula aytib o'lturar. Tangriqul va Toshmurod pisib borib kirar, to'pponcha va qonlik pichoqni bir chetga yashirar, hamyonni chiqarib, stol ustiga otar: o'lturarlar.

TANGRIQUL. Chilim keltur-ey!

Artun chilim kelturur, chekarlar. Artun ketar. Tangriqul Davlatni bir tarafga olib, xufiya bo'lgan ishlarni so'ylar, ishoratlar qilar. Davlat «bechora» deb xufiya so'ylab, ishorat ila xotirjam qiladir.

DAVLAT (*hamyonni ochib ko'rib, suyunar, Tangriqul va Toshmurodni yelkasiga qoqar*). Barakalla, barakalla (*Davlat zang chalar, Artun kirar*).

ARTUN. Na buyurarsiz?

DAVLAT. Ma, pulni ol, tezlik ilan Lizani keltur!

ARTUN. Bosh ustina. Hozir kelur (*pulni olar, icharlar. Liza kirar*).

LIZA. Dobriy vechrim! (*hammasi-la ko'rishar*).

DAVLAT. Isprizdim, ispasibo, ispasibo, prixal...

LIZA. Mersi (*o'turar*).

DAVLAT. Suz, Lizaning salomatligiga.

NOR (*suzar, cho'qishtirib*). Lizaning salomatligiga ura, ura (*icharlar*).

Nor ashula o'qur, tashqaridan hushtak sadosi kelar, oyoq to-vushlari eshitilar. Majlisdagilar sarosima, hayron bo'lar. Silohlik politseyskilar, pristuf, qorovullar bostirib kirarlar. Liza qochar.

Politsiya to'rt nafarni ushlar, ba'zisi buyumlarini va har tarafni axtarur, qonlik pichoq va to'pponchani topar. To'pponchani pristufga topshirar. Iskab ko'rar, o'qini bo'shatar.

Tangriqul va Toshmurod qochar, qorovullar ushlar.

Toshmurod ho'ngir-ho'ngir yig'lar, betoqat bo'lur.

Pristuf ishorat qilur. Qo'lkishanni keltirib, Tangriqul va Toshmurodga urarlar. Boshqa ikkisining qo'li bog'lanur.

Pristuf gunohkor va qorovullarni saf qildirur.

ZIYOLI (*kirar, gunohkorlarga qarab afsus qilur. Odam-larga qarab*). Ilm va tarbiyasiz bolalarni(ng) oqibati shuldir. Agarda bularni otasi o'qutsa edi, bu jinoyat va padarkushlik alardan sodir bo'lmas va bular ichkilikni bo'yla ichmasdi, xun beg'ayri haqqin qilmas edi. Umri boricha Sibir va bandg'a va qiyomatg'a jahannamg'a qolmas edi. Agarda bular ichkilik ichmasa edi, dunyo va oxiratda ilalabad azob va mehnatda qolmas edi. Oh, haqiqatda boyni o'ldirgan va bu yigitlarni azobi abadiyg'a giriftor qilgan beilmlikdur. Bizlarni xona-vayron, bachagiryon va bevatan va bandi qilg'on tarbiyasizlik va jaholatdur: bevatanlik, darbadarlik, asorat, faqr-u zarurat va xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir. Dunyoga taraqqiy qilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi. Asir va zabun bo'lganlar-da beilmlikdan. Modomiki, bizlar tarbiyasiz va bolalarimizni o'qutmaymiz, bul tariqa yomon hodisalar va badbaxkliklar oramizda doimo hukmfarmo bo'lsa kerak. Bu ishlarni yo'q bo'lmog'iga o'qumoq va o'qutmoqdan boshqa iloj yo'qdur. Olloh-u taolo boshqalarga hamisha ibrat va sizlarga sabr bergay.

PRISTUF (*amirona*). Hayda, turma, marsh (*yo'naladur*).

Parda inar

## OO YELPOG'ICHLI CHINLI XOTUN

(hikoya)

Sung'iy mamlakati aholisidan Chung'ichin nom zot bir adib bor edi. Bu olami fanog'a inonmas va har zamon andin pirovoz va rihlat etmoqqa toliblik qo'lidan kelmas edi. Oni uchun jonini ovuntirmoq uchun xayolilar fikr va befikrg'a xotur etkuvchi ishlarg'a ruju' etmoqla o'ziga tasalli berardi. Vafotidan so'ngra dunyoni nekbaxt va mahsudlaridan hisoblandi.

Chung'ichin Xitoy muzofotlaridan birinda nomi Havo tog'ining etaklarinda kezar ekan, birdan o'zini bir mozoristonda ko'rdi. Oh, mozoriston — ming-ming nomuntazam tepachalar sado va nidodin xoli maxsus zamini ma'volar (boshpana, makon). U tepalar ostinda chor va nochor inson yotarlari edi. Ufq jadid sari tamoman mushtag'il (band) qabrlarni ko'rar-ko'rmaz sayyoh shu fikrg'a botdi. Afsus, butun tiriklik hayot yo'lini oxiri kelib yetgan joyi budur. Bu iqomatga mavt va manzilga xomushona bir karra kirildimi yana qaytmoq mumkin yo'q. Boq xotimai hayot na o'ldi? Chin ahli faqat bir tiriklik bilar. U hayotki shu'lai shams ila munavvar, havo sof ila ihotadur. Chin faylasufi bu fikrlarg'a sirona qabrg'a-da yurar ekan, libosi motam kiyimish yosh bir xotung'a rost keldi. Bu xotun yangidan tepalangan bir qabr kanorinda o'lturub qo'linda yelpog'ichi lukurni yelpiyur va ham doimiy yelpiyur.

Bu qadar ajib bir harakat sababini anglamoq shavqina tushub, sayyoh yosh bonug'a odob-la salom berdi.

— Xonim, o, bu mozorg'a yotgan kimdur, na uchun shu tufroqni muttasil yelpimak zahmatig'a giriftorsiz, so'ramog'im mumkinmi?

Mani faylasufim har ish sababini bilmoqchi, ammo sizning bu amalingiz aslo ihota tafakkurimg'a kirmaydur, dedi. Bechora xotun yelpog'ichni yelinmoqda muttasil lo-yan qat'i davom etardi. Xotun qizardi, bo'zardi, boshini oldinga engdi. Faylasuf behuda yerg'a savolini takror aytdi. Motamkash xotundan javob eshitmadi va aslo quloq bermay jonining bor quvvati-la yelpog'ichni harakatga kelturub turar edi.

Chung'ichin u mahaldin mutaassufona ayrildi. Xotuning illat va sabab harakatini bilmay orzusidin hamda shiddatlik orzusidin o'zini saqlab bilmoq edi. Shabparrak qanoti

kabi mutavalli harakatlanib turmish yelpog'ichga har zamon do'nub eng chuqur va mutahayyirona bir fikr ila boqib bechora faylasuf aslo bir shay anglamayur edi. Asnoi tahayyurda muqobilinda bir ojiza chiqib faylasufni bir qabr qanorig'a imlab, shu so'zlarni so'yladi: «Eshitdimki, xonumdin savol so'rdingiz, ammo javob ololmadingiz. Man orzungizni daf' etarman. Ammo muqobili umid aylarman-ki, siz ham manga bir necha pul bersangizki, borib, umrumni uzun bo'lishi uchun duoxonlardin bir tumori seh-rangiz olayin». Chung'ichin kissasidin oqcha chiqardi va a'juza xotun ham bu mojaroni so'yladi:

«Qabr kanorinda ko'rganingiz shu xotun Lu ismlik xonumdur. Uzun bir bemorlikdin o'lmish To'u nominda bir adibni bevasi va u qabr o'lgan erining qabridur. Er va xotun yaki digarini shiddatlik bir ishq va muhabbat ila sevarlardi. Hatto, oxirgi nafasinda To'u xotunidin ayrilmoq kulfatidan shikoyat etar, go'zal bu xotinini hanuz bahor hayot va husnini sitoratlik zamonda tashlab ketmoq dardi fikrig'a so'zan urardi. Lekin na chora, muqtasi' qadrga tobe' bo'ldi, boshqa iloj yo'q.

Bemorlik holida Lu xonim xasta To'uning boshidin hech ayrilmas, eridin so'ngra dunyoga tirik qolmaslikni va bolin hayotga ishtirokidek qarorg'a, mamotg'a ham sherik bo'lushini ahd ila bayon ayladi. Lekin To'u munga javoban: «Zinhor xonim buyla ahd va yamin aytmangiz», — der edi. Xotun: «Agarda sizdin so'ngra sheriklik balosiga giriftor bo'lib, ko'zlaringiz yumulganidan so'ngra shu ziyoi oftobni ko'rmoqg'a majbur bo'lsam, yaxshi bilingki, boshqa birovning xotini bo'lmoqg'a aslo ro'yi rizo ko'rsatmayman», — deb javobini berdi.

To'u «Xonim bonu, zinhor bu fikrdan voz keching», — derdi. To'u xonim: «Ey To'u, qo'yingiz asror etmangiz, bori besh sanag'acha uylanmaslikg'a ahd etoying».

Lekin bu safar deya To'u: «Bonu, bunday ahd etmang, faqat mozorim ustidaki tufroq qurigunga qadar mani unutmashlikka ahd etsangiz kifoya»...

Lu xonim muni uchun mahkam ahd etdi. To'u ikkinchi ochmaslik uchun ko'zini yumdi. Bonu kadaridin devona kabi bo'ldi. Xumor va xitoyi ko'zlaridin dumu' (ko'z yoshlari) otashin shashqator joriy, xumoi (isitma, kasallik) shadid (shiddatli) mahdumlari kabi o'zini shash jihata etardi bedard-bedavo.

Dunyo odati uzra har shay kechar. Bu sil g'amum va baroi hujumda kechdi-ketdi. Oh-nolalar kechmas, faqat kelmasun — To'uning vafotidan uch kun so'ngra Lu xonimning ko'zi bir ma'qul sifatg'a kirdi. Shuylaki erini shogirdlaridin bir javon (yosh yigit) ta'ziyatga keldi. Qadrdon shogirdni oh va oh ila qabul etdi. Bu javon nihoyat muzayyan (bezangan) bir chehra sohibi edi. Asnoi mukolamada bir oz To'udin va ko'broq bonudin bahs etdi. Bekaning latofat andomidin, go'zalligidin va ziyodasi-la xushlaganidin bayon etdi. Xonim ham andin mamnun va rozi qoldi. Javon shogird yana kelishini va'da ila vido' etdi.

Bir vido'i umidvoriy...

Sodiq ul-va'da Lu xonum u va'dalarga intizoran, ko'rganingiz, qabr ustig'a keldi. Kunlarni yelpog'ich shamoli-la eri qabrining tufrog'ini qurutub ahd etmoqg'a vaqf etar...» Kampir hikoyani bitirar-bitirmas faylasufingiz shu fikrg'a botdi. Umr qisqa, yoshlik shirin, yosh xotun va erlarni zavq havolarg'a uchirar. Harholda Lu xonim soliha bir xotun emishki, ahdini paymol etmak istamaz.

### Intiho

Ey qori, hikoyaning hosili mundin iboratdur. Adabiyot jadidai mustaqbala (kelajak zamon) mizga raqamidin yodkori xayr iltifotig'a yetsa, xo'jandi shoir muhtaram Sayriy afandig'a bir tuhfadur. Mutolaasig'a tanzil buyursalar, shoyadki, rishtai nazma chekilsa, biz-u sizdin bir xotirai mustaqbala qolurdi. Bu dahmi she'r bilmam qalbimdin chiqdi. Muqaddam shoir emas edim:

Bu olami hama hayhot behuda,

Naqshi zar ob paymuda (omonat)...<sup>1</sup>

1909-yil, dalvi devona, Samarqand, Mahmudxo'ja ibn Behbudxo'ja.

<sup>1</sup> Hikoya «Tasodif» deb nomlangan debocha bilan boshlanib, unda ushbu yozilish tarixi berilgan. Muallif 1909-yil qish (dalv — 20-yanv. — 19-fevr.) kunlarida goh o'g'li Mas'udxo'ja bilan turli darsliklar mutolaa qilar, goh sihat, mantiqqa oid kitoblarni, goh esa turli badiiy asarlarni ko'zdan kechirar ekan, bir kuni nogoh mazkur hikoyaga duch kelib qoladi. U buni oldin ham ko'rgan edi. Behbudiy asli xitoy adabiyotidan olingan ushbu hikoyani o'z qalbi va qalami bilan o'zbek o'quvchisiga taqdim etmoqchi bo'ladi. Hikoya «Turkiston viloyatining gazetisi»da 1909-yilgi 12-sonida e'lon qilingan. 1995-yil «Vatan» gazetasining 28-sonida yosh tadqiqotchi Halim Sayid kichik so'zboshi bilan qayta chop etdi. Hikoya H. Sayid nashri asosida tayyorlandi.

## BIR A'MO BOLANING HASRATI

Eshitarmanki, kun (oftob) ko' b go'zal... Nahr bo'yinda, suvning ustida uzayib osilgan gullarning ko'runishi ko' b latif emish... Nozik-nozik sayragan qushlarning ...havoyi qo'sh qanotlarining uchishinda ko' rulaturgon nimarsalardan emish!.. Eshitarmanki, kechalari ko' k yuzinda yoshurungon yoruqlar ko'runar emish... Mavj va girdoblaridek hazin bo'lgan dengiz ichinda oq chotirlik kemalar oqub ketarlar emish.. Eshitarmanki, gullarning ranglari islarindan, su-luvlikda yana ziyoda emish. Daralar... Tog'lar... Maydonlar... Suvlar, beshalar, xususan, tong zamonlari u qadar latif... u qadar totli emishlarki, bu qadar buyuklik va ehtishomg'a qarshi inson hayratindan sajdag'a ketarmish. Lekin, man ana ul gulduragani eshitilaturgon dengizni... na u ranglik gullarni... na ko' k yuzini... na kunni... na beshalarni... na u yaxshi mevalarni... na qushlarni... na oydinlikni... ko'rolmasligimdan taassuf etmayman. Xayr, Ollohim! Xayr! Shu foniy olamning yaxshiligindan hech birini orzu etmayman, magar... Hayhot!.. Onajonimni ko'rsaydim!

Muharriri: fransuz qizi Sorrun (?)

Mutarjimi: Rijoizoda marhum Mahmud Akram<sup>1</sup>.

Usmonlichadan tabdil etgoni: Mahmudxo'ja.

*«Oyna» j., 1914-y., 27-son, 505-bet*

---

<sup>1</sup> Rijoizoda Akram (1847–1914) – mashhur turk adibi.

### QASDI SAFAR

1318<sup>1</sup> sanai hijriyasi tavofi Baytulloh'ga Kafkaz yo'li ila Istanbul va Misr al-Qohira vositasi-la borib edim, muddati safarim sakkiz oydan ziyoda so'zub<sup>2</sup> edi. 1325<sup>3</sup> sanai hijriyasida Rusiya musulmonlarining muhtaram ziyoli va akobirlarining Nijniy yorminkasida milliy ishlar to'g'risida mashvarat qilinaturgan majlis'ga musharraf bo'lmoq uchun O'runburg yo'li ila Masko'v, Peterburg, Qazon vositasi-la Nijniy Novg'o'ro'd borib edim, Safar 25 kun so'zulub, 7 sanadan beri ikki daf'a Buxoro va bir daf'a Farg'onani ziyoratidan boshqa safarg'a chiqqanim yo'q edi. Azbaski, «tiriklik» kasalig'a muhtalolik, ro'zg'or qaydig'a giriftorlik sayohat ne'matidan mahrum etar. Yetti yillik xonanishinlik, digar tarafdin aloyiqi ro'zg'or\*, tijorat va 7–8 risolalar tahrir va nashri, dorulqazo\* ishlari, xususan, bir sanadan beri sobiq «Samarqand» jaridasi va hozirgi «Oyna» idorasining ishlari ruhan va jisman zaif etdi. A'zo va havos\*larg'a kasolat\* paydo bo'ldi. Singir (asab)... g'ayri muntazam ishlaydur. Attibbo\* istirohat va sayyohatg'a mashvarat berarlar. Tabiat u qadar noqobil va buzuqki, sayohatdan ham nafrat etar. Istamaz. Digar tarafdin, «Kutubxonai Behbudiya» isminida «Oyna» idorasida kitob savdosi ochmoq uchun ruxsat olingan. Istanbul, Misr, Qirim, Kafkaz, Qozon, O'runburg, Hindiston kitoblaridan kelturmoq kerak. «Oyna»da qo'ymoq uchun Rusiya va xorijiyanning mashhur imorat va manzara akobirlarining rasm va suratlari, ilmiy va fanniy maqolalar uchun fanniy va tarixiy naqshlarni qolibi-klishesi lozim yana... kerak. Oqibat qaror berildiki, Kafkaz va Qirim vositasi-la Istanbul'ga, andin Yunonistong'a kirib, so'ngra Bayrut ta-

<sup>1</sup> 1899/1900 milodiy.

<sup>2</sup> Cho'zilib.

<sup>3</sup> 1906/1907 milodiy.

\* belgisi qo'yilgan so'zlar lug'ati kitob oxirida alifbo tartibida berilgan.

riyqi-la Misr al-Qohirag'acha borib, yana qaytishga Istanbulg'a kirib, Rum eli temur yo'li ila Bulg'oriston, Avstriya va Berlin tariyqi-la vatani azizimiz Rusiya va Turkistong'a avdat etilsa, ikki-uch oydan beri ushbu safarning tahiyya\*sida eduk. Bul asnoda Peterburgda bo'lguchi Milliy majlis mashvaratig'a bormoq uchun Duma vakili janobi Tafkilufdan taklif tiligrofi va savolnomalar keldi. Savolnomalarig'a keraklik javoblar yuborilib, maataassuf, borishg'a safar mone' bo'ldi. Endi safarg'a azm etduk. Birinchi iyung'acha chiqsak kerak. Afsuski, rafiqimiz yo'q. O'g'lum Mas'udxo'jani birga olmoqchi edim. Ammo gimnaziyaning uchunchi sinfig'a o'tmoqi uchun hisob, jug'rofiya, tarix, ilmi ashyo, rasm, axloq, nemischa, fransuzcha darslari durust va kofiy darajada bo'lur. Faqat ruschani yozub, o'qub, kuzga yana imtihon bermoqligi lozim bo'lgan uchun birga ololmaduk. Va bizcha ushbu uzun va mashaqqatlik safarg'a yakka va tanho chiqmoq lozim bo'ldi. Bir sanadan beri idora ishig'a oshino bo'lgan Sayyid Rizo afandi Alizoda<sup>1</sup> janoblarining «Oyna»g'a mas'ul mudirligi uchun hukumatdan ruxsat olindi. Muvaqqat muharrirligi muallim Hoji Muin<sup>2</sup> janoblariga havola qilindi. Kitobat va tartibig'a Mullo Faxriddin Rojiy<sup>3</sup> janoblari mutasaddidur. Oллоh taoloning inoyati va qorilarning tavajjuhlariga ila kamina bo'lmasa-da, «Oyna» eskicha chiqib turar va sayohatimizdan muxtasar suratda har hafta yozib turarmiz. Agarda sayohatdan eson qaytsak, sayohatnomamiz muttasil va musavvar\* bosilib chiqsa kerak. Muddati sayohat taxminan ikki oy so'zar. Bir sanadan beri har na yozduk, har na deduk. Ko'b so'ylagan ko'b xato etar. «Oyna»ning xato va nomuloyim so'zlari tikon va dilgir bo'lgan muhtaram kishilarg'a uzr aytib, afularini tilaymiz. Bizg'a ma'nan va moddatan yordam etkanlarga va barcha xonandalarg'a chin ko'nguldan tashakkur aytib, xayr duolarini istab vido' etarmiz. Boqiy salom va ehtirom.

«Oyna» j., 1914-yil,  
31-son, 598–600-betlar

---

<sup>1, 2, 3</sup> Behbudiy zamondoshlari, samarqandlik taniqli ziyolilar: S. Alizoda (1887–1945) — pedagog, tarjimon, publitsist; Hoji Muin (1883–1942) — shoir, dramaturg; F. Rojiy — shoir.



29-may 1914-sana 17-rajabul murajjab<sup>1</sup> 1332 sanai hijriya panjshanba kuni kech soat 7, qatori\*miz mahjub vatanim Samarqanddan harakat etdi. O'g'lum Mas'udxo'ja manglayidan shafqat bo'sasi olib ayrilduk. Oh, vidoi oila, Vatandan chiqmoq naqadar mushkul! Bu mushkulotdan qutulmoq uchun insonni o'lub vatandan chiqmog'i kelur.

«Dili az sangi boyad bar sard oh vido'  
To tahammul kunad on ro'zki, mahmil beravd».

(Ayrilish vaqtinda toshdan ko'ngul kerak, toki qofila\* ketsun.)

Vagonda bir uythag'a<sup>2</sup> bir o'zim, Safarning avvali ham tanholik tavahhush\* kelturar. Abyot o'quyman, foida etmas. Qur'oni karim o'qumoqg'a shuru'\* etdim, farah\* kelturdi. Oqshomni nim uyqu holig'a o'tkarildi. Kun chiqar. Bayramali maxattasig'a\* yaqinlasharmiz. Har taraf qum dengizi, Bayramali shahri obod edi. Buxoro amirlaridan Shohmurod otalig (hozirgi Buxoro amirlari silsilai mang'itinyaning muassisi) zamonida Buxoro va Samarqand o'zbeklari kelib, Marv ham Bayramalini suvbandini buzub, istilo etib, xalqidan Samarqandg'a naql\* qiladurlar. Bu muhojirlardan bir qismini Samarqand shaharini sharqig'a, digar qismini g'arbig'a o'tquzadurlar. Shaharni atrof o'zbeklarini bosqunidan saqlamoq uchun (va) alar bugung'acha mazkur o'runlaridadurlar.

Buxoro amirlari borgoh va saroy ishlarini va tahsillik va xazina ishlarini muhojirlarg'a topshurarlar. Azbaski, bular muhojir va amirlarg'a molan va jonan tobedurlar. Hatto, amirlar bularni o'zlarig'a asir bilur edilar. Va bularni ortdurg'on moli go'yo amirlarniki edi. Boshqa yerni xalqi o'zlarig'a o'zlarini xoja bilardi va bu qoidani asari bugung'acha Buxoro hukumatig'a joriydir. Bu muhojirlar shi'a mazhabig'a bo'lub, Samarqandda o'n ming qadar bordur. Va alar o'zlarni eroniy ataydurlar. Holbuki, alarni aksari turk qabilalaridan bo'lub, ichlarinda balki yuzda bir eron forsi va eronlashgan arab va sayyidlar bordur.

<sup>1</sup> Ardoqli rajab oyi.

<sup>2</sup> Muallif Samarqand shevasida yozadi va o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi o'rniga jo'nalish kelishigi qo'shimchasini ishlatadi.

Marv tarafini istilo etgan buxoriylarni sardori sarigʻ va koʻk koʻzli bir kishi ekanki, shoir deyur:

Bubrid sari murgʻ behishti sak zard

(jannat qushi boshini sarigʻ it kesdi). Murgʻni boshi tashlanilsa<sup>1</sup>, «RGʻ» qolib 1200 sana uchun taʼrix chiqar, yaʼni, Bayramalini buxoriylar halok etganlariga 132 sana boʻlur. Gʻoliblar shoiri ham «Sari Bayramali shud halqai dor...»<sup>2</sup> sheʼr aytganlar. Al-on Rusiya hukumati eski bandni tuzatib, Bayramali va Marv taraflarini obod etib turubdur. Bayramali yerlari hazrat imperatoʻrgʻa mansub boʻlub, xalqgʻa ijoragʻa berilur. Bevosita Bayramali Marv shahri boʻlib, qadimda «Marvi Shohjahon» atalardi.

Marvda aholi aksariyat ila rus, arman va eron tabʼalaridur. Atrof xalqi turkman boʻlub, shahariy (shaharli) boʻlganlari yoʻq. Hanuz qora uy-chodirlarigʻa tirikchilik qiladurlar. Marvda uzoqdan rus kalisosining qubbasi koʻrilur. Atrofdagi yuz minglar ila «musulmon» (!)ni masjidi koʻrinmaydur. Aholi shariatdan ziyoda odatgʻa tobeʼ va asiri jaholatdur. Marvda tijorat aksariyat ila Eron tabʼalari<sup>3</sup> qoʻligʻadur. Rusiya hukumati bulargʻa yer olmoqgʻa izn bermasa-da, havli va doʻkon olmoqgʻa ruxsat berar. Mundagi eroniylar uch qism boʻlub, biri shiʼa, digari bahoyi, bobiy<sup>4</sup>, boshqasi eron yahudiysidan musulmon boʻlgan jadidiylardur. Bir eroniyni soʻzigʻa qaraganda, yalgʻuz bahoyilarni maktabi boʻlub, boshqalari uchun va yerli turkmanlar uchun munda maktab yoʻq. Issiq biyobonlarni naʼrasi-la toʻldurib, qatorimiz ilgari ketmoqdadir. Havo issigʻ, vagon ichinda 33 daraja harorat bor. Endi Samarqandni havo va latofati yodga kelur. Vagondagi ruslar: «Oh, Samarqand. Voy, behisht», — der.

Tom 24 soatda Ishqobodgʻa yetdukki, Samarqanddan 895 chaqirimdur. Bu shahar kundan kun obodlashiyur. Rus va armanlar jamʼiyati orta boradur. Biroz eroniy-da bor. Faqat atrofdagi bechora turkman qarindoshlarimiz hanuz nimvah-

---

<sup>1</sup> Muallif muammo qoidasini tushuntiryapti. «Murgʻ» (qush) soʻzi arab imlosida uch harf («mim», «re», «gʻayn») dan iborat. Uning boshi (bosh harfi — «mim») ketsa, «re», «gʻayn» qoladi va ikkalasi abjad hisobi bilan qoʻshilganda 1200 sana chiqadi.

<sup>2</sup> Bayramalining boshi dor halqasi boʻldi.

<sup>3</sup> Fuqarolari.

<sup>4</sup> Shiʼa, bahoyi, bobiy — Eronda XIX asrda keng tarqalgan mazhablar.

shiy holatda kulfat ila umr surarlar. Dunyodan, hatto, o'zlaridan xabarlari yo'q. Shu qadari borki, shaharg'a muttasil yerlarda bog'-u tokiston'lar etib, tufroq imoratlarg'a o'lturg'onlari-da ko'rulur. Yana biroz turub mashhur Ko'k tepag'a yetduk. Turkman – rus urushi yodgorisig'a munda kichkina bir muza<sup>2</sup> bino etilgan va ichinda turkman-rus muhorabalarini yasalgan suratlar va qo'llarinda miltiq va shamshirlari bo'lub, hamda turkman va rus to'p-u urush asboblari namunasi bordur. Muza muxta muqobilig'a 40–50 qadam bo'lub, kecha-u kunduz xalq uchun ochuq va turkman shijoatini dalilidur.

Yo'l ustundagi turkmanlarni boshindagi uzunligi uch yarim qarish, eni ikki qarishdan ziyoda telpagidan boshqa ko'rgu yeri yo'q, faqat hanuz belida aksariyat ila xanjari bordur. Ammo alar xanjar o'rnig'a qalam tutish zamoni kelganini bilmaydurlar. Ko'z oldidagi madaniyat asari bo'lgan shahar va otash arobadan ibrat olmaydurlar.

31-may erta birlan Qizil Arvotdan nari qazoqlar javlongohidamiz. Mundagi bechora qazoq qarindoshlarimizni faqr-u zarurati\* shakllaridan bilinib turubdurki, turkmanlardan ko'ra bularni yana yo'qsulliklaridan bilgulikdur. Yer – qum. Bir taraf o'tsiz tog', besh-o'n teva, bir-ikki eski olachiq har yerda oz-oz ko'runur. Muning muqobilinda g'ururlik madaniyat ajdahosi va ustinda madaniy insonlar. Bu qazoqlarg'a lozim ediki, o'zlarig'a yaqin shaharlar atrofida yig'ilib turg'un bo'linsalar, valloh, bu ketishni oxiri yo'q bo'lmoqdur. Muhtaram qazoq talabalari, qazoq ulamo va ziyolilari muni talqin etsalar kerakdur.

Endi Jabal maxattasig'amiz. Munda shimoldagi tog'dan kelaturg'on suv ham havo bor. Maxattaning janubi tarafida to'rt chaqirim masofatda a'zo og'rug'i uchun kiraturg'on tuz koni borki, kong'acha boshqa temur yo'l ila borilur. Do'qtur, uy, no'mra va qara uy, xulosa, har shay mavjuddur. Do'qtursiz va uysiz kirmoq-da mumkindur. Samarqanddan chiqg'on kishi 2-kunda soati 12 (da) kelib kong'a tushar. Mavsumi – birinchi saratondan asad oxirig'ichadur.

Bilik maxattasig'amiz. Bahri Hazar haybat va viqori ila namoyon o'lur. Nasim ila bizlarga ruh berar. Issig'ligidan

---

<sup>1</sup> Tokzor demoqchi.

<sup>2</sup> Muzey.

qutuldik. Kunduz soat bir yaring'a Krasnovodskig'a yetduk. Totor va eroniy birodarlar masjidini ziyorat etdim. Shul kun paraxo'dg'a kirduk. Kech soat 6 g'a harakat etar. Erta — birinchi iyun. Inshoolloh, bodgo'yag'a\* chiqarmiz.

*31-may. Bahri Hazar.  
«Oyna» j., 1914-yil,  
34-son, 809–813-betlar*

## 2

Dengiz tinch bo'lganda Krasnovodskidan Bokug'acha 14 soatlik yo'ldur. Ammo tole'da bor ekankim, paraxo'd yurganidan bir soat so'ngra qattig' bir fo'rtana boshlandi. 2-darajadagi qirq qadar kishidan yalg'uz to'rt-beshig'a ta'sir etmasdan, boshqa hamma ayol-u erkak va bolalar Bokug'a ikki soatlik yo'l qolguncha oh-u nola ila o'tkardilar. Man ham alarning eng kulfat ko'rganlaridan bo'lib, 9 so'm 20 tiyin berib, eni uch, bo'yi yetti qarishlik osilgan va o'lturganda shiftig'a bosh tegadurgon bir quti ichida 16 soat komil qimirlolmay va tusholmay qoldim. Muning ustida bosh aylanib, qon qusmoq ortuqcha kulfat edi. Paraxo'ddagi 3-daraja yo'lichilarning ustig'a 16 soat muttasil dengiz suv otardi. «Yo Ollo!», «Yo Husayn!» faryodlari osmong'a yuksalirdi. Minba'd Bahri Hazar ila yurmasg'a ahd etdim.

2-iyunda yakshanba kuni Bokug'a chiqdik. Shaharning rus va musulmon qismidagi musulmon do'konlari, katta korxonana va mag'ozalari, matbaalari tamoman ochuq, chunki musulmonlar jum'a kuni do'kon va korxonalarni berkitib, iyd qilar ekanlarkim, bul joy ibrat va tahsindur.

Boku(ni) ko'rgonimg'a 15 sana bo'lur. Ondan beri xiyla vus'at topib, imoratlari besh-olti tabaqag'acha yuksalibdur. Dengiz kanorida yangi besh tabaqalik katta bir imorat bor ekan. So'radimki, bu musulmon boy o'zi o'lturmoq uchun bino etib, 2–3 yuz ming so'm xarj qo'yan ekan. Muhtar bir kishidan so'radim: «Oxirat uchun ham biron uy va buq'a\* bino etdimi?»

«Xayr<sup>1</sup>, dunyo-u oxirati holo ushбудur», — javobini berdi.

Boku shahri Rusiyaning obodonlik jihatidan beshinchi

<sup>1</sup> Yo'q.

shahri bo'lib, ammo musulmon davlatligining ko'pligi ila Rusiyada ikkinchi shahardur. Chunonchi, munda yuz milyo'n so'mlik mulk-u sarmoyag'a doro\* bir necha musulmonlar bo'lib, milyo'n sohibi musulmonlar yuzdan ziyoda, yarim milyo'nlik musulmon yana ortuqroq, yuz ming sarvatlik musulmon minglar ila bordur. 20—30 ming so'mlik sarmoyador musulmon esa, o'n minglar ila bo'lib, shaharning aksari mulki musulmonlar qo'lidadur. Olloh ziyoda etsun!..

Bul shaharning yeridan naft (kerosin), boshqa til ila, oltun chiqar. Bu kun mehnatkash bir kishining yeridan naft chiqsa, ertag'a milyo'nchi og'a bo'lur. Bu boylardan din va millat yo'lida, qo'llaridagi sarmoyag'a nisbatan ehson qilaturg'onlardan jaridalarda to'rt-besh ism yozilib, boshqalari hanuz maydoni saxovatg'a zohir bo'lg'onlari jaridalarda ko'rilmaydur. Mo'tabar «Sado» va «Iqbol» jaridalarini idoralarini hamda muridi muhtamlari Hoshimbek Vaziruf ila Sodiqiyni ziyorat etdim. Idoralarining ahvoli zohiriyasini nihoyatda tang va mashaqqatda ko'rdim. Boku ahli xayroti armani, rus va boshqa hamshaharlarining matbuotidan ibrat olib, moddatan\* bu jaridalarining taraqqiy etmoqig'a va «musulmon jaridasining idorasi» demogq'a loyiq bir manzara tashkil etmoqig'a harakat qilmoqlari kerak edi. Bechora mudir va muharrirlarning biri qorong'u bir yerto'lada, digari tor va issig' bir do'konda murattablari ila umr o'tkarurlar ekankim, manga ko'b ta'sir etdi.

Bu nimadan? Yo'qlikdan va millatning e'tinosizligidan\*, muharrir-u mudirlarning chorasizligidan bo'lib, aybi musulmonlarga tushar.

Boku to'g'risida yana boshqa vaqt yozarmiz. Emdi yo'limizg'a davom etayluk. 2-iyunda Bokudan chiqib, Mineralni vo'da (Ma'dan suvlari) maxattasig'a mutavajjih bo'ldikkim, orasi 755 chaqirim bo'lub, bir kecha-kunduz yuruldi. Muning olti yuz chaqirimi komilan musulmon yerlari ham nihoyatda manbit\* va a'lo yerlardurkim, arpadan sholig'acha ekilgan va aksariyatan bahorikori va yerlari qaragasadur\*. Daraxtlari u qadar ko'pkim, Samarqandning Qaradaraxt-u Miyonkoli anga nisbatan hechdur. Xalqi bizning pirsiyon, lazgi, dog'istoniy degan xalqlar bo'lib, yana doxilan chechen, qumuq va boshqa ismlar ila ataladur. Taajjubi shulki, mavquflar (istan-salar) atrofida alardan savdo qilaturgon erkak, ayol va bola

ko'runmaydur. Qishloqlari yo'ldan uzoqdur. Shu qadar uzoq yo'lda yalg'uz ikkigina masjid ko'rindi. Ammo rus muhojirlarining qishloq va kalisolari yo'lg'a yaqindur. Musulmonlarning yerlari hosilsiz\*, qo'y, poda va ilqilari-da ko'p va alarning junidan yaxshi mato'lar to'qiydurlar. Zargarlik, miskarlik va charmgarlik va boshqa ishlarda ayol-u erkaklarning mahorati ko'p, faqat zamoncha ilmlari yo'qdur.

Biz, turkistoniylar topganimizni to'y, o'luk va ko'pkarig'a sarf qilgandek, bu musulmon qarindoshlarimizning aksari o'z molini qiz olib qochib, janjoliq'a sarf etmoq, bir-birovlarini o'ldurub, yana qasosi nomashru' tariqida tarafayndan bir nechalab o'ldurub, so'ngra bor pullarini sud-u sinod yo'lig'a va umrlarini Sibiriyo cho'llarig'a sarf qilib, nobud bo'lar ekanlar. Arolarida madrasa nomida bir shay\* yo'q emish. Ammo o'zlari nihoyatda imonlik va amalsiz musulmonlardur!..

Bokudan Ma'dansuyi maxattasig'acha\* tarafayn butun ko'klik va aksariyatan ko'z olganig'acha ekinjoy bo'lib, bo'sh yer yo'qdur. Havoning muxtalifligi vajhidan bir tarafining bug'doyi o'rulur ekan, digar tarafi hanuz maysa va ba'zan yangi bosh tortgandur. Xususan, Ma'dansuyi tarafi hanuz bizning oxir hamal kunlaridek salqindur.

Bukun 3-iyun Mineralni vo'da (Ma'dansuyi) maxattasidan ma'dan suvlari tarfig'a azimat etdim. Qatorlarg'a to'la Rusiyaning har tarafidan ahli davlat va shavq hujum etkan-durlar. Zotan, har sana o'n bir oy kecha-u kunduz ishlab, birgina oyni mumkin bo'lsa shunda o'tkarmoq kerak ekan.

*4-iyun. Kislovodsk.*

*«Oyna» j., 1914-y., 35-son,  
833–836-betlar*

### 3

Bokudan yoinki Turkistonning har bir shahridan to'g'ri «Mineralni voda»<sup>1</sup> ma'dan suvlari maxattasig'a yoinki ma'dan suvini eng oxirgisi Kislovodskig'acha belat berilur. Mineralni vodadan Kislovodskig'acha 61 chaqirim bo'lub, Esintuki va Petigo'rskidagi ma'dan suvlari shul arodadur. Masalan, Mineralni vodadan birinchi maxatta Beshtog',

<sup>1</sup> Muallif goh «vo'da», goh «voda» ishlatadi. O'zgarishsiz qoldirildi.

Petigorski shahri, andan Esintuki shahri, andan Kislovodski shahrig'a borilur. Beshtog'dan Temursuyi (Jaliznuvudski) shahri 7 chaqirim bo'lub, boshqa bir butoq ila ketiladur. Mavsum zamonida bu shaharlarning har biridan 1, 2 va 3 sinflik qatorlar har yarim soatda har tarafg'a yurib turarlar. Bu shaharlar orasidagi temur yo'llar tamoman ikki xatliqdur. Mazkur shaharlar kichik bo'lsa-da, nihoyatda katta va oliy vagzallar bino qilinubdur. Biz Mineralni vodadan to'g'ri Narzan suyi Kislovodski ma'danig'a ketduk. Ikki taraf yamyashil, vago'nimiz soyador va yeri ko'rinmas yovvoyi besha\* orasidan ketar.

Beshtog'ning katta tog' tepalari doimo boshig'a oq abrdan salla va chodir\* o'rgan. Bu tog'larning tepasidan oxirig'acha tamoman o'rmon (besha) qoplagan va bulutning aksi-la ajoyib va ko'rgon ila manzarasidan to'yyolmaydurgon bir shakli nazarfirib\* tashkil etar.

Tog' etaklaridagi qishloqlarni butun qudratning ajoyib, rango-rang gul va chamanlari tabiiy ziynat berilgan. Shaharlari bo'lsa, favqulodda chahorbog' va sun'iy gulistonlar ila o'xshatilib, dilrabo va manzarfirib xosiyat paydo etgandur. Bul masofat tamoman o'rmon, chamanzor, guliston va har yerda ajoyib ko'shk-u imoratlar bino etilgandur.

Ba'zan ikki taraf buyuk tog', ba'zan bir taraf tubi yo'q zov, ba'zan musattah\*. Va bir zamon ko'rarsan, orizali\*, xulosa, har lahza va har zamonning manzarasi boshqa va ajoyibdur.

Vojibi taolo hazratlarining qudrati komilasi huzurida inson sari farr\* va burdai ubudiyat\* bo'lur.

3-iyun. Kilovodskig'a yetduk. Bu shahar, taxminan, 20–30 ming xalqlikdur. To'r-besh oshiyonalik mehmonxonona va har biri bizdagi «qulub» yoinki madrasalardan katta bir necha musulmon hammomlari, osti hammom, usti mag'ozin, oning usti mehmonxonalar va bularg'a chiqmoq uchun «osonsur»<sup>1</sup> moshinalari bino qilinubdur. Temur yo'l idorasi 50–60 zina ila chiqilaturgon katta va musattah bir tepa ustida bir necha tanob yerlik chahorbog' ila eng katta bir necha tavaqalik bir imorat yasabdurki, kecha-u kunduz musiqi, raqs va taom mavjuddur. Bu chahorbog'dan bir necha yuz zina ila baland tepalar ustig'a chiqilur. Al-on biz Kislovodskining eng baland

<sup>1</sup> Eskalator.

tepasi ustida va dengiz yuzasidan 3000 fut yuqorida! Bul tepadan har tarafdagi ajoyib manzaralar-u shaharning har tarafg'a sochilgan qit'alarini tamosho qilmoqdamiz. Mundan boshqa yana bir katta chahorbog' borkim, ichinda eng katta «Goliriy», yuz-ikki yuz olchin uzunlikdagi ravoq va qulublar mavjud bo'lub, ma'dan suyidan mil\* ila kelturub, shishadan musaddas\* havzlar bino etib, ustida rus qizlarini qo'yub-durlarkim, har kimg'a loyanqat'\* majjoniy\* suv berarlar. (Bog'ga kirgan kishi 20 tiyin pul berur.) Digar tarafda bir necha yerda musiqilar, favvoralar, har yerda guliston va sun'iy gulxona, javohirfurushlik, meva va taomfurushliklardur.

Chahorbog' ichinda minglar ila xalq uchun choy va taom sarf etmoqg'a ochiq havo va ham bir necha tabaqalik ko'shklarda joy tayyor qilingandur. Chahorbog' xorijida yana ma'dan suyidan kelturilgan xudoyi millar bordur. Ma'danning sun'iy hammomlarig'a har bir kirmoq uchun 75 tiyin olinur. Har bir kishi uchun. Erkak va ayol uchun boshqa-boshqa uy va ham «vanna»lar bordur. Kasal kishilar uchun ma'dan suyining harorati va qancha turushlikni tabiblar (do'xturlar) tayinlab xat berarlar. Men ikki daf'a kirdim, 20 daqiqadan... Turush yer har kun yarim so'mdan 15 so'mg'acha mavjud bo'lur. Taomg'a har kun bir so'mdan o'n so'mg'acha sarf bo'lur (muskirotsiz\*)...

4-iyunda Esintuki shaharig'a keldim. Shahar vagzalg'a muttasildur. Ashyomni vagzalg'a qo'yub, shaharni kezdim. Esintuki ma'dan suyi chashmasining atrofida uzunligi 2 chaqirimdan ziyoda past-u baland katta bir chahorbog' bino qilinibdurkim, ichida Kislovodskidagidek bir necha hammom va qulub va har yerda ko'shk va qubbalar va shishadan havzlar, ajoyib guliston va tololar\* va musiqaxonalar bino qilinib, ichi sayyohlar ila to'p-to'ladur.

Munda turmasdan Petigo'rski shahrig'a keldim. Bu shahar kattaroq va elektrik tramvaylar ishlaydur. Munda ham necha chahorbog'lar va yuzlar ila olchin uzunligida rango-rang shishadan bino qilingan katta ko'shklar va ma'dan hammomlari va bu shahar ufqini manzarai ajibasi ila muzayyan qilgan zabarjad ranglik tog'lar bordur. Bu shahar chahorbog'larini yurib, ko'cha manzaralarini aroba va tramvay ila kezib, kechroq Jeleznovodsk (Temirsuyi) shahrig'a azimat etdim.

Temirsuyi shahrining manzarasi har biridan ajibroqdur. Shahar tor bir vodiyning ikki tarafida bino bo'linib, har



tarafidagi zabarjadlik tog‘lar osmong‘a yuksalur. Munda eng dilrabo tabiiy bir chahorbog‘ ichida ajoyib manzaralik rango-rang guliston va alar orasida yuz olchinlar ila uzulg‘on shishalik ko‘shklar va aning ichida kitobxona, shatranjxona ham raqs va musiqi uchun ajab binolar, taomxona, choyxona va mayxonalar bino qilinubdur. Chahorbog‘ bir necha chaqirimlar ila uzayib va aning bir tarafi 1722 sajinlik baland bir tog‘ga marbut\* bo‘lib, bu tog‘ga bir morpech\* yo‘l ila chiqilur. Bu tog‘dan mil ila Temirsu ma‘danidan suv keltirilubdurkim, temur quburdan shiddatlik suratda otilib oqmoqda va qo‘lni kuyduraturg‘on darajada issig‘dur. Muni sovutib, shishalik bir havzda saqlab, millar vositasi ila rus dilbar qizlari har kimg‘a ikrom qilmoqdadurlar.

Iki piyola bu suvdan ichdim, o‘zimni qizitib, boshimni og‘ritdi. Bul suv insonning qonini ko‘payturar ekan.

Temirsuyi shahri bog‘ining tog‘ tarafida otash aroba uchun arab usulida va muazzinxonalik bino qilingan sutdek oq bir qasri oliyni uzoqdan ko‘rib minorasidan masjid gumon qilib edim. Bog‘ga kirib eng yaqinig‘a bordimki, qasr atrofini alohida bir tog‘ ihota etib, munga maxsus bog‘ni temur panjaralar ila ihota qilinibdur. Yana arab usulida darvozalar qurulib, barida koshin ila «Assalomu alaykum va alhamdulillah, omin» yozilgandur. Ustida ruscha «Kirmoq mumkin yo‘q» deb yozibdurlar. Qorovulni topib so‘radim.

Dedi: «Bu qasrni Buxoro amiri bino etib edi. O‘zi ba‘zan munda kelardi. Vafotidan so‘ngra hozirgi amir bizni imperato‘rg‘a tuhfa etdi». Va al-on, tabiblar va ba‘zi kasallar turadur. O‘tayluk, munda to‘ymoq qimmat, ikki parcha baliq ila bir parcha non biror bir so‘m. Bir piyola objo‘sh yoinki choy 10–15 tiyin. Xizmatchig‘a ham berarsan. Ko‘p turg‘uchi kasallar, albatta, xususiy xonalar ijara olib, moshina qazonida o‘zlari taom pishiradurlar. Yoinki no‘mrag‘a emas, xususiy rus xonalarig‘a tushalarkim, arzonroqdur. Ajala shaytondur\*. Ertaroq aqsoyi safarg‘a\* yetmoq uchun bukun uch shaharni kezdim. Ammo bir vaqt qarasam, belim, oyog‘im va butun a‘zom og‘riydur. Na o‘turmoq va na yotmoqg‘a toqat yo‘q. Ming kulfat ila mavqifg‘a\* yetib temur yo‘l ila oqshom yana Ma‘dan suyig‘a yetdim. Munda uch-to‘rt soat qitorg‘a intizor etduk.

Shuni-da yozayin, Esintukida qolinfurush eroniy musulmon mag‘ozasi bor. Sharqning har nav’ matoidan-da

mavjuddur. Bir necha kundurkim, jarida o'quganim yo'q. Eron, Qafqaz jaridalaridan so'radim. Yo'q! Ana, sizg'a musulmonning katta savodxonasi. Vatandan va butun olami islomdan xabarsiz yashaydur, oh...

Bu ma'dan suvlarg'a har nav' kasallar kelur. Qartaygan, bir musht ila oxiratg'a ko'chaturgon mo'ysafid boylar, boshi qaltirayturgon chollar, holsiz generallar, binisidan\* tutsang, joni chiqaturgon sil va qonsizlar, ko'b o'qugon, miyasi achigan talabalar va muallimlar... Xulosa, har nav' kasallar ko'rinadur. Tabiiy, yurolmaydurgon qattig' kasallar do'qturxonalarda bo'lib, chiqmaydurlar. Ammo kasaldan ziyoda shavq-u shatorat\* ila kelib, ichkulik etib, fahsh va buzuqliklar ila kasal bo'lib ketadurgonlar ko'p ko'rinur. Petigo'rskning mavsumi birinchi moydan 5-sentabrg'acha bo'lub, ushbu kasalliklarga naf' etar: oyoq og'ruqi, singir<sup>1</sup> xastaligi va bir necha teri (jild) xastaliklarig'a... Esintuki mavsumi 10-moydan 10-sentabrg'acha: me'da xastaligi, yo'tal (sulfa), jigar xastaligi, singir va boshqalarg'a... Kislovodskining mavsumi birinchi iyundan birinchi o'ktabrg'acha: yurak, siyna va boshqa marazlarga foyda etar... Jeleznovodskining mavsumi 15-moydan birinchi sentabrg'acha: qonsizlik, bosh aylanib, ko'z tinmoq ham singir va asab xastaliklarig'a naf' qilur.

*Rosto'f, 5-iyun,*

*«Oyna» j., 1914-yil,  
37-son, 880-886-betlar*

#### 4

5-iyun. Rosto'f shahrig'a kirdim. Shahar nihoyatda obod. Har taraf qo'sha eliktrikli tramvaylar. Shahar o'rtasida kichkina bir chahorbog' bor. Besh-olti qatlik imorat va ziynatlik kalisolar mavjuddur. Har nimarsa ruslarning g'ayrati va madaniyatini zaboni hol ila bayon etmoqdadur. Bu shaharda besh mingdan ziyoda musulmon bo'lub, muning 300 qadari turkiyalik musulmonlar va bu shaharning nonvoyligi tamoman alar qo'lida emish. Ammo o'zlaridan maktablari yo'q. Munda Turkiya davlatining ko'nsulxonasi va imomi bordur. Tasodifan imom afandi ila muloqot etduk. Yerli musulmonlardan faqat

<sup>1</sup> Asab.

20 qadar oilaning mulki bo‘lub, boshqasi tamoman ijoranishin emishlar. Oллоh bu ijoranishinlikni biz, Turkistoniylarg‘a nasib etmasun! (Yer qimmat bo‘ldi, sotayluk ayta turgonlarga, yoinki yerlarini sotib to‘y qilaturg‘onlarga ibrat!) Musulmonlar ikki mahalla bo‘lub, biri ijora olingan uyda namoz qilur, nachora, miskinlik!.. Digarining yangi solingan masjid bor. Ammo biz musulmonlarni, na din va na dunyog‘a ahamiyat bermaganimiz uchun shuvoqsiz va usti tomaturgon holida qolib, bir tarafida namoz qilurlar. Masjidning sahni bir tanob qadar va shaharning yaxshi yerinda! Uch tarafi yo‘l, ammo do‘kon solib ijorag‘a bermog‘ yo‘q. Muning bu qadar katta joyi bor ekan, har yerdagidek musulmonlar ikki taraf ixtilof qilib, xorijda ikki maktabni ijora olib, har sana 3000 so‘m qadar oqcha berar ekanlar. Naqadar devonalikdur! Birinchi imom Mullo Vafo janoblari va o‘zga muhtaram kishilarning g‘ayrati ila 15 ming so‘mdan ziyoda oqcha to‘planib, ikki oshiyonalik masjid solinibdur. Uzoqdan minorasidagi oltun oy shakli zaboni hol ila: «Bu muqaddas maqom ibodatgohi muslimin va bayti hazrati Rabbil olamindur!»— deydur. Ammo nachora, hanuz notamom va shuvoqsiz, atrofida maktab yo‘q va kasifdur. Ikkinchi imom Mullo Bekoshuf janoblari ila muloqot etduk. Musulmon nashri maorif jamiyatining raisi yoshlardan Biloliddin janoblari bizga shaharning har tarafini ko‘rsatdi hamda jam‘iyat maktabini ziyorat etduk. Mullo Vafo janoblarini tobmogq‘a vaqt ozlik qildi. Munda musulmondan pristo‘f bor emish va hukumat maktablarida 15 nafar musulmon talabasi bo‘lub, yana 18 nafar qizlar-da hukumat maktabida o‘qur ekan. Masjid ishining yarim yo‘lda qolishig‘a va musulmonlarning ixtilofligig‘a masjid imorati muboshirligining har sana hisob bermagani sabab ko‘rsatilur. Ojizona tavsiya etildiki, o‘tgan o‘tdi. Endi ittifoqg‘a kelib, masjidni tamom va maktablarni bir etmogq‘a harakat qilmoq kerak deb... Shaharning va boshqalarning hayot va taraqqiysig‘a nisbatan mundagi musulmonlarning borligi yo‘q hukmidadir. Yo‘llarni tilfo‘n va tramvay simlari u qadar ishg‘ol etkankim, endi tilfo‘n simlarini yer ostidan tortmoq uchun ishlab turubdurlar. Ammo musulmon masjidining bir tanob yeri bo‘sh yotadur.

Kech otasharobag‘a o‘lturdim. Odis shahrig‘a ketarmiz. Saboh Dinapr nahrini o‘tduk. Oqshomg‘acha har zamon

katta va kichik shaharlardan o'tarmiz. Tarafayn tamoman hech fosilasiz bug'doy, arpa va mahallali qardoshlarimizning so'zicha «kroshka» yer yo'q. Rus xotun va qizlari qo'llarida ketmon, qator-qator ishlamoqda va qatorimizg'a qo'l sollab, bayoni xush omadi etarlar. Bizning sahro xotunlariga nisbatan alar jabrkash ekanlar. Kech xotunlar xil-xil ishdan qaytmoqda. O'tun, o't va asbob orqalarida ko'targan, ba'zan xotunlar arobasini chopturub ketmoqda, ammo bizning sahro xotunlarini g'iybat so'ylamoqdan boshqa ishi yo'q.

Inson ba'zan ajoyib hollarda qolur... Bir zamon Peterburgda edim. Bir yakshanba kuni, do'konlar berkitilgan. Mayda pulim yo'q. Erta birlan sut va non yemoq kerak. Qo'lumda bir yuz so'mlik qog'az, mayda topilmaydur. Soat 12 gacha och yurdum... Endi munda ham oqshom chog'i, mayda topilmaydur. Maxattalar kichik, biror nima yemoq kerak. Pulsiz bermaydurlar. Na chora, erta Odisg'a borguncha sabr lozim. Oqshom ro'za tutarmiz...

Endi qitorimizda ruscha eshitilmaydur. Yahudiycha, rumcha, polak va nemischa, hatto, bulg'orlar-da ko'p. Har nav' kishilar va Bulg'oriyodan kelib, bizning Rusiya maktablari-da o'qub, ofisar bo'lganlar-da vatanimizda bordur...

Erta birlan Odisg'a yetduk. 7-iyundur. Bokudan Odisg'acha 2409 chaqirim kezibmiz. No'mirg'a narsalarimizni qo'yub, tazkira (bilet) imzosi uchun Turkiya qo'nsulig'a bordim. Ammo yo'q! Odisdagi musulmon masjidig'a bordim. Imom mulla Sobirjon janoblari va muharrir Usmon afandi ila suhbat etduk. Bizni ikrom etdilar. Shul kun Istanbulg'a paraxo'd borar ekan. Yolg'uz to'rt soat qolibdur. Imom afandining ionati ila paraxo'dg'a kirduk. (Odis ahvolidan qaytishda yozarmiz.)

Soat 12, kunduz. Rus shirkatining «Chaxo'vich» paraxo'di yo'lg'a kirdi. Dengizni ko'piklantirib Istanbul sari yurmoqdadir. Inshoolloh, ertaga Istanbulg'a kirarmiz.

*7-iyun. Qora dengiz,  
«Oyna» j., 1914-yil,  
38-son, 902-905-betlar*

7-iyunda Odisg'a kirildi. Bu shahar Rusiyaning 3-shahri bo'lib, ammo tijoratda Qora dengiz sohilida bo'lgani uchun nihoyatda taraqqiy etgandur. Rusiyadan chiqaturg'on g'alla va xom nimarsalar Ovrupog'a shul askaladan chiqar.

Aholisi: rus, yahudiy, rum va boshqalardur. (Mundagi musulmonlarning ahvoli so'ngra yozilur.)

Narsalarimni bir yerda qo'yub, tazkira (belat) ni qo'l qo'ydurmoq uchun Turkiya qo'nsulxonasig'a bordim. Uzunligi bir gaz, eni ondan ozroq, to'luni bir unvon eshigini ustida osilgan. Unvon, kim bilur, necha sana muqaddam yasalgandur. Al-on rangi o'qulmas darajag'a kelib, unvonning temur va tunukasi churub teshilibdurkim, mundan qo'nsulbeklarning qaydsiz va beparvoligi ma'lum bo'lur.

Soat 10. Ammo qo'nsulxonada kishi yo'q... Andan Odis shahri jome' sharifig'a keldim. Imom afandi Sobirjon hazratlarining yordami ila kunduz soat 12 da paraxo'dg'a kirduk. 2-mavqega 16 so'm, 3-sig'a 5 so'm berib bir belat olduk. Oqshom ikki so'm berib, 2-darajaning salo'nidan yotar joy oldim. Ana, 9 so'm foyda!

2-daraja zolig'a yaxshi libossiz kishi qo'yulmaydur. Paraxo'dga tezlik ila kirduk. Odisda turushimiz faqat 2 soat, avqot olmagan eduk, 2-darajaning salo'nig'a 2 daf'a taom va ikki daf'a non va sut uchun 4 so'm oqcha to'ladim. Ey, zarari yo'q, yana 5 so'm foydamiz bordur.

Soat 12 kunduz paraxo'dimiz dengizni ko'purturub harakatg'a kirdi. Va andak muddatda shahar va yer ko'zdan nihon bo'ldi. Dengiz oynadek shaffof va sokin, havo latif, yalg'uz ostimizda suv-u ustimizda buxaridur\*. Dengizning barroqlik\* va latofati so'ng fishfishi, paraxo'dning gumbur-gumburi tabiatg'a jilo berar. Digar tarafdin mo'tadil va forom bir shamol esar va necha kundan beri safar mashaqqati tortgan jismg'a nihoyatda yoqishar. Sathiy bir nazar ila boqilsa, butun yer quruqlik va dunyolar yo'q. Har nimarsa, ya'ni shaharlar, cho'l, tog'lar va mamlakatda qolgan oila va ahhoblar xayol olamidatur. Endi dengiz ila paraxo'd fikrini o'zig'a jalb etar...

«Yerdagilarni Sizg'a musaxxar qildim — Oллоhning amri ila marokibi bahriya<sup>1</sup> dengizg'a joriy bo'lur» mazmunidagi

<sup>1</sup> Kema.

oyatlar mulohaza qilinur. Oh! Biz, musulmonlar na uchun Qur'ondan, san'at va g'ayratdan uzoq ketduk? Ostimizdagi paraxo'dning to'li 150 gaz ziyoda, ichidagi yolg'uz hayvon notiq<sup>1</sup> 300 dan ziyoda va g'ayri notiqi-da bordur. G'alat va boshqa yuki ham ko'p. Bu jonsiz hayvon bizdek jonli hayvonlarning asari san'atidur. O'tayluk, bu uch yuz so'ylag'uchilarning yarmidan ziyodasi 1–2-darajada bo'lub, musulmondan manim ila faqat uch nafardur. 3-sinfdagining aksari musulmon bo'lib, faqr-u zaruratdan oyoq ostida va hojatxonalar hamsoyaligida o'lturub va oqshom anda yotarlar.

Paraxo'dda aksariyat yahudiylarginadur va biroz rus fuqarosidan ham borkim, bir necha kashish(po'p) lar ham bordur. Alarning aksari 3-sinfd va anbordadurlar. Bu yahudiy va ruslar avvalan Istanbulg'a kirib, «Ayo Sufiya» va «Qa'riya» jome'i va boshqa aziz kalisolarni va yahudiylar «Xoxom» boshini ziyorat etub, so'ngra Quddusi sharifg'a ketarlar, ya'ni rus va yahudiy hojilaridurlar. Yahudiy hojilarining ahvoli rus hojilaridan yaxshi va ammo bizning musulmon hojilarining ahvoli og'irdur. Til bilmaslik, pulsiz hajg'a qasd qilmoq va pulliklarning xays-u\* chirkinligi yana mashaqqatini ziyoda etar.

2-daraja zolig'a oqshom mandan boshqa yana uch-to'rt nafar yahudiy va rus bor edi. Demoqkim, alar ham 3-daraja yo'lichilari ekan. Azbaski, 1–2 sinfnining yotaturgon joyi boshqadur. Yahudiy va ruslar ila suhbat etduk. Yahudiydan biri derki, «Turkiston eski dunyoning Amrikosidur. Paxta, ma'dan, g'alla, xulosa, har nimarsa bor. Turkiston oltundur. Agarda Rusiya hukumati mone' bo'lmasa, barcha mulkimni sotib, pulig'a Turkistondan yer olib, dehqonlik etardim. Oltun berib, yer olib, so'ngra olmos ko'tarar edim. Ammo, nachora, Rusiya qonuni biz, yahudiylarni qisar...»

Men, ichimda dedim: «Tashakkur Rus hukumatig'akim, sizni qo'ymaydur, valloh, siz yahudiylar, biz ahmaqlarni darbadar va bevatan etarsiz...»

Yana bir yahudiy Turk hukumatini ta'rif va anga tashakkur etar. Man dedim:

– Quddus atrofidagi yangi shaharlaringiz qanday?

Dedi:

– Alhamdulillah, kundan kun taraqqiy etmoqdadur.

---

<sup>1</sup> Inson nazarda tutilmoqda.

Do‘qtur Xretsil bu shaharni ko‘p mehnatlar ila xaloyiqdan oqcha jamlab bino etdi va biz, yahudiylar ham dunyoda bir shaharlik bo‘lduk. Endi anda yahud banki ham bino qilindi. Dorulmualliminlar, gimnaziylar, ...lar bordur. Do‘qtur-ning taklifi ila hammamiz eski yahud tili (ibroniy) o‘quymiz. Man o‘zim ruschadan boshqani bilmas edim. Bir yildan beri haftada ikki soat ibroniycha o‘qudim. Endi ibroniycha so‘ylayman, o‘qub-yozaman...

Ushbularni deb suhbatimizdagi bir Falastin yahudiysi ila ibroniycha so‘ylaydur va suyunadurkim, dunyodagi butun yahudiylarning endi tili birlashur. (Arabiyni tillaridan chiqaraturgon musulmonlarg‘a ibrat.)

Bir yahudiy biroq ibroniy bilar ekan, ruschadan boshqa tilni bilmaydurgon xotun olgon. Xotunig‘a ibroniydan boshqa so‘z demas ekan. Xotuni yig‘lamish, sixtamish, chora yo‘q. Eri ibroniydan boshqa qas(d)dan so‘ylamas. Xotun ikki yilda ibroniychani yaxshi bilibdur.

Endi mazkur xotun ibroniy jaridalarg‘a maqola yozarmish. Ammo biz 20 yil o‘qub, arabi so‘ylab, yozolmaymiz...

Paraxo‘dimiz soatda 18 chaqirim yuradur. Oqshom fo‘rtanasiz o‘tdi. 2-kun ham dengiz sokin, bir-ikki olchin bo‘yidagi balig‘lar uzoqdan paraxo‘dg‘a qarab sakraydur. Suvdan chiqib, 3–4 gaz yerdan otilib, paraxo‘dg‘a yaqin kelur. Zohiriy, paraxo‘d tashlandilaridan yeb odat qilibdurlar. 2-kun soat ikkida Bo‘sfor bo‘g‘oziga kirduk. Bo‘g‘oz og‘zida paraxo‘d turdi. Turkiya ma‘murlari kichik paraxo‘d ila kelib, ko‘rub bo‘g‘ozga kirmoqg‘a javob berdi. Biroq yurgandan so‘ngra rus qo‘nsulxonasidan ma‘murlar kelib, pochta kog‘azlari taoto<sup>1</sup> qilindi. Bo‘g‘ozga kirilgandan ikki tarafi katta imoratlar va bo‘g‘oz tishida harbiy qal‘a va tarafaynda askarxona va to‘plar, katta-kichik harbiy paraxo‘dlar bordur.

Bo‘g‘ozning og‘zidan Istanbulg‘acha 2 soat qadar masofat bo‘lib, kichik shahardek qishloq va mahallalar bino qilingandur. Davlatlik kishilar, qo‘nsullar bo‘g‘ozni chahorbog‘ va imorat ila to‘ldurubdurlar. Bir necha sana so‘ngra bo‘g‘oz boshig‘acha Istanbul shahrining imorati yetishar. Hozirda ochiq yer ozdur. Dengiz bo‘ylarining murabba\* sajini\* 20 so‘mdan 300 so‘mg‘acha emish. Dengiz labidan yuqorirog‘i arzonroq bo‘lib, qishloq va ekin ham obchakorlikdur\*.

<sup>1</sup> Qabul qilindi.

Biroz yurugondan keyin Istanbulning katta saroy va borgohlari, hammadan avval jome'lari va boshqa imorati ko'rundi. O'rta Barroq<sup>1</sup> su(v), tarafaynda katta imoratlar. Orasira chahorbog'lar, so'ngra tog'-u tosh va butun yer yashillik va ul zumradin\* yer ustida oq va marmar, muqaddas jome' minoralari va sarv og'ochlari osmong'a uzalgandur. Xulosa, to'yolmas bir manzara o'rtasidamiz. Emdi Istanbulg'a yaqinlashurmiz. Atrof butun paraxo'd, qayiq. Bir tarafdin muqaddas jome'larning oltun hilol (oy) qo'yulgon va qubba va minoralari. Digar tarafdin marmar ko'shklar, podshohlik borgohlari butun nazarni o'zig'a tortar. Qaragan ila to'ymayсан. Xulosa, Istanbulda Bo'g'ozichi\* latofati favqulodda bir manzara bo'lib, Ovrupo va amrikoyilar-da muning oshiqidur. Biz, albatta!..

Qayiqchilar paraxo'dni sorib\* oldi. Paraxo'd turmasidan\* tirmashib chiqdilar. Biz 3 kishi 24 guruh (2 so'm) g'a savdo etib, bir qayiq olduk. 15 daqiqa su(v) yuzig'a sollanib, Istanbul bo'xonasig'a chiqduk. Dengiz ichida po'lislar har qayiqdagi odamni sanab, qayiqchi no'mrini yozib, sanad\* beradurlar. Ana biz endi Istanbuldamiz.

*Istanbul, 8-iyun.*

*«Oyna» j., 1914-yil,  
39-son, 927-932-beilar*

## 6

8-iyunda Istanbulga kirganimiz qorilarg'a ma'lumdur. Yozi-laturgon matlablar har nimarsadan ko'p. Qaysi va nimadan boshlamoqni bilmayman. Binobarin, Istanbul hissiyotimni so'ngg'a qoldurub, hozir boshqalarni yozarman.

16-iyun kech Istanbuldan otasharoba qitorig'a kirduk. Namanganlik muhtaram bir muddaris-da rafiqimizdur. Istanbul ila Adma arosi qitor ila o'n soatlik yo'l bo'lub, Avstriyo nasorolari temur yo'lining sohibi va 2-sinf belati o'n so'mdur. Bechora musulmonlar besh yuz yildan beri Ovrupoda o'lturub, Ovrupo odati, libosi va yamon ishlarini odat qilib, ammo ilm va hunaridan keragicha hissa olmabdurlar. Bul har yerda shundaydur. Bu kung'acha bir chaqirim temur yo'li bino qilmogq'a butun musulmonlarning ilm va iqtidori yo'qdur. Ammo popirus, ichkulik va buzuqlik tarafig'a bor kuchimiz ila a'lo holda tirmasharmiz.

<sup>1</sup> Yiltiroq.



Temur yo‘l bir soatdan ziyoda shahar ichidan o‘tar. Andan so‘ngra tarafayn bog‘chalar, obchakorliklar, askarxona, sarbozlar chodirgohi, korxon va fabrikalardur. Ba‘zan qator dengiz kanoridan o‘tar. Eski «Bizans»liklar\* tarafidan bino qilingan qal’alarning xaroba devorlari hanuz boqiydur.

Shahardan chiqib, bir soatda Misr ko‘yig‘a\* yetduk. Munda Istanbul kibor va davlatliklarning bog‘iston va sayfiyasi\* bo‘lub, a‘lo va bir necha oshyonalik imoratlar bino qilingan va har taraf ko‘klik va xurram\* va bir tarafi dengizdur. Munda Turk davlatining fishang (o‘q) korxonasi bor. Yana bir necha ko‘ylarni o‘tar eduk, oftob yotib, har nimarsa ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Ovrupo qitorlarig‘a yotib bo‘lmas. Ikki kishi yotadurgon o‘ring‘a sakkiz kishining o‘turmog‘i lozimdur. Yotmoq yo‘q.

Qitorg‘a turk ofisarlari ko‘p. Istanbuldan Adrna va ondan oxir hududg‘acha har taraf askar chodirgohidur. Ofisarlardan ba‘zisi namoz o‘quydur. Ba‘zisi yurmoqda. Oqshomni o‘lturub o‘tkarduk. Xodimko‘y va Chatolchani o‘tduk. Tong otar, har taraf chamanlik. Bug‘doy, arpa hanuz pishgani yo‘q. Atrof choqir-chuqur va orizalikdur. Hanuz Adrnag‘a ikki soatlik yo‘l bor. Kaliso bo‘lmoqdan qutulgon mashhuri jahon Salimiya jome‘i sharifining minoralari ko‘runur. Bulg‘orlar tarafidan yondirilgan qishloq va imoratlarning xok to‘dalari har yerda namoyondur.

Maxattag‘a yetduk. Adrna mavqifi ham bulg‘orlar tarafidan yondirilub ekankim, endi yangidan bino qilinadur. Maxatta atrofidagi ko‘p imoratlarni yondurub ekanlar va Adrnani tashlab qochish vaqtlarida bulg‘orlar har tarafg‘a otash berib ekanlarkim, turk askarlari yetib, so‘ndurub va bulg‘orlarni, nihoyat, ko‘p ozuqa va asboblari va yigirmadan ziyoda eng katta to‘p, adadsiz miltiq va asbobi harbiyalarini o‘lja olib ekanlar. To‘plardan bir nechasi Istanbuldagi Gulxona maydonidadur. Maxatta atrofida turklar tarafidan ovropovoriy yangi bir shahar bino qilinibdur.

Adrna shahri maxattadan 5 chaqirim qadar bo‘lub, marmar tosh farsh qilingon yaxshi bir yo‘l ila marbutdur. Tarafayn bog‘chalar va yeri nihoyatda o‘tlik va bir tarafi podshohlik katta bir besha (o‘rmonluk)dur. Qamov vaqtida bu o‘rmondan ko‘p kesilib o‘tun qilinibdur. Yo‘l kanorida, o‘rmonni bir tarafida musulmon qahramon shahidlari uchun mazor va oq toshdan yodgoriy bino qilib turubdurlar.

Emdi Merich nahrini o'tarmiz, Samarqandning Zarafshon nahridan yetti-sakkiz daf'a katta va sokit\* bir nahr. Va ustida yuz gazdan ziyoda bir necha ravoqlik turklar bino etgan g'ishtin, muhtasham va vasi' bir ko'pruk. Va ikki tarafi marmar devor. O'rta yerida ikki tarafg'a nozir ikki ko'shk bordur.

Adrnag'a kirduk. Barcha yo'llari tosh farsh qilingan va har taraf oliy qubba va minorasi bulutlarg'a uzaygan jome'lardur. Har ko'cha va har yerda buzulgan va yonilgan havlilarg'a uchralur. Shaharning eng obod yer(ida) eng xarobazorlar uchraladurki, muhorabaning zararidur. Muhorabadan avval bu shaharda yuz mingdan ziyoda kishi bor ekan. Endi 40 ming qolubdur. Mundagi rum va yahudiylarg'a ham bulg'orlar jabr qilubdurlar. Rumlardan bir nechasini o'tundek birga bog'lab, Merich nahrig'a otib, yo'q qilibdurlar. Musulmonlarni tiriklay quduqg'a solib to'ldurubdurlar. Endi bu joylarda mazor va yodgoriylar bino qilinur.

Endi Sulton Salim jome'i sharifidamiz. To'rt tarafi kungiralik toshlar ilan aylanturilgon 8–10 tanoblik bir maydon va har tarafida darvozalar. Bu maydon o'rtasida jome'i sharif bino qilingan. Chunonchi, qiblag'a muqobil tarafg'a bir tanob qadar katta bir sahn, 3 tarafi 21 ravoq ila aylanturilib, ravoq qubbalari yakpora marmar, rango-rang ustunlar ustidadur.

Ravoq ichkarisidan oyat va hadis yozilgandur. Bu sahning kirish darvozasig'a sadaf va boshqa toshlar o'tqurilgan o'yamakorlik halqa va zanjirlari mutallodur\*. Darvozaning toqidagi marmar ustida oltun ila qabartma (manbit) shu bayt yozilgandur:

«Qad bana haza-l-maqom ul-mujabbatu al amir ul-haq sulton ul-anom, a'ni sulton us-salotin shoh Salim muslihu yabna lahu dor us-salomu barakallohu taolo xayrahu dafafullohu ajran yavm ul-qiyom sora fazlulloh ta'rix ul-asos 976–982 fazlu ba'dahu kona tarix al-itmom»<sup>1</sup>.

Sahn yuzi marmar ila farsh etilib, o'rta nihoyatda san'atlik shashsu, marmar qubba va ostida katta bir havz bo'lub, atrofi temir to'r ila ihota qilingon va marmar havzning har

<sup>1</sup> Ma'nosi: Bu ulug' maqomni haqiqat amiri, insoniyat sultoni, sultonlar sultoni shoh Salim mislsiz bir suratda mehr bilan bino qilgandirki, Alloh taolo uning bu ezgu ishiga baraka bergay va mukofotini qiyomat kunida o'z fazli bilan nasibi ro'zi etgay.

Asos va bitishning sana tarixi: 976–982.

tarafidan millar ila suv olinur. Muning muqobilida jome'i sharifning tillo va sadafkorlik katta darvozasi bordurkim, andan kirib, bu muqaddas jome'i sharifning ichidagi osor va san'atlarkim, avvalgi musulmonlarning asaridur, ko'rgan kishilarni bahs va hayratlarg'a g'arq etar. Muni man so'yamayman. Ovruponing mudaqqiq muhandis va olimlari so'ylaydur.

Mundagi osori nafisai sano'iyaning bayon etmoqg'a manim qalamim ojiz bo'lib, sathiy ba'zi nimarsalar yozarman.

Jome'ning ichi eshikdan mehrobig'acha 80 gaz; 66 gaz sakkiz dona qizil, qaro, ko'k va obliq marmar yakpora ustunlar ustida katta bir qubba turar. Qubbaning atrofi ikki tabaqalik bo'lub yana to'rt qubba, 8 nim qubba ila davr etar\*. Masjidning o'rta yeridan o'n murabba' gazlik marmar va maqsura\* va aning ustida ming qadar sham' yoqilaturgon bir qandil bordur. Ostida mudavvar\* sadaf va marmarlardan bino etilgan bir favvorakim, ichidan a'lo bir suv nab'on\* etmakdadur. Mehrob qubbasining bir tarafida qimmatlik toshlardan bino etilgan 20 qadar zarinalik\* bir minbar borkim, minbari sharifning a'lo gilam va kitob va eski asarlarini va oltunlik po'shishini\* bulg'orlar olibdurlar. Jome'i sharifning ich devorlari 4-5 gaz irtifo'g'acha\* xitoyi taboq chinnisidan ham a'lo bir chinni ila rango-rang ham oyat va hadislik chinnilar ila qoplang'ankim, darzlari ma'lum yo'qdur. Andan yuqorisi asl ranglar ila islomiy va girehmo\* zoiq\* va ranglar ila naqshlanib, qubbalarining saqfi<sup>1</sup> butun oyat va hadis muzoyiqi\* va chiniy koshini ila ziynat berilgandur.

Mehrobi sharifni irtifo'i 8 qadar bo'lub, muqarnas\* munabbatkori\* o'ymalik a'lo marmardan bino qilingan. Va mundagi morpech va zanjira va o'ymakorlik va oltun munbat xat va torlarni latofati ko'ruvgon sayin to'yulmaydur.

Mehrobning o'ng tarafidagi kunjda\* sakkiz gaz yuqorida bir sanduqcha ichida «Mo'yi muborak» bor ekankim, bulg'orlar tarafidan tushurulubdur.

Masjidning har tarafida devori ashkof va temur sanduqlar ichida eski kitob va Qur'oni karimlar eski osori islomiya bor ekankim, bulg'orlar sundurub, o'lja qilibdurlar. Alardan Sul-ton Murodxonning tillo ila Qur'oni karim yozilgan ko'yilagini

---

<sup>1</sup> Shift.

Turkiya davlati bir necha ming soʻmgʻa qaytadan oʻlja etgan kishidan sotib olgani maʼlumdur.

Jomeʼning ichida 1800 qandil, kirilaturgan 9 darvoza temur, baʼzan hallik va baʼzan marmar oʻyma shabaka\*lik 900 dan ziyoda ravshanlik panjarasi bordur. Toʻrt minorasi boʻlub, har biri 3 sharafalik\* va har bir minora ichidan 3 yoʻl ila har bir sharafagʻa alohida zinalar ila chiqilib, minoralarning uchi 80 gazdur. Iyd va ramazon oqshomlari bu minoralargʻa 1200 zaytun chirogʻlari yoqilur.

Muhosara\* asnosidagi bulgʻor toʻplaridan jomeʼning ust taraflari zarar koʻrub ekanki, endi tuzatmoqdadurlar. Sharqiy tarafidan yetti panjara oʻqlardan sinibdur. Yana sharq va xorijdagi sim ustunlardan birigʻa toʻp gullasi\* tegib, barchasini uchurubdurkim, hanuz maʼlumdur. Jomeʼ maydonining bir tarafida katta imoratlar bor ekankim, al-on askar ozuqalari ila toʻladur.

(Baqiyasi\* bor)

«Oyna» j., 1914-yil,  
40-son, 957–962-betlar

#### 40-raqamdan mobaʼd<sup>1</sup>

Manzarasidan toʻymasdan chor-u nochor Sulton Salim jomeʼi sharifidan chiqduk. Bu jomeʼi sharif musulmonlar uchun eng qadrlilik va aziz jomeʼlardandur. Chunki bulgʻorlar Adrnani olganda bu jomeʼni qoʻlgʻa olib va eshiklariga askar qoʻyub, azon-u namozgʻa ruxsat bermay, «Ayo Sufiya» kalisosi badaligʻa kaliso qilmoqchi ekanlar. Bul aroda Turkiyani bosgan bulgʻor, serb, qaratogʻ va yunon hukumatlari arasida ixtilof voqeʼ boʻldi, shundaykim, Adrnani olmoqgʻa yalgʻuz bulgʻorni kuchi yetmadi. Anga yordam uchun serb askaridan 20 ming qadar keldi. Va oxiri ochlikdan Adrna sukut etdi. Turk askari ochlikdan daraxtlar poʻstini va giyohlar tomurini yebdurlarkim, qobugʻi ochilgan va tikka turgan yuzlar ila<sup>2</sup> daraxtlarni koʻzum bilan koʻrdum. Askarlar ochlikdan koʻb oʻlubdur. Quvvatsizlikdan bir toʻp oʻqini oʻn qadar askar zoʻrgʻa toʻpgʻa qoʻyar emishlar: bovujud,

<sup>1</sup> 40-sonning davomi.

<sup>2</sup> Yuzlarcha.

shul o'lgancha ishdan qolgan va yo qochgan askar bo'linmaydur. Shu holda bo'lsa ham shaharni dushmang'a topshurulgani uchun askar norozilik qilibdur. Serbiya askari kelgandan so'ngra Adrna qahramoni Shukri posho yana avvalgidan ziyodaroq qattig'lik ila Adrnani muhofaza qilib, ham dushman va ham ochlik ila muboriza qilubdur. Digar tarafdin Istanbulda Komil posho «Buyuk majlis»ni jamlab, Adrna ahvoli va Turkiyaning quvvatsizligi va Ovrupo davlatlarining: «Adrnani bulg'orlarga'a beringiz», — degan taklifini muzokara qilib, oxiri sulhan Adrnani bulg'orlarga'a bermoqg'a qaror berilib, hatto, kog'azlar yoziladur. Muni «Yosh turklar»ning kattalaridan hozirgi Anvar posho va shahid bo'lgan Mahmud Shavkat posho va boshqalari eshitib, ixtilol chiqarib, «Bobi oliy»ni bosib, harbiya vaziri Nozim poshoni o'ldurub, Komil poshoni bandi etib, Sultong'a ma'qul qilib, Mahmud Shavkat poshoni sadri a'zam qildurib va Anvarbek bosh bo'lub, «Glibuli» tarafidan Adrna ustig'a askar chiqordi. Chatolcha atrofida urushlar ham bo'ldi. Oxiri, loilojona suratda ochlik sababidan Shukri posho Adrnani taslim etmoqchi bo'ldi. Adrnani topshurdi, ammo bulg'org'a emas, serblarga'a... Va muning sababi bulg'orlar ila serb orasida ixtilof solmoq edi. Va haqiqatda Shukri poshoning bu siyosati dushman arosida ixtilofg'a sabab bo'ldi. Chunonchi, Turkiyadan olingan shaharlar ustida Bulg'or, Serb va Yunon orasida nizo chiqdi. Bularning orasida avvaldan yozilgan shartnoma bor edi. Serbiya u shartnomadan ziyoda haqni Bulg'ordan talab qildi.

Bulg'orlar dedi: «Shartnoma yuzasidan taqsim qilarmiz». Anga serb dediki: «Adrnag'a askar yubormoqim shartnomada yo'q edi. Saning iltimosing bo'yincha man Adrnaga askar yubordim va ham Adrnani manim askarim taslim oldi. Bino-barin, Qo'so'va va Manostir tarafidan manga ko'proq joy bermoqing lozimdur». Bulg'orlar munga ko'nmad va oxirda serb ila yunon bir bo'lib, bulg'orlarni urdilar. Bul asnoda Anvarbek to'rt kunlik yo'lni bir kunda yurib kelib, Adrnani bosib, bulg'orlardan qaytib oldi. Bulg'orlar muni bilib, Adrnaning obod yer-u xona-u askarxona-u anborlarga'a o't qo'yub ekanlarkim, bu o'tlarni ham vaqtida turk askarlari etib, so'ndurub, bulg'orlardan benihoyat ozuqa, asbob, miltiq va ko'p adad to'plarni o'lja olibdurlar. Va Sulton Salim jome'i sharifini kaliso bo'lmoqdan qutqardilar. Agarda

Komil posho qarornomasi bo'yincha Adrnani bulg'orlarga sulhan bersaydilar, balki muttafiqlar o'rtasida urush paydo bo'lmas va Adrna shahri abadan ketgan bo'lur edi...

Xulosa, Adrnaning qaytib olingonligining sharafi yosh turklarga va Anvar poshog'a nasib bo'ldi.

Endi sayohatimizga davom etayluk.

Adrna xorijda Saroy ichi atalgan va Tuncha nahrining ikki tarafida yoyilgan eng havondor\* va nihoyat katta daraxtzor besh bordurki, qadima sultonlardan qolgan borgohlarni(ng) xarobalari mundadir. Bu beshaning bir tarafi Adrna, digari balandgina tog'lik va bir tarafi nihoyatsiz askarxona va askariy anborlar va eng katta mashqgoh, lashkargoh va maydonlardur. Muning arosidan Tuncha nahri o'tadurki, biz kelganda askarlar Tuncha ustida urush vaqtida va hujum zamonida ajala ko'fruk solib o'tmoq mashqini qilib turub edilar.

Digar tarafda piyoda va otliq askarlar mashqi va digar bir tarafda yangi yasalgan kichkina otash arobalar ila askarxonalar arosida urush asboblarini tashir edilar. Munda adadsiz xarobazor, yoqilgan imorat, anbor-u askarxonalar ko'bdur. Azbaski, bu yerni ikki daf'a bo'mbalar ila barhavo etdilar. Biri usmonlilar tarafidan barhavo qilindiki, mundagi asbob-u aslahalar bulg'org'a qolmasun, digari ham shul matlab uchun bulg'orlar tarafidan yondurildi. Bovujud shu toshdan bo'lgan devorlariga ta'sir qilmagan. Nihoyat katta askariy qishlov butun turgan istehkom va qal'alar ko'pdur va yana ta'mir bo'lub turubdur. Mundagi maydon va beshalarda yuzlar ila katta chinor va boshqa daraxtlar ko'rulurki, qobuqlari ochilib, och askarlar tarafidan oshalibdur. Yerlarni qozib, tomirlar qobug'ini yebdurlar. Ana, 20 asrning madaniyati va millatchiligi.

Bu bo'lmasa va mundoq fidokorlik qilinmasa, milliyat va dinlar mahv bo'lub ketar...

Bu katta sahroning har tarafi ko'z olguncha askarlar chodirgohidur. Yer-yer askar, to'p, miltiq va ozuqa hamda tog'lardek pichan anborlari. Turklar-da endi ko'zini ochdi. Kafanini bo'ynig'a solib, o'lumini ko'zga olib, mahkam yerlashmoqdadir. Haqiqatan, Adrna Istanbulni(ng), boshqa til ila Turkiya davlati(ning) darvoza va ustunidur. Bu jonxarosh\* va qon asri qiyomat namunalik manzaralardan o'tub, to'plar ila xarob

bo'lgan bir-ikki mahalladan o'tub, Sul-ton Boyazid jome'i sharafig'a kirduk. Katta bir maydon va bog'chalar, undan so'ng atrofi marmar ravoqlar ila ihota qilingan. O'rtasi favvora — shodurvonlik\*, yeri marmar bir hovli va oning qibla tarafida nihoyat katta bir jome'ni bevosita orqasinda Tuncha nahri oqiyur. Va ustinda uzun bir tosh ko'fruk bino qilib, bu mahallalarni asl Adrna shahrig'a rabt\* qilingandur. Jome' maydonining bir tarafida 200 gaz uzunlikda, 30 gaz balandlikda marmar bir imorat borki, bir necha qit'alarg'a bo'lunub, jome' va mad-rasa va shifoxonasi uchun vaqtinda oshxona emish. Muhoraba-dan beri osh yo'q. Maydonni boshqa tarafida uzunligi 300 gaz, eni 60 gazdan ziyoda yerlarni bosgan ko'p marmar imoratlar borki, madrasa va shifoxonadan iboratdur.

(Baqiyasi bor)

«Oyna» j., 1914-yil,  
41-son, 981-984-betlar

#### 41-raqamdan moba'd

Madrasa butun xarob va ichinda bir necha jonlik jamod-dan\* boshqa nimarsa yo'q. Va Buxoroning Bahouddin jivorindagi Amir Doniyol madrasasidek xarobdur. (Amir Doniyol madrasasinda jazom — moxovlar turar.) Na tanho Buxoro va Adrna, olami islomning aksari madrasalari shunday xarob va hasharotxonadur.

Sulton Boyazid shifoxonasi al-on majnunxonadur. Ichig'a kirduk. Katta bir imoratda ayol devonalar va boshqa imoratda erkak majnunlar turar. Bir tarafida tabib va xodimlar va digar tarafida ko'p hujralar borki, eng qo'rqunch devonalarni birin-birin hibs qilinubdur. Devonalarni har biri bizlarga bir nav' harakat etar, ba'zisi kular, yaxshi so'ylar. Ba'zisi so'kar, na'ra urar, digari yig'lar, madad istar. Xulosa, ajo-yib bir manzara ichindamiz.

Sulton Boyazid jome'ining muzayyan va zumurrad rangi-dagi marmardan mehrob va minbari va u toshlarga o'yulgan munbat va naqshlar va muqarnas mehroblar insonni o'zig'a jazb etar. Masjidinda va atrofida har nimarsa bor, yalg'uz odam yo'q. Masjid atrofi murdor va har taraf filsoflikdadur.

Jome' va madrasa va oshxona imoratlariga Bulg'or o'qlari tegib, yengil zararlar etibdur.

Adrnaning har tarafi xarobazor va hatto, shaharning o'rta yerlarig'a vayronalar bordurki, bunlarning aksarig'a muhoraba sababdur. Muhorabadan muqaddam munda yuz mingdan ziyoda xalq bor ekan. Endi 20 ming kishi qolibdur. Bulg'orlar yondurgon ba'zi qishloqlar butun bo'sh emish. Yasmana qishloqi besh yuz xonalik ekan. Endi 5-6 xona qolibdur. Xulosa, Adrna nihoyatda xarob bo'lubdur. Suv, yer, tuproq ma'mur, lekin odam oz, 13-mortdan 10-iyulg'acha bu shahar bulg'orlar qo'linda qolib, musulmonlari ko'p aziyat chekibdur. Quvvati yetgoni har nimarsasini tashlab qochibdur. Endi navbati hijrat bulg'orlarga yetib, musulmonlar butun Adrna viloyat - oblo'stidan bulg'orlarni quvibdurlarki, bu kun viloyatda bir uylik bulg'or qolmabdur. Ya'ni Bulg'oriya tassarrufinda qolgan musulmonlar Turkiyag'a, Turkiyadagi bulg'orlar Bulg'oriyaga o'tibdurlar. Nasoro-u yahudiylar tarafidan yolg'uz Adrna shahrida 166 mayxona ochilib ekan. Adrna voliysi Hoji Odil afandi muning aksarini yopdurmish va hammasini yopmoqchi ekan, qo'nsullar mudoxala qilibdur. Turklarni bir dorulmualliminlari bo'lub, al-on 105 talabasi borki, hammasi laylidur\*. 200 talaba uchun yer bo'lub, maktab uch tabaqadur. Oshxona, taomxona, hammom, mashq va ijtimoi'xonalar\* boshqadur. Atrofida chorbog'i-da bor.

Maktabg'a 12 muallim va bir hikmatxona-da bordur. Bulg'orlarni olgan bir olchinlik to'p o'qlardan bir nechasini munda qo'yibdurlar.

Mundan boshqa maktabi sultoniy, sanoye', dorulaytom (urushda yetim qolganlar) va rushdiy\* hamda 17 bob muntazam ibtidoiy musulmon maktablari bordur.

Yahudiy maktablari boshqa bo'lub, Adrnada ikki ming uylik yahudiyning 2100 talabalik maktablari bo'lub, barcha musulmon shogirdlarini adadi 2100 g'a yetmas ekan. Mundan boshqa rum va nasorolarning bir necha maktablari bo'lub, yana ikki olmon, ikki fransuz, bir itolyon, bir inglis muntazam maktabi va bir fransuz xastaxonasi bor ekan.

Adrnada savdo va tijorat butun yahudiy va nasorolar qo'linda bo'lub, yalg'uz hukumat va o'lmoq musulmonlarga'adur. Katta rasta va chorsularni kezdin, 50-60 do'konda zo'rg'a bir musulmon lavhasi (viveska) ko'ruvub, aksari «Yuhanna», «Sholom», «Niyo'la», «O'rxaydmiyus» va amsoli yahudiy, rum va nasoro ismlaridur.



Yeldirim Boyazid Sultonning jome'i sharifi butun xarob bo'lub, ichi mazbalagohdur\*. (Ana, musulmonlik.)

Va zarif va yakpora nuqradek taxta, sang va marmar stun va muqarnas boshliq porular\* ostindadir.

Adrnada Mixolbek jome'i. Uch sharafli jome' va boshqa bir xeyli muzayyan jome'larni atrofi butun harb xarobasi, ilmsizlik va idorasizlik xarobalari ila ihota etilgandur. Maorif bog'chasi, Rishodiya bog'chasi isminda kichik va ziynatlik bog'chalari bo'lub, ichinda yahudiylar tarafidan sinamato'g'raflar ochilib, kunduz xotunlarg'a, oqshom erlarg'a ko'rsatilur. Bechora musulmonlar bu kasbni harom deb qilmay, ammo bor gunoh pullarini eltib berarlar. Ana ahmaqlik.

Adrnada har nav' meva va g'alladan yetishib, suyi ko'pdur. Merich va Tuncha nahrlari shahar ichidan o'tub, musulmonlar ustinda bir necha ko'fruklar bino etibdurlar va bivositai Adrna bu ikki nahr bir-birig'a qorishur.

Al-on temur yo'l maxattasig'a Adrnani 4 chaqirim masofatida ovropovoriy yangi bir shahar bino qilinibdur. Va asl shaharg'a tosh va soyador bir yo'l ila marbutdur.

Adrnada bir kun turib, tamoman aroba ila yurub, oqshom maxattag'a kelduk. Yarim oqshom otash arobag'a o'lturub, erta birlan Chatolchadan o'tdukki, har taraf o'r, istehkom va askar chodirgohidur.

Yo'lda arozi past-u baland, ammo o'tlik va ziroatdor yerlardur. Taran'da doimo yaroqlik po'lis va jandarmalar bo'lub, Tarandagi odamlar ismini va paspo'rtini yozib turadurlar. Demakki, turklarni ko'zi ochildi. Ammo ba'd xarob al-Basra. Kunduz soat 10. Istanbulg'a tushduk. Vagondan tushganda biri Ovrupo, digari yerli libosinda ikki shaqiy\* anqarib\*, kiyimni urub edilar. Ammo lutfi haq ila ogoh bo'ldum...

*«Oyna» j., 1914-yil,  
42-son, 1001-1004-betlar*

## **Ismoilbek Hazratlari ila suhbat<sup>2</sup>**

...20-iyun, asr vaqti edi. Marg'ilonlik bir mudarris janoblari ila Istanbulning Gulxona parkining soyador yo'laginda yurar eduk.

<sup>1</sup> Aholi punkti.

<sup>2</sup> Jurnalda shu sarlavha bilan berilgan. Muallifning mazkur sayohati xotiralari bilan bog'liqligi uchun kiritildi.

Oldimizda totorcha barra qarako'li telpaklik bir totor ila faslik bir turk ohistalik ila ketarlar edi. Biz tez yurub o'tduk. Ikkisi-da oshinodek ko'rundi. Bir qo'lumni ko'ksimg'a qo'yub salom ishorati berib o'tdim. Ko'nglumg'a keldiki, bu totor Ismoilbekg'a o'xshaydur. Balki onga o'xshash bir kishidir. Faslik turk bo'lsa muharrir Hamdulloh Subhibek janoblari edi. Hanuz o'n qadam ketmab eduk, «Ay, xoja», deb orqamdan oshino bir sado eshittim. Qalbim urub, man bu zotni Ismoilbek hazratlari ekanligig'a shubham qolmay, qaytib musofaha etduk.

Hamdulloh Subhibek huviyyatimizni\* bayon qilib ekan. Muloqot asnosinda derdilar: «Na ichun bu qadar ko'chalanmoq?» (ya'ni, na uchun muncha tez mo'ysafid bo'lmoq?) Man ham biloixiyor\*: «Afandim na uchun bu qadar oriqlanmoq?»

Ustod hazratlari buyurdilar: «Na chora, hissamiz bo'yla...»

Ertag'a Shom va Misrg'a azimat etishimni arz etdim. Unday bo'lsa suhbat etayluk, dedilar. Tashakkur aytdim. Hamdulloh Subhibek afandina javob berdilar. Man ham mudarris afandidan ayrildim.

Parkdan chiqib, arbag'a minib, ustod hazratlarining manzili shohin posho o'telig'a kelduk. Taom buyurdilar. Ammo ishtahalari yo'q. Sadolari xasta va har 3–4 daqiqada hafifgina\* yo'talib, balg'am tashlaydurlar. Hujrada manga Rusiyadan, Turkistondan, umum olami islomdan, dunyodan so'ylaydurlar. Musulmonlarni kundun kun taraqqiy etishini so'ylab xursand bo'lurlar. Yana derlarki, Mahmudxo'ja, endi siz so'ylang, boqolim.

Samarqand, Buxoro, Toshkand, Xiva, Farg'ona, xulosa, har biridan so'ylayman.

– Ollohga shukur. Hukumat maktablarinda Turkistonli qardoshlar bola bermoqg'a boshlamishlar. Bugun 2 jarida va bir majallangiz vor, maktablaringiz-da biroz taraqqiyda. Albatta mustaidi<sup>1</sup> taraqqiy hukumat maktablarinda ziyodaroq bola beringiz. Rus madaniyatidan qochmangiz... Oh, bilimiy, shu Buxoro na o'lur, – derlar.

Man derman: «Afandim, Buxoroni hukumatimiz, ya'ni Rusiya tarbiyat etmaguncha Buxorodan bir shay'i umid etib bo'lmas».

Chunonchi... ustod derlar:

<sup>1</sup> Eltuvchi; yordam beruvchi.

— Evet\*, oxiri sho‘yla o‘lmog‘i lozim kelur.

Yana so‘z boshqa tarafg‘a ketar. Man bir necha daf‘a talabi ruxsat etdim: «Balki zotingiz istirohat etarsiz?»

Ustod hazratlari der: «Xoja afandi, siz burada bo‘linsangiz, banim rohatim ziyoda bo‘lur. Agarda ketsangiz, maktub yozmoqg‘a tutinarman».

Ustod hazratlari fevral oyinda Petro‘g‘radg‘a borib musulmon fraksiyasini Muhammad Fotih afandi va boshqalar ila em etib kelganda, ittifoqan sovuq olib, andan beri noxush bo‘lib ekanlarki, Petro‘g‘raddagi majlis mashvaratg‘a xastalikdan borolmaganlari uchun nihoyatda taassuf etarlar edi. Agarda Istanbul havosi yoqsa, bir necha muddat turmoqchi edilar. Oldimizdagi qishni, Olloh qo‘ysa, Misr al-Qohirag‘a o‘tkazib, anda ham ba‘zi ishlar ishlamoqchi edilar. Qaytishda mani Bog‘chasaroyda da‘vat va Qrimni aftomobil ila birga yurub manga ko‘rsatmoqni va‘da etdilar. Men ham qaytishda Bog‘chasaroyg‘a kirmoqni va‘da berdim, ammo bu manxus\* muhoraba mone‘ bo‘ldi. Muhtaram ustod oriqlagan, yo‘tal va balg‘am har zamon mashg‘ul qilar. Har zamon ruxsat xohlayman, javob bermaydurlar. Izn so‘rab, karavat-qorbo‘lag‘a cho‘zulub, soatlar ilan so‘zlaydurlar. Bir zamon qaracak, yarim oqshomdan bir soat o‘tubdur. Ya‘ni tom 7 soat suhbat etibmiz. Zo‘rg‘a javob berib zina boshig‘acha uzatib, qaytishga Bog‘chasaroyg‘a kirishimg‘a qayta-qayta so‘z oldilar.

7 sana muqaddam ustod hazratlari Samarqandg‘a kelib, muallim Shakuriy va bizg‘a mehmon bo‘lub edilar. U zamon-gidan ko‘ra endi ko‘p orig‘lab ekanlar. Ustod hazratlarini Istanbulda ko‘rmoq va suhbat etmoq hech xayolimg‘a o‘tmagan edi. Ollohning lutfi ila ustod hazratlarining tanhoi 7 soat suhbatlaridan u qadar fayz topib mamnun qoldimki, aytgan ila ado etolmayman va ul suhbatning lazzati aslo mandan ketmaydur. Koshki ertasi Shomg‘a ketmay ustod hazratlari ila ziyodaroq suhbat etsa edim. Oh! Ul ustodi komilni endi qo‘ldan berduk va olami ruhoniyyg‘a uchdi. Balki uyqularda, xulyolar-da\* ul zoti sotuda\* sifatning ruhi ila suhbat etarmiz.

On aysh guzashta, ki digar bor nagardad...<sup>1</sup>

*«Oyna» j., 1914-yil,  
49-son, 1162–1164-betlar.*

<sup>1</sup> Tarjimasi: u ishrat o‘tdi, boshqa qaytib kelmaydi.

## Istanbul. Bo'sfo'r bo'g'oz<sup>1</sup>

...Qora dengiz ila Marmara dengizi bir-birig'a Istanbul bo'g'oz<sup>1</sup> ila yetishur. Qora dengiz sohillarindagi davlatlar: Rusiya, Turkiya, Ro'moniya, Bulg'oriya bo'lub, Qora dengiz sohillarini aksari avvaldan Rusiya, so'ngra Turkiya tasarrufida bo'lub, ozginasi Ro'moniya va bir parchasi Bulg'oriya yerlaridan iboratdur. Yuz sana muqaddam Qora dengiz sohil bo'ylarini(ng) aksari, balki hammasi turklar tasarrufida ediki, beparvolikdan va zamoncha hozirlanmaganlikdan aksarini qo'ldan berdilar. Qora dengiz ila Marmara dengizlarini bir-birig'a ulashturguvchi bo'g'ozni Qora dengiz tarafindagi og'zini Istanbul – Bo'sfo'r bo'g'oz<sup>1</sup> atalib, kirintili va chiqintili bir suratda Istanbul shahrig'acha shimoliy g'arbidan janubiy sharqig'a moyil bo'lub, uzayadur.

Istanbul bo'g'ozining sharqiy sohili Osiyo, g'arbiy labi Ovrupo qit'asi bo'lub, bul bo'g'oz ikki dengiz ila ikki qit'a-ning bir-biridan ayirib va yetishdurguvchidir. Bo'g'ozning Qora dengizdan Istanbulg'acha uzunligi 30 kilo'metru bo'lub, ikki sohil orasindagi eng tor mahali 550 metr va eng keng yeri uch kilo'metrudur (1 metru – 22,5 versho'k).

Bo'g'ozning eng chuqur mahali 52 metru darinlikda bo'lub, eng sayoz yeri 27 metrudur. Qora dengizg'a bir necha shirin va katta nahrlar quyulgoni sababidan Qora dengiz suyi faqat tanjir ila ozaymasdan ortuqcha suvlari bu bo'g'oz vositasi ila doimiy suratda Marmarag'a va andan Oq dengizg'a oqgani uchun Bo'g'ozichi doimo oqintilik va ba'zan fo'rtanalikdur.

Qora dengizdan Bo'g'ozg'a o'taturgon suvini har soniyag'a 30 ming mak'ab\* metr taxmin qilinur. Va shul oqinti va fo'rtanalar talof\* paraxo'dlarini hujumlarig'a ba'zan mone' bo'lmoqdadir. Bo'g'ozning ikki tarafi tog'lik va tepalik orizali yerlar bo'lub, bu yerlarni usti har nav' mevalik va bemeva daraxt va sabza va ziroatlar, bog' va bog'cha, ko'shk va qasr va dilnishin manzil va imoratlardan iborat bo'lub, manzara va ko'runushi nihoyatda dilfirib va ajoyiboti olamdan bo'lub, butun sayyohlarni «valloh» etar. Istanbul bo'g'ozining Osiyo va turklar istilohatincha Anato'li sohilindagi shahar, qasaba

---

<sup>1</sup> O'z nomi saqlab qolindi. O'rniga ko'ra Istanbul davriga olindi: Muallifning o'zi: «Istanbul xotiroti so'ngra yozilur» («Oyna» j., 1914-yil, 43-son, 1030-bet), – degan edi.

va ko'ylarini ismi shudur: Uskudor, Qodiqo'y, Qiziltuproq, Arinko'y, Chomlicha, Bo'lg'urli va boshqa bir necha qasabalar bo'lub, Bo'g'ozni tor yerlarindagilari ushбудur: Quzg'unchiq, Beklarbegi, Changalko'y, Voniko'y, Qandilli, Anato'li hisori, Qoglicha, Chubuqli, Anjirko'y, Bekqo'z, Anato'li qavog'i va o'zga ko'y va qishloqdan iborat va bunlar bir-birig'a muttasil bo'lub, Qora dengiz og'zidan Istanbul ro'baro'sidagi Uskudor shaharig'acha uzayadurlar.

Istanbul bo'g'ozining Ovrupo tarafidagi mashhur ko'y va qasablari ushбудur: O'rtako'y, Arnovudko'y, Babak, Rum eli hisori, Amirkon, Ispaniya, Yangiko'y, Tarobiya, Buykdara, Soriyer, Rum eli qavog'i va o'zgalari. Bu qasaba va ko'ylarda eng oliy binolar va yaxshi muzayyan bog'chalar, to'rt-besh tabaqalik binolar bo'lub va aksari ajnabiy qo'nsullarining yozilik ko'shklari shunda bo'lub, bu ko'ylar-da Istanbulg'a muttasildur. Bo'g'ozning ikki tarafidagi ko'y va bog'chalarg'a kibor xalqi bo'lganidek, dehqon va bog'chador xalqi-da ko'pdur. Istanbuldan bu ko'ylarda doimo shirkati xayriya va boshqa shirkatlarning paraxo'dlari gasht va guzor etmoqda bo'lub, bu ko'ylar Istanbulning mahalla va maysaralari hukmindadurlar. Bo'g'ozning Anato'li yoqasinda Sulton Yeldirim Boyazidxon tarafidan bo'g'oz mudofaasi uchun Anato'li hisori to'pxona va qal'asi va Rum eli tarafinda Istanbul fotihi Sulton Mahmudxon soniy tarafidan Rum eli hisori, qal'a va to'pxonasi bino qilingandurki, bunlar eski usulda va katta toshlardan xeyli metin binolar bo'lub, bu kung'acha poydor, ammo ma'tal\* edi. Va hozirgi muhoraba zamoninda yana bunlardan turklar foydalanib, to'p qo'yubdurlar. Bu hisorlardan boshqa yangi usulda yer ostinda ham ustinda maxfiy va oshkora suratda bo'g'ozni ikki tarafinda, ba'zan tepalarda va ba'zan chuqurlar ichinda ko'p adad qal'a, ta'biya\* va to'pxonalar bino qilinib, har nav' to'plar qo'yulgandur. Oshkora ta'biyalarning to'pi dengizdan ko'runib, hatto, ba'zi to'plarning og'zi va uchi suvdan bir-ikki arshin yuqori va suv ustig'a bir arshin qadar chiqib paraxo'd ustinda o'taturgonlarg'a dahshat berar. To'plardan boshqa bo'g'ozni taxt al bahr mino\* va qayiq va toplatqichlar ila muhofaza etiladur. Mana shu bo'g'ozni og'zig'a yaqin borib, Rusiya harbiy paraxo'dlari Istanbulni tahdid etmoqdadurlar. Va ushbu bo'g'oz Istanbulni shimoliy darvozasi bo'lub, janubiy

darvozasi bo'lsa Qal'ai Sultoniya — Dardanel bo'g'ozidir. Istanbul shahri shimoldan Rusiya bahriyasig'a, janubdan anglis va fransuzlarning yuzdan ziyoda paraxo'd ham taxt al bahr\* va favq al bahr\*, uchquch, suzguchlari hujumig'a hadafdur. Bu hujumlarni natijasi va bo'g'ozlarning chidashi yoinki taslim bo'lushi to'g'risinda dunyo oqillarining fikri har nav' bo'lub, tirik kishi muning natijasini yaqinda ko'rur. Qal'ai Sultoniya, ya'ni Dardanel bo'g'ozini haqinda kelar adad «Oyna»da ma'lumot berilur...

«Oyna» j., 1915-yil,  
13-son, 343–346-betlar

### 42-raqamdan moba'd

(Istanbul xotiroti so'ngra yozilur)

19-sha'bon — 21-iyun fransuz popuri-la ziyorati Qud-dusi sharif va baroi Shom uchun Bayrutg'a azimat etdim. 3-mavqe' 9 so'm. Ba'd az zuhr\* soat 5 harakat etdi. 2 soat yurarmiz. Hanuz Istanbul shahrig'a muttasil xonalar, ko'ylar mavjud. Ya'ni o'ngda Istanbul shahri va so'lda Osiyo qit'asi suzulunur. Bo'g'oz ichinda oq chodirlik baliqchi qayiqdari xeyli ko'b bo'lub, dengiz qushlaridek gasht-u guzor etmakdadurlar.

Oqshom dengiz yuzi oydinlik ila go'yo kumush qoplendi. Va poyonsiz kumush mavjlari ichinda paraxo'dimiz suzulur. Markabi bahriyamizg'a yahudiy, turk, arab, turkistoniy, nasoro, xulosa, Baytul Muqaddasni(ng) har dindan hojilari bordur.

Bir necha turkistoniy birodarlar ayol va bolalari ila hajg'a borarlar va to'rt oila Farg'ona xalqidan hijrat etib ketmoqdadir. Paraxo'dg'a bizni(ng) Turkiston ayollarini(ng) ahvoli nihoyat qattiq va asaflikdur\*. Bu hanjor\* ila ayollarni sudramoq va alarni ayoqlar ostida va paraxo'dni eng yamon joylarida saqlamoq, «dum»larig'a o'ralturub, paraxo'd nardbonidan yiqitmoq... gunohdur. Hamda alarni boisi kulfat va aziyyat va kasalliklari bo'lur. Bu bechora anolarimizni bu holat ila kelturulmasa, yaxshidir. Faranji-chorshoflari bo'lsun, bu «dum»— «quyruq»lar nimag'a kerak? Qirqilsun bu dumlar, toki aziyat va mehnatlari ozaysun.

Ba'zi hojilarimizni kissalarig'a oqchalari bo'lub, sarf etmasliklari va yalg'ondan, biz miskin, deb hammol ila va bir-

ikki g'urush rasm olaturgon, karantin va bandar\* ma'murlari ila urushub yurgonlari boisi ta'sifdur\*. Ba'zilari bir oy muqaddam Turkistong'a pishurulgon sassig' go'shtlar yeb, kasal bo'lurlar. Havo issig', maa fihi\* qazi va ot go'shti yeyarlar. Bir qismi nonni qalanfurg'a boturub ustidan choy ichib, oxiri qabziyat va kasal bo'lur. Koshg'ariy hoji afandi qarindoshlarimizni kasal va iflosligi ko'b ko'runur. Bu so'zlarni aytib, isloh etmak kerakdur.

Kun chiqar. Chanoqqal'a bo'g'ozidan chiqarmiz. Paraxo'd turdi. Turk ma'murlari muoyyana\* va tahqiq\* etib, javob berdilar. To'plarni og'zi bizg'a mutavajjihdur. Bir necha harbiy paraxo'd ham bor. To'plarning og'zi ajdardek ochuq va ustinda to'pchilari-da bordur. Dengiz ostinda mino, ya'ni jahannam moshinalari-da bordur. Paraxo'dimiz bandardan o'tub, hangrab-hangrab yo'lig'a davom etdi. Endi Oq dengiz, ya'ni Bahri abyazi mutavassitdamiz\*.

Chosht\* bo'ldi, Yadalla jazirasig'a\* yetduk. Bu jazira Yunon ila Turk arosinda mutanoze' fiy-yadur\*. Osiyoyi Usmonidan bu jazira tor bo'g'oz ila ajralgandur.

22-iyun, soat 6. Izmir ko'rundi. Ko'rfazi uzundur. Izmirdan bir qayiq kelib, minasiz joylardan paraxo'dni Izmirg'a yaqin olib bordi. Bir necha harbiy paraxo'dlar-da bordur. Shaharda eliktrikli tramvay va shaharni yuqori tarafig'a chiqilaturg'on osonsur — elevato'r<sup>1</sup> yo'li bordur. Atrofi bog'chalik va obod bir shahardurki, Istanbulni Uskudor qismig'a temur yo'l ila marbutdur. Bu zamon ustimizda bir turk tayyorasi uchub, muallaq urmoqda va yerdagilar «Yashasun...» sadosi-la gurlamoqdadir.

Paraxo'dimiz ishini tamom qilsa ham turpil-minallardan qo'rqub, oqshom yurolmay qoldi. Izmirg'a yetmasdan dengiz kanorinda mustahkam harbiy qal'a-da bordur. Izmirg'a 500 ming qadar xalq bordur atrofi ilan.

Ertasi kun chiqgon so'ngra paraxo'dimiz yurdi. Birozdan so'ngra Saqich jazirasig'a yetduk. Bu-da Osiyoyi Usmonig'a nihoyat yaqin va ba'zan orasi ikki ming qadam qadar bo'lib, Turkiya ila Yunon orasinda mutanoze'-an fiy-yadur.

Turkiyaning katta paraxo'dlari kelgandan so'ngra bu jaziralalar ustinda urush bo'lishi muqarrardur.

Popurda bir necha Madinai munavvaralik arablarda bor-

<sup>1</sup> Eskalator demoqchi.

dur. Birisi harami sharifni(ng) muazzini emish. Surushdum, ul dedi: «Harami sharifi nabaviyda 150 mudarris, 200 dan fazla\* imom va xatib bo‘lub, aksarini oyig‘a 216 g‘urushdan, so‘fiylardan qirqini 120 g‘urushdan va qolmalarini ozroq vazifalari bor ekan. Al-on harami sharifi nabaviy eliktrik ila tanvir\* topilib, boblar, minoralar va dar-u devorni oqshomlari minglar ila chirog‘lar va ham hadis va kalimoti sharifani chirog‘ nurlari ila yozib, tanvir qildurar emishlar, ya‘ni harami sharif bir jannatdurki, insonni chiqqoni va ko‘z ayirgoni kelmaydur.

Yo xayra man dufina fit-turobi a‘zam,  
Fatoba man tayyibahunno alqo‘ va-l-okam.  
Nafsi fido‘i liqabrihi anta sokinihi,  
Fihi-l-faofu va fihi-l majdu va-l-karam‘l.

Badaviylar al-on temur yo‘l naf‘ini bilib, xursand emishlar. Hatto, Makka yo‘lindagi badaviylar arosinda temur yo‘l ustinda talosh bor emish. Ya‘ni har biri bizni tarafdin o‘tsun der emish. Madinai munavvarada arab shi‘alari bo‘lub, aksari qassoblik va dehqonlik ila mashg‘ul va masjidlari yo‘q emish. Madinai munavvara shahri temur yo‘ldan so‘ngra obod bo‘lub, katta bo‘lmakda va muhojirlar har tarafdin ko‘paymoqda emishlar. Madinai munavvarada bino qilinaturgon dorulfunung‘a arablar yaxshi ko‘z ila qarar emishlar. Va Turkiya hukumatig‘a muhabbatlari yana ziyoda bo‘lgan emish. «An-nazofatu min al-iymon»<sup>2</sup> edi. Ammo bizlarda emdilik holda, nazofat yuzda bir kishig‘adur. Paraxo‘ddagilarni aksari, balki hammasi nos, popirus, chilim chekar. Har taraf dud, badbo‘y va ifloslik. Temur yo‘lda bu badbo‘ylik yana ziyoda bo‘lar. Dengiz ikkigina qadam ekan.

Yana po‘stxo‘rda\*, piyoz va uzum po‘chog‘i va boshqa nimarsalar ila biz hojilarni atrofimiz to‘ladir.

(Baqiyasi bor)

«Oyna» j., 1914-yil,  
43-son, 1030–1034-betlar.

<sup>1</sup> Ma‘nosi: ushbu tufroqda dafn etilgan, ey Siz tabarruk, fazilatli, ulug‘ inson. Bu joy (Siz tufayli) xushbo‘y (binobarin), fayzlidir. Siz yotgan qabrga jonni fido etmoq (har narsadan) afzaldir. (Chunki) bunda poklik, ulug‘lik, sharaf bordir.

<sup>2</sup> Tozalik – iymondandir.



### 43-raqamdan moba'd

23-saraton ertadan oqshoma qadar Osiyoyi usmoniy yerlarini chap tarafimizga olib, binafsharang suv sahrosini poyonsiz mavjlari orasidan suzularmiz. Har zamon bir jazira va ba'zan baliqchi qayiqlarig'a uchrarmiz. Erta birlan tulu' ila barobar ikki qulochg'acha baliqlarni bir-biri ila o'ynashgani va bu hur hayvonlarni harakati shoyon tamoshadur.

Paraxo'dimiz 24-iyun Ro'dus jazirasig'a turdi. Bir itolyon do'xturi odamlarni muayyana uchun suruklab\* birin-birin oldidan o'tkardi. Itolyon po'lisi nardbong'a\* turar va ondan ruxsatisiz bir kishi jazirag'a oyoq bosmas. Turablis mahorabasi vaqtinda 12 jazirani Usmonlidan zabt etib edi, bularning biridir.

Itolyonning ikki harbiy fo'lodlik paraxo'di jazirani qo'riqlab turubdur. Paraxo'dg'a bir necha kafkazlik cherkas musulmonlar haji sharifg'a ketarlar. Ruscha va cherkaschadan boshqa til bilmaydurlar.

Ruscha: «San nasoromisan?»— deb so'radim. U qadar otashin bo'ldiki, ko'zlari ila mani yerd. Javobig'a: «Cherkas hamasi musulmon, xristioni yo'q, bilmayurmisan?»— dedi. So'ngra man uzr istadim.

25-saraton Qibris jazirasini o'tduk. Bu turklarniki edi. Endi ingliz tasarrufindadur. Ikki kundur ham issig', hamda tush vaqti biroz fo'rtana o'lur.

Ikki qarish uzunlikda pishakdek katta bir kalamushni popur xizmatchilari quvadurlar. Kalamush odamlar va yuklar ustidan qochar, tutub bo'lmaydur. Quvaturgon xizmatchilarni adadi ko'paydi. Ani har tarafdin ihota etdilar. Qahramon kalamush oxiri yo'l topib, ip nardbondan yuqori chiqdi. Xizmatchilar-da orqasidan chiqdi. Kalamush boshqa tarafdagi 20 gazlik ip nardbondan tushib, paraxo'd ichig'a qochib qutuldi. Matrosalar-da labini yalab qoldi.

Bu kun 5-kundur, paraxo'dg'amiz. Har kim zerikkan. Oqshom soat 11, Bayrut sohilig'a yetduk.

Bayrutni har tarafi charog'on, eliktrik nurlari nazar jazb etar.

Paraxo'dg'a yotduk. 26-iyun Erta birlan qayiq ila chiqduk. Trablis muhorabasi vaqtida italyonlar boturgon bir turk paraxo'di shahardan yuz qadam dengiz ichinda hanuz yotar.

Bir soat tavqif etduk. Otash aroba hozirlandi. O'lturub Shomi sharifg'a jo'nadik. Bir-ikki kichik tunnel va tosh ko'f-ruklar ostidan o'tib, ikki tarafi bog'chalik yerlardan kechar-miz. Hama tok, zaytun, anor, xurmo, anjir, patak anjir bog'chalaridur.

Ekinjoylarg'a har uch gazg'a bir tut niholi o'tqurulub-dir. Har yil bir-ikki daf'a tutlarni shoxi o'rulub, ipak qurti va yo hayvonotg'a berilur ekan. Bargi alarg'a tu'ma\* va cho'bi o'tun bo'lur. Tutni faqat tanasi qolib, eking'a soya solmas. Munday tut va osti ekin maydonlari nihoyatda ko'pdur, bo'sh yer yo'q. Bog'lar temur yo'lg'a u qadar yaqinki, mevalarni otash aroba ustida uzmoq mumkindur.

Ikkinchi maxattadan Jabali Lubnon ayalat\* mumtoza-sig'a kirarmizki, bu yer nasoro arab bir bek tasarrufig'a bo'lub, Turkiya hukumatig'a tobe'dur. Xalqi arab nasorodur. Biroz musulmon-da bor. Hamasi arab libosindadur. Otash aroba doimo baland tog'larg'a egri-bugri yo'llardan chiqar. Temur yo'lni o'rtasinda yana soat charxidek dandonalik bir temur xati borki, vagonlarni saxlaydur. Butun Jabali Lubnon qishloq va qasabalari xush havodur. Tog'larni tepa va yamoch va soylarinda yoyilgan va yaxshi yerlarinda a'lo sayfiya\* bog' va uch-to'rt tabaqalik tosh ovrupoyi imoratlar bino qilingandurki, Misr tarafidan boylar kelib, yozni munda o'tkararlar. Meva-da ko'p.

3 soat yurub, tog' tunnellaridan o'tub, Jabali Lubnon hududidan chiqduk. Emdi Shom yerlarig'amiz. Ochiq bir vodi-y. Har tarafi bog'cha va ekin yer, har nav' meva va chashma suvlari nihoyatda ko'p. Arab bolalari meva sotarlar va bizni Turkistondek mevasi arzon, yeri qizil kesakdek qizildur. Salqin va sof bir havo yutarmiz. Toklarni aksari, balki hamasi lalmi va toklarni bir-ikki quloch tana-zirnagi bo'lub, uchidan shoxa qo'yulgan, ya'ni toklar yerg'a yotgan daraxtdekdur.

Bir-ikki maxatta bu keng vodi-ydan o'tub, yana oq va qizil rang tog'lar orasig'a kirduk. Tarafayn\* baland tog'lar o'rtasidan bir nahr\* oqar. Nahrni ikki tarafi muttasilan bog'chalar, ko'y va qishloqlar, besh-o'n maxatta bu latif manzaralardan o'tar-miz. Muzlik suv chashmalari. Arab bolalari chashmalardan to'g'ri suv olib musofirlarg'a sunar. Biz-da baxshish berarmiz.

Shomg'a ikki maxatta qoldi. Shom sayfiyalari va kibor

xalqi uchun qilingan javlongoh va qahvaxonalar umumiy va tabiiy bog'chalar orasidan ketarmiz.

Xulosa: baland tog'larni yamochindagi bog'cha va o'rta-sindagi shaffof nahrlar orasidan o'tub, Shomi sharif shah-rining maxattasig'a yetduk.

«Oyna» j., 1914-yil,  
44-son, 1045–1048-betlar

#### 44-raqamdan moba'd

Shomi sharif maxattasig'a indim. Bir necha turkistoniy, buxoriy, eroniy va arab dallol va no'miro'tel xizmatchilari atrofimni oldilar. Har biri yuklaring'a qo'l uzatmoqda va yuklarni olmoq uchun bir-biri ila so'kushmoqda va har biri tumshuqungni ostig'a suqulub, o'z manzilig'a seni taklif etib, boshqasining manzilini yomonlamoqdadir. Charchagan ki-shini yana kulfat berib, nomuloyim harakatlari nerv-asabingga to'qinadur. O'n qadar bu musofirlar sayyodini har biri ila g'ovg'a etib, qo'llaridan nimarsalarni tortib olib, hammolg'a ko'tarturub, arobag'a qo'yuldi.

Yana orqangdan qolmaydurlar. Birisi der: «Man eroniy va sanga hamshahardurman, seni o'z manziling'a olib bor-moqg'a haqqim bor».

Man dedim: «Faqat kulohim eroniydur». Maa fihi atro-fingdan ketmaydurlar.

Dedim: «Sizlar bu mamlakatg'a kelib shu qadarmi odam-garlikdan chiqdingiz?..»

So'z ta'sir etmas. Biri aroba ichig'a, digari arobachi yonig'a mindi.

Man dedim: «Hech biringni o'telingg'a bormayman, mo-domiki, sizlar bu qadar adabsizlik qilarsiz». Qulog'iga olmas.

Aroba jo'nadi. Ammo arobada ikki nafar hoji sayyodi. Arobachig'a dedim: «Bu ikkisining o'telig'a ketma. Balki sha-harning o'rtasinda va eng a'lo bir o'telg'a hayda». Arobachi arabcha: «Bil-raiswa ala ayn»,— javobini berar. Bir xeyli haydadi. Birisining o'teli oldidan o'tduk. Arobani saxlattur-di\*. Nimarsalarni o'z ixtiyori ila tushurmoqchi. Loiloj qo'lum ila, shamsiya ila o'telchining turkistoniy xizmatkorini urdim, azbaski hayvoncha etib so'kmoq ham kor etmaydur. Bo-shimg'a salla, eynimda joma yo'qlig'i aning sharridan\* qutultirdi. Agarda hoji libosi ila bo'lsang, bu nobakor dallol-larni bandasi bo'lding-ketding.

Biroz nari ketib arobachi yonig'a o'lturgan arabning o'telig'a indum.

Dorus-surur o'teli 3 tabaqalik, bog'cha va favvora va har nav gulistonlik taomxona va choyxonalik, usti shisha va osti marmar farshlik a'lo bir o'tel. Chiqib ko'rdum. Mani xohlaydurgon hujra yo'q. O'teldan chiqib qaragam, arobadagi yuk ustinda ushbu o'tel xizmatchisi ila boshqa birisi urushubdur. Po'lis hozir bo'lub, mudoxala qilmoqda.

Po'lisdan so'radim, musulmon mulki va musulmon ijorasindagi 3 tabaqalik osti marmar, usti shisha a'lo bir o'tel ko'rsatdi. Angiltara o'teli musaffo, karavat va asboblikdur.

2-tabaqadan bir hujrani yetti g'urush, ya'ni 6 tiying'a olib kirdim. O'tel xodimlari va hamshahar dallollarni maxattada hojilarg'a beraturg'on aziyatlari tahammuldan ziyodadur.

Shomi sharif o'tellari a'lo va arzon. Taom va meva-da arzon. O'tellarg'a favvora va devorlar orasindan hojatxona va oshxonalarda mil ila kelturilgan joriy suvlar doimo bordur. Har o'telda majjoniyy sovuq hammomlar va a'lo taomlik oshxonalar va har hujrag'a suv va majjoniyy sobun va sutdek yotoq pardalar va dastmollar va karavat ustinda oq turun (pashshaxona), eliktrik chirog'lar, xulosa, asbobi istirohat mukammaldur. Misr, Istanbul, Shom va Bayrut no'meralari arzon va eng a'lo va mukammal va yalg'uz kishig'a bir uyi bir yarim so'mdan 50 tiying'achadur. Ba'zi uyg'a 3-4 karavat borki, 20 tiyindan 50 tiying'acha har karavati ijarag'a berilur.

Hojilar uchun durust manzilg'a kirmoq muhim masaladur. Dallollar so'zig'a kirib, kir va taxtakanalik joylarga bormoq durust yo'q. Ammo bu qadari borki bizni ba'zi hojilar davlatlik bo'lsalar ham tablik, iflos, majjoniyy takya va yoinki nihoyat arzon, murdor yerlarni tarjih\* etarlar. Bizni hojilar yo'lda aksariyatan u qadar kir bo'ladurlarki, durust o'tellarg'a borganda ham qo'ymaydurlar.

Shomi sharifda majjoniyy takya ham bordur. Odam boshig'a 15 tiyin oladurgon joylar-da bor. Dallollarni hoji ovlamog'i butun askala\* ham vagzollarda joriydurki, bu ovchilarni(ng) aksari, balki hammasi o'zimizni buxoriy, turkistoniy sarsari hamshaharlarimizdur. Tabiiy, ichlarinda to'g'risi-da bor, ammo aksari kazzob va aldovchidur. Hojilarni shaytanat etib\*, ba'zan Istanbul va yo Shomdan Makka va yo Misr uchun tijorat moli olib berarlar. Vatang'a savg'o olib borarsiz,

deb hojilarni og'ur qilib mol olib berarlar. Hojilarg'a lozimki, qaytishg'a keraklik nimarsalarini olsalar va hojilarni doimo qushdek yengil bo'lishlari lozim. Har yerdan non va taom topilur. To'rbalarg'a qoq non va talqon ko'tarmoq kulfatdur.

Bir-da pul masalasi bor. Har bir hojig'a lozimki, mamlakatidan yonig'a yuz so'm saqlab, boshqasini bonkag'a berib, Odis, Sevastopo'l, Botum, Istanbul, Bayrut, Shom (Damashq), Quddus (Iyerusalim), Qohira, Iskandariya, Po'rt Said, Jidda shahrlaridan istaganimcha olarman, deb bonkadan akkerditiv ismindagi havolanoma kog'az olsun, bu taqdirg'a bonka har bir ming so'mg'a 3 so'm qadar masrif\* olur. Va ham berilgon pulg'a bonka foyda berar. Olgan kuni-g'acha pulni bonkag'a berishg'a paspurtdagi ismini aynan bexato yozdurmoq kerak. Qo'li bor odamni qo'lining namunasini teyishli bonklarg'a avvalan yuborilur. Pul egasi, masalan, Istanbuldan borib olmoqchi bo'lsa, yana qo'l qo'y-durub, avvalgi qo'l ila solishturib ko'radurlar. Agarda qo'li boshqa chiqsa, pul berilmaydur, balki taftishg'a berilur. Va hamda pul egasining qo'lig'a bir daftar va bir taxta blanka kog'az berilur. Bu kog'azlar ila boshqa odam borsa, oqcha ololmaydur. Agarda pul egasi o'lsa, oqcha hamrohlarg'a va yo dallol va baytul mol\*g'a qolmasdan varasag'a\* tegadur. Va ham o'g'ridan xotirjam bo'lub, hoji tinch bo'ladur. Ammo zinhor birovni kog'azi ila boshqa kishi bonkadan pul olmoqchi bo'lmasunki, tergov va hibsg'a tushub, hajdan va yo'ldan qolib jazo chekar. Turkiya va yoinki xorijiy bonkalari yo kog'az oqcha va yoinki oqcha bozorining narxi yuzasidan hoji talabi bo'yuncha Turkiya oltuni va yoinki fransuz, anglis va yoinki Misr oltun va yo kog'az oqchasini berarlar-ki, har yerda o'tar. Alarni sindurgonda bonkalarg'a sindurmoq kerak. Chunki sarroflar\* sarfini ko'b olur. Va ham tezobg'a\* solingan noqis\* oltunlarni berarki, kam yurar.

Shomi sharifda kelgan hoji afandilar «Quddus» o'telig'a tushsalar, mamnun bo'lurlar. Maxattag'a va shaharg'a yaqin, piyoda bormoq-da mumkindur.

(Baqiyasi bor)

«Oyna» j., 1914-yil,  
45-son, 1077–1081-betlar

Shom shahrining asl oti Damashqdur. Shom ismining asli «Sho'mun» bo'lib, arabiy so'l, ya'ni chap ma'nosini ifoda etguvchi va Yaman qit'asi muqobilinda, ya'ni Hijozi mag'firat tarozg'a\* nisbatan chap tarafda voqe' bo'lgan mamlakatg'a arablar tarafidan berilgan bir ismdur. Butun mamlakatni «Baroi Shom – Suriya» ham atalib, Nafsi shaharini o'zini «Damashqi Shom» ataladur. Ushbu shahr Qosyun va Jabalushshayx tog'larining etagidagi havodor bir vodiy – soyg'a va yashil bog'chalar arosinda voqe'dur. Qosyundan inaturgon Bardi nahrining barroq va latif-ul-hamimlik\* muz suyi bir necha arig'lar ila shahar va atrofini suvlaydur. Ushbu suvdan Shomni aksar havli va uylarig'a favvora va tahvili ma'\* ila hatto, oshxonalarg'acha joriy suv kelturgondur. Shaharning bir qismi Imora va bir qismi Salohiya atalur. Shaharda uch-to'rt tabaqaq'acha imoratlar bo'lub, axiyan yo'l va obodlikig'a hukumat harakat etubdur. Shahar Suriya viloyatining markaz hukumati bo'lub, Turkiyaning Osiyoi Usmoniyag'a birinchi shahridur. 200 ming qadar xalqi bo'lub, 170 ming muslim va baqiyasi rum, kato'lik, prutistant, suryoniy va olti ming qadar yahudiy bo'lub, bu xalqning barchasi xoh musulmon va g'ayri musulmoni arabiy so'ylaydurlar. Shaharga 300 qadar jome' va ko'b eski maktab va bir necha eski madrasalar bordur. Yangi maktablar bo'lsa, shundan iboratdur: hukumatning Mulki e'dodiy\*, Mulki askariy\*, Mulkiya'i rushdiyya\*, Askariyai rushdiyya, Sultoni turkiy, Sultoni arabiy va yana bir necha ibtidoiya maktablari bordur. Hukumatning yana bir «Maktabi sanoye'»\* i va iki katta kutubxonasi bordur. Nafs shahrida bir necha matbaa va 2–3 jarida chiqar. Xalq va jamiyat tarafidan idora qilaturgon arabiy Islom nizomi maktablari ushбудur: Vatan e'dodiyyasi, Madrasa at-taraqqii rushdiyya, Ittihodi\* rushdiyya, Savq ut-Tiyn rushdiyya, Madrasa ash-sharqiya rushdiyya, Ta'lim ul-vataniya rushdiyya va yana bular uchun bir necha ibtidoiya maktablar, shaharda musulmon arablardan ajza'xona – aptik bor. Va har yerda musulmon do'qturlarning lavhalari ko'runur. Musulmonlar qo'linda muz fabrikasi, tamboku\* va popirus, najjori va sadafkori yig'och ishlari fabrikasi, ipak fabrikasi, harir boqi fabrikasi

hamda shisha fabrikasi bordur. Jome'larining birinchisi va balki Makka, Madina va Quddus haramlaridan so'ng sharaflik va muzayyan jome'i – «Ummaviyya jome'i sharifi»dur.

Shaharg'a kirgan kunni(ng) ertasi ziyoratig'a musharraf bo'ldim. Bu jome'ning asl yerinda eski bir ma'bad yoinki butxona bor ekanki, so'ngralari kalisog'a tabdil va xarob bo'lub ekan.

Xulafoi Ummaviyadan Valid bin Abdumalik bin Marvon tarafidan sanai hijriyaning avvalanchi yuzinda ushbu nazirsiz jome'i sharif bino qilingan va dunyoning birinchi muzayyan va san'atlik jome'idurki, muxtasar va sathiy suratda muhtaram xonandalar uchun kayfiyatidan yozarmiz.

Avvalan har to'rt tarafi baland toq-u ravoqlar aylanturgon va marmar sayqal berilgan toshlardan bino qilingan katta bir murabba' va mustatil\* haramg'a kirilur. Haramni(ng) ichi tamoman sayqal berilgan marmarlar ila farsh bo'lub, safosi va tozaligi mubolag'asiz, sut to'kulsa, yalamog'i mumkin darajadadur.

Haramni(ng) barcha tarafi bozor va rasta bo'lub, har tarafidan bir necha darvozalari borki, haramga kiraturgon xoh ayol va er bo'lsun kafsh va etiklarini sug'urub kirarlar. Va har tarafinda doimo bavvob\* va xuddomlari\* bordur.

Man kalushni chiqorib etik ila haramg'a kirdimki, orqamdan o'n qadar arab bolalari ergashib, «Isla', yo hoji, haram», deb bezor etdilar. Oxiri, chiqarmoqg'a majbur bo'ldim. Uch tarafi ravoq va bir tarafi masjidni mushtamil\*. Haramni uzunligi 240 gaz, eni yuz gaz bo'lub, o'rtasi marmar sahnur. Va sahn o'rtasinda hashtsu bir marmar favvora shodurvonlik joriy havz bor. Va haramni har tarafinda bir necha favvoralik, vuzu'\* mahallari bordur. Asl jome'i sharif ushbu haramni qibla va to'loniy tarafinda bo'lub, nafi jome'\* ichining tuli 210 gaz, arzi\* 58 gaz bo'lub, masjidni ichinda yakpora qirq dona marmar stun bordur. Har bir marmar stunlar yana marmar ravoqlar ila bir-birig'a marbut bo'lub, yana bir ravoqlarni har biri ustida ajoyib suratda ikki donadan ravoqlar yasalib, oning ustinda masjidni sahfi bino qilingandur. Masjidni to'rt tarafi yerdan 8 gaz yuqorig'acha devorlar musayqal, guldor va javhardor oq va ko'k va qora a'lo jins katta oyinadek jilolik samoq\* va marmarlar ila bino

qilinib, bu marmarlar unday ustolik ila bir-biriga vasl qilinibdurki, darzini topmoq mushkuldur.

Uzunligi 4–5 gaz, eni 2–3 gaz marmarlarni ustig‘a qozma va qabartma munabbat\* islomiy gireh va naqshlar qozilib, bizni mamlakatda ganch ustinda devorlarga namoya, mehrob, iroqi, muqarnas, munabbat, morpech...\* qilganlaridek, raxom\* ustig‘a ajoyib naqshlar o‘tkaribdurlarki, insonni har bir tosh o‘zig‘a parastish\* etar darajasig‘acha taxsir etar. Har naqadar diqqat etsang, ul toshlardagi musulmon san‘ati ul qadar ortiqcha jilva etar, go‘yoki har bir tosh bir sanamdur. Stun boshliqlari u qadar san‘atlikdurki, ko‘rmaguncha inonilmaydur. Masjidi sharif devorining qalinligi 4 gaz bo‘lub, qibla tarafidan bozorg‘a qaragan muzayyan bir eshigi bordur. Masjidg‘a 2 mehrob bo‘lub, har birining balandligi 8 gazcha bo‘lub, mehroblarni ikki tarafinda va ichinda hamda ustinda marmar va javohirlik musayqal toshlar ustindagi qozma va qabartma naqshlar insonni duchori hayrat etar. Butun mehrob va atrofidagi toshlarga xolis oltun qabartmalar ila oyat va hadislar yozilgan sadaf, aqiq, zumurrad va zabarjad toshlaridan charxi ishlab, marmarlar ustinda mosh va naxuddan boshlab danak kattalig‘igacha mayda, shunday muzoyiq va koshinkorilar etganki, o‘zbekcha so‘ylayin bir taboqday joyig‘a bir soat qaragan ila ko‘rub tamom qilolmaysan. Inson o‘zini bir olam hunar, bir dunyo san‘at ichinda ko‘rub, avvalgi musulmonlarning din yo‘linda etgon say‘i va qilgon ixloslarining hamda hunar va nafis san‘atda etgan taraqqiylarining va sarf etgan pul va g‘ayratlarini o‘ylovig‘a g‘arq bo‘lub, ko‘zi tinar va hech nimani ko‘rmas darajasig‘a kelur.

Yo Rabbii! Musulmonlar va u badaviy arablar bu qadar qadarmi ahli san‘at bo‘ldilar? Iloho, bu na xoriqadur\*. Bir so‘z ila tamom etayin. Roqimi huruf hind, eron va ispaniyo jome‘laridan boshqa islom olamining barcha jome‘lari ziyoratig‘a musharraf bo‘ldum va ammo jome‘ Ummaviyyadek ziynatlik va osori nafislik bir jome‘ ko‘rmadim. Yonimda amirkoyi nasoro bir sayyoh bo‘lub, turk bir tarjumoni-da bordurki, soatlar ila ushbu mehrob huzurinda edi. Biroz so‘ylashduk. Ul dedi: «Hind, Ispaniyo, Eron va Turkiyani,



xulosa, Hijoz va Xitoydan boshqa butun Sharq olamining jome'larini va asori nafisasini ko'rdum. Ammo bu jome'dagi arab san'atining boshqacha maziyyati\* bordur. Italiyo haykaltaroshlikda dunyoda birinchidir. Ammo arablarning ma'noyi sahihi\* ila bu diniy «haykal»lari — mehrob va minbarni ko'rsatib der: «Har bir san'atni muvofiqdur. San'ati nafisa ila jazbiyati ruhoniya quvvatlari bir bo'lub, insong'a turfa va ajoyib ta'sir etar. Va bir haftadan beri har kuni kelib qarayman, yana avvalgidan ziyoda nafis va yaxshi ko'runur...»

Ana, bir amrikoyining so'zi.

Ummaviyya jome'inda ikki mehrob bo'lub, birisi nisfi shimolining nisfmda, digari masjidni tom yarminda voqe' bo'lub, bu mehrobni 6 gaz fosilasida\* yigirma qadar zinalik va eshik ila chiqilaturgon, har tarafi muzayyan, muttalo, munaqqash va o'ymakori zabarjad rangidagi rahomlar ila shabakalangan\* ajoyib dilfireb va sehromiz rango-rang samoqlardan bino qilingan bir minbari sharif bo'lub, ustinda chahortark\* munaqqash bir qubba va aning ustinda muttalo bir qubba va oning ustinda «oltun hilol» qo'yulgandur.

O'rtadagi mehrobni so'l tarafinda masjid ichinda muzayyan samoq va marmarlardan bino qilingan shirin va latif, nihoyatda san'atlik bir qubba bo'lub, ichi hazrat Yahyo alayhissalomning marqadi shariflaridur. Yana mehrobni so'l tarafidagi devorinda Hud<sup>1</sup> va Hizr alayhissalomning maqomi muboraklari bordur. Masjidning qiblag'a muqobil tarafi, ya'ni namoz o'quganda orqa taraf, asl binoda faqat ochiq ravoqlardan iborat ekan. Ammo al-on ravoqlarni aksari berkilib, 4—5 ravoqg'a asl vus'atig'a muvofiq katta eshiklar o'tqurulubdur.

Masjidni yeri a'lo va musayqal marmarlar ila mafrush\* ekan. Al-on qimmatlik hasirlar\* ila o'rtulub, ustinda Istanbuldan yuborilgan eng katta va rango-rang 130 dona pat, asl qolin soling'andur. Masjidni har birinda sadafkori san'atlik ajoyib ko'p adad lavhlar va ustinda Qur'oni karim va Hadisi sharif kitoblari qo'yulgan, har kim o'qumoqdadir.

Masjidi sharifning qandil va shamdon toqimlari ko'p va xeyle zarif bo'lub, eliktrik ila tanvir qilinib, oqshomi chirog'

---

<sup>1</sup> Hud — Yahud.

nurlari u musayqal marmarlardan aks etib, yana ajoyib husn paydo etib, g'arib kayfiyatda jism-u jong'a ta'sir etar.

15 sana muqaddam shaharg'a voqe' bo'lg'on bir yong'in masjidg'a siroyat\* qilib, saqqig'a zarar kelturub ekanki, hozirgi ust po'shishi ajoyib suratda san'atlik yig'ochlardan bo'lub, har nav' ranglar ila nihoyat zebo va devorig'a yoqishiq kayfiyatda naqshlangandur. Ta'miri xaloyiq va hukumat tarafidan bo'lubdur.

Haram atrofida uch katta minora bo'lub, biri minorai bayzo\* va hazrati Iso alayhissalomni nuzullarig'a mansubdur. Haram sahnida uch yerda qori va muazzinlar uchun bino qilingan maqsuralar bordur. Masjid ichig'a kirsang, har nimsadan sivo\* bo'lub, ruhoniya va oliy hislarg'a va ravshan bir moziyning sahhor\* ta'siri ila mahviyat darajasig'a kelib majburona ubudiyat sajdasi'g'a ketarsan. Va Oллоhi zuljalol dargohig'a o'zungni ko'rub, lohutiy\* bir holat ro'y berib, dunyoni unutarsan, qalbing, jisming yolg'iz Oллоh der.

*(Subhono zi-l-mulk val-malakut)*

(Baqiyasi bor)

«Oyna» j., 1914-yil,  
46-son, 1095–1101-betlar

#### *46-raqamdan moba'd*

Ummaviyya jome'i haramning bir tarafida mashhur Sulton Salohiddin Ayyubiyning qabri bordur. Bu jome'dan boshqa 999 sanai hijriyada Sinon posho tarafidan bino etilgan jome' Sinoniya va yana Darveshiya jome'i, Jomut-to'bo va boshqa jome'lar nihoyatda ziynatlik va yeri a'lo gilamlar ila to'shalgan, ajoyib qandillar osilgan va har biri bir podshoning katta borgohidek dabdabalik jome'lardur.

Damashq ash-Shomning Solihiya qismi asl Shomg'a eliktirikli qo'sha tramvay ila rabt berilgan va Shom markazig'a 30 daqiqalik yo'ldur.

Shayxul akbar Muhyiddin Arabiy hazratlari va yana ko'b salohaning\* marqadi shariflari shundadur.

Solihiya – Salohiyaning ustindagi Qosyun tog'inda ba'zi payg'ambarlarning ziyoratgohlari bordur. Salohiyaning o'n ming qadar xalqi va a'lo bir necha jome' va bozorlari bo'lub, atrofi butun bog'iston va joriy suvlardur.

Muhyiddin Arabiy ziyoratgohining ustinda oliy bir imorat va muhmal\* zardo'zi po'shishlar bordur. Madxalinda\* ushbu bayt yozilgandur:

Qutb-al-aqtobi<sup>1</sup> jahon hazrati Muhyiddinkim,  
Rub'i maskunda\* deyur hazratina: «Hazrat shayx!»  
Xotami\* ahli viloyatdur u g'av-s-ul a'zam,  
Sharq-u g'arbi, na ajab, tutmish esa shuhrat shayx.  
Bir zamondan beri arkoni tazalzul\* o'laraq,  
Manhadam\* o'lmag'a mayl etmish edi turbat shayx.  
Etdilar sarf nuqud\* himam\* aksar ashrof\*,  
Bois fayz dukun o'lmoq uza xidmat shayx.  
O'ldi bu mazjai oliyi muqaddas ma'mur,  
Etdi ta'mir haqiqatda ani qudrat shayx.  
Bandai xos, ziyoli bu isha qildi qabul,  
Aylayub voliyi Suriyani himmat shayx.  
Xoki iksir edar, albatta, nigohi karaming,  
Mazhari fayz nazar qil mani, yo hazrat shayx<sup>2</sup>.

(1294)

Shayxul akbar daxmasinda doimo ziyoratchi ko'p va daxma atrofinda marmar va a'lo bir havli va bir tarafinda nihoyatda ziynatlik marmar bir jome'i sharif va havli o'rtasinda musayqal toshlar ila bino etilgan katta bir favvora bordur.

Daxma xorijinda katta bir g'urabo oshxonasi mavjud bo'lub, fuqarog'a doimo hukumat tarafidan majjoniy taom (chulon) berilur. Biz borib ushbu chulondan tanovul etduk. Chulonxo'rlarni(ng) adadi 200 qadar edi. Ba'zilar tabaq-tabaq olib ketmoqda edi. Ziyoratdan chiqib, aroba ila 6 chaqirim bog'chalar ichidan ketib, Dumor, Rabvoh sayrongohlarini tamosh o'lduk. Shomning markazidan har tarafig'a 2 xat eliktrik tramvay ila ketar va har yerdagidek bu tramvay beljicklarnikidur\*. Bayrut ila Shom arosinda 12 soatlik temur yo'li nemis shirkatig'a bo'lub, 2-darajasi 4 so'm 60 tiyin. 3-si 3 so'm 20 tiyindur. Shomdan yana bir temur yo'l Halab tarafinda ishlamoqda va ushbu yo'l Bag'dodg'acha ishlanmoqda va nemislar qo'lindadur. Shomdan yana bir temur yo'li Hayfog'acha uzayib, Hijozi mag'firat Taroz temur yo'lig'a qo'shulub, bu yo'l turklarni o'z qo'lig'adur.

<sup>1</sup> Qutb-al-aqtobi — qutblar qutbi.

<sup>2</sup> Shayx Muhyiddin ibn al-Arabiy (1165–1240) tasavvuf ilmining, xususan, «vahdati vujud» ta'limotining asoschilaridan, asli andaluziyalik (Ispaniya).

Shomda 5–6 katta qahvaxona va teatrxonalar va 3–4 sinamato‘g‘raf xonalar bo‘lub, yaxshigina oqshom hayoti bordur. Markazda bir sayrongoh va ancha yaqin muzayyan va temur panjaralik «Ummat bog‘chasi» bordur.

Qahvaxonalarinda muskirot qismidan yo‘q. Faqat choy, qahva, norgila, muzlik va shirin sharbatlar va taom va erkak xonanda va musiqalar bo‘lub, yana bir qisminda bular ustinda musiqiy dastalar ila ayol raqqosa va xonandalar bordur.

Yo‘l va bozorda ozgina mastlik zohir bo‘lsa ham hukumat hibs etar ekan. Hatto, zohiriy mayxona yo‘q dedilar. Shom, Misr va butun Turkiya mamlakatig‘a sinamato‘g‘raf va musiqi ham raqslilik qahvaxonalar soat o‘ndan so‘ngra ochilur ekanki, sababi, oqshom namozining rioyasi va digari kech bo‘lub, shoyadki xalq oz borib, behuda masorif ozaysun. Oqshom namozi ham biroz ta‘xir<sup>1</sup> ila o‘qulub, namozdan so‘ngra va‘z va salovadxonlik xeyli cho‘zalur. Bizlarnikiga o‘xshab faqat bir namoz emasdur. Istanbul va Misr masjidlaridek Shom masjidinda ham ayollar namozg‘a kelar ekanlar-ki, Muhyiddin Arabiy va Ummaviyya ham Sinoniyya jome‘larinda dastalar ila muslimalar kelib, namoz o‘qumoqda va ba‘zisi 3–4 lab sahn va yo masjid ravoqlarining kunjida o‘z uyidek tikish tikib o‘lturgani ko‘ruladur, ammo faranji ilan.

Shomg‘a badaviy va shahariy arablarning har qismi mavjuddur. Masalan, shahar xalqining aksar yoshlari ovrupoyi libos ila faqat boshlarig‘a turk «fas»idur. Oddiy shahar xalqi qadima uzun va tor arab jubbas va boshinda kichik salla bo‘lub, ustidan Ovruponing palto‘sini kiyibdurki, qisqa palto‘ ostidan bir arshin qadima libos chiqib turubdur. Ulamo jubba va abo\* iladurlar.

Qishloq arablari boshig‘a ipaklik va yo paxtalik katta ro‘mollar solib, ustidan qaro jundan va yo ustinda guloba to‘nlik chiltor bog‘laydurlar.

Ushbu qars va chiltor bir so‘mdan 50 so‘mg‘acha bordur. Ustidan kiyadurgon jun abo muslihlari-da 3 so‘mdan 100 so‘mg‘acha bordur.

Shomni ipaklik atlas va olacha va ip matolari eng a‘lo bo‘lub, bir libosligi 2 so‘mdan 30 so‘mg‘acha bordur. Munda qattig‘

<sup>1</sup> Kechiktirish.

yig'ochlarga sadaf va najaf<sup>1</sup> toshi va achiq ishlamalik uy asboblari, ya'ni mebel, kursi, sandal, oyna, miz\*— ustul, dastcho'p — polka, divan, lavh, nihoyat san'atlik romka — chorcho'balari va sepoyalar ko'b ishlanib, Ovrupo va Amriqog'a ketar ekan.

Misir chorsusi, Hamidiya chorsusi nihoyatda ziynatlik bo'lub, usti temur va shisha ila yopilgan va ichinda minglar ila do'koni bordur.

Sahro va bodiyadan kelgan qir ranglik ishtonsiz ayol va erkak arablarga va g'azal o'qub, doira cholib oqcha jamlaydurgon qiz va er, badaviy bolalariga uchralur. Shahariy va faqir arab xotunlari ham satr\* ila bo'lub, ammo masih\* va jo'robsiz\* oyoq ila yag'och kafsh kiyib taqirlab ketarlar. Ba'zi arab xotunlarining eshakga Ovrupo xotunlaridek yaktarafa o'lturub, eshak chopturg'onlari ajoyibdur. Biznikilar bo'lsa, yiqilib ma'yuba bo'lardi.

Qishloqdan nimarsa kelturub sotadurg'on arab xotunlariga ham ko'b uchralurki, har kim izzat va hurmat ila alarga muomala qilib, «Yo sitti-yo sayyidati, yo haram»<sup>2</sup>, deb nido etarlar.

Shahardan xorij 3—4 eshakga meva va g'alla ortib, haydab kelib turg'on musulmalar ko'zga uchralur. Va ondan tarbuz sotub olduk.

Shomni(ng) yosh erlari tamoman saqollarini qirib, mo'ylabini qo'yubdurlar. Boshlarini(ng) tepa sochini olib, atrofini ozgina qo'yubdurlar. (Bizga atrofini olib, tepasidan xitoycha kokul qo'yulgandek). Mullolariga biroz saqol bor. Yahudiylarning ikki chekkasiga ingichka va bir qarishdan ziyoda uzun kokuli bordur.

To'y va ma'rakaga isroflari oz bo'lub, iqtisodga rioyat etguvchidurlar. Qahvaxonalardagi sarfiyotlari oz bo'lub, chilim chekaturgonlari «a'lo shomi tamoku» larini yonlariga yurguzub, qahvachi norgilasiga\* solib chekadurlar.

Ko'chalariga va har yerga limo'nat va har nav' laziz muzlik sharbat va do'ndurmalar ko'p bo'lub, katta bir qadahi 2 tiyindur.

Shahar ichinda bir murabba' arshin yer 10 so'mdan 100 so'mg'acha va yaqin bog'chalarining 7 murabba' gazi 10 tillo ekan.

<sup>1</sup> Tog' billuri, qimmatbaho tosh.

<sup>2</sup> Yo sitti-yo sayyidati, yo haram — ey, muhtarama ayol.

Shom va Quddusdagi qadima shahari arab nasoro va yahudiylarning xotunlari ham satr ila yurub, ammo qishloqlarg'a xoh musulmon va yo boshqa bo'lsun satr yo'qdur. Suriya va Shomning musulmon, nasoro va yahud xalqi tamoman arabi so'zlab, xat va hatto, ibodati-yu injil va ismlari ham arabiydur. Arab madaniyati, arab saltanati mundagi har nav' xalqni o'zig'a jazb etib, ammo 1300 sanadan beri aslo bularni aqida va vijdoni milliylarig'a tasarruf etmaydurki, bul Qur'oni karimni boshqalarning din-u vijdonining ozod qo'rganidan va umaroi islomiyaning g'ayridinlarni himoya etganlaridandur. Al-on Suriya arablarining bir qismi turklarg'a yaxshi ko'z ila qaramaydurki, bul ovrupoyilarni(ng) ta'siridan ekan. Aksar xalqi va turklar tarbiyat etib o'qutganlari turklarni yaxshi ko'rub, turklar tanazzul etsa, bizni(ng) ham zavolimiz va ovrupoyilarg'a mahkumiyatimiz bo'lur, der emishlar...

Markazi Damashqi ash-Shom bo'lgan Suriya viloyatining yeri 100 ming murabba' kilometru va barcha xalqi 2 milyo'n 300 ming qadar bo'lub, din jihaticha taqsimoti ushбудur:

Ahli islom	140 000	Mutovala	70 000
Nasoro	70 000	Ismoiliy	165 000
Armani g'rig'o'riy	100 000	Armani prutestani	22 000
Bobiy va bahoiy	4 600	Yazidiy	160 000
Ya'qubiy	45 000	Daraziy	200 000
Artuzkas	30 000	Tobeini kaliso yunon	16 000
Nimoru	400 000	Malaki	150 000
Armani kato'lik	40 000	Lotini	48 000
Suryoniy va kaldoniy	68 000	Yahudiy	140 000

(Baqiyasi bor)

«Oyna» j., 1914-yil,  
47-son, 1120–1125-betlar

#### 47-raqamdan moba'd

Shomi Sharifdan 3-kuni. Yana temur yo'li ila Jabali Lubnon ayolat mumtozasi vositasi ila Bayrutg'a keldim. Oqshom Jabali Lubnon tog'laridan kecharmiz. Otash aroba goh tog' tepasinda bo'lub, andan har tarafdagi qasaba va qishloqlarning chirog'i ajoyib suratda ko'runur. Go'yoki ustimizdagi yulduzlik osmon aksi yerg'a urub, boshqa til ila ustimizg'a va ostimizg'a ham adadsiz yulduzlik osmonlar bo'lub va oqshomi nihoyatda latif va pokiza, muattar bir havo yutarmiz. Qitorimiz goh tog'

tepasidan, bosh oshog'i soylar qa'riga inar, goh tog' yamochlarinda ilonvoriy yurub, ba'zan tog' tepalarig'a o'rlab tirmashar. Ba'zan taxtaljabal\* tunnellaridan o'tar. Bir zamonlar bir tarafi jahannamdek tubsiz tog' kanoridan qiyalab o'tarki, oqshom qorong'uligi ila inson «lohavl»\* o'qur. Kichkinagina maxattalar-da turar.

Arab xotunlari har maxattada meva, qatig', sut sotar. Bug'doy unidan qilingan issiq tunuk (yupqa) pishurub chiqarubdurlar. Bir yupqa 5 tiyin va yupqa ustig'a bir qoshuq qatig' (laban) surtarki, u ham besh tiyin. Ichig'a qatig' o'ralgan yupqani yeb, labing, buruting qatig' ho'plagan cho'pondek oqarur. Ovrupoyi sayyoh er-u xotunlar, xulosa, har kimni labi bu yupqa va bu qatig' ila oqarur. Munda arabdan boshqa til yo'q.

Jabali Lubnon ayolat mumtozasining masohati 6500 murabba' kilometru bo'lub, 400 ming qadar arabi so'ylaydurgon xalqdan iborat bo'lub, yarmidan ziyodasi moruniy, ya'ni qadima suryoniy va fmikiyali avlodidan bo'lub, mazhablari nasroniyatni(ng) katolikiga yaqindur. Baqiya nisfining aksari muslim va darzi qabilasidan bo'lub, bir ozi Rum kato'ligi va boshqalardur. Darzi ataladurgonlar musulmon bo'lsalar ham, ba'zi johilona odatlar alarg'a nisbat berilur. Chunonchi, o'z yaqinlarini nikoh qilmoq va birdan ziyoda xotun olmaslik va bir da'fa taloq qilgan xotunlarini qaytib olmaslik va ...dek mazhablarining ba'zi hukmlarini sir va maxfiy tutub, har panjshanba oqshomi, jam' bo'laturgon odat va yoinki ibodatlari bo'lub, u jamiyatg'a o'zlaridan ham ba'zilarni qo'ymas emishlar. O'z o'rtalarinda xalqni uqqol\* va juhhol\* ga taqsim etib, ahkomi mazhabiya va ba'zi asrorlarini faqat uqqollari bilib, juhhollarig'a aytmas ekanlar. Qur'oni karimg'a iqrur bo'lub, sahobai izomdan\* Salmon Forsiy<sup>1</sup> raziyallohu anhug'a e'tiqodlari ziyodadur. Mazhab kitoblari ham yoshirin tutulub, imo va ishoratlar ila yozilib, hatto, o'z juhhollarig'a bildurulmas ekan.

Darzilar katta qabila bo'lub, Shom va Halab bodiyalarig'a ham sokindurlar. Jabali Lubnon ayolati Turkiya davlatig'a tobe' bo'lub, ammo katolik yerli arablarindan biri 5 sanalik muddat ila Hazrat Sulton tarafidan mutasrif – hokim tayinlanur. Musulmonlarning qozi va hokimlari o'zidandur.

<sup>1</sup> Salmon Forsiy – ilk mutasavviflardan.

Qadima Kan'on diyori Jabali Lubnonning bir qit'asi bo'lub, Oq dengizg'a sohildur. Oqshom soat 11, Bayrut shahrig'a yetib, Al-manzar-al-jamil o'telg'a indim. O'tel Oq dengiz sohilinda bo'lub, dengiz havosi ila muattar, ujrasi\* 5 g'urush – 43 tiyin edi.

Ertasi Bayrut shahrini gasht va guzor etdim. Maktab va dorulfununlar ta'til va bog'li edi. Ushbu shahar Turkiyaning Bayrut viloyatini<sup>1</sup> markazi bo'lub, ilm va maorif jihatidan Misrdan so'ng Sharqda birinchi shahar bo'lub, ammo maorifning bonisi Ovrupo va Amriko misyo'nerlaridurki, tarafona maktab va dorulfununlarini taraqqiyisig'a sa'y etarlar.

Bayrut dorulfununlari Ovrupo va amrikoyilar tarafidan idora qilinsa ham, lison, tadrir arabi bo'lub, fransaviy va nemis yoinki anglis alohida bir fandek o'qulur. Bayrut dorulfununidek olami islomning Turkiston va Buxorosidan boshqa har tarafidan talaba bor ekan. Hatto, Sharqning Yopunidan talaba bor ekan. Totor birodarlardin ham dastalab talabalar bordur.

Buxoro va Turkistondan munda odam bor, ammo ishlari hojilarni shikor etmoqdur.

Shaharda yuz mingdan ziyoda xalq bo'lub, uchdan biri muslim va boshqasi kato'lik, o'rto'g'us, pro'tistant mazhablik nasorolar va birozi yahudiy bo'lub, barchasining tili, ism va injilig'acha arabiydur.

Anglis shirkati shaharg'a tahvil ma'\* ila suv keltirgan, ya'ni saqosi\* – anglis. Va Bayrut limon – paraxo'd havzini fransuz shirkati bino etgandur. Temur yo'l va qo'sha xatlik tramvay nemis va beljickniki. Faqat mamlakatni ismi usmonlig'a tobe'dur. Ajnabiylarning minglab talabalik har nav' dorilfununi va necha yuzlab talabalik har nav' maktabi 50 dan ziyoda bo'lub, muntazam rasadxona, kimyoxona, tashrih va jarrohi va hikmatxonalari bordur. Turklarning ham mulkiy rushdiyasi, askariy rushdiyasi, maktabi sultoniy, 2 qizlar rushdiyasi, 4 ibtidoiya maktabi va o'ttuz qadar musulmon maktablari bordur. Munda matbaa ham ko'b bo'lub, xeyle arabi qadim va jadid, diniy, adabiy, fanniy har nav' kitoblar va 20 qadar majalla va jaridalar nashr bo'linadur.

Shaharning o'rtasinda kichik, faqat ziynatlik bog'chasi va

---

<sup>1</sup>1914-yilda Bayrut Turkiya tasarrufida bo'lgan.



a'lo bir chorsusi va 4–5 tabaqalik oliy imorat va katta mahozinlari va tosh farsh qilg'on katta yo'llari bordur. Tarablisi Shom, Lozqiya, A'ko, Balqo uyezdlari Bayrut viloyatig'a tobe'dur.

Dengizda arab shirkatining popuri (al-on anglis qo'lin-da) hozir ekan, kirdim. Istanbuldan Bayrutg'acha 3-mavqeg'a minib, hoji yurushi ila yurub, aziyat chekib edim va biroz notoblik-da bor. Oning uchun 2-mavqeg'a belat talab qildim. Yo'q. Nochor Yofa shahrig'acha 20 soatlik yo'l uchun 13 so'mg'a birinchi darajadan joy oldim. 3-si 2 so'm 40 tiyin edi.

Paraxo'dda misriy, shomiy, istanbuliy kibor musulmonlarda bir xeyli bor. Biz-da 13 so'm berib, bu daf'a kiborg'a qo'shuldik. Ittifoqo, uch kishilik bir uycha (qamara)g'a bir o'zim kirib, a'lo bir uyqug'a toldim. Taom vaqti xodim uyg'otdi. Katta solung'a chiqduk. 4 katta ustol, biriga paraxo'd ma'murlari, ikkisig'a ovrupoyi xamulalar\*, birig'a keshtidag'i\* musulmonlar va har kimni uyi va karavat raqami tabaqi oldig'a yozilgandur. Xodim no'miramizni ko'rsatdi, hamxonalar salomlashib o'lturduk.

Sufrada misriy, arab da'vo vakili – zako'nchi bir arab do'qtur. Bir arab bonka mudirining noibi, 2 turk zobit – ofisar, bir turk, 2 arab boybachcha va tamoman saqoli tarashlangan sallalik bir arab katta mullo va bir-da man. Xonimiz\* ustinda har nav' muskirotlar-da bordur. Taomlar birin-birin keldiki, shundan iboratdur: makaron, kabob piyoz, kabob tanuri, bir nav' sho'rbo, kabob maa karto'shka, balig'sardinka, penir\*, yang'oq, meva, qahva, kanfet, pecheni. Har kim bo'g'o'zigacha to'ldurdi. Ammo shishadagi muskirotdan na ul boybachchalar va na ul ovrupomijoz bo'lgan arab va turklar bir qatra bo'lsun ichmadi.

Dedim: «Na uchun ichmaysizlar?»

Dedilarki: «Alhamdulillah, musulmonmiz. Olloh azimush-shon Hazratlari Qur'oni karimda afandimiz vositalari ilan nahyi etubdurki, 1300 sana so'ngra ovrupoyilar bu xabislaring\* zararini bilib, o'zlarini saqlamoqdadur. Biz qanday icharmiz. Anvarbegimizda ichgan afisarlarni silki «muqaddas askariydan tard etar».

Dedim: «Ey, misriylarg'a na bo'ldi?» Unlar dedilarki, bizning maktablarda muning zararidan bahs etarlarki, insonning ichkisi kelmaydur. Dedilarki: «Turkiston-u Buxoro qandaydur?»

Majburan to'g'risini so'yladim...

Dedilar: «Astag'firullo!»

Taomdan 3 soat, so'ngra mukammal choy, oqshom yana 3—4 nav' taom. Erta birlan yana mukammal choy, sut... paraxo'ddan berildi.

Qabl az asr\* Xayfog'a yetdukki, bul Hijoz temur yo'lining askalasi dur. Bahoyi-yu bobiyarlarni kattasi eroniy Abdulbaho Abbos afandining munda ekanligini so'ngradan bildim. Vallohi, paraxo'd 3 soat turdiki, tushub bu mashhur kishi ila suhbat etardim.

Oqshomg'acha paraxo'd Suriya sohilini bo'yarladi. Saydo, Sivo, A'ko, Xayfo, Qaysariya, Arsuf shaharlari ko'runub qoldi. Paraxo'dg'a ellik qadar katta va kichik ovrupoyi maktab qizlari bordurki, rohiba va muallimalari ila Quddusi sharif ziyoratig'a ketarlar. Bir vaqt dengiz biroz harakatg'a kirdi. Bu qizlarni bir qismi loqayd va bir qismining boshi aylanib yiqilmoqda va qusmaqda, kichkinalari yig'lamoqda bo'lub, ajoyib manzara tashkil etar edi.

Ertasi soat sakkiz, Yofa shahrig'a yetduk. Paraxo'd sohilidan 3000 qadam uzoqda turdi. Yofaning fo'rtanasini vahmlik etib so'yarlardilar. Ammo hech fo'rtana yo'q, faqat dengiz biroz harakat etib, qayiq sollanir, qo'rqulaturgon bir nimarsa yo'q. Ammo qish mavsumida oyni avval va oxirida jozibai qamar\* qonuni ila 3—4 kun qatig' fo'rtana bo'lur ekan, yozda xotirjam'likdur. Qishniki ham ko'p bo'lsa, oyda bir hafta.

20 tiyin ila Abdulrauf isminda bir nasoro qayig'iga minib, ondan chiqib, bir o'telg'a soat 2 g'acha istirohat etib, 3-mavqe' otasharobag'a ikki so'mg'a belat olib, Quddusi sharifg'a mutavajjihlan harakat qilindi.

«Oyna» j., 1914-yil,  
48-son, 1142—1148-betlar

#### *48-raqamdan moba'd*

Yofadan Quddusi sharifg'acha temur yo'li ilan to'rt soatlik yo'l 60 kilo'metru bo'lub, muning 3 soatligi lalmi va obikor yerlar bo'lub, arablar har maxattag'a tarbuz, uzum, zaytun va amsoli mevalar chiqoradurlar. Quddusg'a bir soatlik qadar qolgandan so'ngra tog'lar boshlanur. Ba'zan tog' oralarindagi ochiq yerlarga anor, uzum, anjir, limun, af-liso'n, zaytun va boshqa mevalar va bo'stonlari ko'rulur. Al-

on saraton oyi bo'lub, Ovrupo va Amrikodan guruh-guruh er va ayol nasoro va yahudiy ziyoratchilari kelib ketmoqda bo'lub, temur yo'l qitorlari bular ilan to'ladur. Yofa ila Quddus orasinda har kun ikki daf'a qitor yurar. Yerli arablar-da qitorg'a ko'p bo'lub, sahroniy xotunlari qochmaydur. Shaharliklarini Turkistong'a nisbatan «yarim satr» bo'lub, ammo o'zlarini yaxshi tutarlar. Qitorg'a Hinduston Bangola qit'asidan 74 yashar bir kampir-da borki, Madinadan ziyoratg'a kelar. 20 sanadan beri Hijozda bo'lub, arabiy o'rganibdur. O'zi nihoyatda faqira va orqasinda eski lattalardan iborat bo'g'chasi bordurki, Yofag'a yo'lichilar oqcha yig'ib, belat olib berib edi.

Quddusi sharif maxattasig'a yetduk. Odam ko'p. Aroba oz. Hanuz qitorg'a edim, bir kishi kelib, vago'n oynasidan so'rushdi. Va oramizda shu muhovara\* joriy bo'ldi:

- Nimarsalaringiz qanda?
- Nima qilarsiz?
- Man -- dalil\*, sizni manzilg'a olib borurman.
- Kimni manzilig'a?
- Takya yoinki buxoriylar tushadurgon joyg'a.
- Ikkisig'a ham bormayman. O'tellarni ko'rub, ma'qul bo'lg'anig'a tusharman.
- Man dalildurman, mani so'zimg'a qabul qilishingiz kerak. O'tel bo'lsa ham o'zum topib berarman.
- Dalil bo'lsang'iz, haramg'a uchrashurmiz.
- Yo'q, bo'lmas. Sizni buxoriylar tushadurgon yerg'a olib borurman.
- Mani hur qo'yungiz, istagan yerimg'a ketarman.
- Yo'q, taqsir. Munda usul va qoida shulki, har kim dalilg'a tobe' bo'lur.

Nimarsalarimni hammolg'a topshurmoqchi bo'ldi. Man dedim:

- Siz dalilmi yoinki sayyod? Yo'lingizg'a keting, valloh, jandarmani chaqiraman.

Hammolini itarib yuborib, boshqa hammol ila vagzoldan arobachilarg'a chiqduk. Arobalar hama mashg'ul bo'lubdur. Dalil afandi yana orqamizdan qolmay, hammolg'a amr berib kelmoqdadir. Odam va yuq ila to'la bir foytunchig'a 40 tiyin bermoqchi bo'ldum. Ashyolarni arobasig'a bosib, o'zumni yonig'a o'tkurdi. Dalil afandi hanuz mani ko'rsatib: «Hojini falon o'telg'a tushur»,— der. 5 daqiqa tosh yo'llardan ketib, bir soyga tushdik. Va katta tosh ko'frukdan o'tub, yuz gazdan

ziyoda balandlik — do‘ng‘a chiqib, Quddusi sharif qal‘ai mustahkamini tashqorisida va Bobul Xalil oldindagi bozor va katta yo‘lg‘a yetduk. Arobadan boshqalar tushdi. Va mani bir falokat o‘telg‘a olib bordi. Ko‘rub xohlamadim. Qarasam, dalil afandi o‘telg‘a hozirdur. Har oqshomg‘a 160 tiyin, bir uyini savdo etib qo‘yubdur. Boshqa o‘telg‘a hayda, derman. Arobachi haydamaydur. Otg‘a qamchini berib, o‘zim haydamoqchi bo‘ldum. Dalil va arobachi yuzumg‘a qaradi qoldi.

— Hayda valloh, po‘lis chaqirarman!

— Qanda?

— Boshqa o‘telg‘a.

— Boshqa o‘tel yo‘q!

— Man sanga ko‘rsaturman.

Dalil janoblari ham betaklif yonimg‘a o‘lturdilar. Bir yahudiy o‘telig‘a borduk. Bir soatdan beri dalilni harakati mani ishdan chiqardi. Chiqib, bir uyni o‘n g‘urush, ya‘ni 75 tiying‘a savdo etdim. Yana dalil janoblari orqamdan qolmaydur. Endi arobachi arab ila munozara. Ul 40 tiyin yerig‘a 160 tiyin istaydur. Dalil ham ang‘a yordam berar. Munozara va urushmoqg‘a toqat yo‘q. O‘n g‘urushni oldig‘a otib, uy eshikini ichkaridan qulf etdim.

Dalil tashqaridan der:

—Hoji, Harami sharifg‘a qachon borarsiz?— Ikki-uch daf‘a takror etib, yana eshikni qoqar.

Dedim:

— Yarim soat so‘ngra.

— Xo‘b, man tashqorig‘a turarman.

Vaqt asrdur. Tahorat etib, salla-to‘n qilib chiqdim. O‘tel oldindag‘i qahvaxonada dalil hazratlari intizorda. Bir arobag‘a dalil ila o‘lturub, bir xeyli mahalla va mahozinlardan o‘tub, Quddus qal‘asig‘a yetduk. Ichkari shahar balandligi ba‘zan 15 gaz, eni 2–3 gaz, toshdan bino qilingan kungira, guldasta va burjlik mustahkam bir qal‘a ila aylanturulgon bo‘lub, al-on ba‘zi tarafi xarobdur. Qal‘aning ba‘zi qismining binosi Hazrat Sulaymon va Dovud alayhissalomg‘a nisbat berilib va hozirgi qal‘a bo‘lsa, ahli salibni qo‘ygan tag kursisi ustinda va ba‘zan vasi‘ qilinib, turklardan Sulton Sulaymon Qonuniy tarafidan metin va san‘atlik suratda bino qilingandurki, ushbu qal‘aning darvozasig‘a arobamiz turdi. Qal‘a ichining yo‘llari nihoyatda egri-bugri va ham kasriyat

ila yo'llarni usti ravoqlar ila yopilib va ravoqlar ostinda va ustinda uch-to'rt tabaqalik imoratlar bino qilingan va yo'llar past-u baland ham osti tosh farsh qilingan bo'lub, ba'zan 10—15 zina ila chiqilib tushulur. Havosiz qarong'u va muavvaj\* ham ustini ravoqlar yopgan yo'llardan egri-bugri o'n daqiqa qadar yurub, uzunligi yuz qadamdan ziyoda va usti ravoqlar ila bolkulli yopilgan eski va iflos bir dolong'a kirduk. Tarafayni eng eski do'konlar va falokat bosgan ayvoncha, eshak bog'langan joylardur.

Ushbu dolonni bir boshi do'konlar va boshqa boshi baytul muqaddas harami sharifning darvozasi, ya'ni ushbu falokat bosgan tosh dolon haramni saqlaydur. Bu dolondagi eshiklar va ostindagi axlat va har yerda uyulub yotgan eski-tuski iflosliklar dalilni 2 soatdan beri beraturgon zahmatini yoddan chiqorib, ko'ngulni qaytadan sindurdi. Haram darvozasig'a yetib turduk. Dalil duo boshladi. Man ham o'qub-o'qub ketmoqda. Haramg'a kirduk. Yeri marmar farsh qilingandur. 50 qadam qadar ketduk va 20 qadar marmar zinadan baland bir sahnig'a chiqduk. Harami sharifning atrofi tosh va baland devorlar ila ihota qilingan va ichi taxminan 5—6 desatina botmon va yoinki 20—25 tanob qadardur. Haramning o'rtaroqinda 3—4 tanob qadar baland va toshdan boshqa bir sahn bo'lub, bu sahnning to'qquz tarafidan 20 qadar zinlardan chiqilur. Chiqilaturg'on joylarga bir necha marmar stunlar o'tqurulub, stunlar bir-birig'a marmar ravoqlar ila muttasil bo'lur. Bu oq marmardan qilingon sufaning o'rtasinda masjidi Suxratillo va nomi digar ila Masjidi Umar al-Foruq raziollohu anhu bino qilingandur.

Masjidi sharifni ichi samoq va rango-rang marmarlardan va tashqorisi chinni va koshinlardan va munbatkori rangin marmarlardandir.

Baland sufadan yurub, Masjidi Suxratillo'ga kirduk. Dalil og'zidan olib, man ham duo o'qumoqda va ikki rakat namozi shukr-da o'qudum. O'n qadar dalil atrofimizni oldi. Xudoyi berib, masjid ichindagi — Suxratilloni zina ostidagi hujra yoinki g'org'a tushduk. Zina ustinda eshigi ham bor. Suxra toshining osti qat' noqis va nomuntazam shaklda.

Do'rag'a\* qariyb bir hujradan iborat bo'lub, bu hujra-ning usti yakpora oq va novshadirg'a shabih toshdan iboratdir. Toshni aksar tarafi devor va yer ustinda bo'lub, taqri-

ban 7 dan biri devorg'a yetmaydur. Suxratillo ostindagi hujrani to'g'risi suxra toshining ostindagi mag'orani ostig'a a'lo gilamlar to'shalgan.

Hujraning u tarafdin bu tarafi 12 qadamcha bo'lub, usti odam bo'yidan biroz balandroqdur. Toshning o'rtasi mudavvar\* va qutri\* yarim gaz qadar teshukdur. Toshni ust tarafini yuqoridan ko'rulniki, usti ham nomuntazam, ya'ni chiqinti va kirintilik bo'lub, muning atrofi hasht, ya'ni 8 burjlik shaklda oliy marmar stunlar ila aylanturub va stunlar nihoyatda zarif ishlangan, hallik, a'lo shabakalik, panjaralar ila bir-birig'a marbut bo'lingandur. Toshning ust tarafining davrinda doxilan yana hasht qat'inda oltun hallik panjaralar va 2-panjara ila stunlar panjarasi orasig'a yana a'lo gilamlar va sajjodalar va lavh ham kalomi shariflar qo'yulub, qulflik bir eshikdan muqarrariy vaqtlarda kirilur.

Suxraning ustinda hech nimarsa bo'lmay, ochiq turubdur. Suxratillo mag'orasining ichinda hazrati Sulaymon, Dovud, Hizr, Ibrohim va Jabroyil alayhissalom uchun boshqa-boshqa maqomlar ko'rsatilur. Hazrati payg'ambarimiz sallollohu alayhi vasallamning ham maqomi shariflari bo'lub va hazratimiz me'rojg'a Suxratillodan suud\* qilibdurlar.

(Baqiyasi bor)

«Oyna» j., 1914-yil,  
49-son, 1166–1171-betlar

#### *49-raqamdan moba'd*

Suxratillo ostindagi hujrai sharifadan chiqduk. Masjid ichinda to'rt-besh gaz balandlikda birinji bir sham'donni hazrati Dovud yasagan sham'don deb ko'rsatdilar. Ammo sham'donni yaqin vaqtda yasalgani zohirdur. Munda besho'n nafar shayxlar mutavajjih bo'ldilar. Biroz nazr berduk. Qabul va duo qildilar.

Masjid eshigidan sahnag'a chiqduk. Yana 4–5 shayx mutavajjih bo'ldilar. Ichkarig'a berduk deb o'tduk. Masjidi Suxra sufasining bir tarafinda hazratimiz sallollohu alayhi vasallamning «Qabla-l-me'roj» shariflari muzayyan suratda bino qilingandur. Sufa atrofida yurub yana 2-daf'a masjidi sharifg'a kirdim. Masjidi Umar «al-Foruq» raziollohu anhu 8 burjig'a

bo'lunub, har bir burjining orasi 26 qadamdur. Masjidni o'rtasinda Suxra toshi voqe' bo'lub, Suxra atrofi yana 12 burjda taqsim qilinib, muning 12 burjinda 12 rangga marmar yakpora stunlar bo'lub, bul 12 amud\* ustinda bir gunbaz bino qilinib, usti temurdur. Gunbaz qubbasining doxiliy tarafinda qabartma so'm oltundan u qadar naqshlar — islomiy gireh, iroqi morpechlar va boshqa ajoyib suratda hindusiy, arab uslubinda ishlar qilganlarki, mani siniq qalamim aning tavsifig'a ojizdur.

Qubbaning atrofmda qabratma — munbat va odamni yo'g'on qo'lidan yo'g'onlikda so'm oltun harflar ila suls va boshqa mutanav'i xatlar ila oyat va hadisi sharif yozilib hamda «G'ulomoni atrokdan Mulki Nosiriddin Muhammad Qilovun» iborati va boshqa bir necha iboratlar qabartma oltun harflar ila yozilgandurki, jilosi ko'zni olur. Bu qubbaning ustinda u qadar ajoyib naqshlar qilinibdurki, ko'rmaguncha inonilmas.

Bir og'uz ila xulosa qilayin: butun qubbaning yeri oltun bo'lub, ustinda har rangda qabartma minolar va munbat oltun xatlar va naqshlardur. Ko'pni ko'rgan sayyohlar derki, dunyoda muningdek saqfig'a ko'p oltun ishlangan na bir masjid va na bir kaliso bordur. Xulosa, qaragan ila bu qubbai suxraning naqsh va nafis san'atlarini ko'rub, tamom qilolmayin ko'zing charchaydur, bo'ynung-da qotar. Bu saqfdagi san'atlar avvalgi musulmonlarning zavqi salim egasi va sanoyi' nafisaning oshiqi va mukammili ekanligiga bir dalili mujassamdur.

Masjidni asosi hazrati Umar «al-Foruq» raziollohu anhu taraflaridan qo'yulub, binosi 65-tarixi hijriyasinda, masnadi xulofatg'a o'lturgon Abdulmalik bin Marvon tarafidan bo'lungon va Malik Nosiriddin Muhammad Qilovun tarafidan ziynat berilganligi so'ylanur.

Bu masjidning saqflari ajoyib qandil va ovizalar ila osti qimmatbaho nafis qolin va sajjodalar ila ziynat berilib, har yerinda sadafkori lavhlar ustinda nihoyatda ziynatlik Qur'oni karim qo'yulgandur. Xalifa Abdumalik davrinda yozilgan, to'li ikki gaz, eni ochganda ikki yarim gaz qadar bir Qur'oni karim, katta va san'atlik bir lavh ustinda qo'yulgandur.

Masjid ichini bir necha daf'a yurub va namozi shukr o'qub, yana tashqori chiqdim. Masjidning tashqorisi 6 gaz

qadar irtifo'ig'acha rango-rang, musayqal marmarlardan bino qilinib, u marmarlarg'a qozma va qabartma gul va naqshlar qozilibdur. Marmardan yuqorisi butun xitoyi chinnidek ranggah va oyat ila hadisi sharif yozilgan chinnilardan bino qilingan bo'lib, bir a'jubai davrondur.

Bu vaqt masjid atrofida yuzdan ziyoda ovrupoyi va amirkoyi nasoro-u yahud sayyohlari bo'lib, har biri va aloha va hayrat ila mundagi san'atni tamosho etardilar. Va har nav' tilda bular so'ylardi.

O'ndan ziyoda ayol va erkak ruslar ham sayyohlar ichinda edi. Ammo musulmon zavvordan iki misriy arab ila yalg'uz man bor edim. Yer yuzinda 400 milyo'n nasoro, 300 milyo'n musulmon bor, derlar, ammo munda 100 nasoro sayyohg'a 3 musulmon tusharki, mundan bu ikki qism xalqni ahvoli ruhiyasini kashf etmoq mumkindur. Bu nasoro-u yahud sayyohlarining og'zidan Umar, Abdulmalik, Qilovun, Masjidi Muhammadan iboratlari eshitiymoqdadir. Qo'llarinda bo'lsa, har nav' ovrupoyi tillarida yozilgon «Rahnamo»<sup>1</sup> kitoblari bordurki, har nimarsani tarixi ila biladurlar.

Quddusi sharifdan musulmoniy xatda bir «Rahnamo» axtardim, yo'q. Fransaviy, nemis, anglis, rumcha, ruscha, armanicha, hatto, bulg'orchasi bor. Yalg'uz musulmonchasi yo'q. Ana, biz musulmonlarning loqaydligi. «Manosikul Qud-dusish-sharif» isminda arabiy bir risola topdimki, anda tarixiy jihatidan bir nimarsa yo'q va haq nimarsalar qatorinda bir xeyle xurofotlarni qo'shub bosturubdur.

Haramning bir tarafinda bir qubba va ichinda turba bor-ki, qabri hazrati Sulaymon alayhissalom derlar. Kirib ziyorat qilduk. Boshinda faslik avom bir yosh yigit munda shayx ekan. Panjaralarinda hadsiz eski latta va iplar bog'langandur. Alhamdulillah, munday latta bog'lamoq Madinayi munav-varadagi harami muhtarami hazrat payg'ambarimizg'a yo'qdur. Shunga shukrki, so'yulgan qo'chqor-u ho'kuzlar shoxi va quyrug'ini tug' deb va yoinki butparastlikdan qolgan panja suratini mundagi hech bir muqaddas mazorg'a va maqomg'a qo'yabdurlar.

Na Shom va na Quddus va na Qohiradagi ziyoratgohlarda qo'y va ho'kuzni(ng) shoxi va quyrug'i muqaddas va oliy ma-

<sup>1</sup> «Rahnamo»— ma'lumotnoma, yo'l ko'rsatuvchi kitob.



zor ustinda qo'yulgan yo'qdur. Oning uchundurki, bir sodadil turkistoniy harami muhtarami hazrat nabaviyg'a kirib, hujrai saodatni ziyorat etgandan so'ng, «sadamasi ketay, xo'b mazor ekan, lekin tug'i yo'q ekan», deb hasrat etib ekan.

Qubbai hazrati Sulaymon alayhissalomdan chiqib, haram doxilinda va qibla tarafindagi Masjidi Aqso ziyoratig'a ketarmiz. Harami sharifni uchdan ikki hissasi iflos, chaqir-chuqur, har yerg'a o't chiqib, o'zi qurub-churub ketmoqdadir. Haram ichig'a bir necha yerda su(v) bor ekan. Mundagi sarv, zaytun va boshqa daraxtlar suvsizlikdan qurumoqdadir.

Mana marmar yo'lakni bir tarafinda mundagi talaba va mashoyix ham dalillarni dasturxonidan chiqqon suyaklar va shi prindilar yillardan beri to'dalanib yotibdur.

Haramni(ng) ikki tarafinda bir necha yerda marmar farshlar cho'kub, bizni qabristondagi o'yulgan go'rlardek buzulub, cho'kub yotubdur. 25 tanob qadar bir haram va muning 10 tanobdan ziyodasini masjid, qubba va hujralar ishg'ol qilgandur. 5 tanobdan ziyodasi yana marmar toshlar ila farsh qilingan bo'lub, nihoyat sakkiz-o'n tanob qadar bo'sh yer borki, muning ham har tarafidan bir necha marmar bo'laklar qilingan bo'lub, 5—6 tanobini ba'zi yerinda qurugon va qurumoqg'a yuz qo'ygon sarv, zaytun daraxtlari borki, shularni sug'orib va yovvoyi o'tini o'rub, chaqir-chuqurini tekislab, shi prindi va axlatlarini besh yuz qadam tashqaridagi soyg'a chiqarib to'qmoqg'a Quddusi sharifg'a odam topilmaydur. Hukumati va yo baladiyasini haramg'a qaraydurgon ko'zi ko'r bo'lg'on. Harami sharifni vaqfidan yuz ming so'mdan ziyoda madoxil bo'lub, 40 ming so'm qadari shayx va ahli haramg'a berilur. Ammo olami islomni har yerindagidek haramni nazofati va asl binosi ta'mirig'a ahamiyat berilmaydur.

Bu zamon atrofimizda yigirma qadar o'n yashardan 60 yasharg'acha «nazrxo'r» borki, «Hoji, man — taxib, man — imon, man — turbador, man — miftohdor, man..., man... nazr ber», deb mutavajjih bo'lmoqda va chaqirib, sani saqlab, pul tilamoqdadurlar. Mayda bolalari bo'lsa, atrofingni olgan va etagingdan ushlab, pul ber, deydur.

Mani otasharobadan olgan dalil yonimg'a bo'lub, masjid al-Aqsog'a qarab ketmoqdamiz. Ba'zi bolag'a pul bermadingmi, san yahudiy, deb ayrilar.

Ajoyib hollar. Bu harami muhtaram ichinda bir zamon

qalbing ayridur. Olami ruhoniya'tg'a va nuroniy bir moziy'ga va osmonlarga ucharsan va besh daqiqa so'ngra bu hollarni ko'rub, toshg'a aylanarsan, go'yoki bir biyoboni vahshatda gezarsan. Toqatim qolmadi, tavqif etdim. Bir nimarsa berur umidi ila atrofimni o'n qadar katta va besh-olti mayda nazrxo'rlar oldi.

Dedim: «Xudo uchun, munda yotgan anbiyo uchun so'zimni tinglangiz. O'zingizg'a ma'lum, bu harami muhtaramda masjidi al-Aqso bo'lub, «Subhon allazi asru...» oyati sharifasi muning haqqig'a nozil bo'lgandur. Bu maqomi muqaddasning sha'nidagi hadislar, albatta, ma'lumingizdur. O'z nafsingiz uchun bu qadar zillati tama'ni qabul qilarsiz va besh yuz qadamdagi hujrangizdan chiqib zavvordan nazr olmoq uchun yugurib, man – imom, man – xatib, man – ansordan va sayyid... dersiz. Bu vayronalar va bu harami muhtaram ichindagi shu muzbalalarni\* ko'rmaysizmi? Ushbu bolalaringizdek axloqsiz bolalarni hech yerda ko'rmadim. Zavvor pul bermasa, so'kar, yahudiy der. Bu na holdur? Munday ketsa, amin bo'lingki, anqaribi haramni va arzi muqaddasni nasoro va yahud sizdan olar!..» So'z tamom bo'lmasdan nazrxo'rlarni bir nechasi qaytib ketdi. Bir-ikkisi dalildan so'raydur: «Manhuva?»<sup>1</sup> «Muharrir al-jarida»\*.

Tumshuqini ko'tarib javobsiz ketar va bir-ikkisi javobsiz qarab turar. Oxiri, qayyumboshidan shikoyat etar.

Dalil ertaroq ziyoratni tamom qildurmoq uchun mani masjidi Aqso tarafig'a olib ketdi. Nazrxo'rlar va bolalar parokanda bo'ldilar. Biroz nari ketduk. Yana bir necha katta va kichik nazrxo'rlar kela berdi. Dalillarg'a arabi ba'zi nimarsalar so'yladi, qaytib ketdilar. Biz oyoqlarimizni yeshib, kafshini bavnobg'a berib, masjid al-Aqsog'a kirduk.

(Baqiyasi bor)

«Oyna» j., 1914-yil,  
50-son, 1189–1194-betlar.

### 50-raqamdan moba'd

«Subhon allazi asru» oyati sharifasi haqqinda nozil bo'lgon masjid al-Aqsoi muborakg'a kirib, har shaydan avval ikki rak'at namoz o'qub, munday muqaddas va mutabarruk

<sup>1</sup> Manhuva? – Kim u?

maqomlarg'a bandani yetkurgoni uchun Oллоhi zuljalolg'a tashakkur va arzi niyoz va ubudiyat etdim. Masjid al-Aqsoi ash-sharifning eng oxirgi va minbari sharifni so'l javorinda nihoyatda muzayyan raxomlardan\* bino qilingan bir mehrobi sharif bordurkim, Mehrobi Imom Shofei atalur. Minbarning o'ng tarafinda temur panjara va shabakalar ila ayrilgon bir qit'a bo'lub, bul tarafda ikki mehrob borki, biri hazrati Muso, digari hazrati Iso alayhissalomg'a nisbat berilur. Minbari sharif atrofinda obnus yag'ochidan nihoyatda san'atlik qubba va shabakalar yasalgandur.

Yana ushbu masjid sharifning boshqa bir tarafinda hazrati Dovud va Yahyo va Zakariyyo alayhim assalomg'a nisbat berilgan ayricha san'atlik va nafis mehroblar bordur.

Masjid al-Aqsoi ash-sharif tuloni shimoldan janubg'a uzayib bino qilingandur. Quddusi sharifning qiblasini janub tarafi bo'lur.

Masjidning uzunligi bobdan mehrobg'acha 130 qadam, eni sharqan va g'arban 110 qadam bo'lub, yana masjid sharifning ikki tarafinda bir necha xonaqohlar bordurki, katta ravoq va eshiklar ila asl masjidi Aqsog'a qo'shulub va ul xonaqohlar masjid ila bir hukmg'a kirar. Va ul xonaqohlardan bir tarafidagini tuli\* 60, arzi\* 36 qadamdur. Masjid al-Aqsoning shimoliy tarafidan va masjid Suxratilloni qarshusidan 7 eshik bo'lub, yana sharq va g'arb tarafidan biror eshiki borki, sharqdagi eshik «Bob ul-Hizr» ataladur.

Masjidi sharif 7 adad katta ravoq va ko'p adad toqlardan iborat bo'lub, bu ravoqlar 33 adad raxom va 12 adad tosh va nihoyat baland ziynatlik stunlar ustinda bino qilingandur. Masjidning ravoq va sho'balarini bir-birig'a rabt qiling'on tosh devorlar 40 dan ziyodadur.

Masjidning stunlari musayqal va mujalliy rango-rang marmarlardan va devori jilolik toshlardan bo'lub, insonning aksi ko'runur. Masjidning osti avvalan qimmatbaho va a'lo hasirlar\* ilan o'rtulub, ustidan barcha yerinda Istanbuldan yuborilgan a'lo qolin — gilamlar va nafis sajjodalar yoyilg'andur. Masjidni(ng) sahfig'a qarasang, u majalliy marmar stun boshliqlaridagi arab san'ati me'moriyasi va uslubi va anda o'tkarilgan ishlar sani o'zig'a jalb etar.

Tosh ustindagi o'ymakorliklardan boshqa oltun va minorlik\* naqsh va xututlarni tamoshosi hayratlarga g'arq etar.

Ichi bir necha tanob kelaturgon va irtifoan\* 30 gazdan ziyoda va ko'pi marmar stun va guharvar va oq va lohutni-shon masna\* mehroblar va muzayyan sahfdagi qanodil\* va oviza\* va muqaddas minbar hazrat Muhammad Mustafa sallollohu alayhi vasallam va har biri bir payg'ambar azimush-shong'a nisbat berilgon muqaddas mehroblar orasinda majzubona\* zoti zuljalol hazratlarining bu nazirsiz borgohi kibriyosinda ixtiyorsiz jism-u ruh ila sajdag'a ketarsan. Bu sajdai ubudiyat\* dan u qadar lazzat olursan va u qadar vajdg'a\* qolursanki, har bir nimarsani unutup va ushbu sajdadan bosh ko'tarmasdan Oloh zuljalolg'a yetushmoq amalinda bo'larsan.

Nazargohi ilohiydur, maqomi mustafodur bu,  
Matofi\* qudsiyondur, sajdagohi anbiyodur bu.

Oh, na ruhoniy holatlar, na laziz vajdangiz ubudiyatlar, na ashkrez nozi niyozlar...Oloh taolo g'ariqi rahmat etsun muning bonisi asl mutaqaddimin\* musulmonlarni. Qanday asl musulmonlar! Na nuroniy fusunkor porloq moziykim, oning asari qudsiyat samari ming bu qadar sana so'ngra bizni mahviyat darajasinda kelturar.

Ey, o'tmish muqaddas musulmonlar! Ey boniylar! Ey fotihlar! Oloh Sizlarni nihoyasiz rahmatlarga g'arq etsunki, zamonangizda bu qadar lohutiy asarlar va muqaddas buq'alar bino etibsiz. Chin musulmonlar, haqiqiy insonlar sizlarsiz. Va sizlarning tarziya\* va tavsifingizdan bu kungi, biz musulmonlar ojizimiz. Bizlar sizni nohalaf\* avlodingizdurmiz. Sizni izingizdan ketmoqg'a jaholatimiz mone' bo'ldi. Qusurimizni ajzimiz uchun keng karamlaringiz ilan bag'ishlangiz!..

Iloho! Bu aziz va faol bandalarning hurmatig'a bizg'a basirat ber! Eshitar quloq, anglar aql ber! Oh, u ezgular qanday ekanlar? Biz na holdamiz? Oh, bu qadar anbiyo, avliyo, mashohirlar kelib biz insonlar uchun shariatlar, tariqatlar, ma'rifatlar va'z etib, bizni haqiqatg'a da'vat etib ekanlar. Biz, gumrohlar, yo'ldan chiqib, hazizi\* nafsoniyatg'a kulliyani\* cho'mubimiz. Bukun o'zlarini madaniyat va insoniyatni eng oliy tabaqasinda deb yalg'ondan da'vo

etadurgon insonlar vahshoniyatni eng afsal\* darajasinda qo‘l va ayoq urarlar. Milyo‘nlar ila bani odamning boisi kulfati va musibati bo‘lurlar.

Ey, Ollohi azimush-shon! Bu magar saning g‘azabing-midur? Afu et, biz insonlarni hidoyat et! Yer yuzinda sulh va salohi\* umumiy ato ayla, insonlarga insoniyat ber! Zolimlarni qahr et, mahv bo‘lsun zulm, yashasun adolat va haqqoniyat, omin...

Al-on masjid al-Aqso ichinda ovrupoyi va amriqoyi yuzlar ila zavvor bor. Musulmondan ikki misriy arab ila man va 20—30 nafar xuddom va dalil bo‘lub, nasoro va yahud zavvorining o‘ndan ziyoda po‘p va rovvinlari-da bordurki, nasoro va yahud ruhoniylari o‘rtaga turub, bir necha yerda davra etub, harami sharif va masjidi Aqso to‘g‘risinda baland ovoz ila nutq so‘ylab, alarga tarixiy holatlardan bayon qilmoqdadurlar. Masjid ichinda kirgonda, har kim bo‘lsun, etigini yeshib, yoinki ustidan boshqa toza charm va yo latta kafsh kiyib kirar.

Ushbu masjidni o‘rnida aslan hazrat Sulaymon alayhissalom masjidi Aqsoni bino etib ekanlar va islomiyatni bidoyatinda qibla ushbu masjid al-Aqso edi. So‘ngra «Favalli vajhaka shatra al-Masjid il-haram»<sup>1</sup> oyati nozil bo‘lub, Ka‘bai sharif qibla bo‘ldi. Hazrati Sulaymon alayhissalomning asl binolari buzulub va taxtga qolib ekan va asl masjidni o‘rnida hozirgi ushbu masjidi azim ush-shonni Xalifa Abdumalik ibn Marvon hazratlari avvalanchi asri hijriyada bino etib, so‘ngra xulafou salotin daraja-badaraja ta‘mir va ziynat beribdurlar. Derlarki, bir zamonlar nasoro va yahud istilo etib, masjidni kaliso etib ekanlar. Axiran Ayyubi salotinlari olib yana avvalgidek masjid qaror berilubdur.

Masjid al-Aqsoning ostig‘a, yerto‘lag‘a kiraturg‘ondek zaminij darvozadan kirdukki, masjidni osti tamoman katta ravoq va ham vus‘atlik kamar va 7—8 gaz balandlikda toqlardan iborat bo‘lub, hammasi 1—2 mak‘ab\* gazlik oq toshlardan bino qilingondur. Asl ma‘bad Sulaymon alayhissalom muning ostinda qolib va ushbu tabaqa musulmonlarning binosidur. Va bu katta kamarlarning bir tarafinda yopuq sardoba bo‘lub, Masjidi Aqsoning ust tabaqasidan og‘zi bordur.

---

<sup>1</sup> «...Favalli vajhaka shatra al-Masjid il-haram». «...Yuzingizni masjid al-haram tomonga buring» (Qur‘on, 2-sura, 149-oyat).

Taxtoni tabaqa masjid al-Aqsoning tak kursi va yerto'lası hukmında bo'lib, oning yeri tosh va ga(n)jlardan iborat va devorları faqat tosh bo'lub, tazyinoti\* yo'q. Va ammo nihoyatda dahshatlik yer osti katta bir imoratur. Munda qiblai avval va soniyg'a maxsus mehrob va alomatlar hamda Xorun alayhissalom, Shubayr va Shaubriy azizları uchun maqomlar bordur. Mundan chiqib Bobi Hizr alayhissalomdan o'tub, ikki-uch tanob marmar sahndan yurub, harami sharifni sharqi-janubiy kunjida borib, zaminiy bir eshikdan yer ostında yigirma qadar tosh zina ila tushduk. Munda katta toshlardan bino qilingan bir uy bo'lub, bir tarafında bir marmar suffa borki, «taxti Iso alayhissalom» derlar. Yana munda hazrati Maryam va Iso va Nuh alayhissalom va Havoriyin\* uchun mehrob va maqomlar ko'rsatilur. Munda «vanna» (bir nav' taqora (g'a) o'xshash bir oq tosh borki, «Iso alayhissalom beshigi» derlar. Bu uydan yana 20 qadar tosh zina ila yer ostig'a tushdukki munda tuli va arzi 50–60 gaz kelaturgon katta bir imorat bo'lub, ko'p adad oq tosh stun va devorlar ustında bir necha gunbaz va qubbalar ila yoyilgan bo'lub, ravoq-u kamarlarning stunları bir-birig'a yaqındur.

Stun va devorlar 1–2 mak'ab gazlik hajmında toshlardan metin bir suratda bino qilingandurki, binosi hazrati Sulaymon alayhissalomg'a nisbat berilib, hazrati Umar raziollohu anhu fatihidan ilgari astabli Sulaymon (Sulaymon alayhissalom otxonasi) deb, masmuotg'a\* qaraganda, ichında yahud va nasoro ot bog'lar ekanlarki, ba'd az fath amri hazrat Umar ila tozalanib, masjidi Sulaymon alayhissalom atalib va al-on muning osti tosh va tufroqdan iborat bo'lub, o'zi mudhish va muazzam ham metin bir binodurki, bu hol ila yana yuz ming sanalarg'acha buzulmaydur.

Bu maqomlardan sahn ustig'a chiqduk. U qadar charchabmanki, butun a'zog'a kasolat kelgan.

Dalil afandig'a dedim:

– Manga haram doxilında yer ko'rsatingiz, biroz o'lturub, istirohat etayin.

(Baqiyasi bor)

«Oyna» j., 1914-yil,  
51-son, 1212–1217-beilar

Dalil janoblari masjidi Suxraning muqobilinda bir talaba hujrasig'a olib kirdi. Ikki zavvor Misriy arabda bor. Biri Tanto shahrining bosh do'qturi, digari saqoli tamoman taroshlangan bir mullodur.

Biroz o'lturdik. Istirohat etduk. Oqshom bo'ldi. Ertag'a Xalil ar-Rahmon ziyorati va Baytullahm sayohati uchun uchalamizg'a dalil bir faytun kiro va bir nafar kishi qo'shmoqchi bo'lub, ar(o)ba uchun bay'ona\* oldi. Ba'd az i'sho\* haramdan chiqib «Olter» o'telidagi hujramg'a yotdim.

Sahar soat 4. Foytun ila hamrohlar keldi. Hazrati Ibrohim alayhissalomning ziyoratlari uchun Xalil ar-Rahmon shahrig'a ozim bo'lduk. Hanuz saraton oyi bo'lsa ham Qud-dusi sharifning oqshomi xeyli salqindur. Sovuqlikdan arba ichig'a ko'rpag'a o'ralduk. Bir soat qadar ketduk. Iso alayhissalomni mahali tavalludi — Baytullahm shahrining quyisidagi bog'lar orasidan o'tarmiz.

Yana yarim soat yurduk. Xalil ar-Rahmon tog'larini tepalarini oftob nuri qopladi. Guruh-guruh badaviy arablar tevag'a, ot va eshaklarga har nav' yuk va ko'mur ortib shahar tarafig'a kelmoqdadurlar. Bir zamon temur sadosi chiqdi. Aroba to'qtadi. Tushub qarasak, foytunni orqa charxidan birini temuri ikki joydan sinib tushubdur. Boshqa charxlari ham yaqinda sinmoqchidur. Dalil janoblarining barakatidan o'rta cho'lda qolduk. Quddusdan Xalil ar-Rahmongacha 42 kilo'metru (40 chaqirim). Tosh to'shalgan a'lo, nihoyatda musattah bir yo'l bo'lub, hukumatni ta'rifasi to'rt, hatto, besh kishi borib qaytmoq to'rt yarim majidiy ekan. Dalil janoblari bizlarga 6 majidiy qaror berib edilar.

Sap-sariq maymung'a o'xshagan ar(o)bachi Yusuf yahudiy hayron-hayron ar(o) basig'a qaradi-qoldi. Ar(o)basini eskiligi uchun 3,5 majidiyg'a dalil ila savdo etib ekan. Har majidiy — 160 tiyin. Bizlar ham tushub arobani tavof qilaturg'ondek, atrofni har birimiz bir necha daf'a aylanduk. Iloj yo'q. Ar(o)bag'a uch ot qo'shilg'on. Birini yahudiy Yusufg'a mindurub qaytarib, Baytullahmg'a aroba uchun yuborduk.

15 daqiqa so'ngra dalilni bizg'a qo'shgan odami Shayx Mahmudni ham Baytullahmg'a aroba uchun yuborduk. Yo'l kanorinda 45 daqiqa o'lturdik. Misriy do'qtur janoblari mandan ham sabrsiz ekan, asabiylashib, dalilni g'oyibona g'ajidi. Insof

yo'q, bunlar haromi, o'g'ri... dedi. Bunlar yana bizni o'ynatur. Orqalaridan Baytullahmg'a ketarmiz, deb ikkisi qaror berdi. Man ham, tabiiy alarg'a tobe' bo'ldum. Ikki otni arobadan chiqorib, ko'rpanni ustig'a tashlab otni birig'a mindum. Biri mullo ila do'qturg'a qoldi. Alarni biri digarig'a minmoqni taklif qilari. Biri der «Vallohi san min». Digari der: «Bolloh, san min».

5–6 daqiqa atrofni «valloh», «bolloh» bosdi... Oxiri mullo mindi. Do'qtur jayov ketmoqda. Otlar ham «asl» ekanki, har qadamg'a to'qushar. Do'qturni ayog'iga qarab ohistalik ila haydaymiz. Baytullahmni yarim yo'lig'a kelduk. Yana «olloh», «bolloh» boshlandi. Mullo tushdi. Do'qtur mindi. Mullog'a oldim va yo orqamg'a minmoq va ertaroq yetmoqni taklif qildim. Yana valloh-ballohdan boshqa natija yo'q. Oqibat, mo'ltoni yurishinda Baytullahmg'a yetduk. Va bir ko'chadan dalil ila Yusuf yahudiy uch otlik bir foytun ila chiqdilar. Misriylar otashin bo'lub, dalil odamini so'kub, Xalil ar-Rahmong'a bormas bo'lub, Baytullahm shahrig'a piyoda kirib ketdilar. Man 2-arobani avval charxlarini muoyana qilib, dalil odami ila o'lturub, Xalil ar-Rahmong'a ozim bo'ldum. Bir soat qadar yurub, siniq arobag'a kelduk. Xulosa, uch soatlik vaqtimiz g'oyib bo'ldiki, bu qimmatlik yo'qolgan uch soat muddat mani besh kun Yofa shahrig'a muntazir va yo'ldan qolib bekor o'lturushimg'a sabab bo'lg'onini so'ngra o'qulur.

Baqadri imkon ar(o) bani tez haydatib, Xalil ar-Rahmon shahrig'a yaqin yetduk. Atrof uzum, zardol-u, zaytun, anjir, anor — xulosa, latif mevalar bog'chalaridur. Ovrupoyi 2–3 tabaqa imoratlar orasidan ba'zan kulba va kozalardan\* o'tub ketmoqdamiz. Bu zamon Musallahga burulgon sallalik bir arab sur'at ila kelib, o'zini bizni arobag'a oldi va manga Xalil ar-Rahmon ziyoratig'a dalilligini ta'yin etdi. Yonimdagi Shayx Mahmud bo'lsa, anga «Quddus dalili bu zavvorni Shayxi Dovudg'a eltib topshir», deganini har miyon aytib, ikkisi biroz munozara etdi. Dam bo'l, degan ila sukut etmaydurlar.

Arobani saqlatib, dedim: «Yo sizlar ar(o)badan tushing, yo men. Bo'lmasa, usku»\*.

Bir necha daqiqa so'ngra iflos va falokat bir saroyni oldig'a ar(o)bamiz turdi. Ar(o)bachimiz Niko'la Abdulaziz isminda



bir arab nasoro bo'lib, Shayx Mahmudg'a derki: «Mandan xabardor bo'l...»

Sababini Shayx Mahmuddan so'rasan, derki: «Xristianlardan munda agarchi tubjoyi bo'lsa ham maxsus olim oladurlar. Oning uchun qo'rqar, Vuzu'\* etdim, mani Shayx Dovudg'a topshirdi. Atrofimni 20 qadar bola va katta oldi: «Hoji, baxshish!»

— Ba'd az-ziyorati, fi-l-avdati<sup>1</sup>.

Shayx Dovud ila haram sari ketmoqdamiz. Falokat<sup>2</sup> ko'cha va bozorlar usti ravoqlar ila yopilgan. Eni uch gazlik egri-bugri, iflos yo'l. Kichkinagina, iflos do'konlar ichinda ozgina Ovrupo moli bor. Chirkin arablar o'turmoqda. Xulosa: munday chirkin va ajib ko'cha va odamlarni hech yerda ko'rganim yo'q. Hatto Yofaning ko'chalaridan ham falokatroqdur. U qadar fanoki, insong'a yamon ta'sir etar.

Bu do'konlarni bir-ikkisi yahudiyning baqqol do'konidurki, Ovrupo tug'ma va muhrlik sharob to'la shishalar ham sotilur. Turkiya hukumati tarafidan bino qilingan maktabi rushdiyani «harom» deb bola bermaydurgon arablar bu shishalardan olmoqda va foidasi yahudiy va Ovrupo kissasig'a kirmoqda. Va arabni axloqi ziyodaroq buzulmoqdadur. Turk hukumati sharob sotmoqni man' etmoqchi bo'lsa, Ovrupo tojirlari, «vahshiy» turklar «sarbasti\* tijoratg'a mone' bo'lur», deb e'tiroz etar emish. Oh, sad\*, oh na uchun olami islomning har yeri munday! «Fojatnabuh» «An-nazofati min-al-iymon» qayda qoldi? Anbiyoi izom salovatullohi alayhim ajmain hazoratining turbai muboraklari va abul anbiyoi Ibrohim Xalilulloh hazratlarining muborak ismi shariflarig'a nisbat berilgan baldaning holi va mundagi musulmonlarning qiyofa va basharasi bumidur? Ey, Oллоh, qiyomating qo'psun-da, bu osaflik hollarg'a xotima cheksin va bizg'a ba's ba'd al-mavt<sup>3</sup> yo'li ochilsun!

(Baqiyasi bor)

«Oyna» j., 1914-yil,  
52-son, 1235–1239-betlar

<sup>1</sup> Ba'd az-ziyorati, fi-l-avdati— ziyoratdan so'ng, qaytishda.

<sup>2</sup> Ifloslik ma'nosida.

<sup>3</sup> O'limdan keyingi qayta tirilish.

*Boshi birinchi yil «Oyna»ning 31-raqamidan  
52-raqamig'achadur*

Xalil ar-Rahmon shahrining yahudiycha ismi «Xebrun» bo'lib, bu shahar Jabal Xalil ismindagi tog' kanorinda\* muttasil\* va bu tog' etagindagi katta bir zahra\* ustinda va shahrg'a muttasil Ibrohim Xalil alayhissalom hazratlarining madfani\* muboraklari voqe'dur. Bozor va do'konlardan bevosita borgohi\* hazrat Xalilg'a 5–10 zina ila chiqib, marmar to'shalgan uzun sahlovdan yurub, ko'p adad ravoq va toshsutun ustinda bino qilingan katta va uzun yeri hasir\* to'shalgan bir jome'g'a kirduk. Muning asl o'rninda ma'bad\* Sulaymon alayhissalom bo'lib, so'ngra mulki Misriyadan Malik Zohir, Barquq va boshqalari tarafidan oliy imoratlar qilingandur. Bu mahallarg'a turklar istilo etgandan so'ngra Yovuz Sulton Salimxon ziyoratg'a kelib, yana ziyoda ta'mirot etib, mundan so'ng Sulton Mahmudxon Soniy tarafidan yana ziynat berilibdur. Bu jome' taxminan yuz qadam uzunlikdadurki, andin yana murabba'\* va tuloniy\* katta bir xonaqohg'a kirdukki, muning ziynati avvalgidan ziyoda va ustunlari yakpora marmar bo'lib, boshliq va devorlari rangi marmarlar ila ziynat berilib, yaxshi oviza\* va qandillari bo'lub, yeri butun a'lo qolinlar ila tamoman o'rtulgandur. Xonaqoh mehrobini ikki tarafinda va xonaqoh devorlarig'a yetmasdan va qiblag'a qarab, tuloniy ikki muazzam turba\* bordurki, har birining taxminan tuli\* olti, eni uch, balandligi to'rt gaz bo'lub, usti bizni sog'analardek balig'sirtidur. Va bul muborak turbalarning orasi o'n gaz qadar bo'lub, har birining usti yashil atlas po'shish ila yopilib va ul atlas ustinda oltun kaloba to'p\* ila oyot\* va ahodisi\* sharifa jalliy\* suratda yozilgandur. Mehrobning o'ngindagi turbai muborakka hazrati Xalil salovatulloh vasallamning va so'ldagi turba zavjai mutahharalari\* hazrati Soraning maqbarai sharifalari bo'lub, ikki turba bir-birig'a muqobildurki, ziyoratlari ila musharraf bo'ldum. Va ziyoratdan so'ngra mehrobi hazrati Xalilg'a namoz va ubudiyatni\* barjo kelturub, ushbu xonaqohg'a bir eshik ila marbut bo'lingon\* boshqa xonaqohg'a o'tub, hazrati Is'hoq alayhissalom va harami-muhtaramalari hazrati rafiqa va hazrati Ya'qub alayhissalom va zavjalari hazrati Loiqa ziyoratlarig'a musharraf bo'ldum. Yana bir eshikdan katta bir hujrag'a

kirdukki, munda ham oltunkori va yashil atlas ila o'rtulgon bir turba borki, bul hazrat Yusuf alayhissalomning madfani shariflari bo'lub, muning ham ziyorati ila musharraf bo'ldum. Va bu hujrada eski va tarixiy bir sanduq-da bordur. Bu haram ichinda shayxlar «toqchadek» bir joydagi jilolik bir toshda «qadami nabino Muhammad» sallollohi alayhi vasallamni bo'sa qildiradurlar<sup>1</sup>. Bu xonaqoh va jome'lar uch tarafdin kichik va usti ochiq, osti marmar ila farsh qilingan bir sahnni ihota etgandur. Sahning qiblag'a muqobil tarafinda bir necha hujra bo'lib, shayxlarg'a maxsusdir. Haram ichinda bir necha lavhda Qur'oni karim qo'yilgonki, baridan biroz tilovat etib, ambiyoyi izom\* va oilayi kirom\* hazratig'a arz va ollohi zuljalol hazratlariga niyoz-u ubudiyat etdim. Haram va xonaqohlarni yana aylanib, ondagi 30–40 qadar mo'ysafid va yosh bolalarg'a hadyai ojizona bermoqchi bo'ldumki, dalilimiz shayx Dovud dedi: «Bularg'a berma. Bergan ila qutulmaysan, balki sani talaydurlar. To'xta, kattalarini chaqiray, onga bergil». Bu so'zdan so'ngra alardan biri kattalarini chaqirdiki, bir yosh kishi keldi va ul kishig'a hadyani berduk. Qabul va duo etdi. Andin so'ngra bir mo'ysafid shayx manga dalolat qildiki, yana bir ziyorat yeri qoldiki, kel ziyorat qil. Orqasidan ketdim. 3–4 shayx o'lturgon bir yerda va xonaqohi Xalilni bir tarafinda olib bordi. Va anda quduq og'zig'a o'xshagan va qo'lni ko'b surtulgonidan mujallo\* bo'lgon «quburg'a o'xshash tosh»ni ziyorat qil dedi. Dedim: «Qanday ziyorat qilurlar?» Ul shayx yerg'a o'tqurulg'on qubur toshin ham bo'lub, qo'li ila mash<sup>2</sup> etib, so'ngra qo'lini o'pub yuzig'a mash etdi\*. Bu af'ol\* mani o'ylovg'a soldiki, bu qanday tosh va qanday ziyoratdur? Go'yo bul hajari asvod\* bo'lsaki, biz oni o'parmiz. Hosil, bu tosh uchun biroz hadya berdim. Bu quduq og'zig'a o'xshagan toshni bir necha kishig'a o'pturub turubdurlar. Hatto, ba'zi badaviylar o'shal toshg'a sajda etgan holda baland ovoz ila o'z murodini tilab turubdur. Bu hollar asablarimg'a to'qundi. Yana atrofimni bir necha 60 dan 8 yasharg'acha odamlar olib, nazir tiladilar... Bu hollar yomon ta'sir etib, anbiyoyi izomning muborak turbalari huzurinda

<sup>1</sup> «Qadami nabino Muhammad» – payg'ambarimiz Muhammad izlari (ul zot me'rojga shu yerdan ko'tarilgan ekanlar).

<sup>2</sup> Silamoq.

borib, ixtiyorsiz holimizg'a yig'ladim. To, xayrim, shayx Dovud dalilg'a malol kelib, chiqmoqg'a taklif etdi. Turub yana haramni aylandim. Va qubbat ul-Xalil devorining bir tarafida ikki qizil marmarg'a, biri kufiy, digari qur'oniy xat va arabiy al-iborat ila «ushbu tosh Mavlono sulton Malik nosir ad-dunyo va-d-din Muhammad Qilovun ayyominda qo'yildi» yozulib, yana 732 ta'rix qozilgandur. Boshqa bir yerda 1313 sanasinda Sulton Abdulhamidxon tarafidan ta'mir va tajdid\* qilindi, deb toshga qozilgandur. Muni o'qub turgonimda atrofimda 20 qadar katta va kichik nazirxo'rlar jam bo'lub, alardan biri, bilmayman, na sabab uchun «Hamid mal'un!» deb menga ismini ko'rsatdi. Va man anga hayron bo'lub qaraganimda, boshqa bir-ikkisi onu urushub va biri ul so'kkan odamning majnunligin ilgari surdi. Yana hazrat Xalilulloh turbai muboraklarig'a mutavajjih bo'lub ketdim. Va bul turbaning ichig'a kirmoq mumkin bo'lub, temur shabakalik\* eshigi bor ekan va eshikig'a shabaki ila 1259 tarixi yozilubdur. Turba Bibi Sora hazratlarining temur quflig'a\* 1302 sanasi shakli qozilibdur. Vido' ziyoratidan so'ngra xonaqohdan chiqib, haramning boshqa tarafidagi marmar saxlovidan yurub, besh-o'n zinadan tushub, yahud-u nasoro\* ziyoratchilar(ning) kelib qaytadurg'on darvoza oldig'a keldukki, munda zinag'a o'xshash bir necha toshlar bordur. Ziyoratchi yahudiy va nasorolarni haram ichinda kirg'uzmas ekanlarki, yahudiylar shul toshlarni silab, o'pub va ul toshlar oldig'a soatlar ila yig'lab, duo o'qur ekanlar. Yahudiylarni silab va o'pgani sababidan bul toshlar sayqal va jilo topibdur. Olmoniyo imperatori hozirgi Vilgelm Quddus ziyoratig'a kelganida, bu haramg'a-da Sultonning irodai maxsusa kog'azi va mahalliy hukumat odamlari ila kelib, haramg'a kirib ekan. Sultondan irodai maxsusa bo'lmaguncha g'ayri musulmonni ushbu haramg'a qo'ymas emishlar. Vilgelm bu ziyoratig'a arab va turklarg'a ko'p xudoyi berib ekanki, ba'zilarini «Hoji Vilgelm» derlar. Harami Xalilning ikkinchi bobi\* dan chiqib, shaharni aylanib, bir arab taomxonasinda kirib, taom etduk. Ul taomxona kichkinagina va bir musulmon arabniki bo'lub, devorinda Ovruponing mashhur hukmdorlarining rangli tasviri osilgan edi. Oshxonachidan so'raganda, bul «Hoji

Vilgelm» va bul falon deb ko'rsata berdi. Va imperatori a'zami-  
mizni ham atab ko'rsatdi. Anvar va Niyoziy va Mahmud  
Shavkat posholarning<sup>1</sup> ham tasviri osilgandur. Quddus, Yofa  
va bu tarafning ba'zi taomxona va do'konlarinda munday rang  
suratlar ko'pdur.

Oshxonadan chiqib, arobamiz turgan saroyg'a keldukki,  
20 dan ziyoda katta-kichik faqir arablar «hoji, ziyorat qabul,  
atoi baxshish» deb mutavajjih\* bo'ldilar. Biroz baxshish  
berildi. Va arobamizg'a o'lturub, shayx Dovudni dalilonasini  
berib, murojaat etduk. Biroz ketib edukki, kelarda arobamizda  
o'lturg'on kishi aroba oldini tutub, haqqini talab qildi. Va  
anga ham biroz pul berib, bir-ikki o'tel-no'mra\* lavhasini  
o'qub o'tduk. Bu o'tellarni yahudiylar tutar ekan. Azbaski,  
arablar o'telchilik qilmoqg'a or qilar ekanlar. Munda ovrupoli  
ziyoratchilarni(ng) ko'p kelishi uchun bu o'telchi yahudiylar  
ko'p foyda qilur ekanlar. Ammo bechora arablar tilanib  
umr o'tkaradurlar. Xalil ar-Rahmon shahrinda uch katta  
jome'i sharif va bir necha masjid bordur. Shaharda 10 mingdan  
ziyoda arab shofe'i al mazhab va 600 qadar yahudiy bo'lub,  
yahudiylarni(ng) bir ibodatxona va bir maktabi bordur.  
Turklar tarafidan bir rushdiya\* va olti sibyon\* maktabi ochi-  
libdur. Munda shisha bo'laturgon ma'dan borligi uchun shisha-  
dan halqa bilakuzuk va mayda-chuyda nimarsalar quyadurlar.  
Agarda muntazam bir fabrika ochib, shisha va zujjoj\* san'atiga  
rivoj berilsa, aholig'a manfaat bo'lur edi. Shaharning uzoq  
va yaqinig'a shaharg'a qaragan 60 dan ziyoda qishloqlar  
bo'lub, suv ila bog'cha va meva dehqonchilik yaxshidur.

(Baqiyasi bor)

«Oyna» j., 1915-yil,  
1-son, 7-11-betlar

### *1-raqamdan moba'd*

Xalil ar-Rahmon shahridan Quddusi sharifg'acha tosh  
to'shlangan kaf(t)dek musattah\* a'lo katta bir yo'l bo'lub,  
tarafayn\* aksar afilsun, uzum, anjir, zaytun va boshqa  
mevalik daraxtlar ila to'ladur. Tarafayn tog'lik bo'lub, Qud-  
dus va Baytullahmga yaqin yerlardagi bog'chalarning ba'zi-  
sini Amriko va Ovrupo nasoro boylari sotib olib, Ovrupo

<sup>1</sup> Turkiyadagi Yosh turklar inqilobining taniqli vakillari.

usulinda a'lo qasr-u imoratlarni etubdurlarki, yana biroz muddatda bu bog'chalar tamoman Ovrupo va Amrikoning xalqig'a o'tushi muqarrardur. To'rt tarafi tog'lik va toshlik yerlarda yuz minglar so'm masorif\* qilib, ovrupolilar tarafidan qasr-u ko'shklar solingoni bu da'voni(ng) dalilidur. Yo'l hozirlangon qaysi kun bir Ovrupo shirkati tramvay yurguzub, zavvorlardan\* yaxshi foyda etar. Xalil ar-Rahmondan Quddusg'a qarab 5-6 chaqirim yurduk. Munda tog' parchasidan iborat bir tepaning yonida toshg'a qozilgon bir necha mag'oralar\* bo'lub, odam emaklab kiraturgon kichik og'zi bordurki, qadim zamon odamlarining xona-u makonlari emish. Bu mag'oralarning(ng) orqa tarafinda bir necha qabr alomatlari borki, Namrud zamonidan qolgan derlar. Yo'lda bir-ikki yerda shifoxona va choyxonalar bordur. Yo'ning kanorida bir-ikki yerda nasoro ziyoratgohlari bo'lub, anda oliy kalisolar solinib, odatan har biri ovrupoyi bir katta qasaba yoinki kichik shahar hukmini olibdur. Xalil ar-Rahmondan 11 chaqirimda turk sultoni Sulaymon Qonuniy tarafidan 3-4 tanob yerni tutgan va balandligi 8-10 gazlik mustahkam toshdan bir qal'a bo'lub, aning jivorinda\* toshdan bir tanob qadarina katta bir havz bino qilinubdurki, vaqtinda turk askarlari turar ekan. Al-on\* bo'sh va hanuz qal'a mahkam va hatto, kungira va ziynatlari yerindadur. Yana birozdan so'ngra bir toqqa keldukki, xiristyonlar muni Makoni Xizr deb ziyorat qiladurlar. Mundan nar(i)roq modari Yusuf alayhissalom hazrati Rohilaning ziyoratgohidur. Muning ul tarafinda Yunus alayhissalomning ziyoratgohlari borki, bularni ziyorat, duoi fotiha qilduk. Va Xalil ar-Rahmondan 30 chaqirim qadar yurub, Baytullahm shahrig'a kirduk. Shahar tog' va qumlik, suvsiz va orizalik\* bir yerda bino bo'lunib, ko'chalari tor hamda egri-bugri qadim zamon shahridur. Shaharda sha'sha'lik\* suratda bir necha kaliso va bir hukumat qo'nog'i va bir necha mag'ozaxona\* bo'lub, sadafkori savg'oyi ketadurg'on nimarsalar sotilur. Mag'ozalarinda yerli nimarsalarni ba'zan birda o'n daf'a qimmatbaho qo'yarlar. Bu shaharda besholti ming arab xalqi bo'lub, yarmidan ziyodasi nasoro va boshqasi musulmon bo'lub, barchasi salla va jubba\* ila yurar. Mag'ozadagilar har bir tilni oz-oz biladurlar.

Xalqining ishi sadaf tarashlamoq bo'lub, sadafdan tasbih, salib, halqa, hilol va yulduz, quti, shamdon, qopchuq,

popirusdon, albo'm, muqova, taboq, qoshuq, tasviri salib Masih<sup>1</sup>, uzuk, ayol, bola va yerlar uchun tugma va har nav' ziynat-u yarashiq katta va kichik asbob, xulosa, ming nav nimarsa yasaydurlar. Va yer yuzidan kelaturgon musulmon va nasoro zavvorlari tuhfa uchun olib ketarlar.

Sadaflar Hind va Ammon tarafidan, avvalan, Italiyog'a ketib, anda a'lolari ajralib, ikkinchi darajadagilari munda kelib, aytulgon asboblari tayyorlanadur. Andagi sadaf tasbih va asboblardan boj ila Turkistonda kelaturulganda va firib yemasdan birinchi qo'ldan olinganda, yuzda yigirma va ba'zi moldan yuzda qirq foyda qilmoq mumkindur. Shaharni va sadaf ustaxona va mag'ozalarini yurub, ba'zi tuhfalari olib, bir maydonchag'a chiqdukki, aning bir tarafida mag'ozalar va bir tarafida hukumat qo'nog'i va nihoyatinda katta bir imorat bordur.

Imoratni maydong'a qaragan jabha\* eshigini, bilmayman, na sabab uchun yuqori nisfi\* bir kelgandurki, xam bo'lub kirduk. Ki munda katta va oliy, devorlari munaqqash va ziynatlik bir masjid bino qilingandur. Uzunligi 60, eni 40 gaz bo'lub, usti xeyli baland va 44 dona a'lo va muzoyiqlik\* marmar stun saqfini\* ko'tarib turubdur. Yeri tosh bo'lub, al-on bo'sh, faqat bir necha qandillar osilgandur. Mundan bir eshik ila boshqa bir xonaqohga o'tdukki, eni 30, tuli 60 gaz qadar bo'lub, ko'p bino qo'yulgandur. Munda ko'p qandil va adadsiz zaytun chirog'lari va ziynatlik ovizalar qo'yulub, muning bir tarafida toq(i)dek bir joy qililib, anda kecha va kunduz minglar ila zaytun chirog'i va sham' yoqilib tururki, bul hazrati Isoyi Masihning tug'ilgon mahalidur, derlar.

Bu imoratda har nav' ikon va tasvirotlar qo'yulub, mukammal nasoro kalisosining ichidekdur. Bu sum'aning\* ichida va ost tabaqasini va yer ostinda ba'zi kichkina hujralar ham bo'lub, anda ham tasovir va chirog'lar qo'yulgandurki, kechayu kunduz chirog'lari o'chmay, nasoro rohib va shayxlari qarashadurlar. Ushbu sum'a, to'g'risi, kaliso doimo ochiq bo'lub, turk askarlari tarafidan atrofida qorovul va ichinda ham bir suffa ustunda doimo ikki turk askari miltiq badast tik turub va har soat navbat olishdurmoqdadurlar.

<sup>1</sup> Tasviri salib Masih — xochdagi Iso tasviri.

Bu oliy imoratlarning birinchi boniysi hazrati Umar raziallohu anhu, ikkinchisi xalifa Abdumalik bin Marvon derlar. Ushbu bino ko'p metin va chidamlilik bir suratda marmardan bino qilingandur. Devor va stunlari tamoman qozma va qabartma, arab uslubinda muzoyiqlar bo'lub, ko'p bino qo'yulgon va marmar stun boshliqlari ko'p ziynatlikdur.

Munda har kim o'z xohish va odati diniyasincha ziyorat va ibodat qilar. Ziyoratidan so'ngra yana shaharni kezib, avvalgi arobamizg'a o'lturub, shahardan boshqa yo'l ila chiqduk. Shahar atrofinda marmar tosh ma'danlari bo'lub, bir qism xalq, yer ostidan tosh chiqorib, imorat uchun yo'nmoqdadir. Shahar atrofinda kichik meva bog'chalari bo'lub va ba'zi bog'chalarni yana Ovrupo va Amriko davlatliklari egallab, ba'zisinda yuz ming so'm turaturgon oliy tosh binolar solibdurlar.

Quddus ila Baytullahm orasi 8 chaqirim bo'lub, bir-birig'a yaqin bog'cha va binolar ko'p va aroda bir-ikki dayr (nasoro monastiri) bordur. Bu orada doimo eshak va har nav' kiro arobalari yurub, zavvor toshimoqdadurlar.

23 saraton oyi sahar ziyorati Xalil ar-Rahmon va Baytullahm uchun Quddusi sharifdan chiqilib edi. O'shal kuni mazkur mahallalarni yurub, ziyorat etib, g'urub\* vaqtida yana Quddusdagi manziling'a yetdim. Biroz istirohat etib, Quddusni oqshom hayotini ko'rmoq uchun chiqdim. Ko'chalarda «luks» mahtobi\* lanpalar yonib, ozroq arobalar bordur. Bir taomxonag'a kirib, g'izo\* etdimki, anda muskirot\* yo'q, faqat mashru'\* nimarsalar bor. Qimorsiz qarta va shatranj o'yuni-da mavjud bo'lub, ko'p kishilar munga og'ushtadir\*. Madaniyat odatlaridan teatr va sinamatog'rafda mavjud ekanki, kirmadim. Bu payg'ambarlar shahrig'a munday nimarsani(ng) bo'lmasligini ko'ngilni tilagani ajibdur. Ma fiyyahu\*, sharobxona va har nimarsa bor emish.

Sinamato'g'rafni ega va xizmatkorlari arab va ibriy sozlari cholg'uvchilarni(ng) hammasi yahudiy ekan. Teatrig'a arabiy, ibroniy, fransoviy, nemis tillarda rivoyat-piyesalar qo'yulur ekan. Azbaski, mazkur tillar xalqidan munda ko'bdur. Falastin arablari ham Misr arablarini sababi ila teatrchilikka biroz mayl qilubdurlar. Teatr piyesalarini rivoyat atab, qadim va jadidlari yaxshi ko'z ila qarar emishlar.

Sinamato'g'raf ila men turgan o'tel orasinda ovrupovoriy keng va muntazam bir yo'l bino qilinib, tarafayni lanpalar



ila munavvar va muning o'rtasinda hukumat qo'nog'i va ani jivorinda temur panjaralik a'lo bir bog'cha va sayrongoh bino qilingandurki, inson munda o'zini bir Ovrupo shahrig'a ko'rar.

Bu katta yo'l ruslar bino etgan «Maskubiya» qal'asini oldidan o'tar. Bu yo'lning ikki tarafinda ovrupovoriy katta mag'oza va o'tel va do'konlar bo'lub, tarafaying'a soya uchun daraxtlar ham o'tqurulubdur. Mahtobiy lanpalar ziyosi ila yurub, manziling'a kelib, uyqug'a ketdim.

(Baqiyasi bor)

«Oyna» j., 1915-yil,  
2-son, 26–30-betlar.

## *2-adaddan moba'd*

Hazrat Xalil ar-Rahmon alayhissalom ziyoratining ertasi dalil ila bir arobag'a o'lturub, Quddusi sharif ichi va atrofndagi anbiyoi izom va avliyoi kibor ziyoratlarig'a mutavajjih bo'lduk. Quddus fathinda shahid bo'lgan bir necha sahobagoni buzurgvor\* va u jumladan, hazrat Ukkosha va boshqa mujohidini islomni(ng) bir necha yerda ziyorat etduk. So'ngra shaharning sharqi(y) tarafndagi Tur-Zito tog'iga chiqildi. Bu tog' tik emas, o'rlatib aroba yo'li qilingandur.

Tog' ustig'a chiqganda, Quddusni(ng) har joyi ko'zga ko'runur. Bu tog' ustidan shaharda o'ndan ziyoda katta kalisolar ustindagi salib-kresti ila ko'zg'a uchraydur. Tog' ustinda ham bir necha eng katta kalisolar borki, katta davlatlar tarafidan bino qilinib va har birining atrofinda 5–10, hatto, yuz-ikki yuz tanob yerlarni aylanturub olingan maydon, bog'cha va o'tellar, yuzlar ila xona va hujralar bino qilinib, anda nasorolarning har qismidan, masalan, rus, nemis, fransuz, italyon, anglichan, rum, arman, bulg'or va boshqa xristian millatlarining er, ayol monaxlari turub, bo'ynida to'rt-besh olchin tasbih osgan zohid va monaxlardan boshqa har sinfdan, ya'ni kosib va ahli hunar muhojirlari ilan to'ladur. Mazkur millatlarning har birini shahar ichinda va xorijinda va Tur-Zito tog'inda muntazam maktab, hatto dorulmualliminlari bo'lub, xristian muhojirlarining bolalarida, boshqa mahalliy xristian arab bolalarini ham majjoniy\* o'qitadurlar. Musulmon bolalari bo'lsa, na bu maktabda va na turklar bino etgan nizomiy maktabda o'qumay, dunyodan

xabarsizlik ila umr o'tkararlar. Quddus maishatig'a diqqat ila qaraganda Arab mamlakati va yoyinki Turkiya viloyati va turk hokimligi; ko'zg'a eng kichik ko'rung'on nimarsalardan bo'lub, har yerda ovrupoyilarni(ng) madaniyati, maktabi; tijorati va xo'jaligi zohirdur. Misol uchun shuni yozayin: Quddus va Falastinda Rusiya imperato'rig'a mansub rus jamiyati bo'lub, bularning idorasinda yuzdan ziyoda ruscha va arabcha muntazam maktablar borki, talaba va talabotlari 3-4 ming bo'lub, bul maktablarg'a turklarni eski imtiyozlar hukmi ila mudoxala haqqi bo'lmay, faqat rus inspekturi nazoratindadir. Yana muallim va muallima hozirlaydurg'on muntazam ruscha, arabcha maktablari bo'lub, bu maktablar rus sohib xayrotlarining masorifi va ehsoni ila tarbiya qilinur. Tabiiy, bu maktabg'a o'qigon kishilar rus tarafdori bo'lurlar.

Quddusdan Tur-Zitoda chiqgonda bevosita chap qo'lda yigirma-o'ttuz tanob yerni atrofi devor qilinib, muzayyan Ovrupo ko'shk va imoratlari bino qilingan. Bu kimniki? Bir anglis xotunning mulki! Ul tarafinda yo'l ustinda ko'b mahallalar bor. Bular kimniki? Ovrupo muhojirlariniki! Yana bir necha yuz tanob yerlarni atrofig'a stun o'tqurulub, sim ila ihota qilib, ichinda milyo'nlar masorif ila bino qilingon maktab, musofirxona, kaliso, hammom, xastaxona va boshqalari borki, bu kimniki? Olmonlarniki! Quddusda olmonlar boshqalardan bir necha daf'a ziyodaroq yer egallabdurlar. Undan nari boshqa katta bir imorat va bir necha tanob yerni aylanturulgon, bu kimniki? Italyonlarniki! Yana bu... kimniki? Ovrupoylarniki. Bir kalima ila aytayin, Quddusi sharif atrofini(ng) o'ndan 6-7 si ovrupoyilarniki bo'lub, nihoyatda oliy va jamiyatlarig'a maxsus umumiy binolar solingandur. Yolg'uz ovrupoyilar emas. Amriko nasorolarining ham mulklari bordur.

Quddus atrofini(ng) 10 dan 4 yo 3 i mahalliy odamlarniki bo'lub, ammo obodlik jihatidan ovrupoyilar mulkini(ng) yuzdan biri e'tibor qilinsa, joizdur. Ofarin ovrupoyilarg'a! Alarni(ng) din va millatlari yo'lig'a etgon sarf va chekgon mehnatlarini aytib ado qilib bo'lmaydur. Bu aytulg'on yer-u imoratlar qip-qizil va yalang'och tog' ustinda bino qilinib, toshlarni qozib, katta maydonlar va musattah qilib, boshqa taraflardan tufroq kelturub, botmanlar ila bog'chalar

bino etubdurlar. Bu tog'lik yaramas yerlarni(ng) murabba' gazini 2 dan 500 frankg'acha sotub olibdurlar. Mil ila qayerlardan suv kelturubdurlar... Ore\*: «Himmat-ar-rijol taqla-ul-jibol» (odamlarning himmati tog'larni talqon etar). Endi bularg'a, biz dindor musulmonlarni qiyos qilib bo'lmaydur. Vaqtoki\*, Makkayi mukarrama va Madinayi munavvarada musharraf bo'lub edim.

Oxirgi 1–2 asr zamonida biz, musulmonlar va yo musulmon podsholari tarafidan bir asari buq'ai xayriya yo'qdur<sup>1</sup>. Hozirgi zamon jamiyatlari, maktablari... nari tursun, bizni ba'zi hojilar ahvolini anda ko'rmoq kerak. Kissasig'a minglab puli bo'lub turub, to'yub taom yemaydur. Tevachisini\* to'ydurmay, andan tayoq yeydur. Karantinlarda o'zini miskin ko'rsatib, zillatni qabul qilib, pulsiz o'tar. Maktab yo madrasa qilaturgon hoji topilmaydur. Al-nihoya, qilaturgon xayri 5–10 so'm andagi boy va yoyinki gadoylarg'a ulash-turmoq va harami nabaviyyada har kun xaloyiqg'a uch ko'za suv bergil, deb bir xodimg'a oyinda bir majidi (160 tiyin) tayin qilib, oni ham yubormaslik (mani samarqandiyligimni bilib, Samarqandda al-on tirik hoji... janoblarig'a ayting, mani saqqolik\* vazifamni yuborsun, deb xuddomi\* haramdan biri manga ta'yin qilib edi).

Bu mustamlakotlar\* orasidan o'tardim, uzoqdan katta bir kalisoning hallik qubbasi nazarimni jalb etdi. Kimniki? Ruslarni monastri-dayridur dedi. Borduk. Yo'lni bir tarafida faqir hovli va imoratlar, iflos arabxonalari bordurki, bulardan o'tub, katta bir darvozadan oliy va katta bir chahorbog'ga kirduk. Har taraf rasta ila har nav' daraxt o'tqurulgon. Har tarafda monaxlar uchun xususiy uylari va hammasi uchun katta zollar va maktabxona, kasalxona va nihoyatda ziynatlik bir kaliso va Quddusni har bir minorasidan baland g'ishtin bir minora va ustinda Quddus ufqini ovozi ila to'lduraturgon katta bir noqus\* osilgandur. Chahorbog'ni(ng) har yeri tozadur. Ruslarning Quddusda mundan boshqa yana 4 katta kalisolari bordur. Oldimdagi dalilg'a dedim: «Ko'rdingizmi, ruslarning dindorlig'i va himmatini? Shunday tog'da yo'qdan

---

<sup>1</sup> Bir asari buq'ai xayriya yo'qdur – keyingi paytda jamoat binolari deyarli qurilmadi.

shunday jannatdek joy qilibdurlar. Ammo (siz) Quddusi harami sharifning ichinda poruxonalar\* qilibsizlar?!» Tabiiy, javob yo'q.

Ba'zi ruslar ila so'ylashduk va ondin chiqq'och hamon oldingga iflos havli va sahroyig'a o'xshash chirkin musulmonlarni ko'rarsanki, bu ko'rulg'on manzaralar ko'ng'ilg'a ta'sir etar.

Atrofni yana aylanduk. Tur-Zito ustidan Bahri Lut ko'li ko'runub turubdur. Quddus ichinda va atrofinda ko'p adad kalisolar ustindagi jilolik qubba va salibi ilan ko'zni o'zig'a tortar. Musulmoniy dini imoratlar ustining tunuka va po'shishlari va masjid qubbalarining ustinda qo'yulgon va alomati islom bo'lgan hilol (yarim oy) lar kamoli chirkinlikda ko'runub, zang bosib, mujallo salib muqobilinda hazin bir manzara ko'rsatadurki, mundan nasorolarni(ng) dinig'a ixlosligi va musulmonlarni(ng) loqaydligi ma'lum bo'ludur.

Rus kalisosining yaqinida har tarafi tosh devor aylanturulgon musamman — sakkiz burj(l)i bir havlig'a kirduk. O'rtasinda bir qubba bor. Ichig'a sandalig'a o'xshash katta bir tosh borki, hazrat Iso alayhissalom muning ustidan osmong'a chiqqon, derlar. O'rtasi chuqur bir toshni mahali\* Asoyi Muso alayhissalom derlar. Muning yaqinida yigirma qadar zinadan chuqur bir dahmag'a kirilurki, Robiya al-adviyya va Muhammad bin al-Hasan raziallohu anhunung ziyoratlaridur.

(Baqiyasi bor)

«Oyna» j., 1915-yil,  
3-son, 49–53-betlar

### *3-adaddan moba'd*

Bu chuqurdan chiqib, arobag'a o'lturub, boshqa yo'l ila yana shaharg'a tushub, ovrupoyilarni(ng) tog' parchalaridek maktab, musofirxona, kaliso, sum'a, qo'nsulxonalaridan va ora-sira buzuq va xarobazor musulmon havlilari oldidan o'tub, yana shaharni boshqa tarafig'a chiqib, bir xeyli borganan so'ngra, xaroba bir yerda arobamiz turdi. Yerdan 50–60 gaz baland — bir tog' parchasi va oning osti bir tanobni(ng) to'rtidan biridan ziyoda bir mag'ora. Bu mag'oraning usti yakpora uch-to'rt dona katta tosh — suxra\* ila tabiiy yopilgandur. Mag'oraning osti yerdan biroz chuqur

bo'lub, ayvong'a o'xshash uch tarafi qiyodan\* devor usti suxra tosh va bir tarafi ochiqdur.

Bu mag'oraning bir tarafinda Sulton Ibrohim binni Adham janoblarining turbalari bordur. Mundagi eski asrlardan vaqtinda bu mahalga katta imoratlar borligi bilinur. Ammo al-on xaroba holindadur. Agar hozirgi musulmonlar bo'lsak, boshqa ziyoratgohlar-da shuningdek xaroba holig'a kelishi muqarrardur.

Mundan chiqib, shaharni boshqa tarafinda bir xeyli yurub armani kalisosidan o'tduk. Kaliso deganda yigirma-o'ttuz tanob yer va atrofi tosh devor ila qal'ag'a o'xshatub bino qilingan bir qo'rg'oncha tasavvur qilinsun. Ichinda kaliso, maktab, hammom, kasalxona va jam'iyati xayriya idoralari, jimnostiqlik xonalar\* sum'a har tarafdin kelaturgon ziyoratchi nasorolar uchun muntazam uylar, taomxonalar, hatto, ichinda hunar va sanoatxonalar bino qilingandurki, yolg'uz tanbalxona va bizni(ng) tayaklardek ishsiz va gadoyxona emasdur. Temur darvoza va anga darbonlari bordur. Biroz nari ketib, arobadan tushduk. Ravoqlik bir sahlovdan o'tub, bir havlichag'a, undan pastgina yopilgan chinni va minokori\* bir gunbazg'a kirdukki, ichi masjidlardek gilamlar ila to'shalgan va bul muborak maqom hazrat Dovud alayhissalomning qabri muboraklari bo'lub, ziyoratig'a musharraf bo'ldum.

Mundan aroba ila yana boshqa yo'llarni aylanib, Quddus ichindagi qabri hazrat Maryam va Iso alayhissalomga mansub kaliso va boshqa mashhur kalisolarni ziyorat va sayohatig'a azimat etduk. Avvalan, masjidi Aqso harami sharifning yaqinidagi Qamom kalisosig'a bordukki, nasorolarcha dunyoni eng sharofatlik kalisosidur. Ichi katta va kichik bir necha qubba va marmar imoratlardan iborat bo'lub, hazrat Isoning har nav' tarixiy holatlarini, ya'ni xalqni ding'a da'vat etganlari va yahudiylar tarafidan izo\* va jafu ko'rub, salibg'a mixlangan va nasorolar e'tiqodinchu, salb\* bo'lungon holatlari tasvir qilingan va kichkina yasalgan va osilgan maslubi mujassam<sup>1</sup> suratlari yasilib qo'yilgandur.

Kaliso ichinda ko'p adad chirog' va shamlar yoqilib, doimo ziyoratchilari uzulmaydur. Mundagi nasoro ziyoratchilarini(ng) ba'zisi biz kirganda nihoyati xushu ila\* tizla-

---

<sup>1</sup> Maslubi mujassam — Isoning chormix qilinishi tasviri ko'zda tutilmoqda.

nib, andagi nasroniyat mehroblarig‘a va hazrat Masih maslubning tarixiy suratlari huzurinda saf-saf ziyorat etib turub edilar. Bu kalisoning kalidi musulmon bir shayx qo‘linda bo‘lub, andan boshqa barcha xodim va ruhoniylari nasorodandur.

Mundan chiqib oning yaqinidagi rus kalisosig‘a kirduki, munda ham tarixiy tosh va tasvirlar ko‘b bo‘lub, bir necha uydan iboratdurki, bir rus xotun shayxi bizlarg‘a ko‘rsatib bayon etdi. Munda to‘rt-besh ming so‘m masraf\* ila qilingon ikon (tasviri hazrat Maryam va Masih) bordur.

Kalisoning oldinda toshkandlik yosh attor bor ekanki, hoji va zavvorlar olaturgon nimarsalar sotadur. Do‘konig‘a biroz o‘lturduk. Mamlakatdan so‘radi. Qo‘lig‘a bir necha nusxa «Oyna» va «Turkiston xaritasi»ni berdim. Ahli savod ekan. Toshkand shahrini ko‘rsatdim. Beixtiyor xarita ustindagi Toshkandni o‘pub, ko‘zig‘a surtdi. (Hubbul vatani min al iymon<sup>1</sup>.) Xususan vatan va ahli diyorni(ng) qadri musofiratg‘a\* ma‘lum bo‘lur. Haqiqatan vatan muqaddasdur. Qadri ni bilmoq kerak. Sotmasg‘a va o‘lguncha ayrilmasg‘a kerakdur. O‘g‘li bor emish, Quddusdagi ruscha va arabcha maktabg‘a berib, maktabni tamom qildurmoqg‘a va so‘ngra ruscha dorilfunung‘a yubormoqig‘a mashvarat berildi. Shaharni(ng) chetroqindagi Qabri hazrati Maryam kalisosig‘a borduk. Shayxlari tamoman nasorodur. Asl kaliso yer ostinda qolub, 60 qadar zina ila kirilur. Yer ostinda 2–3 qubba va marmar ravoqlar ila bino qilingon imoratlar bo‘lub, devorlarinda tarixiy xat va tasvirlar bordur. Ko‘p chirog‘ va qandillar yoqilgan va yer osti imorati bo‘lgan uchun qorong‘udur.

Andan chiqib, yaqinidagi nasorolarning katolik mazhabi ahlining ziyoratgohig‘a kirduk. Kichkina bir eshikdan kirarmiz. Qudrati katta tosh – suxralardan paydo bo‘lgan va bir-birig‘a muttasil 3–4 kichik tabiiy mag‘oralardan iboratdurki, mag‘oraning tavonig‘a ba‘zan qo‘l yetar. Va ichi nomuntazam 2–3 hujrag‘a ayrilib, hazrat Masihning bir bola bo‘ynida salb qilingon mujassam tasviri bordur. Va yahudiylar tarafidan salibg‘a mixlanganda qonlarini oqgani tasvir qilingondur. Bu maqomning shayxi katolik nasorodandur.

---

<sup>1</sup> Hubbul vatani min al iymon – Vatanni sevmoq iymondandur.

Mundan chiqib, shunda yaqin Boyazid Bistomiy<sup>1</sup> hazratlarining turbalarini ziyorat etib, biroz nar(r) oqdagi nasorolarg'a teyishli chahorbog'ga ketdukki, onda ham hazrat Masihning har nav' tarixiy holatlarining tasvirini devorlarga'a tortilibdur. Yana bir necha islomiy va yahudiy va nasroniyat maqomlarini sayohat va ziyorat etib, yahudiylarni Quddus harami devorining orqasig'a kelib, har kun yig'lab duo o'qiydurgon joylarig'a kelduk. Yahudiylar haramni musulmonlardan olib alarg'a bermoqni va qadim yahudiy hukumat va saltanatig'a yetkurmoqni Alloh taolodan tilab, haram devorig'a orqa tarafdin kelib mutavajjih bo'lub, bo'yunlarig'a rido solib, er-u ayollar soatlar ila tikka turub, kitob yuzasidan va yo hifzan\* guruh-guruh duo o'qiydurlar. Kim bilur, alarni duolari qabul bo'lur yo yo'q. Zohir holda qaraganda, Quddus va Falastin, ya'ni arzi mav'udg'a\* yahud-u musulmonlardan ziyoda tasarruf va ilm jihatindan nasorolar taraqqiydadur...

Harami sharifdagi masjidi Aqso va masjidi Suxrotillog'a kirib, yana bir vido' ziyorat etib, ushbu sharif maqomlarga'a yana musharraf qilishini Alloh taolodan tilab, chor-u nochor haramdan chiqduk. Bozor va o'teldan nimarsalarimizni olib, dalil va shogird dalilg'a keraklik hadyani berib, alar ila vido etib, aroba ila vagzalg'a mutavajjih bo'lduk. Dalil janoblari vagzalg'acha kelmoqchi bo'ldi, yolvorib qaytardim. Go'yoki ikki kishi tamom uch kun manga rafoqat\* va dalolat etdilar. Agarda Ovruponi(ng) bir shahrig'a bir tarjimon uch kun alarni aytgan dalolatini qilsa, aqlan o'n besh so'm olur. Ammo ikki kishig'a mani berganim ondan ozdur. Maa fihi\* bergan nimarsam alarni(ng) taxminidan ziyoda ediki, xursand bo'ldilar. Man dedim: «Agarda ikki kun minilgan arobani odat bo'yuncha kiro qilsa edingiz, sizg'a ziyodaroq berar edim. Azbaski, arobachig'a... g'urushni ziyoda olib berdingiz».

Dalil janoblari uyalib, dedi:

— Odamni tonimoq mushkul. Agar hojilarni 3 kun, 4 kun olib yurarmiz, ketar vaqtida bergusi bir majidi (160 tiyin) berarki, ikki kishig'a na bo'lur? Loiloj dalillik zimnig'a dallollik ham qilarmiz...

<sup>1</sup> Boyazid Bistomiy — 874-yilda vafot etgan mashhur mutasavvif.

Bukun chahorshanbadur. Asrdan so'ngra bir popur\* Yofadan Iskandariyag'a ketar. Onga yetmoq uchun Quddusi sharifdan otasharobani uchunchi sinfig'a kirdik. Tushganda nirmasalarni chiqorgan hammol haqini onga bermoq uchun dalilg'a berib edim, olganim yo'q, deb 2 g'urushni yana oldi. Vagonda Ovrupo va Amriko sayyohlari va yerli arablar, askarlar to'la bo'lub...<sup>1</sup> Xulosa, bandai Xudoning har qismidan bordur. Kurrai arzning har nav' musulmoni, nasoro-u yahudiysi munda kelur va ham (masi) bir xudoning bandasidur.

Bu holat va manzaralar ham latif va ham ajib bo'lub, insonni chuqur tasavvurlarg'a ko'mar:

Raftam ba kalisoj tarsou juhud,  
Tarsou yahudro ro' batu bud.  
Dar yodi visoli tu ba butxona shudam,  
Tasbih tabon zamzamai ishq tu bud<sup>2</sup>.

O'rta yosh ammoma\* va musallahlik\* bir arab shayxi Ovrupo libosi kiygan boshqa bir ziyoli arab ila mani oldimg'a o'lturdilar. Uzun yerlar. Shayx manga: «Domla aka, uzum yeng...», – Xo'qand lahjasig'a taklif etdi.

Man dedim:

– Siz Xo'qand tarafig'a ko'bmi yurgan?

Dediki:

– Man Xo'qandiydurman. Besh-olti sanadur Hind, Arabiston, Misr va Hijozg'a kezarman...

Haj shavqi uchun oqchasiz vatandan chiqibdur. Marjon, sadaf, tasbih va amsoli savdo etar. Va mazkur aytilg'on qit'alarni har sana bir daf'a aynolur ekan. Ikki ming so'mcha moyasi bor emish. Mazkur qit'alar tilidan hamda o'rdu va anglizi biroz bilur... Madinayi munavvaradan er va xotun olmoqni va bolasini nizomiy maktabg'a berish to'g'risinda mashvarat etduk. Jivorindagi yosh bir arab jarida muxbiri bo'lub, onga ham ma'qul bo'ldi...

2-iyul, hanuz asrg'a yarim soat bor. Yofa shahrig'a otasharobadan tushgan hamon Yofada mutavattun\* samarqandiy

<sup>1</sup> O'chib ketgan.

<sup>2</sup> Tarjimasi: Nasroniy va juhud ibodatxonasiga bordim.

Nasroniy va juhud qarshingda yuzma-yuz o'tirardilar.

Yoding visoli bilan butxonada bo'ldum,

Qo'limda tasbih ishqingda zamzama qilardi.



va sadaf tujjori Hoji Mir afandig‘a yo‘luqduk. Bu janob dallol yoinki hoji sayyodlaridan emas va nihoyatda musofirparvar va amini mu‘tamad\* bir odamdur. Bizni to‘g‘ri havlisig‘a olib bormoqchi bo‘ldi. Man dedim: «Afu buyuring, bir daqiqa g‘oyib qilaturg‘on vaqtim yo‘q. To‘g‘ri paraxo‘dg‘a kirib, Misrg‘a azimat etmoqchiman». Andagi turk jandarmasidan paraxo‘dni so‘raduk. Dedi: «Sur‘at ila ketsangiz, balki yetarsiz». Nimarsalarni hammolg‘a ko‘tarturub, dengizg‘a yurub yaqinlashtuk. Oldimizdan guruh-guruh xalq chiqib: «Vopur roh» («Popur ketdi»), — so‘zi ila bizlarga muqobil bo‘lurlar.

Dengiz labig‘a chiqib ko‘rdukki, popur ketib turibdur. Dengiz jandarmasidan: «Yana qachon popur bor», — deb so‘raduk. Zuhirot\* bo‘lmasa, dushanba kuni javobini berdi. Ana, Xalil al-Rahmon yo‘lig‘a aroba sinib, 3–4 soatimiz favt\* bo‘lg‘onining natijasi. Endi Yofadek kichkina shaharda besh kunimizni go‘yo hibsi ila o‘tkarurman. Uydan chiqq‘ondan beri tuzagan fursat, safar pro‘gramim bukun saktag‘a uchradi. Kayf uchdi. Go‘yoki mani munda bir sanalik hibsi etdilar. Na chora? Yofada hojixona va o‘tel ochgan janobi Hoji Baqo Buxoriy kelib muloqot etdi. Va janobi Hoji Mir ila manga dildorlik berib, Hoji Baqo ochgan Misr o‘telig‘a olib keldilar va a‘lo bir no‘mra berdilar. Alar xursand, men xapa.

(Baqiyasi bor)

«Oyna» j., 1915-yil,  
4-son, 74–79-betlar

#### 4-adaddan moba‘d

Yofa shahri Oq dengizning Shom sohilinda va Quddusi sharifning askalasi dur\*. 15 mingdan ziyoda xalqi bo‘lub, aksari musulmon va boshqasi yahud va nasoro bo‘lub, barchasi ning tili arabidur. Atrofi bog‘cha va barakatlik bo‘lub, uzum, limon, tarbuz, shaftolu, xulosa, har nav mevasidan Ovrupo va Misrg‘a har sana milyo‘n so‘mlar ila sotar. Sohilig‘a limon — paraxo‘d turadurgon sun‘iy havzi yo‘q. Vaqtida har oyning avval-oxiri bir hafta qattig‘ fo‘rtanasi bor. Yozda birozgina dengiz mavji bo‘lub, ammo qo‘rqunch emasdur. Ushbu sana ovrupoyi bir shirkat uch sanada tamom qilmoq sharti ila rextim\* va havz qilmoq uchun Turkiya davlatidan ruxsat olgani so‘ylanurdi.

Shahar dengiz bo'yinda uzuncha tushub, ba'zi imoratlari dengizg'a muttasil, uzog'i 20–30 gazdur. Qadim ko'chalari iflos va tor bo'lub, oxiran hukumat 4–5 ovrupoyi katta yo'llar ochibdurki, tarafayni 4–5 tabaqag'acha toshdan ovrupovoriy imorat bo'lub, luks lanpalar ila tanvir\* qilingon. Va tijorati yaxshi bo'lub, yer yuzindagi butun musulmon, yahudiy va nasorolarni(ng) ziyoratgohi Quddusi sharif hojilarni(ng) o'tadurgon yeridur.

Shaharg'a muttasil va dengiz bo'yinda hamda temur yo'li maxtatasi\* hamsoyaligindagi ba'zan ziroatlik va ba'zan qumzor yerlarni Turkiya davlati ruxsati ilan yahudiy milyo'unchilaridan iborat bir shirkat – kamponiya xalqdan avvalan yo'q bahosig'a olib, kichik bir shahar bino etib, yahudiy muhojirlarig'a kerakli imoratlarni qilib, 10–20, hatto, 50 sana muhlat ila berarlar va besh mingdan ziyoda yahudiy muhojirlari dunyoni har tarafidan munda jam bo'lubdurlar. Ovrupovoriy tosh imoratlar, ibodatxona, dorulfunundek katta maktabxonalar, «artizan» – suv berguvchi quduqlar, no'mralar. Xulosa, yigirmanchi asr tirikligig'a va yahudiy maishatig'a kerakli mukammal imoratlar bino etibdurlar. O'z arolarinda ittifoqlari tom bo'lub, bu yahudiy shahrinda sodalavh va fikrsiz turk davlatidan na po'lis bor, na mudir.

Yahud millati va har bir ko'zi ochiq millat manfaatlik ishig'a pulni qizg'onmaydur. Bu ish uchun birgina Ro'tschild boy 4 milyo'n so'm beribdur. Masalan, bir yahudiy dunyoni bir uchidan anda hijratni qaror berib xatlashsa, o'shal shirkat anga kerak havlini muhojir planicha bino etib, 50 sanalik berar va har sana ijrosini yarmi qadar pul berib, havlig'a ega bo'lur.

Ushbu yahud shahrining yerini o'n sana muqaddam bir kishig'a majjoniy bersa olmas ekan va yahudiylar boshlab imorat qilganidan so'ngra atrofni bir murabba' gazi bir g'urush – 7,5 tiyin ekan. Al-on gazi ming g'urushdan fazladur\*. Yana qimmat bo'lub taraqqiy etar. Azbaski, dunyog'a yahud xalqini(ng) mustaqil shahri yo'q. Va Yofaning bir tarafi cho'l bo'lub, bu cho'l bora-bora Turkiyaning hurriyat va himoyati va yoyinki sodalavhligi soyasinda dunyomizda birdan bir yahud shahri bo'lur. Yahudiylarni hozirgi dorilfunun mak-

tablari va idorai baladiyalari turklar nazoratidan ozod, na unga turk inspektor — mufattish ilmiyasi va na po‘lisi qaraydur.

Yofa yahudiy shahrining ko‘zg‘a ko‘runmas idorasi o‘zlari uchun marka bosturubdurarki, yahudiylar bu markani sotib olib, xatning ichig‘a yopushturalar. Albatta, bir kun kelurki, bu markalar lig‘ofani ustig‘a chiqar. Ore, umid lozimdur. Dunyog‘a har kim umid ila yashaydur. Ammo umidg‘a ish qo‘shulsa, natija berar. Yofada o‘n ming qadar musulmon va 6—7 ming qadar yahud va nasoro bor. Ammo katta savdolar va katta mag‘ozalar, sinamatog‘raf va katta maktablar hamma(si) yahud va nasoro qo‘lindadur. Mukammal fransuz-ferar maktabi munda mavjud bo‘lub, Fransa misyo‘nerlari tarafidan yaxshi bir yerda bino qilingon va bog‘chasindagi ko‘shkdan qaralsa, butun Yofa bog‘chalari oyoq ostinda ko‘runur.

Turklarning bir sultoniy va bir necha ibtidoiyya maktablari bo‘lub, Yofaning o‘n ming musulmonlari bizni Samarqandning 80 ming musulmonidan o‘qimoq to‘g‘risinda a‘lodur. Azbaski, sultoniyda yuz qadar talaba bo‘lub, arabiy, turkiy, fransaviy o‘qiydur. Fransuz misyo‘ner maktabig‘a ham musulmondan 20 qadar talaba bor. Samarqanddagi hukumat maktabida nufusi Samarqanddan o‘nning yarmi qadar ham musulmon bolasi yo‘qdur. Mundan ma‘lum bo‘lurki, Yofaning u chirkin arablari bizni bu ozoda musulmonlardan ko‘ra taraqqiydadurlar. Holbuk, ularni(ng) bu taraqqiysi yahud va nasorog‘a qaragonda hechdur. Yofada nasorolar tarafidan uch jarida arab tilinda va yahudiylar tarafidan bir jarida arab tilinda va bir jarida ibroniy til va xatinda chiqib, ammo bechora musulmon tarafidan bir dona ham yo‘qdur.

Shahar o‘rtasindagi jome‘da bordim. Bir mudarris bir necha talabag‘a tafsir va hadis dars berib turibdurki, biroz quloq osdim. Fikri va tadrisi\* yaxshi bo‘lub, bizni Buxoro va Turkistondan a‘lodur. Hamshahrimiz sadaf tojiri janob Hoji Mir afandini(ng) uch o‘g‘li borki, onasi arabdur. Kattasi hukumatning sultoniyisini tamom etib, fransuz-ferarini ham shu sana tamom etibdurki, tavzei mukofot\* kuni ferar idorasi tarafidan bizg‘a ham da‘vatnoma va belat keldi. Bordim. Toshdan bino qilingon ikki tabaqalik madrasadek katta bir maktab... Turkiya va Fransiya bayroq va alomatlari ilan ziyat

berilgan. Bir tarafda sulton va Turkiya ham Fransiya akobirlarining tasviri osilgandur. Yuzdan ziyoda nasoro, yahud va musulmon bolasi sinf-sinf chiqib fransuzcha, arabcha va yahudcha abyotlar va nutq o'qudilar. Maktab bog'ida to'rt yuz qadar muxtalit\* xalq bor. Mukofot uchun berilaturgon kitob va albo'mlarni(ng) ustig'a bolani no'mrasi ilan ism va kuniyasi yozilgan va kelturub maktab poposlari\* tarafidan har bolani yaqin odamig'a berilur. Bola kelib saflarni ichidagi aqrabosini qo'lidan baxshishni\* olar. Sahnadagi baland yerg'a chiqib, ta'zim etar. Arab muallimlari arab libosig'a, yahud muallimlari yahud qiyofasig'a, fransuz muallimlari tamoman ruhoniyy (po'p) qiyofatida bo'lub, bo'yunlarig'a salib osilgandur. Po'plarni oyoqlarinda masahi va etik-da yo'q. Balki arabdek ayoq yalangdur. Rasmi mukofot tamom bo'ldi. Arab talabalar tag'yiri qiyofa\* etib, arabcha tarixiy va muhorabalar suratinda bir fojea teatr ko'rsatdilar. Arabi she'r va qasidalar o'qub, andagi har sinf, xaloyiq tarafidan mazhara taqdir bo'lindilar. Shom sohili fransuz nufuzida derlar. Darvoqe, fransuzlar Porisdan qopchuqlar ila oltun kelturub, musulmon va arab bolalarini majjoniy o'qutub va hatto, u chirkin, ishtonsiz arablar bolasig'a liboslar berib, haldor kitoblar baxshish etib, ustig'a non ham berib, yana har sana dunyo jannati hisoblangan Porisg'a majjoniy sayohatlar qildurub hamda fransuz puli ilan arab va turk yerinda ochilgon maktabg'a arab va hatto, arab dinini pul berib arab mullosidan o'qutdursa va andan chiqgon bolalarni vosita ilan va ming yo'l ilan Turkiyaning davlat mahkamalarig'a ma'mur qilib so'qsa, albatta, Suriya va Falastin xalqini(ng) fransuzparast bo'lushi lozim kelur. Bizni(ng) Turkiston va Buxoro xalqidan ko'ra arablar qobil va mustaidi madaniyatdurlar\*.

Arablarda libos, soch-u saqol, qadim va jadid, teatr va musiqi masalalarining harom va halolligi qachonlar hal bo'lub ketgandur. Bizg'a endi boshlaydur. Biz Rusiyag'a tobe' bo'lub turub, Turkistonni hech bir shahringagi bir hukumat maktabig'a o'n nafar musulmon talabamiz yo'q, musulmon tili va musulmon dini o'qitmoq nari tursun...

Hoji Mir Baqoning Misr o'telidaman. Bir necha kun muqaddam Buxoro shayxulislomi janoblari ham shunda turgan ekanlar. Quddus, Yofa va Xalil ar-Rahmondagi shayx va

miskinlarg'a ko'p-ko'p hadyalar berib, bir necha qurbonlar so'yub, xalqg'a tarqatibdurlarki, har kim madh etar.

Yofada hamrohlari ilan ma'an\* va ham tanholi suratlarini oldurub ekanlar. Muborak siyratlarini Shomi sharifda borib ko'rub edim. Bizlarda ba'zan taassub yo'q. Agarda totor shayxulislomi bo'lsa edi, balki suratni gunoh bilardi. «Sho'ro» majallasig'a surat qo'ymoq gunoh deb totor mullo-lari bir necha vaqt mubohasa etib edilar...

Misir o'teli oldidan bir musulmon janozasi o'tdi. Nardbonsiz bir tobut. Tobutni(ng) bosh tarafinda bir gaz qadar yag'och o'tqurulg'on. Agarda mayyit\* er bo'lsa, ustig'a ammo-ma\* va ayol bo'lsa, ro'ymol o'raydurlar. Tobut qimosh<sup>1</sup> ila o'rtgon bo'lur. Tobut ko'targanlar va aqrabolar va orqadan ketaturgonlar dod-fig'on o'rnig'a «Lo iloho illolloh, lo iloho illolloh»ni yakbora va baland ovoz ila aytib ketmoqdadurlar. Man ham no'mradan tushub, orqalaridan ketdim. 200 qadamdan so'ngra qabristong'a kirduk. Ki shaharni(ng) markazig'a bo'lub, ikki tarafidan bozorg'a qarab katta do'konlar bino qilinibdur. Bir tarafi mahalla yo'li va bir tarafi havlilar bo'lub, orasi bir necha tanoblik qabristoni muslimindur.

O'luk ko'mulub, Qur'on o'qildi. Yirtish yo'q. Qabristonni(ng) ikki tarafindagi ikki katta yo'ldan, eshigi va orasidan piyodaguzar\* yo'li bor. Qabristonni(ng) bir tarafindagi havlilarni(ng) har biridan qabristonda bir eshik va tirizalari\* bor. Har nav kishilar, hatto, Yofa oldida turgon ikki anglis harbiy paraxo'dini(ng) sarbozlari dasta-dasta mazkur havlilarg'a kirib chiqmoqdadurlar. Hayron-hayron man-da eshiklarini birinda yaqin bordim. Na ko'rayin, ovrupoyi va yahudiy va arab fohisha xotunlari to'la va har biri mushtariy\* tortmoq uchun izhori jilva etmoqdadurlar. Tuklarim urpaydi. Subhonolloh, bu na rasvolik. Munda musulmon bormi? Hukumat bormi? Vo, osaf'o, har biri bor.

Ammo ma'nan haqiqiysi ila hech biri yo'q. Bu fisqxonalar-ni oldig'a muttasil qabrlar ko'pdur. Ya'ni bu xonalarni(ng) devori, xona ichindagilar ila qabrlar orasinda yalg'uz vositadur. Munda kiraturgon habislar qabrlarni ustidan o'tub kirar.

---

<sup>1</sup> Matoh.

Hoji Mir janoblari mani ziyofatg'a taklif etib edi. Qabristondan chiqib, dengiz bo'yindagi saodatxonalarig'a bordim. Shahar mo'tabaronlaridan\* bir necha turk va arab bordur. Favran qabriston holatidan so'z ochdim. UZR maqominda dedilarki: «Undagi korxonadorlar ajnabiy tabaasi yahud va nasorolardur. Biz bir necha daf'a alarni ko'churmoq uchun harakat etduk, qo'nsullar mudoxala\* etdi. Hukumatimiz za'f\* ko'rsatdi. Baladiya\* ham alarg'a taraf bo'ldi. To'g'risi, oqcha kuchluk etdi. Holo ish yuqori mahkamalarig'a ketgan. Javob kelgan yo'q».

Dedim: «Hech yerda munday razolat va zillatni\* ko'rma-dim. Dunyoda muqaddas qabristonni bu qadar tahqir etgan bir shahar bo'lmasa kerak. Bizni Turkiston qabristonig'a it va eshshak yotar... Bobolarimiz ustig'a ot chopamiz, buzub yo'l qilamiz... Ammo qabristonda rasmiy fohishaxona qil-ganimiz yo'q. Bu qo'nsullarni(ng) aybi emas. Siz musulmonlar-ni(ng) va har nimarsag'a beparvo hukumatigizni(ng) aybidur. Bizni(ng) Turkistonda rasmiy musulmon fohishaxonalari har shaharda ko'p edi. Ammo musulmonlarni(ng) sanalar ila talab va rijosini Rusiya hukumati diqqatg'a olib, ushbu sana barchasini berkitdi. Ayb bo'lsun, siz musulmonlarg'a...»

Hoji Mir Samarqandiyini(ng) uch o'g'li bor. Biri bu sana Istanbul va yoinki Ovrupo dorulfununig'a yuborilur. Ikkisi hukumatning sultoniy maktabiga o'qiydur. Yozgon va o'qugon darslari, chizgon rasm va pilonlarini bolalar ko'rsatdi. Nihoyatda quvondim. «Oyna»lardan va «Turkiston xaritasi»dan berdim. Padarlarini vatani Samarqandni xaritag'a ko'rub suyunarlar. Oллоh rivoj bersun. Koshki, har bir muhojir Hoji Mir afandidek harakati madaniyatg'a bo'linsa edi.

Ziyofatdan chiqib, Buxoriy Hoji Mirzo al-Baqo afandi xonasig'a borduk. Gramo'fo'nda Turkiston va Buxoroning mashhur xonandalari lavhasining qo'yub, mamlakatcha bir majlis etduk. Hoji Mirzo al-Baqo afandi Yofada ikki hojixona va bir Misr o'telini tutar. Quddus ziyoratig'a boraturg'on har hoji 11 so'm bersa, Yofadagi paraxo'ddan qayiqg'a va andan hojixonada va ondan vagzolg'a va temir yo'l ila Quddusg'a va Quddus vagzolidan ar(o)ba ila Quddus hojixo-nasinda va andan Xalil ar-Rahmon va Baytullahmg'a aroba ila yana Quddusdan aroba ila vagzolg'a va temir yo'l ila Yofag'a va

Yofadan qayiq ila paraxo‘dg‘a masorifsiz yurub chiqarki, bul hojilarg‘a nihoyatda foydalikdur.

Yofa va Quddusg‘a bir oy tursa ham hojixonag‘a ijara va suv uchun oqcha bermaydur. Xulosa, na hammol va na qayiq va na temir yo‘l va na arobag‘a bir pul bermaydur. Dalillar-ni(ng) nazr-u ro‘zini taomi boshqadur. Hoji Baqo ushbu xizmatig‘a temir yo‘l va paraxo‘d idorasining har biridan har hoji boshig‘a yarim so‘m qadar kompissa<sup>1</sup> olurki, agarda har sana besh ming ziyoratchi musulmon Quddusg‘a o‘tsa, to‘rt-besh ming so‘m kompissa haqi bo‘lib, ikki hojixona, Yofa va Quddusdagi yigirma qadar vakil va xizmatkor-u kotib va yugurdaklarig‘a shu oqchadan vazifa berur. Ushbu mash‘um muhoraba ul xodimi millatga ko‘p zararlar etdi. Hojilarni o‘z holig‘a qo‘ysa, bu 11 so‘m evazig‘a 20–30 so‘m, balki ziyoda masraf etarlar. Hoji Mirzo al-Baqo afandi bu ishni ko‘p harakat va tadbirlar ila qo‘lg‘a kirg‘uzubdurki, uzun bo‘lmasa yozarduk. To‘rt kecha-to‘rt kunduzni Yofada o‘tkarmoq ko‘p garon\* edi. Maa fiyhi, hamshahariylarni navozishlari soyasinda xafa bo‘lmaduk va bu bekorlikda sayohatnoma maktublaridan bir nechasini yozib, «Oyna»g‘a yuborduk. Chahorshanba Yofag‘a kelib eduk. Dushanba asr paraxo‘dni 3-darajasig‘a belat olib kirduk. 2-belati tamom bo‘lg‘on, birinchig‘a ko‘z qiymadi. Ammo 3-sinfg‘a o‘ltur-gonimizg‘a jazo chekkanimizni Po‘rt Saidg‘a ko‘rarsiz.

Paraxo‘dimiz shomg‘a yaqin harakat etdi. Inshoolloh, erta soat 8.00 Misrning Po‘rt Said shahrig‘a chiqarmiz.

(Baqiyasi bor)

«Oyna» j., 1915-yil,  
5-son, 98–105-bellar

### *5-adaddan moba‘d*

Popur Yofadan Po‘rt Saidg‘a qarab harakat etdi. G‘urub yaqindur 2-darajani ustig‘a chiqdim. Bir guruh arab va Ov-rupo libosi kiygan arablar bor. Sajjoda\* solib, asrni o‘qub, davra etib, imomlari va‘zi siyosiy so‘ylab o‘lturubdur. Misrni anglis va turklarg‘a bor munosabatidan va turklarg‘a yaqin-

<sup>1</sup> Kompissa – kompensatsiya demoqchi.

lashmoqni misriylar uchun naf'ligini isbot etmoqg'a zo'r beradur. Ba'zilari savol va e'tiroz etar, go'yo onda yigirma-o'ttuz nafar a'zolik bir parlament — majlisi millat ochilgandur. Man ham tahorat oldim. Oftobi jahontob dengizimizg'a botib, g'arbimizni qong'a bo'yatdi. Bir arab shayxi azoni Muhammadiy o'qudi. Paraxo'ddagi musulmonlar azon nidosi muqobilig'a: «Olloh, Olloh jalla jalol sami'na va ato'na»<sup>1</sup>, — javobi ilan fazoni to'ldurarlar edi. Har tarafimiz suv va aning boxaridan\* paydo bo'lgan osmondur. Mundan boshqa olam yo'q. Bu poyonsiz dengiz ustinda pista po'chog'idek markabi bahriyamiz\* sollanadur. Bu g'uborsiz va muattar ufqni xoliqig'a ibodatg'a muqayyad bo'lduk.

Arab shayxi vajdg'a\* keldi. Namozni shomni ikki avvalgi rak'atig'a «To»dan boshlab Qissai Hazrat Muso va Fir'avnni oxirig'acha o'qudi. Namozdan so'ngra takbir va tahlillar, taslih\* va tardihlar\* o'quldi. Va olami islom uchun duolar aytildi. Munday vajdlik bir ibodatni mundan avval ko'rganim yoding'a yo'q. Atrofimizni oloyishi dunyodan pokligi, ufqimizni muattarligi va shayxni ruhfizo ohangi qiroati asbobi vajidan edi.

Chu xush ast savti Qur'on zi tu dilrabo shunidan  
Baraxt nazzora kardan suxani Xudo shunidan<sup>2</sup>.

Ufqimizni zulmat bosdi. Osmoni shabcharog'lar zohir bo'lub, Oq dengizning loyatimmu\* mavjlarini kumushdek jilolantirar edi. Arab majlisi millati hanuz bahs-u jidolda\*, arab shayxi hanuz so'z-u gudozdadur<sup>3</sup>. Havoning salqinligi oyoqim og'ruqini qo'zg'amoqchi bo'ldi. Loiloj, xuftong'a turolmay, 3-darajani(ng) anborig'a tushub, janobi Hoji Baqo bergon amonat dengiz kursisi (kachalka) ustig'a uzandim. Anbor badbo'y bo'lgan edi. Yonimda Hoji Abdulloh isminda Shahrixoniy miskin bor. Yuki bir charx ila 3 put kelaturgon eski-tuski, latta-puttalaridan iboratdur. Charxidan boshqa barcha libos-u latta-puttalarini bizni to'qumdo'zlar 50 tiying'a olishi ma'lum yo'q. O'zi ikki haj qilg'on, Iroq, Bag'dod va Falastinni ikki daf'a jayov kezgan bir

<sup>1</sup> Tarjimasi: Ey qodiri Xudo, bizni tingla va tilagimizni ber.

<sup>2</sup> Tarjimasi: Qur'on ohanglarini sen dilrabodan eshitmoq, atrofdagi jam'i narsaga qarab Xudo so'zini eshitmoq qanday yaxshi.

<sup>3</sup> So'z gudoza — gap bilan ovora.



obiddur. Paraxo'dda va Po'rt Saidda nimarsalarimizg'a qarovullik va hammollik etdi. Objo'sh kelturadur. Xulosa, men uchun bir hamshahri va a'lo bir hamrohdur. Misr tufrog'inda charxchilik qilib, biroz foyda etib, mavsumda yana Haji sharifg'a ketar. Zarradek g'ami yo'q. Ikki yuzi qip-qizil, tavono\*. Faqat nihoyatda chirkin, hattoki, liboslari kir ila u qadar muhr(a)langanki, habashni qaro yuzidek yaltiraydur. Xulosa, bu holi ilan bir milyo'nerdan tinch va rohatdur...

Oqshom dengiz kursisi ustinda chalqaramon yotib uyqug'a ketdim. Paraxo'd biroz beshikdek tebratur. «Afandim, — turung, fajr\* qo'ldan ketar. Va ham Po'rt Said ko'rundi», — deb Hoji Abdullo afandi uyg'otdi.

Fajrni safosi, dengizni shaffof mavji, bir tarafdin shamsi jahontobni ziyosi ilan havo va fazoni kasb etgon latofati va dengiz qushlarini uchushi va sohildagi shaharni, dengiz musofirlarincha, chimildiqdin chiqqon bir qizdek latofatini tamoshosi to'yaturgon va tavsif qilib bitiraturgon nimarsalardan emasdur. Oqshomgi ibodat lazzatini takrori uchun arab namozgohig'a ketdimki, namozni bitiribdurlar. Yalg'uz boshing'a ubudiyat etdim. Har zamon Misrni haqiqiy xo'jasi anglislarni zarbi va fo'lodi mudhish paraxo'dlarig'a yo'luqarmiz.

Endi Po'rt Said jome'larining hilollik minorasi va saliblik kalisolari va 3—4 oshyonalik imoratlari va dengiz bo'yindagi simsiz tilgirof-muxattasining ustuni ko'runmoqg'a boshladi. Sues qanolinig' ishboshi muhandisi fransuz Ferdinand Duliyensni dengiz ichinda toshdan qilingon haykali musofirlarg'a qanolni ko'rsatib taqdim qilib turubdur.

Paraxo'dimizg'a arab do'qturi kelib, hammani birma-bir ko'z ila ko'rdi. Karantin qayiqlarig'a yuklar to'lub, o'zimiz ham o'lturib, askalag'a mutavajjih bo'lduk. Mundagi qayiq va hammollar karantin idorasidandur. Qayiq kirosi, karantin puli, «nachur» pullari uchun bir so'm olib pand berdilar. 3-mavqe'g'a belat olganimni jazosi endi bosh ko'rsatdi. 2-darajadagi odamlar maturlik qayiqlar ila ketdilar. Biz alarni karantindan o'tushlarini soatlar ila dengiz ichig'a muntazir qolduk. Karanting'a chiqduk. Bir-birin temur panjara va halqalardan o'tub, tabib va po'lis doiralarig'a yo'luqub, har tarafi temur panjara ila ihota qilingon bir maydong'a chiqduk.

3-darajadagi odamlarni nimarsasi «nachur»\* bo'lar ekanki, yana ikki soat intizor kerak. Barakat bersunki, toza chamadon va toza joyxoblarni «nachur»g'a solmadilar. Chirkin ko'ringan har nimarsani bog'luqi ilan jahannam misoli «nachur»tib chiqordilar.

Bir xil musofirlar bu zamon go'yo devona bo'lgan edi. Mani 4 qit'a nimarsamni «nachur» qilmasdan toza nimarsalar ichig'a ajratdilar, panjarani orqasidan va uzoqdan ko'rar edim. «Iskandariya» o'teli(dan) odmi arab Alini o'telig'a bormoqchi bo'ldunki, Ali mani andagi sihiya doirasi\*g'a olib bordi. Kimligimni, pospurtsiz so'radilar. Misrg'a qaysi xona-u qaysi ko'chada ketishim so'raldi. Dedim: «O'telg'a tusharman». Dedilar: «Siz 3-mavqe' ila kelibsiz, 3 kun Po'rt Saidda turarsiz, hakim muoyana etar\*, so'ngra ketarsiz...» Har na dedim, iloj yo'q.

«Iskandariya» o'telig'a turushim va Alini(ng) manga 3 kung'acha kafilligini po'lis yozdi. Xulosa, bandg'a tushduk. Agarda Misrda maxsus bir xona va ko'chasing no'mrasi va xona egasini oti aytulsa, qo'ya berar ekanlar. Va Misr po'lisig'a tilg'irof berilib, andagi sihiya hakimig'a 3 kun ko'rguzulur ekan. 2-sinfdagilar qachonlar Misr vagzolibg'a ketdi.

Boshimdagi Eron kulohi shifoati ilan bir eroniy kelib, ahvol so'radi, vuquotni\* so'yladim. Ul dedi: «Munda «Dorussaodat» isminda o'telim bor. Ertag'a sizni Misrg'a jo'natmoq qo'limdan kelur». Yana po'lis va sihiya idorasig'a borduk. Tabdili makon\* va kafili hadidmand\* qaydi uchun endi avvalgi kafilim Ali qabul qilmaydur. Loiloi besh g'urush badalig'a Alini bandidan ozod bo'lub, 2-Hoji Ali eroniy kafolatig'a kirdim. Soat 8 paraxo'ddan chiqub, endi 12 durki, holo gumrukdan chiqgonimiz yo'q. Soat 2 da Misrg'a aroba jo'naydur. 6 soat Po'rt Saidni sayohat etib, shu kun asr Misrg'a kirmoqchi edukki, 3-darajag'a kelgonimiz uchun hibsg'a tushduk. Gumruk(d)a nimarsalarimiz qaraldi. Bojiligi yo'q ekan, chiqib «Dorussaodat» o'telig'a keldik...

*«Oyna» j., 1915-yil,  
6-son, 123–126-betlar*

### XAYRUL UMURI AVSATUHO<sup>1, 2</sup>

«Xurshid»ni qoriayni kirom va mushtariyi i'zomig'a arz qilunurki, zamonimizni siyosiy (po'litik) zamonligini kimsa inkor etmaydur. Hozir Rusiya davlati(ning) tariqi\* hukmronligi(ni) noqis ekanligiga har bir xabarlik kishi iqror etar. Davlat qonunlarini(ng) isloh va tajdidig'a har kim moyildur. Ammo Rusiyadagi barcha xaloyiq boshlucha necha aslu asosg'a bo'lungandurlar. Bu siyosiy firqalarni(ng) har birig'a har bir mazhab va din ahlidan qo'shulgandur. Chunonchi, nasoro, yahud, muslim va majusiy toifalarini(ng) ichida bu siyosiy maslaklarga moyil kishilar bordur. Va yana har toifa ichida firqasiz, maslaksizlar ham topilur. Biz, turkistoniylar, zamon-dan kamxabarligimiz uchun bir necha ming kishidan boshqa hammamizni hech bir firqaga mansub emas, maslaksiz nodon firqasi deb atalsa ham sazodur. Ani uchun biz bu 3–4 firqa – partiyalarni asos va maslak sipohiylarisidin muxtasar bayon qilarmiz. Chunonchi, birinchi – «Buyro'kratiyai mustabid»\* firqasiki, bular eski tarz hukumat davomini xohlaydur. Rusiyani(ng) eski hukmronligi(ni) tariqi shunday edi. Impiroturimizni(ng) har bir amri va hukmu royi – «zakun» atalib, hech lou naamsiz\* barcha voliy, sud, vuzaro va bular qo'l ostida turganlar vositasi-la o'rnig'a keladur. Har xil nizom va zakun kitoblarni Sinod (Voyenniy sovet) degan majlis a'zolari tuzatib, to'qub podsho hazratlarig'a Vazirlar majlisi vositasi ila manzur qilurlar. Impiroturimizni(ng) imzolaridan so'ngra zakun atalib, barcha vuzaro va viloyat mahkamalarini va sud majlislarini mutassiddiylari tarafidan xalq ustiga joriy qilinur. Bu qoidani idorai mustaqila (samoderjovniy) ataladurki, hozir Yovrupo qit'asidagi Rusiya va Turkiyadan boshqa qirq qadar katta va kichik dav-

---

<sup>1</sup> Ish (amal)larning yaxshisi o'rtachasidir.

<sup>2</sup> D. Rashidova va K. Tursunboyev nashrga tayyorlaganlar.

latlarda yo'qdur. Idorai mustaqila qo'l ostidagi fuqarolarni har qancha hukumat odamlari va to'ralarg'a yaqin va munosabatlik o'lsa ham ahvoli siyosiya, diniya va dunyaviya va oliyasi durust bo'lmay, kundan kun tanazzuldadir. Xususan, mazkur 2 (ikki) majlisg'a kattalari doxil bo'lmaydurgan toifalarni ahvoli nihoyatda zabunroq bo'lub, din va dunyo, ilm va ma'rifat, tamaddun\* va adolat, musovot to'g'risinda hammadan keyin qolur. Chunonchi, biz, musulmonlarni(ng), diniy va qavmiy huquqimizni(ng) kamchiliklari podshoh hazratlarig'a yetmay, yetganda ham majlis chlenlari tarafidan radd bo'lub yo iltifotsiz qolur. Buni(ng) sababi ila biz va bizg'a o'xshash toifalar tanazzul qilub, ohistalik ila firqasi, toifasi, vatani xor va xarob bo'lub batadrij yo'q bo'lmoq xavfi vordur. Bu masalada ahli xabar nazdig'a tajribai tarixiya ila sobit bo'lgandurki, dunyo siyosiylari va sipohiyalaridan xabarlik kishilar, albatta, munga tasdiq qilurlar. Al-on, biz, turkistoniylar, shu hol maqdamasig'amiz. Albatta, savol keladurki, Turkiston obod bo'ldi, ilgari boy kam edi, milyo'nir yo'q edi, yaxshi imorat va libos va palos yo'q edi. Boz, bas, na uchun insofsiz muharriri ma'raz\*lar xarobimiz deya johilona yozadur deb, anga shunday javob bermoq kerakki, 6 milyo'n turkistoniylarg'a 3 milyo'nir borligi ma'lum. Yo'q, boyman deganlar bank va fabrikantlarni xizmatchisi va madyunidur\*. Shahar va qar'yalardagi katta imorat va kazarnaxonalar hamma yahudiy va Ovrupoyilarnikidir. Ovrupo imtiosiyolari\* yerli imtiolarni sindurdi. Dehqonlar, esa, agarchi bir vaqt qo'li, biroz aqcha ko'rarina Ovrupo imtiolarini birig'a ikki va besh xom berib, bir pishiqni zo'rg'a olar. Bir daraja diniy va ilmiy jihatga atf nazar qilinsa, vaqflar ketdi, madrasalar xarob bo'ldi. Boriga ham tartib, fexrist, muxtasib, mumtaxin, munazzam yo'q. Eski tartib va jadval va darrus kundan-kun mudarrislar tarafidan tarje' qilinur. Ikki milyo'n turkistoniylar madrasasig'a Xudodan boshqa nozir yo'q. Bir raisi diniy va mumayizi ilmiy yo'q. O'zimizda esa insof va xavfi haq yo'q, aslo yo'q. Va Oллоh, na uchun savodsiz qozi, ilmsiz mudarris, insofdan xabarsiz muftiy, qiroatsiz imomlar olamni bosdi. Bunga sabab biror raisi diniy va mumayizni\* ilmig'a molik o'lmag'animiz emasmu? Xudo saqlasun, yana 25 yil shun-

day bo'lsa, hozirgi muhtaram ulamolarimiz ketsalar, Turkistong'a qiyomat qo'p qon, ilm va amalg'a fотиha tortilgon hisoblanur. Basirat ila 25 yil maqdamni hozir ila va hozirni 25 sanai soniya ila qiyos qilgan xushmand\* bizni bu bayonimizni mubolag'a va xatoi zu'm qilolmasa kerak... Biz yana masdar\* bahs bo'lgan partiyalar bayonig'a ruju' qilarmiz.

2inchi firqa partiyani kadet (konstitusioniy demokrati-cheski mashruta a'vomiya ma'ishat) mashruta firqasi ataladur. Bu partiyani(ng) murodi shulki, «Millat majlisi» xoh Duma ochilib har bir milyo'n xalqdan 3—4 vakil poytaxtga borib, majlis qurub, barcha zakun va qonunlarni har bir viloyatni ahvoli va har din va millatni ozod va sarbastligiga aql va insofig'a qarab taassubi huquqi bashariya va rioyai diniyaga muvofiq tuzatib, podshoh hazratlarig'a topshirilsa. Va impiroturimiz ham o'shal xalq vakillari tayyorlagan zakunlarni o'rnig'a kelmoqig'a humoyun farmoyishlarini qilsalar. Barcha din va urug' xalq xartuxar\* o'lub, to qoziy va sudiyalar hukm qilmag'uncha, chinovniklar o'z roylari ila<sup>1</sup>... yoyinki mol, jon, fikr va harakat rasmiyasig'a mone' bo'lmasalar. Har toifani o'z kitobi, e'tiqodi va masoili diniyasi o'z orasig'a joriy bo'lub, rusiyadag'i barcha xalq Rusiyani har bir nuqtasig'a barobar bo'lub, hurriyati diniya, hurriyati shaxsiya, hurriyati ijtimoiya, hurriyati ittifoqiya va'z o'lunub bo'laturgan qonuni jadida doiralari oning mo'todicha joriy va musta'mil\* tutulsa, xaloyiq vakillarini(ng) qaroridan xorij hech zakunlar bo'lmay va vakillari xohlamaydurgan eski zakunlar isloh etilsa... Hozir Rusiyada bu — kadetlar firqasig'a mansub xalq har din va millat ahlidan nihoyatda ko'pdir. Sobiq Millat majlisi a'zolarini(ng) aksari bu firqadan edilar. Bu firqa haqiqatda o'rta firqadur. Mo'tadil al-mizoj xalqlar bu partiyani xohlagandurlar. Bu firqa ifrot\* va tag'rit\* o'rtasig'a, sog' ila so'l vasatig'a, har bir fikr va matlabni avsati va markazig'a birlashgan bir hizbi\* mutavassit\*dur. Rusiya mamlakatig'a mundin behroq hizb yo'qdur. Ifrot va tag'rit, ya'ni Ishtirokiyun, Inqilobiyun va Qora guruh degan hizblar sababi ila Rusiyag'a har kun va har soat fasod va inqilob, buzuqlik joriy bo'lub turubdur. Faqat salomatlik va

---

<sup>1</sup> O'qib bo'lmadi.

amniyat bu kun kadetlar hizbi soyasida vatanimiz Rusiyag'a joriy bo'lsa kerak...

3inchi «sosal-demokraticheski» – ishtirokiyun omiyun\* – ma'ishiyati mushtaraka\* firqasidurki, bul ham doxilan ikki firqag'a bo'lunur. Biri sotsiyol demokrat – ishtirokiyun o'miyun, digari sotsiyol revolutsiyoner – inqilobi-yundur. Bularni boshlucha murodi hozirgi barcha zakun, mulkiyat qoidalarini butun buzub, mol va yerlarni hamma xaloyiq o'rtasig'a mushtarak qilib, aning manfaatini butun xaloyiq o'rtasida musoviy etmoqchidur. Boylik va kambag'allikni yo'q qilib, dunyo moli(ni) rohatidan hammani barobar foydalanturub, mas'ud va rohat umr o'tkazilmoqig'a va har kim o'z istiqbolidan amin bo'lmoqig'a zakun va qoida joriy qilmoqchidurlar. Bularni pro'g'ramini joriy bo'lmog'iga hozirgi asrimiz musoid\* emas. Balki necha asrlarg'a tavaqqufi\* bordur. Dunyog'a nelar bo'lmadi. Kim bilur, balki zamoni kelib, bularni(ng) pro'g'rami qonuniy joriy bo'lsa, hamma minkull al-vujuh barobar bo'lub, sirketob ra'ig'a yozilgan Jobulsa va Jobulqo\* tartib ma'ishati yer yuzig'a balki joriy bo'lur. Harholda, bu partiyani murodi mumkin loyiqi' yoyinki xayoliydek ko'runub, bu toifag'a qo'shulmoq biz musulmonlar uchun nihoyatda zararlikdur. Pro'g'ramlarini(ng) moliya moddalarina biroz tag'yir bermag'uncha, shariatg'a muvofiq o'lmag'oni kabi joni\* va oila bobidagi fikrlari ham aslo-aslo to'g'ri kelmaydur...

4inchi «Rusiya musulmonlari ittifoqi» hizbidurki, bularni partiya suratig'a kirg'anig'a bir yil bo'ldi. Avvali o'tgan sana Nijniyda paraxo'dga o'lturub, musulmon peshravlari suv ustida majlis yasadilar. 2inchi ushbu yil avvalida Pitrburgda g'ayri rasmiy yana bir majlis – syezd yasab, qarornoma nashr etdilar. 3inchi ushbu o'tgan avgustda yana Nijniy yormonkasida uchto'rt kun davomat ila bo'ruxsati rasmiya necha ming mo'minlar bir – umumiy nadva\* (obschiiy syezd) etdilar. Qarorlarini ijmol, Turkiya gazetalaridan ma'lum bo'lishiga qaraganda, Rusiya musulmonlari diniy va ilmiy vajhdan alohida bir partiyayi maxsusadurlar. Ammo siyosiy va umumiy talab va maslaklar to'g'risinda kadetlarg'a qo'shilaturgang'a o'xshaydurlar. Rusiya musulmonlari hizbi ham o'zga toifalardek komitet barpo aylamoqchidurlar. Idorai markaziya – sentralniy komitetlari Pitrburg'da bo'ludur. Bu partiya 31 kishini a'zoi mar-

kaziya saylab, alarg'a Bodi Kubo\*dagi Alimardonbek To'pchiboshev janoblarini sadrnishin va Qozondagi Yusuf afandi Oqchurin janoblarini mustashor\* saylabdurlar. Bu muhtaram a'zolar, albatta, bir necha sho'bag'a bo'lunadurki, sho'bai ilmiy, sho'bai siyosiydardan iborat bo'lsa kerak. Bu 31 nafar a'zolarina Rusiyadagi ahli musulmonlardan bir necha a'zo intihob qilib olmoqg'a qaror bermishlar. Ammo bu bobdagi jaroid va tasvidotg'a\* qarag'anda, bizni Turkistondan bir nafar a'zo intihob qilmoqg'a qaror bermishlar. Lekin 6 milyo'nlik Turkiston musulmonlaridan bir a'zo ozdur. Besh oblustdan 30 nafar ham Buxoro va Xiva va Turkistoni Chiniydagi musulmonlardan birtadan a'zo olmoq lozimdur. Bu komitet va a'zolar vaqt-bavaqt jam'lanib, diniy va ilmiy ma'oshi to'g'risinda mashvarat\* qilib, musulmonlarni ilman va molan, dinan taraqqiy va taolilarig'a xidmat qiladurlar. Siyosatan bo'lsa, umumiy partiyalarni biri ila qo'shulub ish ko'radurlar... Bu to'rt partiyani(ng) matlabi milliy va maslaki siyosiyalarini madomiki, bir necha sahifa ila bayon va sharh qilinmasa, kamxabar kishi tushunmaydur. Ani uchun biz, Turkiston musulmonlari, 23inchi avgustda Nijniy shahrinda bo'lgan Rusiya musulmonlari hizbig'a bay'at qilib, siyosatan kadetlarga a'zo bo'lishi, dinan va ilman mazkur syezd ittifoqi hukmig'a mute' va munqod bo'lsa kerak. Yaqinda mazkur nadvai islomiya qarornomasi bosilib, olami matbuot ila nashr qilinadur. Turkistonning muhtaram muallif, muharrirlari g'araz, nafsoniy hasad, bahs va munozarai shaxsiyalarini tark etib, shu maslak va shu jamiyatg'a tobe' va xodim bo'lmoqlari xidmati din va davlat, obro'yi Vatan va Millatdur... Biz oyandag'a bul boblarg'a, Inshoolloh, mufassal yozmoq amalindamiz...

*«Xurshid» g., 1906-yil, 11-oktabr, 6-son*

## **IKKI EMAS, TO'RT TIL LOZIM**

Biz turkistoniylarg'a turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozimdur. Turkiy, ya'ni o'zbekini sababi shulki, Turkiston xalqining aksari o'zbekiy so'ylashur. Forsiy bo'lsa, madrasa va udabo tilidur. Bukung'acha Turkistonni har tarafindagi eski va yangi maktablarinda forsiy nazm va nasr kitoblari ta'lim berilib kelgandur.

Barcha madrasalarda shar'iy va diniy kitoblar arabiy ta'lim berilsa ham, mudarrisni taqrir-u\* tarjimalari forschadur. Bu qoida, ya'ni dars kitobi — arabiy, muallim — turkiy, taqrir-u tarjimani forsiyligi xila ajibdur.

Turkistonda qadimdan beri bu uch til joriydir. Chunonchi, eski yorliqlardan ma'lum bo'lurki, Turkistonda eski amir va xonlarni amri farmoyish va muborak nomalari doimo turkiy, yana ayni zamonda dorulqazo-u\* adabiyot tahrirlari forsiy yozilar ekan. Bu qoidalar zotan yaxshidur. Ammo bora-bora yoyinki kela-kela usuli ta'lim va kitobtag'a ehmol\* paydo bo'lub, hozir bir darajag'a kelibdurki, ahli savod yoyinki ahli ilmni yuzdan to'qson to'qquzi bu uch tilda mukammal tahriri adabiyg'a molik yo'qdur. Ya'ni usuli ta'lim va tadriski isloh etmak kerak. O'tayluk.

Turkistonning Samarqand va Farg'ona viloyatlarinda forscha so'ylaturgan bir necha shahar va qishloqlar bordur. Buxoro hukumatining tili forsiydir.

Fors shoir-u udabosi asarlari qiyomatg'acha lazzati ketmayturgan xazinai ma'naviydurki, mundan foydalanmoq uchun ovrupoyilar milyardlar sarf etarlar.

Bizg'a saodatdurki, turkiy va forsiyni tahsilisiz bilurmiz. Har turkni forsiy va har forsn turkiy bilmog'i lozimdur.

Forsiy bilgan kishi Firdavsiy, Bedil, Sa'diy, «Masnaviy»dan<sup>1</sup> qanday lazzat olsa, turkiy bilganlar Fuzuliy, Navoiy, Boqiy<sup>2</sup>, Somiy<sup>3</sup>, Abdulhaq Homid<sup>4</sup>, Akrambek<sup>5</sup>, Sanoyi<sup>6</sup>, Nobiy<sup>7</sup>, Nojiy<sup>8</sup> lardan, yana Tolsto'y, Jul Vern va ulamoi zamoni asarini turkiy tarjimasidan lazzat shunday oladur.

Farang va rus donishmandlarining asarlaridan foydalanmoq turkiy yo rusiy va farangiy bilmak ila mumkin bo'lur, na uchunki bugun usmonli, Kafkaz va Qazon turklari zamona

<sup>1</sup> «Masnaviy» — J. Rumiyning mashhur asari.

<sup>2</sup> Mahmud Abdul Boqiy (1526–1600) — mashhur usmonli shoirlaridan; «Sumbul qasidasi»ning muallifi.

<sup>3</sup> Somiy (1850–1904) — «Qomusul a'lom»ning muallifi.

<sup>4</sup> Abdulhaq Homid (1852–1937) — mashhur turk shoiri.

<sup>5</sup> Akrambek — Rijoizoda Akram (1847–1914) — «g'arbchi» jadidchi shoir.

<sup>6</sup> Sanoyi (Ibrohim Shinosiy bo'lsa kerak) (1826–1874) — mashhur turk masalnavis shoiri.

<sup>7</sup> Nobiy (Yusuf Nobiy) (1640–1712) — usmonli shoirlaridan.

<sup>8</sup> Muallim Nojiy (1850–1893) — «sharqchi» shoir.



ulamasi asarini turkiyg'a tarjima qilib, ko'paytirgandurlar, ya'ni turkiy bilgan kishi zamoni bilur. Turk tilig'a har bir yangi va naf'lik kitoblar barcha tilda tarjima bo'lgandur. Arab madaniyati yunoniy Suqrot, Buqrot, Falotunlardan foydalanganidek, zamona hozira madaniyati Tolsto'y, Jul Vern, Kepler, Kopernik, Nyutonlardan foydalanur. Maqsaddan uzoq tushdik.

Bizg'a lozimki, o'z naf'imiz uchun ruscha bilayluk, hukumat maktablarinda o'quylik. Davlat mansablarig'a kirayluk. Vatanimizg'a va o'z dinimizg'a xidmat etayluk. Musulmon bo'lub turib taraqqiy qilayluk. Bu zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, hatto, dini islom va millatg'a xidmat ilmsiz bo'lmaydur. Masalan, bugungi «podsholik дума»g'a o'z din va millatimiz naf'ig'a so'zlamog bizlar uchun mumkin bo'lur. Ammo anda borib so'ylaguvchi kishi bizg'a yo'q. Anda borib naf'i bir o'n sana o'qumog kerak, zamondan, qonundan xabardor bo'lmoq kerakdur.

Xulosa, bugun bizlarga to'rt tilga tahrir va taqrir etguvchilar kerak, ya'ni arabiy, rusiy, turkiy va forsiy.

Arabiy til din uchun na daraja lozim bo'lsa, rusiy ham tiriklik va dunyo uchun lozimdur.

Hadisi sharifdan ma'lum bo'laturki, janobi payg'ambar o'z sahobalaridan Zayd bin Sobit(g'a) yahudiy xatini o'qub-o'rganmog'a buyurgan ekanlar. Va ul janob Umar hazrat nubuvvat panohi ila yahudiy xatini o'rganib hazrat payg'ambarg'a yahudiylardan kelaturgon xatlarni o'qub berar ekanlar (Sahihi Buxoriy, juz 4, sahifa 156).

Holbuki, ul zoti bobarokot payg'ambarimiz quvvati hokima egasi edilar. Yahudiylar mahkum va tobe' edi. Al-on Rusiya hokim, bizlar anga tobe' va o'z tirikligimiz uchun alar xatini bilmoq zarur va hadisi sharif dalolatincha durustligig'a joyi inkor bo'lmasa kerakdur.

*«Oyna», j., 1913-yil,  
1-son, 12–14-betlar*

## BAYONI HOL

«Samarqand» gaziti sarmoyasiz, faqat va'da va umid ilan chiqarilib edi. Umidlar tasavvurdan fe'lg'a kelmadi. Zarar va oqchasizlik sababli chor-u nochor besh oy davom etib, 1913-yil 13-sentabr 44 adadi-la vaqtincha yotib edi. So'ngra Xo'-

qanddan 500 so'm iona taklif qilindi. Ammo bu 500 so'm ila «Samarqand» jaridasining adad-davomi ma'lumligi uchun ionani qabul qilolmay, shirkat ta'asis etilib, jaridani davom etdirmoq uchun idora tarafidan millatg'a 17-sentabr oyi 45-adad «Samarqand» ila murojaat qilinib, bir oy muhlat qo'yulub edi. Ammo maataassuf, bu bir oy muddatda (17-o'ktabrg'acha) «Samarqand»ni chiqaraturgon shirkat paydo bo'lmadi.

Digar tarafdan, «Samarqand» mushtariylarining ba'zilar va boshqa turkistonli hamvatanlarimiz tashviqnomalar ila «Samarqand»ni chiqarmoqni taklif qildilar. Inchunin, Rusiyadagi matbuoti islomiya «Samarqand» ta'tilini(ng) taassuflar ila marrat ba'd oxiri yozib, yana chiqishini tamannoda bo'lindi. Alalxusus, Rusiya musulmonlari jaroidining anosi va piri muhtarami o'lan «Tarjimon» va «Vaqt» va boshqalari yanadan chiqishig'a duochi bo'lub va «Samarqand» jaridasining maslakig'a, mundarijotig'a husni zanlarini izhor etdilarki, «Samarqand» muharriri mas'uli barcha hamvatanlarig'a va Kafkoz, Qrim ham Totoriston matbuoti islomiyasig'a bul bobda tashakkuroti qalbiasini ojizona taqdim va minnatdorligini izhor va oyandag'a ma'nan va moddatan iona va hidoyat etmoqlarini tamanno etar. Bir vajhi bolo taklif va tashviqlar, va'da va duolar bizga yana quvvat va umid berib, ishg'a savq\* etdi. Avvalan, «Samarqand»ni chiqarmoqg'a qasd etildi. Ammo oxiri yana avvali kabi sarmoyasiz edi. Va zararini tahammulig'a quvvatimiz yetmasligi zohir bo'ldi. Digar tarafdan, asab(iy), ya'ni singir xastaligi va ham ko'z kasalig'a giriftorligimiz uchun haftada ikki yo uch daf'a gazitni tahrir ham idorasi bizg'a mumkin emas edi. Tahriri uchun vazifa ila rajo va talab qilingan daroyatli muhtaram muharrir janoblarida bayoni muazzot etdilar.

Xulosa: aqcha qahati, rijol qahati bizni mushkul holda qo'ydi. Va oxiri, haftalik «Oyna» majallasini chiqarib turmoqni tarjih qilindi. Gazitni idorasig'a kofiy\* mushtariy mavjud bo'lguncha va yo oqcha topulguncha «Oyna» davom etar. «Oyna» zarar etsa-da, zarari nafsimizg'a oid va mushtariylarg'a aslo zarar yuklamaydur.

Majalla bahosini-da arzon qilindi.

«Oyna»g'a muqtadir muharrir va har tarafdan muxbir-

lar da'vat qilindi. Tili avvalgidek turkiy va forsiy nazm va nasr bo'lib, mundarijoti ilmiy, adabiy, siyosiy, faniy va tarixiy maqolalardan, vuquot va axbori haftadan, kinoya va mudohakadan iborat va tasvirlik bo'lur. Tadriji mukammaliyat, nafasat va intizomig'a diqqat qilinur. Ba'zan ruscha maqolalarida darj qilinur. Arbobi qalam va xabardan rijo etarmizkim, bizg'a qalam va donishlari ila tanbehoda, ionatda bo'linsalar, majalla bizniki emas, millatnikidur. So'ylanaturgan so'zlar shaxsiy emas, umumiydur, g'ururiy emas, diniydur. Qorilarg'a salom va ehtirom.

«Oyna» jurnali, 1913-yil,  
2-son, 2-4-betlar

## TURKISTON

Turkiston Osiyo vasati va yoyinki Turonzamindan iborat va turk qavmining muxtalif urug'lari ila maskun bo'lib, hol-hozirda Turkistoni Rusiy va Turkistoni Chiniy qismlarig'a bo'lunur. Turkistonning bir qismi Afg'oniston hukumatining tasarrufida bo'lib, Turkiston yoyinki Chahor viloyat atalur. Qirg'iz-Qozoqiston va yoyinki Arozi sahroiya ham Turkistondan hisob qilinodur. Ammo munda hozirgi taqsimoti siyosiyasi yuzasidan faqat Turkistoni Rusiyni bayon qilinadur.

Turkiston muzofotining hududi g'arban Bahri Hazar (Kaspiy) dengizi, shimolan O'rol yerlari va Aral dengizi va aksariyat Turkistonning Qirg'iz-Qozoqiston qit'ai vasi'yasi, sharqan Turkiston Chini, januban Afg'oniston va Eron mamlakatlari'ga muttasildur.

Buxoro va Xiva xonliklari ushbu hududg'a doxil va Turkistonning janubiy tarafinda voqe' bo'lib, Buxoroning yerlari Afg'onistong'a muttasildur.

Turkiston viloyatlig'i oblustlarga bo'lunub, viloyatlar sanjoq uyezdlardan tashkil topilib, bahor viloyatg'a harbiy voliy (voyennoy gubernotir) mansub bo'lib va butun Turkiston muzofotini bir bosh voliy general-gubernotir idora etib, markazi hukumat Toshkand shahridur.

Turkiston muzofotining hozirgi taqsimoti ushbudur:

Turkistonda xaloyiqdan yuzda to'qson beshdan ziyodasi musulmon bo'lib, har bir yuz nafar odamdan to'rt nafar qadari nasoro va yahudiydur.

viloyat va uyezd yeri	murabba' chaqirim	1902-yildagi barcha xalqi
Zakaspiyskiy (Mavorobahri hazar)	501 696	409 000
Ishqobod uyezdi	86 650	102 000
Krasnovodskiy	101 000	59 000
Mang'ishloq	160 254	67 000
Marv	110 795	131 000
Tajand	33 997	50 000
		1910 йилда
Samarqand viloyati	81 891	900 202
Samarqand sanjoqi	17 060	362 217
Dizzax	43 410	241 343
Kattaqo'rg'on	4 994	135 567
Xo'jand	14 477	221 245
		1904 йилда
Sirdaryo viloyati	441 837	1 629 000
Toshkand uyezdi	48 090	492 000
Avliyoota	62 144	307 000
G'azzoliy	58 528	155 000
Oqmasjid (Serovskiy)	90 134	148 000
Chimkent	95 820	314 000
Amudaryo qit'asi	97 098	213 000
Farg'ona viloyati	140 668	1 726 000
Marg'ilon sanjoqi	14 069	359 000
Andijon	13 333	386 000
Xo'qand	13 110	402 000
Namangan	15 273	392 000
O'sh	24 880	174 000
Pomir	60 000	2 700
Semirechinskiy (Yettisuv viloyati)	228 966	1 090 000
Verniy (Olmati uyezdi)	45 588	248 000
Jarkent	25 587	136 000
Lepsinskiy	43 876	200 000
Qapol	75 797	150 000
Pishpak	77 683	194 000
Prjevalskiy	40 435	163 000
1 395 057		5 604 362

Turkiston xalqini(ng) yuqoridagi adadi ozdur. Oriy, 1897- yilinda Rusiya hukumati amri ila umumi tahriri nufus bo'lub edi. Ammo bir tarafdin, ro'yxatchi mirzolarni(ng) tanballigi, digar tarafdin musulmonlarni «Rusiya hukumati askar oladur» yoyinki «Jon boshidan soliq oqcha oladur»

deb haqiqiy adadni ko'rsatmaganlari sababli hisobni natijasi oz zohir bo'lgandur. Bolodagi raqamg'a bir suls va aqlan bir rab' yana qo'shmoq kerakdur.

«Oyna» j., 1913-yil,  
1-son, 2-5-betlar

## SHERDOR MADRASASI

Ushbu madrasai oliya Turkiston podsholaridan Imomqulixon<sup>1</sup> hazratlarining davrinda sipohsolor va ham Samarqandg'a voliy bo'lgon Abdulkarim Yalangto'sh Bahodir tarafidan bino qilingandur.

Yalangto'sh Bahodir Samarqand askari ila Xuroson va Mashhadni istilo etib, ul tarafdin kelturgon amvol, g'anoym ila Samarqandg'a ushbu Sherdor va ham Tillakori madrasalarini bino etibdur. Bu madrasalar doxilana va xorijan chiniy mulavvi koshi ila ziynat berilib koshilarini aksari go'yo bugun usto va san'atkor qo'lidan chiqq'on kapidur.

Tarix binosi Sherdor madrasasini doxiliy va g'arbiy toqinda chiniy muzoyiq ila zerdagi vajah uzra nazman yozilgandur...

Sherdor madrasasining madxali va jabhasi g'arbdagi Madrasai Mirzo Ulug'bek Ko'ragoniy madrasasi mohazisinda mutavajjih va ikkisi yuz ba yuz bir shaklda bino qilingan. Ikkisi fosilasi yuz arshin va orasi tosh farsh qilingan vasi' bir maydondurki, Registon atalur.

Registonning shimoli va janubi katta yo'l bo'lub, shimolidagi kanorinda boloda zikr qilingon ikki madrasa rukn va zoviyalarig'a muqobil Tillakori madrasasi mabnidur. Sherdorning samti xorijdan haddi g'arbiya va sharqiyasi 82 arshindan, shimoliy va janubiy jihatlari 95 arshindan bo'lub, jam'an 779 murabba' arshin yerni muhtaviydur.

Sherdorni sahni doxiliyasining g'arbiy va sharqiy hadlari 54 arshindan, shimoliy va janubiy taraflari 52 arshindan bo'lub, vus'ati 2808 murabba' arshin va yeri marmar tosh ila farsh bo'lub, to'rt jihatdan hujralar va to'rt katta ravoqning jabhasi ushbu murabba' sahnga mutavajjih va nafs imoratni o'rni 4910 murabba' arshin yerni shog'ildur. Madrasa ikki

<sup>1</sup> Imomqulixon 1611–1642-yillarda hukmronlik qilgan.

oshiyona bo‘lub, 64 hujra, ikki katta darsxona, doxilan to‘rt katta toqni mujtamildur...

Peshtoqning xorijiy jabhasida mehrobning ikki tarafinda bir-biriga muqobil ikki sher (arslon) shaklini musattah chiniy va koshilar ila arslon rangida mulavvan tasvir qilingani uchun Madrasai Sherdor atalibdur. Arslon naqshasining asari bu kunda ham ma‘lumdur. Madrasa va minoraning boshqa jihatlarinda tasvir yo‘q va aksariyat ila oyati hadis va tarixi abyotni marmarlarga muzoyiqlangan va koshi mulavvan chiniylar ila yozilgandur. Madrasa minova va qubbalarining butun sathini arab, eron, hind uslub naqqoshisi uzra mulavvun chiniy va rango-rang koshi ila nihoyat nafis suratda naqshlangandurki, to‘rt asr bo‘lgan bo‘lsa ham koshilar oftob va oy nurini aks etdurur va ko‘zni qamashdurur.

Minora madxaliga yetgandan so‘ngra minora ichindagi 56 zina vositasi-la minoraning sharafasi ustinda minilur. Endi ushbu buyuk minora ustidan Samarqand firdavsmonandining zumurraddin bog‘-u bo‘stonlari, xushohang latif nahrlari, to‘g‘ri va avajojlik yo‘llarini tamosho etib, Samarqand shahri ofoqning atroshom, sog‘lom, nafis havosini shimitmali va bu muborak ofoqdagi yuzlar ila tariz tog‘ parchalaridek madrasa, daxma, qubba, masjidlarni sayr qilmali.

U muborak qubba, daxma va buq‘alar boniy va sokinlarining moziyg‘a madfun va mujassam tarixiy va diniy qahramonliklarini yod etib, bahri taommiqig‘a mahv va g‘arq o‘lmali.

*«Oyna» j., 1913-yil, 1-son, 6–9-betlar*

## **A‘MOLIMIZ YOYINKI MURODIMIZ**

Ma‘lumdurki, dunyoda har kim umid va a‘mol ila yashaydur. Kecha-kunduz mehnat va mashaqqat tortmoq oyanda\* uchundur. Har kim o‘z oyandasini yaxshilikka harakat etar va kelar zamonda o‘z orzusi va havasig‘a yetmoq uchun hech dam olmasdan hol qadarincha harakatdadur. Tiriklik kulfati va mehnati asnosinda har kim o‘z oyandasi va istiqbolig‘a bir nav yaxshi umid ila qarab va o‘zig‘a bir muddao qaror berib va o‘shal muddao va yoyinki murodin

hosil qilmoq uchun ko'shish etib, har kun chekaturgan kulfatini o'shal muddaosini hosil qildirmoq uchun o'zig'a olmay yana ziyodaroq intiladur. Va ba'zan o'shal murod-u muddaosini, go'yo hosil bo'ldi, deb rohatlanib o'zig'a tasalli beradur. Va hech ahadi\* ushbu muddao-u murodni orqasidan yugurmoqdan xoli emas. Ana shul muddao va murodlarni ilmi isloh ila a'mol derlar.

Endi a'molimizg'a diqqat qilmoq kerak. Aksar xalqimizni a'moli shulki, ishlasa va foyda qilsa. Shoyadki, o'g'il va qizini to'y qilsa va ham qanday! O'z qatorindagi odamlarni qilgan to'yidan ziyodaroq!

Bechora kosibni a'moli to'ydur. O'zi rohat yuzi ko'rmaydur. Kecha-kunduzni 18, balki 20 soatni mehnatg'a o'tkaturgon kosiblarimiz bordur. Haqqincha yemaydur, kiyamaydur. O'n va yigirma sanalar mehnat va mashaqqat etar va Xudodan o'g'il tilar, to'y qilmoq uchun. Ana, bechorani a'moli. Yigirma sanalik mehnati uch kun to'yda tamom. Yana Ahmad porina\* havli va xona girad. To'y musrifi\* uchun qarz egalaridan qochadur. Katta to'y qilib xotun olgon bir qism bechoralarni holig'a yig'lamoq kerak. Uch kunlik to'yni azosi ba'zi oilalarda o'n yil, hatto, bir umr surar, balki bevatan va xonavayronlikg'a sabab bo'lur. Bir kosibni aqd-u nikohig'a, to'y-u obro'sig'a ming so'm. Bir o'rtahol uchun 2000 yo 3000 so'm. Nimboy uchun to'rt-besh ming so'm kerak. Bu so'mlarni yuzdan yetmish beshi yeyilib-ichilib... ketar. Bu so'mlar aslinda kimniki edi? Bonka, firma, foydaxo'rniki. Tabiiy, bularg'a pullarini bermoq lozim, na berilur? Bog'-u xona va uyi ichindagi asbobni sotib bermoq kerak. Bechora kelin va kuyovni ko'rpa va libosig'acha sotilur, qarzxohg'a berilur. Nimboylar sinar. Tirikliginda bo'lmasa, o'lganda sinar. Ahl-u ayoli darbadar bo'lur. Oy, bu nima? To'g'risi, bir nav devonalik emasmi? Subhonolloh, qarz olib xalqg'a osh bermoq aqlsizlik emasmi? Hamda illati bedavosidur. Har kishi bir uylansa va so'ngra oilasidan bir o'luk ko'msa, Ollohi akbar. U xona ahli kosib bo'lsa, bu dunyog'a o'zig'a kelmasdan ketar. Holo, ba'zi bechora o'lsa, ani boy qarindoshlari, obro' qilurmiz, deb sag'ir molini xalqg'a ellar ila yirtish, palov qilib berar. Bechora sag'irlar

nonini boy kishilar qo‘ltug‘iga olib ketar. «Lo ta‘kulu amvolal yatima. Kulu va ishrabu va lo tusrifu»<sup>1</sup>, qanda qoldi?..

Ey musulmonlar, bu oyatu mas‘alai shar‘ig‘a kim amal qilur? Va muni xaloyiqg‘a kim bildurar? Har kun bir musulmonni nimarsalari bozorg‘a dini uchun... sotilur. Va har kun sudda naqadar hovli, xona, bog‘ sotilur. Har kun naqadar veksellar «protest», naqadar do‘kon, korxonahajz (pechat) bo‘lur. Bu nimaning jazosi? To‘y, ma‘raka, ta‘ziya, ko‘pkari, bazm. Bir mahallada ahli savob yigirmadan bir yo‘q. Imoni islomni dalillari ila bilaturg‘onlarni nari qo‘yduk. Erta qozilar barham bo‘lsa, zamoncha qozi bo‘laturg‘on birgina kishi butun o‘n milyo‘n Turkistonda yo‘q... Yo‘q, yana yo‘q. Hoy, hoy, xaloyiq! Bizlar devonami sog‘? Albatta... Biz to‘y va ma‘raka xayolidan lazzat olarduk. To‘y-u ma‘rakamiz ila faxr qilar eduk. To‘y-u ma‘rakaga sarf qilinaturg‘on oqchani jamlamoq va yo‘qo‘lg‘a kirguzmoq uchun harakat etarduk. Agarda to‘y va ma‘rakag‘a qadimgidek oqcha to‘kmasak, ul oqchani na qilmoq kerak? Munga javob berilurki, to‘y va ma‘raka qilinsun. Ammo hozirgidek isrof etmasdan qilinsun. Va mumkin qadarincha kichik qilinsun. Va ortuqcha pul ila bolalarni musulmon va rusi yaxshi o‘qitulsun. To‘y-u ma‘rakag‘a sarf qilinaturg‘on oqchani eski madrasa va mozor-u masjid hamda maktablarni shikast-rextlarig‘a sarf qilinsun. To‘y va ma‘raka oqchasidan bolalarni hukumat maktablarig‘a berilsun va bu oqchadan talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbulg‘a va Rusiya dorilfunun va dorulsanoatlarig‘a yuborilib diniy va dunyoviy va zamonaviy odamlar yetishdurmoqg‘a sa‘y qilinsun. Bizni Turkistonda muallim ozdurki, to‘y-u ma‘rakag‘a sarf qilinaturg‘on oqcha ila Kafkaz, Qirim, O‘runburg va Qozong‘a usuli ta‘lim o‘rganmoq uchun bola yubormoq kerakdur. Hukumat maktablarig‘a kirmoq uchun ruscha bilmoq va imtihon bermoq lozim. Va bu imtihonni bermoq uchun har bolani ikki sana ruscha o‘qutub, tarbiyat etmoq kerak. Va bul ikki sana uchun har bir bolag‘a 600 so‘m aqcha kerakdur. Aqchalik otalar, albatta, to‘y va ma‘rakag‘a qizg‘onmaganlaridek, bolani o‘qutishg‘a ham qizg‘onmasalar kerakdur. Bolalar uchun

---

<sup>1</sup> Tarjimasi: «Yetimning molini yemanglar. Yenglar, ichinglar, isrof qilmanglar» (Hadis).



tarbiyatxona (pansiyon) ochmoq kerak. Va bu tarbiyatxonalar zamoncha va ham milliy va diniy ruhda bo'lishi kerakdur. Bu tarbiyatxonalarni ochmoq uchun va hukumat maktablarig'a bola tayyor qilmoq uchun nashri maorif yoinki jamiyati xayriya va yoinki tarbiyati atfol jamiyati va yo o'zga ism ila, xulosa, jamiyatlar kerakdur. Toki bul jamiyat(lar) xalqdan oqcha jamlab millat bolalarini o'qutish va millatni oyandasi uchun kerak bo'laturgon qozi, ya'ni sudya, zakunchi, ya'ni huquqshunos, injiner, ya'ni muhandis, muallim, ya'ni zamona maktabdori, millatni homiysi va xodimi, ya'ni Davlat Dumasig'a deputat, milliy sanoatxonalarimizni isloh va ihyo etguvchi\*, ya'ni texnik, tijoratxona va bonkalarda bizg'a yordam berguvchi, ya'ni tijorat ilmini o'qugon kommirsant, shahar dumaxonalarig'a va minba'd Turkistonda ochilaturg'on zemstva idoralarinda bizni tarafdin kirib va saylanib, biz uchun, vatani Rus uchun, din, mubayyini islom uchun, zaufo\* uchun, fuqaro uchun ishlaydurg'on odamlarni yetushdurmoq kerakdur.

Hozirgi mo'ysafidlarimiz tursun, o'rta yoshlar yaqinda o'lib ketar, zamona har kuni yangilashur. Yangi ilm va yangi fikrlik va fununi zamoniyani darbar\* qilgan odamlarni talab qilur. Bukundan boshlab, har shahardan har sana o'n-yigirmalab hukumat maktablarinda bola berilsa, o'n besh sana so'ngra har shaharda 4-5 zamona odami tayyor bo'lur va hukumat mansablarig'a, zamona doiralariq'a, tijorat va sanoatxonalarinda kirib, bizlarg'a manfaat yetkurar. Kelar zamon boshqadur. Hatto, hozirda ikkimiz urushsak, yahudiy va ajnabiy zakunchilariq'a borurmiz. Boshimiz og'risa, ajnabiy do'qturig'a borurmiz. Sabab nadurki, o'zimiz o'qub zamoniy odam bo'lmaymiz? Ana endi biz uchun to'y va ma'raka va ko'pkari o'rninda shul yuqoridagi aytulgon ishlar a'mol - ideal - murod - tilak - muddao bo'lsun. Valo, mun(i)siz biz kundan kun yo'q va zabun bo'larmiz.

*«Oyna» j., 1913-yil, 6-7-sonlar, 130-132, 154-156-betlar*

## FAVQULODDA TAKFIR

3-yanvar ba'daz jum'a Samarqandning munajjim Mirzo Ulug'bek madrasasi ichindagi jome'da besh-olti ming musulmon huzurinda muazzin tarafidan usuli jadidachilarni va

ruscha o'qutmoqg'a tashviq qilaturgonlarni kofirligi va har kim bolasini usuli jadida maktabig'a bersa, «o'zi kofir, xotuni taloq» bo'lushini forsiy til ila uzun va hayajonlik bir nutq ila xaloyiqg'a bildurub, hamda .....<sup>1</sup> larni «kofir va o'rus» hamda «kofir va o'rus qilg'uchi» deb e'lon qilindi. Xalq hech bir nima demasdan tarqaldi. Bir necha haftadan beri janob qozi va mudarrislardan ba'zilar ma'lum yerlarga majlislar qilib ekanlarki, bu favqulodda va umumiy takfir shuning natijasidir. Chunonchi, muazzin derki, «Bu so'zlarni o'zumdan aytmayman, ulamo qavli va buyrug'i ila berman». Maqzuf va makduhlar ushbu to'g'ridan shariat va qonun mahkamalarig'a va yer yuzindagi musulmonlarni vijdonig'a ruju' etarlar. Shuni-da favran yozayinki, kofir degan odamlari azaliy va abadiy musulmondur. Ular kufri abadan qabul etmaydurlar. Turkistonda yuz ming otalar borki, balalari usuli jadid maktabig'a o'quydu.

(Kelar adad oyandada batafsil yozarmiz.)

«Oyna» j., 1914-yil, 12-son, 295-bet

## BIZNI HOLLAR VA ISHLAR

12-adad «Oyna»da Samarqandning Mirzo Ulug'bek hazratlari jome'inda muazzin tarafidan usuli jadid maktabinda va ham ruscha o'qumoqni yamonligi haqinda juma'dagi musulmonlarga nutq qilingoni va har kim usuli jadida maktabig'a bala bersa, o'zi kofir, xotuni taloq degani va bir necha samarqandiyini ot tutub, «alar kofir va o'rus» degani yozilib edi. Ushbu nutq hukumatg'a ma'lum bo'lub, hukumat tarafidan Madrasai Tillakori va Madrasai Mirzo Ulug'bek mudarrisleri janob Mullo Imomnazar va janob Mullo Salim va ham nutq qilgon muazzindan so'ralibdur. Janob mudarrislar ushbu nutqdan xabarimiz yo'q debdurlar. Muazzin aytibdurki, «Man usuli jadid va yo ruscha o'qumoq va yo usuli jadidchilar haqinda hech bir nimarsa aytganim yo'q. Faqat «Anjumani arvo» ismindagi yangi chiqqon risolag'a e'tiqod qilmanglar, dedim» deb boshqa aytganlarig'a mun-kir bo'lubdur. Hukumat tarafidan bildurulubdurki, ba'zinda

<sup>1</sup> Joy qoldirilgan. Chamasi, muharrir masala oydinlashmaguncha el e'tiboridagi kishilarning nomlari badnom bo'lishini istamagan.

munday yamon harakatlar voqe' bo'lsa, sababchini besh yillik badarg'a qilinur. Kitob to'g'risinda zakun bo'yincha harakat lozim. Bechora muazzin masjidi jome'da va bir necha ming kishi huzurinda aytgon so'zig'a munkir bo'lgani ani qaysi darajadagi odamligini ko'rsatur. «Oyna» muharriri imonig'a ham o'shal muazzin chang solibdur degan so'zlar ham eshitiladur. Bul so'z sobit bo'lganda, «Oyna» muharriri, albatta, anga da'vo (qazaf) qilur. Al'on muazzin so'zig'a umumiy tarafdin qarab biroz muhokama qilarmiz. Usuli jadid va ruscha o'qumoq raddig'a so'ylagani sobitdur. Biz, avvalan, shuni yozarmizki, na usuli jadida maktabig'a o'qugon sababli va na ruscha o'qugon vajhidan kishi kofir bo'lmaydur. Muazzin munga hech dalili shar'iy va aqliy ko'rsatolmaydur. Mundan qat'i nazar muazzini ustozini muhtaram Hoji Mullo To'raxo'ja mudarris janoblari usuli jadid maktabining boniysi hisoblanurlar. Usuli jadidchilarni va ruscha o'qugonlarni «ma'lum majlis»da kufr qudug'i bo'yig'acha sudragan samarqandiyini muhtaram Mullo Saidahmad Vasliy shoir janoblari va Hojiahmad mudarris janoblarining ustodlari muhtaram Hoji Mullo To'raxo'ja janoblariga: «Istanbul shayxulislomi Turkiston va Buxoroda usuli jadid maktablarini rivoj bermoqg'a va rusiya maktablarig'a bola bermoqg'a ulamoning sa'yi va harakati lozimdur», — deb aytganlarini mazkur muhtaram Hoji Mullo Ahmad mudarris janoblari naql qilib edilar hamda Hoji Mullo Ahmad afandi aytib edilarki: «Istanbul shayxulislomini ustodim Eshon To'ra ilan ziyorat qildim. Shayxulislom janoblari dedilarki, biz eshitarmizki, Buxoro va Turkiston ulamosi usuli jadidni yamon der emishlar, ajabo! Dalillari nadur? deb mavohaza qilmoqchi bo'lganda, man, mullo Hojiahmad, dedimki, — afandim, bizni shayximiz (Eshon To'raxo'ja domlani murod etar) usuli jadidni mudofe'i va homiysidurlar», — deb qutuldik. Ajabo, Hoji Mullo Ahmad mudarris janoblari Istanbuldan shul qadar so'zlab, yana qanday nomi kiromiylari ilan bir-ikki jadidchini «ma'lum majlis»da alar g'oyibonasig'a janob ustodi muhtaram Hoji Mullo Abduljalil maxdum mudarris va Hoji Mullo To'raxo'ja mudarris huzurlarinda kufrg'a nisbat berib, badnom etarlar. Holbuki, kufrg'a nisbat bergan odamlaridanki, biri rusi o'qugon, rasmiy omuri hukumat, digari ruscha bil-

maydurgon oddiy bir kishidur. Alar haqinda hurmat va rioyat, balki ionatdan boshqa bir nimarsa sodir bo'lgon yo'qdur.

O'tayluk. Hanuz olti oy bo'lgani yo'q usuli jadid maktabinda voliyi viloyat huzurinda Samarqand qozisi va Samarqandni akbari ulamo va sodotidan janob qozi Mullo Muhammad Isoxo'ja mudarris va qozi Abdulhayxo'ja va qozi Mullo Abulqosim va qozi Mullo Baqoxo'ja janoblari usuli jadid maktabini ayni shariat va usuli qadimdan ko'ra nofe'ligini bayon qilib edilarki, «Samarqand» jaridasi yozib edi. Ajabo, olti oy o'tmasdan, qanday bo'ldiki, usuli jadid maktabi va usuli jadidchilar majlislarda, hatto, jome'i sharifda takfir qilinadur? «Anjumani arvoh» risolasi haqinda ham janob Qozi Mullo Muhammad Isoxo'jani «so'zlari hamma(si) to'g'ri va durust» degonlari rivoyat qilinur. Hammadan ajoyibi bulki, muazzin minglar ila kishi huzurinda aytgon so'zig'a hukumat huzurinda hamda o'zini ustodi huzurinda munkir bo'lur. Biz bu so'zni yozmas eduk va ammo butun xalq orasinda shuhrat topgani va jome'i sharifda so'ylangani uchun va Turkistondagi yuz ming otalarga bolalari usuli jadid maktabig'a o'quydur. Alarg'a daf'i ishtiboh qilmoq uchun va xaloyiqni har nimarsadan aziz imonig'a chang urulgon uchun yozib fursatimizni favt qilarmiz. Valloh aytib turub, munkir bo'lguchi kishi so'zini bir pullik e'tibori yo'qdur. Oh! Biz qanday keyin qolganmiz. Xalqi olam usuli jadid va ilmi zamoniy ila osmonlarg'a uchar, biz hanuz bir-birimizni takfir va tal'in ila vaqt o'tkararmiz.

*«Oyna» j., 1914-yil, 13-son, 200–202-betlar*

## ZO'RAKI BOY

Oxirgi vaqtlarda biz – turkistonlilar tijorat, hatto, ziroat va do'kondorlik ishlarinda na uchun sinarmiz, ya'ni iflos etarmiz. Muning eng birinchi sababi ilmsizlik, to'g'risi aqlsizligimizdur. Ore, bilib turub o'z zararini qilmoq aqlsizlikdur. Chunonchi, «Zo'raki boy» janoblarini o'n ming so'mlik merosi, bog' va xonasi bor edi. Bu odam agarda bog'ini yaxshi ishlatrsa, muvofiqi shariat va insof tiriklik qilsa, isrofgarlik etmasa, to'y va azo deb o'zini barbod etmasa, albatta ortdurardi. Bu odam o'zidek va hatto, o'zidan oz nimarsalik kishilarni ko'rarga o'g'ul to'yig'a ikki-uch ming so'm sarf etar. O'g'lig'a xotun olib bersa

yana bir, ikki, uch ming so‘m sarf etar. Bir o‘luk ko‘msa, besh-olti yuz so‘m xarj etar. Hatto, olti oylik balasini sochini olganda va yo olti kunlik balasini beshikg‘a bog‘laganda bir-ikki yuz so‘m sarf etar. Fotiha, chanladi<sup>1</sup>, dubora-tatabon, kalutapo‘shon<sup>2</sup>, mo‘ylabgiron... va boshqalarini nari qo‘yduk, xulosa, bechora o‘n ming so‘mlik mulkdor qaraydurki, ish bo‘lmaydur. O‘g‘ul va qizlar katta bo‘lub turubdur. To‘y lozim, xatna, nikoh, uning orqasidan keti uzulmas bir suruk ma‘raka va qoidalar lozim. Ko‘bdan chiqib bo‘lmaydur. Bechora odam o‘ylavg‘a tushar. To‘y qilmoq uchun bir-ikki tanob bog‘dan va yerdan sotsa, ko‘zi qiymaydur. To‘y qilmasa, bo‘lmaydur. Bas, noiloj o‘ylab-o‘ylab, do‘kondorlik, ya‘ni bazzozlik va choyfurushlik va yo boshqasini qilmoqchi bo‘lub do‘kon ochar. Bonkalardan kredit (e‘tabar) ochar. O‘n ming so‘mlik merosiy mulki bor ekan, besh bonkadan uch ming so‘mdan 15 ming so‘m qarz olur. Choy, qizil mol, gazvor, chinnivor, kanapcharchinvor, xullas, har nav‘ kantur va fermalardan ham bir-ikki yilg‘a yetmasdan bir o‘n besh ming so‘m urar. Bir vaqt ko‘rarsan 30 ming so‘m ishlatguchi qib-qizil bir katta boy. O‘zini muft dehqonligi ila ro‘zgor qilur ekan, bir ming so‘mni butun umrig‘a sinamagan 30 ming so‘mlik mol ichinda ko‘mganini ko‘rub, bizni dehqonboyni avvalgi torgina aqli ham uchdi-ketdi. Qavm-u qarindoshdan veksell olib bonkag‘a qo‘yar. Sasib yotgan va alarni so‘zincha, egasiz fabrikant molini to‘g‘ri kelgan kishig‘a nasya berar. Bir tarafdan yaxshi ot va arobalarg‘a havasi ketar. Ekipaj faytunlar va maskav otlari olinur. Digar tarafdan, hovlig‘a zamona odami o‘lturaturgon imoratlar qilinur. Usti temur, osti taxta, devori rango-rang shishakori shahnishinlar, bir necha mehmonxonalar va onda zamona asboblari olinur. Bu imoratlarni va dastgohni odamlarg‘a ko‘rsatmoq uchun ziyofatlar, bazmlar kerak. Firma va bonkalarni mudir va a‘zolarini-da alafrang shampanskilik ziyofatlar qilmoq kerak. «Zo‘raki boy» janoblarini(ng) xotun va o‘g‘li ham mundan rang olib, isrofg‘a yuz qo‘yar. Chunki Xudo bergan davlat qayerdan kelib, qayerg‘a ketar? Zo‘raki boyni o‘zi ham bilmas. Bir vaqt to‘y navbati yetti. Endi terlamoqni zamoni keldi. Mashvaratlar, pro‘gramlar tuzalur. Xo‘qand,

---

<sup>1</sup> Charlari.

<sup>2</sup> Ayollar kiyadigan bosh kiyim.

Andijon, Turkiston va Toshkanddan boshlab, Marv, Buxoro, Karki va Afg'oniston hududincham shuhratlik boylar va ko'rmagan oshnolar ro'yxat bo'lur. Ol-a... Muncha odamg'a xat yozmoq mushkul. Bosmaxonada zarhallik xatlar siporish berilur. Yoddan chiqqoni tilgirom ila taklif qilinur. Xivadan, Farg'ona va Buxorodan mashhur juvon va mutrib va xonandalar chaqirilur. Bazmda firmalarning mudir va bonkalarining mu-boshiri, hatto, rajoli hukumat taklif qilinur. U qadar isrof, u qadar behuda masorif bo'lurki, hisobi singandan so'ngra ma'lum bo'lur. Bu to'yni bazmi, juvoni, ko'bkarisi, fashangi, in'omi u qadar ko'b, u qadar qiziq bo'ldiki, munga o'xshagan boshqa bir zo'raki boy ham o'zini anga o'xshatmoq, balki o'tkarmoq uchun o'zini jordan tashlamoqg'a hozirlanur. Ya'ni mundan ziyoda etmoqchidur. Biz avvalgi zo'raki boyning to'yi o'zini tamom qilgan yo'q eduk, boyg'a yana bir nikoh to'yi voqe' bo'ldi, ya'ni janoblari yosh xotun oldilar. Tabiiy, ellik-oltmish yasharg'a 15 yasharni ikki-uch ming so'm masorifsiz berilmaydur.

So'zni qisqa qilayluk. Bir vaqt eshutilur, zo'raki boy bonkag'a pul yetkurolmaydurlar. Imonsiz sarrof ham taqataq shildirni bilib, pul bermaydur. Ish «pravaucho't»g'a qoldi. Bir necha vaqt so'ngra yana eshutilurki, veksellar «pratest» bo'ldi. O'n ming so'mlik mulk ila do'kondagi besh-olti ming so'mlik mol hajz (arest)g'a olindi. Hisob qilib ko'rusla, bilinurki, 30 ming so'm qarz maydonda. Otadan qolgan mulk ila to'rt-besh ming so'mlik aroba g'altak otu tek do'kon mol endi nima bo'lur dersiz? Olti oy bir yilg'acha avvalgi mulklar sudg'a sotilib, bechora zo'raki boy ahl-u ayoli ila darbadar qolur. Chunki aqalli martaba singan yahudiydan ibrat olib, birgina havlisini ham xotuni otig'a o'tkarmagan edi. Inollo-lo-yuhib-ul-musrifin. Ya'ni Alloh taolo isrof qilguvchilarni do'st tutmaydur. Zeroki, boy janoblarini tarjimayi holidan «Oyna»da ko'b ko'rungon edi, ammo qisqartib yozildi. Balki baqiyasi bo'lur.

*«Oyna» j., 1914-yil, 16-son, 270–273-betlar*

## JAHOLAT DARDLARIDAN

Ismimizni bilmaymiz! Nima uchun? Bizg'a o'rgatmabdurlar. Masalan, ismimiz Abdulsamad ekan, «Absamat», hatto, qishloqlarda «Apsat» derlar. (Afu buyurulsun, adabdan xorij

bo'lsa-da, adabg'a da'vat etar.) Oti Yodgor ekan — «Jodigor», Lutfullo ekan — «Nutfullo» ataladur. (Astag'furullo!) G'alat atamoq sababi ila avom kotiblar tarafidan qozixona, valasnoyxona hujjatlarinda va hukumat mahkamalarinda ham shul tariqa g'alat va masxaralik holatinda yozilur. Hatto, shaharlarda, do'kon va korxonalarini tepasinda ruscha va musulmoniy xat ilan «Obdukodir», «Patxulla», «Sanatullo» («San'atullo»), «Obduraxmon» va mundan ham g'alatroq yozilib osilgan lavhalar bordur. Bu g'alatlar bonka va xazina va notarius-maqovolot muharrirligi doiralari g'acha borar. Bir zamon bu g'alat ismlarni to'g'ri yozib mahkamag'a berilsa, mahkamadan to'g'rini g'alat deb qaytararlarki, alarni qaytarishi to'g'ridur. Bu g'alatlarni tuzatmog'i va yo durustlarni g'alat qilmog'i uchun ish egasig'a, ya'ni ismni sohibig'a haftalar va oylar ila yugurmoq lozim kelur. Muni-da qo'yduk.

Shunday g'alat keta bersa, yigirma — o'ttuz sana so'ngra xalq yanadan avomroq bo'lub, musulmon ismlari yana ziyodaroq buzilur. Do'kon va korxonalar tepasindagi unvonlar mundan ziyodaroq g'alat ismlarni shomil bo'lur. Endi munga iloj, ism qo'yganda, ismni ma'nosini bayon qilinmoq va kayfiyati talaffuzni ota-onag'a bildurmoq kerak. Va alar bolani o'zig'a ham bildursunlar va ismlarni yozganda va chaqirganda durust atamoq kerak. Va ham «Jo'raqul», «Norqul», «Toshmurod», «Boltaqul»dek ma'nolilik ismlar ila atalsun... Ajabi shulki, idorada g'alat yozilib kelgan ismlarni to'g'ri yozib yuborilsa, egalari rozi bo'lmaydur. Ismlari arabiy ekan, arab qoidasi bo'yincha «alif» — «lom» ila yozsang, shikoyat etarlar. Ore, ul bechoralarg'a ayb yo'q. Ayb jaholatg'a va maktabsizlikg'a va ruhoniylarni (ng) musohalalarinda, diniy va milliy ishlarg'a diqqat etmaganlarindadur. Ism to'g'risinda totor birodarlarimizni ham ba'zi hollari ajoyibdur. Masalan, «Aynullo», «Nabiyullo», «Ruhullo» degan ismlarg'a uchraladurki, bu ham bir nav' diqqatsizlikdur.

*«Oyna» j., 1914-yil, 18-son, 318–319-betlar*

## **OH, BONKALAR BIZNI BARBOD ETDI**

- Shundaymi?
- Albatta yo'q.
- Bas, nima bizni barbod etdi?
- Nozoalla, hisobsizlik. To'g'ri, aql va tarbiyasizlik bizni

barbod etdi. Ayb bonkada yo‘q, bizda. Chunki boshqa millatlar bonkalar sababi ila obod bo‘lur. Davlati va mulki ortur. Ammo biz, zohiran bonkalar sababi ila barbod va faqir bo‘larmiz. Avvalgi bor mulkimiz qo‘ldan ketarki, muning asl sababi bonka emas, o‘zimizni tarbiyasizligimiz va donishsizligimiz va behisobligimiz hamda naf‘ va zararimizni bilmaganimiz, tijorat ishi va ahli zamonadan bexabarligimizdan, xulosa, jaholat va nodonligimizdandur.

Bonka sababi ila yahudiy, armani va boshqalar davlatlik bo‘lur. Biz bo‘lsa, bolaks davlatimizdan, mulk va obro‘yimizdan ayrilarmiz. Chunonchi, qo‘ldagi bor nimarsamizni to‘y va azog‘a, behuda odatlarga sarf etarmiz. Ko‘rpamizga qarab oyoq uzatmaymiz. Qarz ila imorat, to‘y, fisq va boylik qilarmiz. Isrof qilarmiz. Oxiri «Xasr ad-dunyo va-l oxira»<sup>1</sup> bo‘lurmiz. Bu sabab ila faqirlik darajasinda tushub, so‘ngra bonkadan dodxohlik qilarmiz. Bir karra diqqat qilinsun, bir yahudiy, bir o‘ris, bir armani hech vaqt to‘y degan balog‘a besh ming so‘m, hatto, bir-ikki ming so‘m sarf qilgani eshitilmaydur. Biz bo‘lsa, yigirma ming so‘mlab sarf etarmiz. Koshki bu pul o‘zimizniki bo‘lsa ediki, yalg‘uz isrof gunohi ila qutularduk. Yo‘q, balki biz haq-ul-abd<sup>2</sup> dan qo‘rqaturgon musulmonlar boshqalar oqchasini barbod etib, oxiratg‘a qarzi dunyog‘a kulfat ortdurarmiz. Mundan noma‘qul harakot, albatta, shar‘an va aqlan gunohi azimdur, devonalikdur. Xo‘qanddan janob M. D. R. M. afandi yozadurlarki, bonkadan foydalik oqcha olmoq durustmi? Va biz, musulmonlar nima uchun bonkadan pul olib sinarmiz? Avvalgi savol uchun javob berarmizki, shar‘an bonkadan pul qarz olmoq to‘g‘risinda mo‘tabar «Sho‘ro» majallasinda tafsili ilan ko‘b yozildi. Xohlasangiz, «Sho‘ro»dan o‘qub ogoh bo‘larsiz va ul siz uchun hozirjavobdur. 2-savolg‘a qisqalik ila shuni yozarmiz: masalan, Abdullaboy bazzozni o‘zidan besh ming so‘m sarmoyasi bor. Do‘konidan 500 so‘mlik molni olti oy va‘da ila nasya sotdi. Albatta, bu sotilgan molg‘a aqlan 50 so‘m foyda qo‘yub ediki, yuzda o‘n yuzasidan bo‘lur. Endi do‘kondagi mol oz edi, yana mol olmoq uchun oqcha yo‘q. Kanturdan nasya olsa, avvalda naqdag‘a nisbatan 7–8 hissa qimmat qilib be-

---

<sup>1</sup> Dunyo va oxiratni barbod etish.

<sup>2</sup> Kishi haqi.



rur. Masalan, 400 so‘mlik molni olti oyg‘a 470 so‘m, balki ziyoda qilib berar hamda yaxshi molg‘a yamonni qo‘shar, agarda Abdullaboy bazzoz bonkag‘a sotgan moli uchun olgan vekselini qo‘ysa, olti oyg‘a bonka 500 so‘m naqd berib, faqat 15 yo 20 so‘mgina foyda saxlaydurki, bizni bazzozimiz ushbu pulg‘a 4–5 kanturdan chekkasig‘a chertib, siylab molni arzon narxga olur. Ana bonka hikmati va kerakligi shundan iboratdur va ham shunday o‘lchav ila muomala qilinsa, har kim bonkadan foyda ko‘rar. Yo‘q, bonka uni uchun emaski, bir pulsiz do‘kon o‘lturib va bonka pulini nasya qilib, to‘y va ziyofat va imorat va sharoratg‘a, ko‘bkari va azog‘a sarf qilib yo bonkadan qarz olib, haj borib, dunyog‘a baobro‘ va oxiratg‘a qarz yuklab ketmoq uchun emasdur. Muhtaram M. D. R. M. afandi! Mundan boshqa yana sinmoqimizg‘a sabab tariyqi tijoratni, molni olish va sotish joyini bilmaganimiz, paxta va boshqa g‘alla to‘g‘risinda Amriqo, Afriqo va Ovrupo bozor va ziroatlarini holidan, bo‘lgan va bo‘lmaganidan bexabarligimizdur. Bizni tojirlar aksariyat ila hech joydan bexabar «tavakkal» deb ish qiladurlarki, tashabbussiz tavakkal ila ish qilmoqni shar‘an manhiyligidan bexabarligimiz boisdur. Eng oxirgi sabab sinmoqimizg‘a shulki, tijorat maydoninda nodonligimizdan boshqalar tarafidan aldanarmiz. Xulosa, bizlar kommersant, ya‘ni tojiri zamoniyy emas, balki bizlarga dehqonlik lozim. Ammo, maataassuf, unga ham ilmi basirat va hisob lozimki, bizg‘a shu ilmi zamoniyy yo‘q, binobarin kelarimiz nihoyat qorong‘udur. Mulklarimiz aksari qo‘ldan ketar va qora mehnatkash bo‘lub qolurmiz. Alloh basirat bersun. Shayx Sa‘diy deyur: «...madohili o‘n sakkiz va maxoriji yigirmalik kishi holig‘a yig‘lamoq kerak. Kunduz chirog‘ yoqqan ablahning oqshom qorong‘uda o‘lturganini yaqinda ko‘rarsan»<sup>1</sup>.

*«Oyna» j., 1914-yil, 19-son, 342–344-betlar*

## YOSHLARG‘A MUROJAAT

Bizni Turkiston va Buxoroda bir sinf muhtaram yoshlar mavjuddurki, hukumat mahkamalarinda tijoratxona, bonka va korxonalarig‘a kotib, tarjimon, molfurush va dallollik yoinkinasyachinlik ila mashg‘uldurlar va bu sinf ahlining adadi bugun

<sup>1</sup> Tarjimasi berildi.

Buxoro va Turkistonda minglarchadur. Ana yoshlarga murojaatdan murod shu sinf ahlidan bo'lgan hamvatanlarimizga bir necha kalima arz qilmoqdur. Lutfan so'zimizni tinglasalar, deb iltimos qilamiz. Va kamoli ehtirom ila ul janoblarga bayon qilarmizki, sizlardan aksaringiz savqi qadar va yoinki savqi tabiat ila bir nav'i bo'lub, ruscha biroz o'qub-yozmoqga va yoinki faqat so'ylamoqga qodir bo'lubsiz va bu ozgina zamoniylar bilgu sababidan vazifa olib, yengillik va biroz rifohiyat ila umr o'tkarursizki, Tangrim ziyoda etsun! Va sizlarni ozgina ilmi zamoniylar bilganingiz, albatta, naf' kelturdi va alhamdulillah dini mubingga ham yaxshi mu'taqidsiz va bu ilmi zamoniylar e'tiqodingizni buzmadi. Zotan, islomiyat shunday bir dini matn va qobili taraqqiydurki, na qadar ilmi zamoniylar ko'b o'qusa, insonni yana dini islomga shuncha aqidasi mustahkam bo'lur. Chunonchi, ilmi zamoniylar ko'b o'qug'on Ovroq ulamolarini(ng) eng nomdor va davlatliklaridan musulmon bo'lub turgonlari jaridaxonlarga ma'lumdur. Bas, sabab bo'ldiki, ilmi zamoniylar islomiyatga zarar qilmoq nari tursun, foyda etar, endi matlagga kelayluk.

Muhtaram birodarlar! Siz xidmat qilaturgon doiralarda sizdan katta va sizdan oz ishlaydurgon va sizlarga ish buyuraturg'on kishilar borki, sizdan besh, hatto, yigirma daf'a ziyoda vazifa olur. (Ba'zi bonka va tijoratxonalarda oyinda besh yuz so'm, hatto ming so'm olaturgon kishilar bor va alarni tijorat maktabiga o'qugoni besh-olti yilginadur.) Muning sababi nadur? Sizning qo'l ostingizda sizdan ko'p ishlaydurgon va qattig' xidmat qilaturgon va yuk ko'taraturgon musulmon va yo o'ruslar borki, sizdan ham oz vazifa olur. Muning sababi nadur? Albatta, munga javob berursizki, bizni ustimizdan qaraydurgonlarni(ng) «ilmi zamoniylar»si bizdan ziyoda va mehnatkashlarni ilmi bizga ham emas. Mana sabab shudur. Biz ham dermizki, javobingiz durust. Bas, ma'lum bo'ldiki, hozirgi zamon ishlariga xoh tijorat va hukumat va san'atxonalariga bo'lsun, kirib vazifa olmoqga va ish qilmoqga ilmi zamoniylar degan nimarsa lozim ekan va har kim baqadar bilgusi vazifa olur ekan. Bas, siz muhtaramlar ham o'z avlodingizni va aziz bolalaringizni, agarda xohlasangizki, sizdan ko'ra taraqqiy etsa, din va millatga

xizmat etsa. (Din va millatg'a xizmat ilm va oqcha ila bo'lur.) Shu ilmi zamoniyni tahsil qilmoq uchun harakat qilmo-g'ingiz lozimdur. Hamvatanlarimiz mulkini sotib to'y qilganidek, siz-da, hatto, lozim bo'lganda mulkingizni sot-sangiz-da, o'g'lingizni zamoncha o'qumoqig'a sa'y qilsan-giz. To'yga isrof qilinaturgon oqchalarni o'qumoq yo'lig'a sarf qilsangiz! Zamoncha o'qutmoq tariqasidan boshqa ma-qolada arz qilinur.

*«Oyna» j., 1914-yil, 21-son, 390–391-betlar*

## TARIXI IXTIROI BASHAR

Bugun ko'zimizg'a ko'rinmayturgon nimarsalar avvalgi zamonda yo'q edi. Xudoning odamlarg'a bergan aql va tadbiri soyasida birin-birin chiqorildi. Va ham muni bir toifa ixtiro qilmadi, balki har zamonda har kim tarafidan chiqorildi. Tarixdan bexabar ba'zi kishilar va yoinki dushmanlar musulmonlarni avvaldan oxirg'acha nodon, vahshiy ko'rsaturlar. Musulmonlar dunyog'a hech nima ixtiro qil-madi... derlarki, ul g'alatdur. Va har bir sharaf va hunar-mandlikni bukungi faranglarga isnod bermoq ham to'g'ri emas. Chunki dunyodan o'tganlar o'z navbatlarinda ishlab, hunar ko'rsatib o'tdi. Va ushbu kungi ixtirolar uchun asbob hozirlab qo'ydi. Va hozir faranglar navbatidur. Bir zamon kelurki, navbat boshqalarg'a tegar, bul dunyoning odatidur.

«Oyna»ning muhtaram xonandalarig'a dunyoni avvalidan bukung'acha bani odam tarafidan ixtiro qilingon mashhur nimarsalarni arz qilmoq uchun tarix kitoblaridan olib yozmoqchi bo'lduk va mundan so'ngra «Oyna»ning har ra-qaminda paydar-pay «Tarixi ixtoroi bashar» unvoni ila yozi-lur. Munda yozilaturgon nimarsalar «Tarixi umumiy», «Tarixi madaniyat», «Madaniyati islomiya», «Koinot», «Tarix va jug'rofiya lug'ati», «Tarixi tamaddun» kitoblari va boshqa kitob va risolalardan naql qilinur. Va munda ko'rsatilgan tarix uch nav' bo'lub, birinchi(si) «tarixi xilqat» atalurki «Tav-rot»ni bayoni bo'yincha dunyo bino bo'lganidan hazrati Iso alayhissalomni tug'ulgonig'acha 5594 sanadur.

2-«tarixi milodiya» hazrati Isoni tavalludlaridan hijrati hazrati payg'ambarimiz Muhammad mustafo alayhissalom-g'acha 626 sanadur.

3-«tarixi hijriya» hazrati payg‘ambarimizni Makkadan Madinag‘a hijrat etganlaridan bu kung‘acha 1332 sanadurki, tarixi xilqat «X», tarixi milodiy «M», tarixi hijriya «H» ishoratlari ila ko‘rsatilur. Yana zamonalar «Azmanhoi qabl at-tarixiya», «Azmanhoi tarixiya», «Qaruni avval», «Qaruni vasat», «Qaruni jadida», «Asr» degan ismlar ila bayon bo‘linadur. Azmanho qabl at-tarixiya – tarixi yaxshi ma‘lum bo‘lmagan zamonlarni derlar. Azmanhoi tarixiya – tarixi aniq bo‘lgan zamonlarni derlar. Qaruni avvali – xilqati Odamdan Rumo davlatining yo‘q bo‘lushig‘achadur. «Qabl az hijrat» – 146 sana Qaruni avsati – Rumoning yo‘q bo‘lushidan musulmonlarning Istanbulni olgonig‘acha (ba‘d az hijrat – 731). Qaruni jadida – fathi Istanbuldan zamonamizg‘achadur.

Tarix eng mashhur va mo‘tabar hodisalardan boshlanur. Har yuz sanani «asr – qarn» derlar. Chunonchi, al-on tarixi milodiyanning 20- va hijriyaning 14-asridur.

Endi asl matlabni boshlaymiz.

Ziroat san‘ati hazrat Odam alayhissalom tarafidan chiqorilgondur. Dehqonchilik uchun ba‘zi asboblar 2500 (X)da Eron va Misrda o‘xshatilib, keyin mashhur finikiyalilar tarafidan isloh qilinib, 1280 (X)da Ovrupoda ham ba‘zi moshinalar chiqorilibdur. Al-on Amriqoda otash ila harakat qilaturgon moshinalar ila yerni haydab ziroat qiladurlar. 200 ot quvvatig‘a barobar dehqonlik otash moshinalari chiqoraturgondurlar.

1262 (X)da toshlarni tarashlab, taxtadek qilib ustig‘a xat yozmoq usuli hazrati Idris alayhissalom tarafidan chiqarilibdur.

2150 (X)da kamoncha sozi uchun giyohlarni terisidan bir nav’ mahkam iplar ixtiro qilinibdur.

«Liz» degan soz, harflar ila handasa shakllari mashhur Hurmuz tarafidan chiqorilibdur. Oxirida yunoniylar ham ushbu asbobni yaxshi isloh qilibdurlar.

2241 (X). Hazrati Nuh alayhissalom tarafidan kema chiqarilibdurkim, aning uzunligi 300, bari 50 va balandligi 30 gaz bo‘lub, uch tabaqag‘a taqsim bo‘lgan ekan. Otash kema esa 1078 (H)da italiyali mashhur Danis Poin tarafidan, bir nav’ najjoriy moshinasi ixtiro qilinib va keyin Jems Vayg nomlik bir tafannun tarafidan isloh qilinib, 1114 (H)da yana

Do'ku degan bir farangi tarafidan charxning najjor quvvati ila harakati tajriba qilinibdur.

1218 (H)da amriqoli Qo'ltun nomlik kishi charx harakati isloh etib, Porisda San nahrada tajrib qilinibdur. 1222 (H)dan boshlab paraxo'dlar ishlamoqg'a kirib, emdi yer yuzinda necha yuz minglar ila otash kemalar, o'n ming kishi sig'aturgon katta kemalar ichida bosmaxona, teatrxona va korxonona va maktablaklari bo'lub, suv ustinda kichik bir shahar hikmatidur (baqiyasi bor).

*«Oyna» j., 1914-yil, 28-son, 531–534-betlar*

## TANQID – SARALAMOQDUR

Majalla va jaridalarning katta bir xosiyati tanqid, ya'ni saralamoqdur. Sarroflar aqchani, tujjorlar mato'ni saralaganidek, muharrirlar ham umumiy hol va maishatg'a taalluq nimarsalarni saralaydurki, boshqa so'z ila «tanqid» atalur. Masalan, yangi maktab va muallimlari va anda o'qulaturgon kitoblarni ma'nan taftish etib, andagi nuqsonlarni bayon etmoq tanqidur. Taarruz\* va dushmanlik emas. Agarda shaxsiyatg'a to'qunmasa. Ammo bir muallim yo mudarris va muharrirni ishidan, shaxsiyatidan xaloyiqg'a zarar kelsa, andan ham bahs va tanqid yozmoq shaxsiy bo'lmaydur. Tanqid yangi yozilgan kitob, jarida va majallalarg'a-da joriy va nofe'dur. Masalan, bir muharrir va yo muallimni sahvini va o'z xizmatig'a beparvoligini va lozim qoida va tartiblarg'a amal qilmay, ommag'a zarar kelturgonini tanqid etmoq boisi isloh bo'lur. Bizni Turkistonda yangi maktablar xeyli bordur. Yangi risola xeyle bosilib turubdur. Jaridalarg'a maqola va shiorlar o'qulub turubdur. Ammo hanuz tanqid davrig'a yetushganimiz yo'q. Ittifoqo, tanqid shaklinda bir nimarsa yozilsa, bizlarg'a qattig' tegar. Yozganlarimizni buzuqligi va fikrimizni xatoligi, ishimizni noqisligini biror kishi ko'rsatsa, achchig'imiz kelur. Va ul odamni dushman ko'rub, shaxsidan nafrat va fikrig'a norozilik bayon etarmizki, bul bizni yangidan ishg'a boshlaganimizdan, boshqa til ila noqisligimizdandur. Biz eskilarni ayblaymizki, alarg'a islohdan so'zlasak, chiday olmaydurlar. Ammo o'zimizning maktab, risola, tahrir va maslakimizni bir kishi tanqid etdimi, chiday olmaymiz, diqqat ila munaqqid so'zini tinglamaymiz. Munaqqid bizni

to'g'rimizg'a ming so'z ila bayoni muddao etar ekan, biz oni ichindan o'n so'zini noma'qul topib, yuzig'a urarmiz. Va yoinki vajhsiz oning so'zini raddu o'zig'a e'tiroz etarmiz. Agarda ul desaki, man sizg'a bir ming kalima nasihat yo tanqid so'yladim, durust, o'n kalimasi sizg'a bejo ekanki, qaytib oldim, 990 kalimasig'a na dersiz?

Na javob berarmiz! Tanqidni ko'tarolmaganimizg'a, to'g'risi, hanuz tanqidg'a loyiq bo'lmaganimizni misoli. Kafkazli sayyoh Muhammad Sayyid afandi Turkiston maktablari to'g'risinda «Oila va mo'tabaran iqbol» jaridasig'a tanqid yozib ediki, aning javobi yalg'uz quruq bir e'tiroz (pro'test) bo'ldi. Ammo oning yozg'anig'a javob tushmas. Ikkinchi, «Adab va tarbiyat» unvoni ila yana sayyoh mazkur «Oyna»ning 27–28–29–30 raqamlarinda maktab to'g'risinda voqe' dailillari ila ba'zi nimarsalar yozdiki, mo'tabar «Sadoyi Turkiston» rafiqimiz 11-adadinda Muhammad Sayyid afandi maqolalarini xilofi adab va tarbiya deb oni yozilg'onig'a sohibi maqola va idorag'a izhori norizolik aytib, mazkur maqolalarni «ahamiyatsiz» der. Hamda «muallimlarning xotirin qoldiruv» bo'larmish. «Oyna» kamoli ehtirom ila «Sadoyi Turkiston» rafiqimizg'a arz etarki, mazkur maqolalar boshdan oxirg'acha ahamiyatsizmi? Agarda ahamiyatligi bo'lsa, iltifotg'a olmaganlarig'a taassuf etarmiz. Va maqola ichidan ikki-uch xati mizojg'a nomuvofiq tushgan uchun afularini tilaymiz. Takroran aytarmiz: biz hanuz tanqidg'a layoqat paydo etganimiz yo'q. Yana qadima kasallarimizdan — «norizo», «xotiri qolmasun-u...» illatlari hanuz ketgan yo'q.

Muhammad Sayyid afandi ta'birincha, munday ketabersa, «qiyomatdan ming yil so'ngra-da, Turkistong'a taraqqiy yo'q». Agarda, «xotir qolmasun» qoidasi maslak tutulsa, matbuotdan qalam tortmoq kerak. Chunki haqiqiy matbuot hech kimni xotirig'a qaramas. «Xotir qolmasun» kasali biz musulmonlarni barbod etdi.

Umumiy hollardan bahs qilindimi? Mutlaq har bir masalag'a bir necha kishini xotiri qolur. Islohi madoris va dorulqazo desangiz, ulamoni xotiri qolur. Islohi rasm bazm desangiz, avomni xotiri qolur. Islohi savome'\* desangiz, so'fi, shayx-u eshonlarni xotiri qolur. Islohi foidaxo'rlik va tijorat desangiz, boylarni xotiri qolur. Endi islohi makotibi jadida deyilganda,

muallimlarni xotiri qolsa, bas muharrirlar uchun sukutdan boshqa ish qolmaydur.

Shuni-da aytmoqki, Muhammad Sayyid afandidan yoinki idoradan birgina «ba'zi» kalimasi maattaassuf qolibdurki, bu ba'zi vajhdan ba'zi muallim afandilardan idora afu istar.

Boqi: Muhtaram «Sadoyi Turkiston»g'a salom.

*«Oyna» j., 1914-yil, 32-son, 621–623-betlar*

## TEYOTR NADUR?

Teyotr nimadur? Javobig'a teyotr ibratnamodur, teyotr va'z-xonadur, teyotr ta'zir adabidir. Teyotr oyinadurki, umumiy hollarni anda mujassam va namoyon suratda ko'zliklar ko'rub, kar-quloqsizlar eshitib, asarlanur. Xulosa: teyotr va'z va tanbih etguvchi hamda zararlik odat, urf va taomilni, qabih va zararini ayonan ko'rsatguvchidir. Hech kimni rioya qilmasdan to'g'ri so'ylaguvchi va ochiq haqiqatni bildurguvchidir. «Qul-al-haqq va lav kona (va) maroan» mazharidur. Ayni zamonda yana tamoshogoh va yoinki ko'ngul ochguvchi milliy va adabiy jam'iyatlarni boisidir. Taraqqiy qilgan millatlar teyotrxonalarni ulug'lar uchun maktabi adab va ibrat ataydurlar. Taraqqiy qilmoqni eng birinchi sabab va boislaridan biri teyotrlardur deyurlar. Teyotrlarning yaxshi va yamon odatlarni sarrof\* va munaqqidi derlar. Umumiy odatlarni naf'i va zararidan paydo bo'laturgon natijalarni teyotrxonada aynan ko'rsaturlarki, har kim mundan ta'sirlanib, yamon odatlarni tark etib, yaxshilikni ziyoda ishlamoqg'a sabab bo'lur. Har zamonni bir usuli ehtisobi\* bordur. Bu zamonda teyotrxonalar ham yamon va zararlik odatlarni ehtisob va tanqid qilib yamonligini, qabihini xaloyiqg'a ko'rsatib va'z va nasihat etguvchi bir joydur. Teyotrxona sahnalarinda qo'yulaturgon asarlar fojea, ya'ni qayg'ulik, mazhaka, ya'ni kulgu, drama, ya'ni hangomalik bir voqea va hodisani tasvir etib, xaloyiqg'a ko'rsatilur. Ul voqeadagi yamonlik va yaxshilikni paydo bo'lgani va sababini har kim ko'rub, anglab, ibrat olur va yamonlikdan qochib, yaxshiliqg'a harakat qilmoqg'a, teyotrdan ko'rsatilgon voqealar sabab bo'lur.

Hikoyat va yoinki nasihat kitoblarinda ba'zi bir hodisani bayon qilingandurki, o'qub, asarlanib, lazzat olinadur. Ammo

teyotrg'a maxsus bir hodisa va yo voqea va hikoyatni fe'lan qilib ko'rsatiladurki, muning ta'siri eshitkandan ziyodadur. (Shunidan kay bud monandi diydan — eshitmoq qachon ko'rmoq kabidur.) Yana teyotrda savodsiz odam ko'zi ila ko'rub, ko'zsiz odam eshitib, kar mushohada etib, ibrat va lazzat olur. Xulosa: teyotr bir nav' maktab hukmindadur. Taraqqiy qilgan xalqlar o'rtasinda teyotr u qadar taraqqiy etkandurki, har kun bir yangi asar tasnif\* bo'lub, sahnada qo'yulur. Asarni yozgan muharrirg'a ming so'm va o'n ming so'mlab hadya berib, asarini mushaxxis\*lar sotib olib, sahnada qo'yub foida qiladurlar. Ba'zi bir teyotr asarlari eski bo'lmay va xaloyiqni ko'nglig'a urmay, bir shaharda yigirma-o'ttuz, hatto, yuzinchi daf'a qo'yulganlari bordur. Teatrg'a qo'yulgon asarni ortuqcha va yo oz yerlarini va yetishmaganlarini maishati milliyadan xorij nuqtalarini muharrirlar, jaridalar ila tanqid etadurlar. Xaloyiqg'a ma'qul bo'lub va yo bo'lmag'ani ila teyotr muharririni xursand va yo g'amlilik bo'lur. Muharrirni asari yaxshi chiqsa, har kim oni tabrik etar va shuhrati ziyoda bo'lur. Va bul boshqa muharrirlarni harakatg'a kelishib, yaxshi asarlar yozmoqlarig'a bois bo'lur. Teyotr uchun muharrirni ne qadar chuqur o'ylaguvchi zarif va nazokatligi lozim bo'lsa, mushaxxis (hodisani ko'rsatguchi)larni ham tavono va muqallid va har nimarsani o'zidek qilib ko'rsatguchi, nuktadon bo'lishi lozim bo'lib, bul alohida bir san'atdurki, ovrupolilar munga ham alohida maktab ijod qilgandurlar.

So'zni qisqasi, teyotr xonalari masxarabozxona bo'lmay, balki ibratxonadur. Va anda mushaxxis bo'laturgonlar «o'yunchi va masxaraboz» bo'lmay, balki mushaxxis va muallimi axloqdurlar. Taraqqiy qilgan xaloyiq orasinda mushaxxislar ham kibor va muhtaram sinflar qatorindadur. Xususan, o'z kissasi naf'ig'a mushaxxislik qilmay, balki maktab va o'z millati naf'ig'a mushaxxislik qilganlarni qadri du bolo\* ziyodadur.

Bizni Turkiston va Buxoroda milliy teyotrdan asar yo'q edi. Muharriri ojiz «Padarkush»ni yozdiki, o'tgan fevral oyinda Samarqand, Xo'qand, Buxoro va Toshkand va Kattaqo'rg'on shaharlarinda millat naf'i uchun ko'ngullilar sahnada qo'yub, to'rt-besh ming so'mni to'rt-besh kechada jamlab, maktablar foidasig'a berdilar. Mana endi muhtaram Samarqandiy ko'ngulli mushaxxislar g'ayrat qilib, yana «Padarkush»ni Samarqandda



yettinchi moyda sahnag‘a qo‘yub, hosilini maktablarg‘a sarf uchun berdilar. Muhtaram hamshaharlarimizdan rijo etarmizki, kelib ko‘rgonlari gunah bo‘lgon joyini ko‘rsatsalar. Inchunun, asarni tanqid etib, buzuq yerini matbuot ila bayon etsalar, toki boisi isloh bo‘linsa. Ammo bu kung‘acha muhtaram ahli qalam «Padarkush»ni buzuq yerini ko‘rsatmay, balki «kuldurguchi va ham yig‘latguchi nosih va nofe’ asardur» holinda tabrik va taqrizlar ila yozdilarki, biz alarg‘a tashakkur aytarmiz. Asarimizni qabihini yozgon kishig‘a ziyodaroq tashakkur etmoqg‘a madyunmiz, chunki bois islohdur. «Mutakallimro toayb nagirand – suxanash isloh napazirad» («So‘z so‘ylaguvchini ayb etmaguncha, so‘zi tuzalmaydur»). Ba‘zi bir ahli vatanning teyotr asari yozmoqg‘a mashg‘ulliklari eshitilurki, asarlarig‘a chahor-chashm ila muntazirmiz. Yozilgan asarlarni ko‘ngulli dastalari sotib olib bostursalar, foida ham qiladurlar. Chunki bir kishig‘a ham asar yozib, ham bosturub va hamda sahnada qo‘yduρμοq mushkuldur. Dastalar sotib ola bersalar, asar-da ko‘payur. Turkistonda oyinda bir asar tahrir bo‘linsada, ko‘blik qilmaydur.

*«Oyna» j., 1914-yil, 29-son,  
550–553-betlar*

## MUHTARAM YOSHLARG‘A MUROJAAT

Har bir mamlakatda islohot va madaniyat asbobig‘a tavassul\* va tashabbus etmoqlik harakati u mamlakatning yoshlari tarafidan zuhur eta boshlagani kabi, bizning Turkistonda ham madaniyat eshigi manzalasida bo‘lgan makotibi ibtidoiyya ila intiboh va islohot jarchisi bo‘lgan milliy matbuot g‘ayratlu yoshlarning harakoti maorifparvaronalari soyasida vujudga keldi. Shuning uchun har bir milliy havoyijimizdan\* bo‘lgan mushkul ishlarda yolg‘iz yoshlarimizni marja’\* va umidgoh tutib, alardan yordam so‘raymiz (mollari yoki so‘zlari ila millat foidasig‘a yordamlari tekkan ba‘zi ulamou ag‘niyomiz\* ham yoshlar qatoridadurlar).

Muhtaram birodarlar! Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondurki, makotib – taraqqiyning boshlang‘ichi, madaniyat va saodatning darvozasidur. Har millat eng avval, makotibi ibtidoiysini zamoncha isloh etib ko‘payturmaguncha taraqqiy yo‘lig‘a kirub madaniyatdan foydalanmas. Madaniyati hozi-

radan mahrum qolub, sanoye' va maorif salohi ila qurollanmagan millat esa, dunyoda rohat va saodat yuzini ko'rolmas. «Muborizai hayot» maydonida mutlaqo mag'lub bo'lur, oyoqlar ostida ezilur, diniy, iqtisodiy ishlarda o'zgalarning asiri bo'lub, bora-bora milliyat va diyonatini ham qo'ldan berur. Ana ushbu yo'llar ila oxiri mahv va nobud bo'lub ketar.

Binoanalayh, yer yuzidagi barcha millatlar o'z bolalarini ibtidoiy tarbiyasig'a va maktablarning har jihatdan intizom va akmolig'a ahamiyat berub, bolalarini milliy va diniy ruhda mukammal suratda yetushdurarlar. Aning uchundurki, o'zga millatlar diniy va milliy hissiyotg'a molik bo'lub, har ishda diyonat va milliyatni muqaddam tutarlar. Va luzumi kelganda bu yo'lda mol-u jonlarini fido etmoqg'a hozir turarlar. Mana, hozirgi urushlar va iqtisodiy tortishlar diyonat va milliyat hissiyoti natijasidur.

Endi, bizni Turkistonda munday hissiyotlar qayda? Modomiki, biz turkistoniylar ilm-u maorifdan haqqincha istifoda etmaymiz. Fazoyili insoniyadan sanalgan shaylar qanday hosil bo'lur? Chin insoniyat nimadan iborat ekanligini qaydan bilurmiz?

Bizlarda bir fazilat bor bo'lsa, ul ham faqat taassuboti johilonadan iboratdur. Demak, bizlar hozirgi nimkola diyonatimizni yolg'uz taassub soyasida saqlab turubmiz. Lekin ushbu tamaddun asrida ilmsiz quruq taassub ila ham yashab bo'lmas. Chunki zamonamiz shunday zo'rki, ozgina fursatda churuk taassubotimizni asosidan qo'parub tashlaydur. Shuning uchun zamonaning muhlik asbobig'a qarshu muqovamat etadurgon bir narsa bor bo'lsa, ul-da maorifdur.

Tahsili maorifni ibtidoiy qismi muntazam maktablar bo'lgan uchun endi biz Turkiston musulmonlarig'a ibtidoiy maktablarni ko'payturmoq lozimdur. Tabiiy, maktab muallimsiz ko'paymas. Hozirda esa Turkistonda muallim oz bo'lub, muallimlarga ehtiyojimiz shadiddur. Chunki bu kunlarda yangi maktab havaskoroni kundan kun ziyodalashmoqdadurki, muallimlar mavjud bo'lgan taqdirda har yil Turkistonda yuzlarcha maktab ochmoq mumkindur.

Endi ushbu mushkul hollarni nazari e'tiborga olub, Turkiston yoshlari muallim yetushdurmoqning chorasini topmoqlari lozimdur. Agar bukungi yoshlarimiz ushbu muhim vazifa va xizmatni ifo etmakga qasd eta boshlasalar, muallim yetushdurmoqni chorasi ham topilsa kerak. Chunonchi, Tur-

kistonda muallim chiqormak uchun dorilmuallimin bo'lsa ham, har shaharda usuli ta'limdan xabardor bir-ikki nafar muallim, albatta, bordur. Ana, muallimlikka tolib kishilarni alarning huzuriga yuborub, 3-4 oy zarfida usuli ta'limdan xabardor qildurmoq mumkindur. Agar boyafarz, ushbu xidmatni muallimlarimiz iltizom\* qilmasalar, ul holda muallimlikka havaskor yoshlarni biroz zahmatlik bo'lsa ham, to'g'ridan to'g'ri Toshkandda Munavvarqori janoblarining maktabiga yubormoq kerakdurki, mushorun alayhning\* munday toliblarni maalmamnuniyat qabul etmoqlariga amindurmiz. Ishta, muhtaram qarindoshlar, millatimizning tilagi va eng zo'r ehtiyoji ushbu shaylar ediki, nazari oliylaringiza arz-u taqdim etduk. Endi g'ayrat sizlardan, tavfiq Ollodandur.

*«Oyna» j., 1914-yil, 41-son,  
970-972-betlar*

### «TURKISTON TARIXI» KERAK

Tarix ko'p ahamiyatli va foydali bir narsadur. Tarixning foydalaridan ba'zisi ushbudurki, bir millatning na tariqada, qaysi yo'l ila taraqqiy etganin o'qib, ibrat olmoq yoki bir millatning na sabablardan tanazzul etib, oxiri munqariz bo'lub ketganin o'qub mundan ham istifoda etmak mumkindur. Shuning uchun bizning o'z shevamizda Turkistonda o'tgan bobolarimizning maishiy, siyosiy ahvoriga doir «Turkiston tarixi» bor bo'lgonda, oni ko'z oldimizda qo'yub, burung'i qahramon bobolarimizning na yo'l ila taraqqiy va madaniyat davriga kirub va nima sababdan oxiri munqariz bo'lub ketganlarini o'qub, bilub, xeyli ibrat olar eduk. O'shandoq hozirgi holimizni bobolarimiz davridagi hollarga bir daraja muqoyasa etmak ila barobar o'z-o'zimizdan bir infioi daruniy\* his edub, yuzlarimiz qizarar edi. Holo, biz turkistoniyalar marhum bobolarimiz ahvoli ham Turkiston voqeoti tarixiyasidan butun g'ofil va bexabardurmiz. Chunki hanuz Turkiston tarixi haqinda yangi tadqiqot ila yozilgon, tartibli va istifodali mukammal bir asar vujudga kelgan yo'q. To'g'risi, munday tarix yozuvchi kishi turk o'g'lonlaridan hanuz maydonga chiqq'on yo'qki, bu esa turk bolalarining noxalaf bo'lub, chin o'g'ul emasliklariga dalildur. Bu so'zlaridan tarixsizligimiz anglashilmasun. Bizning tariximiz bor.

Burung'i asrlarda Turkiston va turklar voqeoti va ahvoli haqinda turkiy, forsiy va arabiy tillarda necha kitoblar yozilgandurki, u kitoblardan rus va boshqa yovrupoyilar istifoda etgan va etmakdadurlar. Lekin u muxtalif\* tillarda yozilgan. Tarixiy asarlardan biz turkistoniylar istifoda etub, yangi muhokama va tadqiqot ila o'z shevamizda muntazam bir asar vujudg'a kelturganimiz yo'q. Balki bizlar andog' tarixiy kitoblardan aksariyat ila xabarsiz bo'lub, ba'zisidan xabardor bo'lsak ham, alarning tab' va nashrig'a ahamiyat bermaymiz. Chunki bizning xalqlar andog' kitoblardan ko'ra xurofotlik qissa, hikoya va oshiqona g'azal kitoblarig'a ziyoda rag'batlik bo'lganidan moddiy foydasini ko'zlab, shunday afsona va aslsiz kitoblarni tab' va nashr etmakdamiz. Shuning uchun kundan-kun muhim tarixiy kitoblarimiz ko'zdan tushub, esdan chiqub ketmakdadurki, muning aybu gunohi Turkistondagi manfaatparast kitobchilar bo'yniga tushsa kerak. Chunki bu so'ng yillarda kitobchilar tarafidan turli xurofotlik kitob va risolalar nashr bo'linub turganligi maydonda va barchag'a ma'lumdur. Agarda muhtaram noshir va kitobchilarimiz mundan so'ng axloq buzguvchi oshiqona g'azallar va sof e'tiqodlarni zaharlandiruvchi xurofotlik afsona kitoblar o'rnig'a mo'tabar tarixiy, axloqiy va adabiy risola va kitoblar nashr etmoqg'a tashabbus etsalar, shoyad bu xayrli ishlari avvalgi gunohlarining yuzini yopar.

«Sadoyi Turkiston» jaridasig'a «Milliy tariximizni kim yozar?» mazmunida bir savol ko'rugon edi. Bizning fikrimizcha, munday bir tarix yozmoqlik nihoyatda qiyin bir ish bo'lub, hozirda muning ifosi bizlarning qo'limizdan kelmayturg'onga o'xshaydur. Shuning uchun bu xizmatni Turkiston tarixi ila oshino bo'la boshlagan yosh muarriximiz muhtaram Ahmad Zaki Validiy afandining qalamidan umid etmakdamiz.

*«Oyna» j., 1914-yil, 38-son,  
898–900-betlar*

### **«SART» SO'ZI MA'LUM BO'LMADI**

Mo'tabar «Sadoyi Farg'ona» jaridasining 30-no'merida «Sart so'zi ma'lumdur» unvonlik bir maqolani ko'rub o'qumasdan avval «sart» so'zi hal qilindi gumoni-la qalban bir darajada xursand bo'lsak ham, lekin maqolani tamoman

o'qub chiqqandan so'ng hurmatlu Mullo Abdullobek janoblarning qilgan rivoyatlari mazmunidan «sart masalasi»ning yana burung'i majhul holig'a qolgonin anglab umidimiz bo'shg'a chiqdi. Chunki A. afandining sart haqida yozgan so'z va dalillari mahz og'izlardan eshitilgan haqiqati noma'lum shaylardan iborat bo'lub, hech bir asl va asosg'a mabni emasdur. Bizning fikr va bilganimizcha, «sart» so'zining haqiqati mashhur va inobatlik muarrix va mustashriqlar tarafidan kashf va hal o'linub, hanuz bir joyg'a qaror berilgan yo'qdur. Agarda «sart» so'zi ma'lum bo'lsa edi, ya'ni Turkistondagi xalqlarning barchasi yoki muayyan bir qismining «sart» atalgoni daloyili tarixiy ila isbot qilingan bo'lsa edi, ul suratda hech kim «sart» xususida so'z ochmas va bahs chiqormas edi. Muhtaram Mahmudxo'ja janoblarning bul xususda «Oyna»g'a xeyli rivoyat va qilu qollarni naql etub ham o'z fikrlarini yozganlarig'a sabab, shul «sart» so'zining majhulligi bo'lsa kerak.

Durust, hayot va mamot masalasi qadar muhim bo'lgan necha masalalar ko'zimiz oldig'a turgon holda alarni ehmol etub, faqat «sart» so'zi ila shug'ullanub, fursatlarni bo'shg'a o'tkarmoqlik ham yaxshi emas. Lekin asrimizdagi yovrupoyilar qoshida «milliyat» masalasi «din» masalasidan muhim va muqaddam tutilgan bir zamonda bizlar ham milliyat masalasidan sanalgan «sart» haqida goh-goh bahs etishub milliyatimizin xotirlab turgonda zarar ko'rmasmiz. Diniy, milliy va maishiy masalalar xususida (nizom va qonundan chiqmaslik sharti-la) har doim bahs va muzokara etishub turmoqg'a haqqimiz bor. Shuning uchun falon masala xususida so'z ochma! Yoki falon laqabni mutlaqo bo'ynungga toqarsan, deb sababsiz zo'rlik etmoqga hech kimning haqqi bo'lmasa kerak. Maqsadg'a kelayluk. Mullo A. afandining «Sart so'zi ma'lumdur» unvoni ostida: «Bir zamonlarda Turkistonda sahroyi qirg'iz va qazoq...» — deb naql va rivoyat etgan ma'lumotlari qaysi tarix kitobidan va yo qaysi ishonchlik muarrix so'zidan olinganligini bila olmaduk, agar bu rivoyatlari mahzi og'zaki hikoya va so'zlar jumlasidan iborat bo'lsa, bul taqdirda, muning ila «sart» so'zi ma'lum bo'ldi, yoki «sart» masalasi hal qilindi, deb hukm etmoq mutlaqo durust emasdur. Chunki muarrixlar munday aslsiz so'zlarni dalil maqomig'a kelturub, mushkul bir masalai tarixiyani qat'iy suratda hal etmaydurlar. Balki bir munosib kelganda,

qarinai maqomg'a qarab, bir da'voning taqviyasi uchun zikr etubgina o'tarlar. Asli noma'lum bir rivoyat ila ulug' masalalari tarixiyani hal etmoqlikni esa tarix haqida jinoyat sanaydurlar.

Shunday qoidalarni oz-moz bilganimizdan Mullo A. afandining sarta masalasini hal etmoq qasdi-la yozgan aslsiz dalillari hayrat va taajjubimizni mujab bo'ldi. Chunonchi, mushorun alayh so'zlarin bir joyida «sart»ning asli «shart» deb, ondan so'ngra deyur: «Muhtaram azizlarga maxfiy qolmasunki, har kim bizni sarta desa, munga xursand bo'lub, faxr qilmoqimiz darkordur. Charoki sarta degani, masjidlik va madrasalik va bozorlik va ozoda ulamoni madaniy, degani bo'lur». Holbuki bu ma'no avvalgi ma'noga butun mag'oyirdur. Chunki, avvalgi ma'noga qaraganda, «sart» lafzi «shart»dan ma'xuz ediki, bul suratda sartning ma'nosi nechuk masjidlik va falonlik bo'lsun?.. Sherali Lapin janoblarning «sart»g'a «sarig'...» deb bergan ma'nosi na qadar nomunosib bo'lsa, yuqorida berilgan ma'no ham shunday kelishsizdur. Bizning ba'zi asarlarda ko'rganimizcha, «sart»ning ma'nosi karvonboshi yoki savdogar kabi mazmunda ediki, bul ham bir mustashriq\*ning so'zidir. Xulosa: «sart» na ma'noda bo'lsa bo'lsun, arbobi tarafidan hal qilinmaguncha oni qabul etmaslikka haqqimiz bor. Shuning uchun majburiy suratda aytib turarmizki, «sart» so'zi hanuz majhuldur. Yuqoridagi mazmunda muxtasarcha bir maqola yozub, qachonlar «Sadoyi Farg'ona» idorasig'a yuborgan eduk. Idora jaridag'a darj etmoqg'a tanzil etmagani yoki munosib ko'rmagani uchun biroz tafsili ila «Oyna»g'a yozmoqg'a majbur bo'lduk.

*«Oyna» j., 1914-yil, 39-son,  
922-924-betlar*

## ISMOILBEK HAZRATLARI

Marhum xodimul millat Ismoilbek hazratlari 1268-hijriy, mutobiq 1851-milodiy sanasinda Qirimning G'aspra qariyasinda dunyog'a kelib, Maskav e'dodiy askariy maktabinda o'qugan. Andan so'ngra Istanbul va Parijga amaliy va nazariy ikmoli tahsil etib, Rusiyag'a qaytib, «Rusiyada musulmonlar» nom ruscha bir kitob yozib, Rusiya musulmonlarining ilmiy, ijtimoiy va siyosiy hollaridan bahs va Rusiya musul-

monlarini himoya etgan. Hijriy 1297-, milodiy 1880-sanasinda Qirimning musulmon madrasasinda ruscha muallim tayinlangandurlar. 1883-milodiya 10-apreldan boshlab mo'tabar «Tarjumon» g'arro\* jaridasini millati islom va turklik xizmati uchun chiqargan. Va musulmonlarni nodon qismi tarafidan izo\* va jafolar chekkan. Qashshoqligi sababli o'zi va xotuni ila «Tarjumon»ni yozmoq, tartib etmoq, harf termoq va pochtag'a topshirmoq to'g'risindagi og'ir ishlarni ishlagan va hatto, ba'zan bosmaxonaning moshina charxini o'zlari kuch va qo'l ila aylanturgan. Va har nav mehnat va kulfatlarni o'zig'a ravo ko'rub, millatni uyg'otmoqg'a, dunyodan, siyosati olamdan, madaniy millatlarni holiday xabardor bo'lmoqlari uchun jisman va ruhan hech tinmasdan 35 sana ishlagandurlar. Musulmonlarni dunyodan xabardor qilmoq uchun butun Rusiyada, Turkiya, Misr, Tunis, Jazoirda, Hind va Afriqoda, Turkiston va Buxoroda daf'alar ila sayohat etib, har yerda musulmonlarni madaniyati zamoniyag'a, ulum va fununi asriyag'a, sanoat va tijorati qaritag'a\* va rus madaniyatig'a davat va tashviq etgandurlar. Usuli savtiya maktablarni Rusiyada boniyyi muassisi Ismoilbek hazratlaridur. Birinchi yangi usul alifboni murattib\* va noshiri yana Ismoilbek hazratlaridur. Taraqqiyoti zamoniyag'a yalg'uz davat emas, fa'lan harakatda bo'lub, jamiyati xayriya, qiroatxona, taraqqiyuni islom, taovun\* jamiyatlari va bularg'a o'xshash asoslarg'a taalluq nizomnomalar tuzatib, xalq arosinda nashr etib, bu kun adadi yuzlar ila Rusiyada mavjud ilmiy va madaniy jamiyatlarni barpo etdurgandurlar. Al-on Rusiyadagi minglar ila nizomlik maktablar va sobiq nashr bo'lgan va hozir fa'lan nashr bo'lub turgan yuzlar ila islomiy majalla va jaridalarning barcha muharrir va mudirlari ul zoti studa\* sifotni shogirdidurlar. Shundayki, bu kunda Rusiya musulmonlari chinda har bir jaridaxon va har bir muallim va har usuli savtiya maktablarning shogirdi va har bir jarida muharriri marhumning bilvositasi shogirdonidandurlar. Ya'ni ustoz muazzamning bukun Rusiya musulmonlari arosinda milyo'nlar ila ulamodan muharririn va muallimindan va o'quvchilardan shogirdi bordur. Ham qanday shogird! O'ttuz sanadan beri doimo onga dars o'qiydurgon shogirdlardur. Yana bu shogirdlar o'z oxir umrlarincha ustodning anfosi qudsiyasi\* sababi ila ilalabad joriy afkori oliyasidan dars va fayz olmoqda bo'lurlar. Xulosa, Ismoilbek hazratlari suls\* asrdan ziyoda ayyom tadrisinga

milyo'nlar ila musulmonlarga doimo dars berdi. Endi ilalabad aning afkori va ruhi adadsiz va nihoyasiz musulmonlarga darsi urfon berar... Xulosa, Rusiya musulmonlari ichinda munday bir zot kelgan yo'qdur. Ana ushbu zoti noyob ushbu sana beshinchi zulqa'da — 12-sentabrda bu olami foniydin rixlat etib, butun dunyo musulmon urafolarini\* asiri yos\* va alam etdi. Rahmatullohi alayhi rahmatan va as'atan.

«Oyna» j., 1914-yil, 50-son, 1186–1188-betlar

## TIL MASALASI

Turkchanning shu'ba va shox(a)lari bo'lgan o'zbek-chig'atoy, totor, ozarboyjon, qozoq va turkman lahjalaridagi yangi matbuotning eng ahamiyatlik masalalaridan biri, albatta, sheva, lahja, imlo masalalaridir. Yuqoridagi lahjalarga so'ylayturgon turk bolalari bir-ikki ming sanadan beri Eron xalqining alarga va yo alarni eroniyarga istilo etganlari sababidan fors madaniyati va adabiyoti va lug'atlari nufuziga mahkum bo'lub, fors tilidan bir xeyli lug'at va jummalarni xoh-u noxoh abadiy va doimiy suratda olganlarki, u jumla va lug'atlardan bir qismini turkiy lahjalardan chiqorib tashlamoq go'yo mumkin emasdur. Va bir qismi murodifi\* turkchadan topilmaslik darajada go'yib bo'lgandur. Balki... biz turkchaga bugun iste'mol qilinaturgon ba'zi forsiy so'zlarimizni muqobil va murodofi xalq tilidan va adabiyotidan yo'qolgandur. Masalan, shanba, yakshanba, dushanba, seshanba, chahorshanba, panjshanba, odina\* kunlarining oti kabi... Hol shunday ekan, yana yuqoridagi turkiy lahjalarning xalqi o'n ikki asrdan beri din manbaimiz va Qur'oni karim tili bo'lgan arabiyning nufuziga\* uchrab, tabarrukan va majburan ko'p lug'at va jummalarni yanadan oldilar. Va ba'zi ifrotparastlar\* tarafidan yangidan bukung'acha yana olinmoqdadir.

Turklarning ba'zi toifasi forsiy va arabiyini u qadar ko'p oldilarki, tillari turkiy, forsiy va arabiydan qo'shulub, «usmonli tili» ataldi. Ushbu uch tilni adabiyot va qoidalaridan boxabar bo'lmaguncha usmonli shevasinda yozmoq mumkin emasdur. Usmonli shevasiga yozaturgonlar-da oxirgi sanalarda o'z sahvlarini bilib, forsiy va arabiyini ozroq aytib yozmoqdadurlar. Azbaski, usmonli shevasinda yozilgan asarlarning aksarini usmonli turklarning kamsavodi ang-



lamaydur. Turk qavmining Kafkoz, Eron va Qirimdagi qismlarining tilig‘a arabiy va forsiy jumlar usmonlichadan ko‘ra xeyli oz bo‘lub, ammo turkiy tillarning boshqa shevalaridan ko‘ra usmonlichag‘a eng yaqinidir. Chunonchi, bukungi Kafkoz va Qirim matbuotining o‘qub anglaydurgon kishi usmonlichani, albatta o‘qub fahmlaydur. Chunki orasindagi farq juda ozdur. Xususan, oxirgi sanalarda arabiy va forsiylarini ozayturub yozilgan usmonlicha va yoinki turkcha Qirim va Kafkoz shevasidan oz farqlikdir.

Totorcha yoinki no‘g‘oycha atalaturgon shevag‘a kelsak, Qirim va Kafkoz shevasidan ko‘ra oz arabiy va forsiylik bo‘lub, bovujud shul bu kungi totor matbuotining hech bir stuni, balki hech bir satri xati forscha va yo arabchadan qutulolmaydur. Hatto, sirfi\* totorcha yozmoq tarafdori bo‘lgan matbuot va muharrirlari-da, arabiy va forsiysiz bir nimarsa yozolmaydurlar.

Kelayluk Turkiston va yoinki Osiyoi Vasati\* xalqlarining til va shevalarig‘a: Turkistonning o‘zig‘a teyishli shevasi turk tilining chig‘atoy lahjasi bo‘lub, «Navoiy» kitobi bu lahjaning go‘yo muhim kitobidir. Ammo ko‘pdan beri Turkistonda madaniyat va saltanat va adabiyot tadanniy\* etgani uchun xalq bu lahjani buzganlar. Buzmoq nari tursun, Turkistonning har bir shaharining va hatto, ba‘zi bir qasaba va ko‘ylarining shevasi boshqadur. Masalan: anda, munda, shundani — ul yerda, bul yerda, shul yerda; o‘tda, bo‘tda, sho‘tda; etta, betta, shetta; o‘rda, bo‘rda, sho‘rda; o‘ra, bo‘ra, sho‘ra kayfiyatida so‘ylaydurgan shaharlar bo‘lub, munday buzuq so‘zlarni nav‘i va adadi juda ko‘pdur. Turkiston turkchasig‘a forsiy va arabiy qo‘shulgani ham barcha yerda bir holda bo‘lmay, balki mavqe‘i jug‘rofiyasig‘a qarab har navdur. Chunonchi, Buxoro amorati va Samarqand viloyatining turkcha tilig‘a forsiy va arabiy ko‘b qo‘shulgandur...

Farg‘onaning Xo‘qand va boshqa shaharlarida ham forsiy rivojda bo‘lub, ulamo va mashoyixni forsiyg‘a mayli ko‘pdur. Tabiiydurki, forsiy ko‘b yoyilgan yerlarda arabiy hukmi ziyodadur. Forschani hukmi Toshkand shahri va Sirdaryo muzofotig‘a ozayib, forsiy bilaturgan kishi, ehtimol, mingda bir ham topilmasa. Farg‘ona viloyatining Xo‘qand va boshqa shaharlarida bukun fors tilinda yerli shoirlar-da mavjuddur.

Xo‘qand xoni Umarxon janoblarining «Devoni Umarxon»ig‘a forsiy abyotlar inshod qilingonig‘a qaraganda qadimdan beri Farg‘onada forsiy tilni joriyligi ma‘lum bo‘lur.

Turkiston sharqida forsiyning hukmi ozayib, bovujud shul ulamo orasinda oz bo‘lsa-da, so‘ylanur. Turkiston janubi va Turkistoni Afg‘oniyga bo‘lsa, turkiy va forsiy tili go‘yo barobardur. Turkistonning Movarounnahr, Xazar qismig‘a aksariyat ila turkman shevasi hukmfarmo bo‘lsa ham, Eron va Afg‘oniston va Buxoroning hamsoyaligi sababidan yana forsiyning nufuzidan qutulub bo‘lmaydur. Xivag‘a kelgancha, muning tili yana usmonlichag‘a yaqin bo‘lub, faqat arabiy va forsiy qo‘shimchalari ozdur. Xulosa shulki, nafsi\* Turkiston, Buxoro, Xiva, Turkiston Afg‘oni va Koshg‘ar o‘lkalarindagi turkcha shevasi doxilan o‘n qadar buzuq va tuzuk lahjag‘a ayrilib, ammo bu lahja ila so‘ylayturgonlarning har biri boshqasini so‘zig‘a tushunadurlar. Kitobatg‘a kelsak, bukung‘acha Turkiston, Buxoro va Xivada har kim o‘z lahjasig‘a muvofiq yozsa ham, bir-birig‘a qaribdur\*. Chunki kotiblarni muallimlari mavjud turkcha va forsha nazm va nasr kitoblar bo‘lub, Bahri Xazardan to Koshg‘ar va Turkiston Afg‘onig‘acha qadim maktablarda «Navoyi», «Fuzuliy», «Sabotul ojizin», «Hikmat», «Huvaydo» va boshqalari, forsiydan «Chahor kitob», «Xoja Hofiz», «Bedil», «Sa‘diy» va boshqalari o‘qulurki, bu kitoblar ahli savodni til birligig‘a sabab bo‘lur. Ammo avomlarni so‘zi taxti tahrirg‘a kirmaydir.

\* \* \*

Avvalgi maqolada turkcha tilning ahamiyatlik sho‘balarini qisqalik bilan yozib edim. Endi tilni butun soddalashturub indurmoq va yoinki adabiylashturub taraqqiy qildurmoqdan betarofona yozarman.

Matbuot maydonig‘a bizdan muqaddam otilgan va do‘stlar ila jarida va majallalarg‘a sohib bo‘lgan ichkari Rusiya va Kafkoz musulmonlarini matbuot tili va ham ko‘cha tilig‘a diqqatlik kishig‘a ma‘lumdurki, matbuotlari ko‘cha tilidan necha daraja oliydur. Va kundan kun yana oliylashmoqdadir. O‘ram\* tili tarafdori yoinki sodda til tarafdori bo‘lgan ba‘zi totor matbuoti yildan yilg‘a adabiyg‘a aylanmoqdadir. Masalan, «Vaqt»,

«Sho‘ro», «Yulduz» jaridalarining avvalgilari ila hozirgisini taftish qilinsa, hozirgilarini adabiyiligi zohir bo‘lur. Kafkoz matbuoti avvaldan adabiy bo‘lub, o‘n sanalardan beri matbuot, kog‘az ustindagi adabiy tilni, xalqni til va so‘zig‘a ta‘sir etib o‘tkardiki, bul o‘shal viloyatlarda diqqat etganlarga ma‘lum bo‘lur. Hech bir firqa va yo lahjaning avom tili matbuotg‘a kirmaydur. Kirsada, maktab risolalarig‘a va fanniy kitoblarga kirmaydur. Azbaski, fanniy, adab, ta‘lim, tarbiya va diniy kitoblarni sirf\* avom tilig‘a yozmoq mumkin emasdur. Hatto, bu zamonda fan va hunar taraqqiy etgani uchun va yangi chiqqon begona lug‘atdagi ismlik nimarsalarga turkiy ism taqadurgon jamiyatlar barpo etib, turkiy tilimizg‘a xizmat etaturgon kishilarni bizg‘a yo‘qligi uchun begona tildagi ismlar ila ko‘p nimarsalarni yozmoqg‘a majbur bo‘larmiz. Hatto, mundan taraqqiy etgan millatlar-da qutulgan yo‘q. Masalan, arabiy ilm «Aljabr»ni bukun taraqqiy etgan millatlarda «Aljabr» va alarda «j» yo‘qligi(dan) «Algebra» derlar.

Bu til masalasi Rusiya musulmonlari matbuotig‘a bir xeyli bahs bo‘lub, faalan va amalan avom tili va yoinki sodda til tarafdorlarini mag‘lubiyati ila natijalanmoqdur. Bizning Turkiston matbuoti-da, tabiiy, bu masalani boshidan o‘tkarur. Shuning natijasi va navbati bo‘lub mo‘tabar «Sadoyi Turkiston» rafiqimizda til masalasi maqolalari yozilmoqdadur. Ba‘zi afandilar mehmonni «qo‘noq» deyilsun, deb taklif etarlar. Holbuki, qo‘noq deganda, bir turk fahmlaydur. Mehmon deganda, turk fahmlagani ustida, yana bir forsiy musulmon qarindoshimiz-da anglaydur. «Tilimizdan forsiy va arabiyini quvayluk», bu ko‘p yengil orzu, ammo ijrosi mumkin emas orzulardandur. Masalan, muning tarafdori bo‘lgan mo‘tabar «Sadoyi Turkiston»ni «Turk eli dovushi» lozim bo‘lur. Turkistonni «Turk eli» yoxud «Turk yeri» yozmoq kerak bo‘lur.

Toshkand, Xo‘qand va boshqa minglar ila jug‘rofiyoviy ismlarni rajoli tarixiya\* va yoinki tarixiy voqealarni mahalliy va mashhur odamlari va oy ham yili, kuni va ...larig‘acha tag‘yir\* berib, turkiy ismlar toqib, alarg‘a, yangi lug‘atlar tayyorlab, yangidan tadvin\* etmoq lozim kelur. Va o‘shal holdagina turk tilini arabiy va forsiy lug‘atlardan ajratib

bo' lurki, munga hama ishni qo'yub, hamma birdan harakat etsa, ehtimolki, bir necha yuz sanalarda xayolan zo'rg'a voqe' bo'lsa. Holbuki, bul ijrosi mumkin emas quruq xayoli fosidginadur\*.

Bir necha ming sanadan beri forsiy va arab tili va madaniyati va saltanati ta'siri ostida qolgan turkiyni yana bir necha ming sanada bularni ta'siridan chiqarmoq nari tursin, balki ma'nana va moddatan va fannan mahkum millatlarni tili bo'lgan tilimizg'a yana taraqqiy etgan millatlarni lug'atlari hujum etar.

Turkiston xalqining maktab va madrasasindagi kitoblarg'a, jarida va majallasindagi maqolalarg'a sirfi forsiy va arabiy qo'ymas tarafdori kishilarni o'ylovlarig'a, to'g'risi, shosharmiz.

Masalan, maktab, madrasa, jarida, majalla, kitob — hammasi arabniki. Ismimizni o'ndan to'qquzi arabiy. Endi, bu nihoyasiz nimarsalarni hammasig'a turkiydan ism oxtaribmi dunyodan o'tarmiz?

Muhtaram A. Muzaffar afandi 63-raqam «Sadoyi Turkiston»da handasadagi arabiy istiloh va ismlarg'a turkiy muqobillar ko'rsaturlar. Anga qaraganda, handasani o'ziga «andoza» forsiyning muarrabi va yoinki buzulg'onidur. Anga ham turkcha va barcha ulum va funun va Qur'ong'a ham turkcha ism qo'ymoq lozim kelur. Holbuki, ba'zi bir nimarsalarni ismi, lug'atan musammasining\* ma'nosig'a dalolat qilmay, ammo istilohan, ta'liman va tarixan va yoinki zamonan anga ism va alam\* bo'lub qolgandur. Chunonchi, «vohid qiyosi» ma'noyi fanniysini «solishtirish o'lchovi» ado etmaydur. Bo'lsa-bo'lmasa, bu bir istiloh bo'lub, «solishtirish o'lchovi», ya'ni vohid qiyosi deyilmaguncha fahmlanilmas. Avom uchun bu so'zlar yozilaturgon bo'lsa, ul ikkisini-da fahmlamaydur. Agarda maktab talabalari uchun bo'lsa, Turkistonda yo'q turkiy handasa kitobimizdan muqaddam, bir-da loyatinoho\* yangi istilohi turkiya lug'ati chiqarmoq lozim kelur.

Fikrimcha, bu o'lchovlar fazladur\*. To'g'ridan to'g'ri demoq kerakki, baqadri imkon arabiy oz yozulsun. Arabiy ismlik nimarsalar jamlanganda, turkcha jamlansun. Masalan, ulum, funun, ulamo, quzzot va ...demoq yerinda fanlar, ilmlar, olimlar, qozilar va... lar yozingiz. Yoinki mo'tabar «Sadoyi Turkiston»ning 64-raqamindagi «Til masalasi»da

«Kurrai arzda yashamakda bo'lgan har millatni o'ziga maxsus bir lisoni milliysi vordur» jumllarni biroz turkcha yozmoq kerakligig'a mashvarat bermoq lozim. Ammo butun fanniy va ilmiy va diniy istiloh va iboratlarg'a muqobil turkchadan ism ta'yin qilmoq fikrig'a cho'mmoq o'zni charchatib va matbuotni zo'ye' qilmoqdan boshqa nimarsa emasdur.

«Til masalasi» muharrirlaridan biri der: «Tillar zamon ila isloh bo'lur, birdan isloh etilmaslar». Sodda til nima uchun kerak? Atrofindagi qavm-u qarindoshi ilan so'ylashmoq uchun. Adabiy va ilmiy til nimag'a kerak? Mavjud ilm-u fan va tarixni bilmoq va alardan foydalanmoq uchun. Endi bizg'a lozimki, atrof, ya'ni tevaragimizni adabiyilashtursak, munavvarlashtursak, ya'ni ilm-u fan ila yorutsak. Ilm-u fan bo'lsa, bizni tilg'a tobe' bo'lmay, balki bizni o'zig'a jabran tobe' etar. Endi bu sodda tilni bizni har qishloq va mahallada bir-biridan farqi bordur. Ammo ilmiy va adabiy tilni har bir qishloq va ko'ydagi onalarni tilinda bo'lmoqligi va alardan boshlanmog'i mumkin emasdur. Ore, anglis va fransuz onalari va o'qug'on rus va usmonli onalarini(ng) tili matbuot va maktabdagi adabiy va ilmiy tilni ayni va xud o'zidur. Ammo alar bir necha yuz sanadan beri, qorindan qoring'acha o'qub kelgan onalardur. Bizni mazlum onalarimiz batanan ba'd batan<sup>1</sup> o'qumay kelganlar. Endi u mazlumlarg'a handasaning turkcha istilohlarini yutdurgon ila ona tili bo'lub turub, avvalan ul onani o'zig'a anglashilmaydur. Modomiki, bizg'a ilm-u fan kerak va modom(iki), turk tilining ba'zi sho'ba va lahjalarig'a zamoniyy, fanniy, diniy, tarixiy har nav' kitoblar bordur. Ani o'qub fahmlamoqig'a g'ayrat etishimiz lozimdur. Masalan, Kafkoz va Qirim lahjasini bilaturgonlar bu kungi dunyomizda mavjud aksar, balki hama ilm-u fanlarni turkcha tilda bilurlar. Dunyomizni ilm-u fanidan xabardor bo'lmoq uchun rus, nemis, fransaviy, anglis, itoliyoli, arabiy, jopuniy tillaridan birini bilmoq kerak va alarni bilmaganda Kafkoz va yo Qirim lahjai adabiyasini bilgan kishini dunyodan xabarlik bo'lushig'a vosita bo'lur. Ammo qadim chig'atoycha, mo'g'ulcha, o'rxo'ng'cha va sahroyi tillarni tirguzgon ila na foyda? Va u tillarga qayu ilm-u fanlar bor? Hozirgi so'zimizg'a qo'shulgon forsiy va arabiy so'zlar bizni arab-u forsg'a bir daraja yaqin etar. Ilm-u

---

<sup>1</sup> Batanan ba'd batan — avloddan avlodga.

fan kitoblarig‘a yaqinlashmoqimizg‘a vosita bo‘lur. Ba‘zi birodarlarimizni sof ona tili bor. Ammo ona tilida maktab, madrasa, fanniy va ilmiy kitoblar ta‘sis etolmaydurlar. Chunki so‘z yetishmaydur. Agarda alar taraqqiy etsa va madaniy bo‘lsa, hukman hozirgi tilni o‘zgartirib bo‘lur. Hamda ming yil avvalgi tilg‘a qaytmoq qonuni tabiatg‘a muxolifdur. Chunki moziyg‘a ruju’ mumkin yo‘q. Begona tildan so‘z olmoqdan qutulgan til yo‘qdur. Anglischani arabchadan so‘ngra eng boy til derlar. Maa fihi\*, o‘n minglar ila begona lug‘atlarni majburan olganligini yozarlar. Xulosa fikrimiz shuki, yalg‘uz turkcha so‘ylamak va yozmoq abadan mumkin yo‘q. Baqadri imkon arabiy va forsiyni oz yozayluq. Barcha ilm-u fan istiloh va lug‘atlarig‘a turkchadan muqobil oxtarib vaqtzni zoye etmayluk. Taraqqiy etgan turkiy shevadagi ilmiy va fanniy kitoblarni anglamoqg‘a sa‘y va g‘ayrat etayluk. Kelar zamon uchun hozirlanayluk, o‘tgan zamon uchun emas. «Ona tili, ona tili», bu yaxshi orzu. Ammo tilsiz onalar tilig‘a maktabiy kitoblar yozila bersa, Turkistonda adadsiz buzuq ona tillar shevasig‘a adadsiz kitoblar yozmoq lozim kelurki, Andijonda yozilgani Buxoroda, Avliyootada yozilgani Qarshida anglashilmaydur. Chunki bu onalarni tili bir-biridan farqlikdir. Taraqqiy etgan millatlar onalari o‘qutar ekan, biz avval onamizni o‘qutub, anga til o‘rgatmoqimiz kerak. Chunki bizni ilm va tilsizligimiz alardandur. Binobarin, baqadri imkon oz arabiy va forsiy, oddiy, turkiy lug‘at ila hozirgi shevalarcha yoza bermoqdan boshqa iloj yo‘qdur.

«Oyna» j., 1915-yil, 11–12-sonlar,  
274–277, 306–311-betlar

## BIZNI KEMIRGUVCHI ILLATLAR

Bizni kemirguvchi illatlar deganda, zaxm-u maraznimi gumon etarsiz? Yoinki, sil, sil ar-riya\* va maxavliknimi dersiz? Yo‘q, andan ham yamonroq va andan ham jonxarosh\*, bevoya, xonavayron va g‘arib etguvchi bir dard, biz — turkistoniyarlarni shahri va qishloqi yoyinki yarim madaniy, yarim vahshiy sinflarimizg‘acha istilo etib, butun tirikligimizg‘a sorilgon va bizni inqiroz g‘a va tahlitag‘a va jahannamg‘a

yumalataturgon to'y, azo ismindagi ikki qattol dushmanni derman.

Atomizdan mehribon Tangrimiz jalla va a'lo Qur'oni karimda «Lo talaqqu bi yadikum ala tahlikkatih», ya'ni o'z qo'llaringiz ila o'zingizni tahlikaga otmangiz, der. Biz bo'lsa, badbaxtona va Xudoning amrig'a bo'yun qo'ymasdan kofirona bir suratda to'y va azo degan, yo'q bo'lusimizg'a sabab bo'lgan odatlarga bor-u yo'qimizni sarf va isrof etarmiz. Yilda ikki oy navro'zi kofiri uchun sayr etarmiz. Bir oy muqaddam Samarqandni Panjakent qasabasidagi navro'z sayrig'a mushak-fishang otishdan uchgina kishi o'lub, o'ndan ziyoda kishi majruh bo'ldi. Ko'pkari va uloq chopmoqlik odati mal'unonasig'a har viloyatdan har sana yuzlar ila kishi oxiratg'a ko'char, na qadar kishi majruh va ma'yub bo'lar. Ko'p kishilar sayr va ko'pkari shumligi ila ishdan va ziroat vaqtdan qolur. Uyig'a ozuqasi yo'q, ho'kuzi va sog'ar siyiri yo'q ekan, bir necha yuz so'mg'a ot olib va har kuni anga hindidek parastish\* etib, har kun bir so'm sarf etar, na uchun? To'y va sayrg'a ko'pkari chopmoq uchun. O'n-yigirma chaqirimg'a to'y bo'ldimi, har kim ishini, dehqonchiligini qo'yub, otlanib ko'pkariga ketar. Dehqon uchun oltundan aziz vaqt favt bo'ldi-ketdi. Ekin birgina kun keyin sepilgan uchun pishmay qolar. Birgina kun so'ngra yig'ilgan uchun yog'inga qolib, ba'zi xirmanlar chirib ketar.

Ma'lum bir shaharda yahudiylar ba'zan o'luklarini oqshom eltib ko'marlar. Na uchun? Kunduzi ishdan qolarlar. Biz bo'lsa, o'luk va to'y uchun haftalar, hatto, oylar ila ishdan qolurmiz. Holbuki, shore'i a'zam, payg'ambari akram sallolohi alayhi vasallam hazratlari o'lganni tez ko'mub va ko'mgandan so'ngra tez tarqalib, ishg'a ketmoqg'a va o'lukxona xalqini uch kundan ziyoda ta'ziya tutmasg'a, qaro kiymasg'a, kir, falokat bo'lmasg'a amr etarlar. Ey xalq! Ey musulmonlar! Biz na uchun Xudo va rasulni so'zig'a va o'zimizni naf'imizg'a amal qilmaymiz? Biz devonami? Biz taklifdan<sup>1</sup> tashqarimi, Xudo uchun so'ylangiz. Biz nima?!

Shariat kitoblaridan «Faroiz, ya'ni Xudoni buyrug'i degan kitoblarg'a: «O'lukni molidan avvalan o'lukg'a kerakli muvofiq sunnat va isrofsiz kafan qilib, dafn qilmoqg'a sarf qilinsun, so'ngra qarzini berilur. So'ngra ortgan mollarni varasasig'a\*

<sup>1</sup> Taklif – bu yerda, insoniy burch, vazifa ma'nosida.

muvofigi shariat taqsim qilinib berilur», — deyilgan ekan, biz bil'aks kafandan so'ngra qarzg'a bermay va hatto, sag'ir va benavo xotunlarni merosini yirtish, azoyi, sadaqa, xayrot, bilmayman, nimalar ujrasi\* deb, qarzdan vorisidan ilgari taqsim qilib olarmiz. Besh-olti ma'raka va xudoyi, 8—10 jum'a oqshomi deb butun mahalla va qishloq xalqig'a palov berarmiz. Ba'zi bir bechora sag'ir va mushtipar ayollar merosdan va haqlaridan noqis olurlar. Ba'zi qarzxohlarni haqqi xudoyi va xayrot, noxudoyi\* va sharrot\* sababi ila kuyub ketar. Bechora o'lukni zimmasi qarzdan qutulolmay qolur. Xudo uchun aytingiz, bu xayrotmi, bu xudoyimi? Besh-olti kun so'ngra bu xudoyi va xayrotlar uchun varasani haqqi bo'lgan mol va yerlar sotulur. Berilgan dangga\* adras\*, azoyi va g'anilarni olgan yirtish va sadaqalari uchun berilur. Endi bechora varisa darbadar, ham otadan, ham vatandan ayrildi-ketdi. Bir o'rtahol, bir bechora faqir o'lar. Oning g'ani yaqini o'lukni egasi bo'lub, varisa molini «obro'y» etarman, deb isrof va barbod etar. Natijada bechora varisa\* darbadar. Ey, uying obod, obro'y qilg'uvchi! O'lgan ul, sanga nima? San, g'ani, o'z o'lukingg'a obro' qilgoning bas emasmi?

Astag'furillo, subhonollo. Bizni qilaturgon aqlsizligimizni qaysi millat qilur? Nikoh, xatna, bu ikki balo shundog' qattiq bir illatki, o'lmaguncha qutulib bo'lmaydur. Shaharlarda o'rtahol, ya'ni o'turarg'a xona va bog'i bor bir kishi nikoh uchun ikki ming so'm sarf etar va o'g'ul xatnasi uchun hech bo'lmaganda ming so'm. Har bir benavo kishi bu mavridlarga 200 so'mdan 10000 so'mgacha sarf etar. Boy va zo'raki boylar esa besh ming, o'n minglab sarf etar. Oxiri nima bo'lur? Nima bo'lur deysiz? Ota-bobosidan qolgan mulk va vatanini o'z ixtiyori ilan zo'raki boyni o'zi o'lgandan so'ngra bir yahudiy yo bir armani ajnabiyg'a sotib to'y va ta'ziya qarzini berar. O'zi sotmaganda sudg'a sotilur. Mana, yuqoridagi sarlavhada «Bizni kemirguvchi illatlar» degan odatlarimiz, shu to'y va ta'ziya ismindagi devonaligimizdan iboratdur.

Bir do'konchi, bir gulkor. Bir faqirhol, bir kosib uchun bu to'y va ta'ziyalar o'lumdan qatig'durki, muning uchun bechora har kun o'lur. Har kun o'lgon ila-da qutulmas. O'zidan so'ngra ahl-u ayolig'a bu yo'qsullik va bu musibatni meros qo'yar. Xo'b, yaxshi, o'z molini to'y va ta'ziyag'a isrof etsun, barbod etsun, ko'zi chiqsun. Hay, boshqa oqchasini, birov pulini na uchun barbod etar. Bu devonalikni u tarafi emasmi? Bu hol ila



20–30 sana o'tsa, yer va havlilar ajnabiylarg'a o'tub, aksar xalqimiz gadoylik darajasig'a inur. Ellik sana muqaddam yer sotilsa, bir musulmon olardi, endi boshqalar olur. Mana, endi biz shu hol ilan yana yigirma-o'ttuz yil o'tkarsak, xalqimizni yarmidan ziyodasi vatansiz, yersiz, darbadar bo'laturgoni ma'lum va oshkordur. Bir havlida, bir ro'zg'orda, masalan, ikki o'g'ul, ikki qiz bor. Ato o'lsa, ani moli to'rt bo'lunur. Alarni har birig'a nikoh va xatna va o'lum mavridlari muqarrardur. O'zlarini zamoncha ilmi va hunari yo'qki, konturg'a, mahkamag'a, bonkag'a kirib vazifa olsa. Endi loiloj attorlik va yo baqqollik va u bo'lmasa, muzdurlik\* va mardikorlik qilishi lozim kelib, bu ishlardan faqat alarni qorni to'yadur. Ortdurmoqqa yo'q. Muning ustig'a to'y va ta'ziya degan dahshatlik balolar kelgandan so'ngra bu aziz oila va ro'zg'org'a yonib kul bo'lmoqdan boshqa iloj yo'qdur. Ellik sana muqaddam bir qarish yer bir pul ekan, endi bir oltun va kelarg'a yer oltung'a ham topilmaydur. Qirim va Kafkoz musulmonlari-da bizlardek yer qadrini bilmaslar ekan. Endi Qirimda bir tanob (600 sajin) yer o'n ming so'mdan o'ttuz ming so'mg'achadur.

Biz bir tanob yerimizni 200 so'm sotib to'y qilmoqchi bo'lsak, «yerni xo'b pulg'a urdum» deb majnunona shodlanurmiz. Insonni bu qadar ahmoqligi ajibdur. Bizg'a lozimki, to'y va ta'ziyalarni kichik qilib va holimizcha harakatda bo'lub, kelar zamonamizni o'ylayluk. Valloh, xor-u zor munqariz\* bo'lmoq ertag'a oftobni chiqishidek muqarrardur.

Samarqandda bir mahalla borki, aksar xalqi faqr-u zaruratdan, to'g'risi, aql noqisligidan havlilarini pulg'a qiziqib yahudiylarg'a sotgan uchun mahallag'a oz musulmon qoldi. Mahalla, maktabi yo'q bo'ldi. Masjidi-da yaqinda yo'qolur. Mana, bizni aqlsizligimizni oxiri va isroflarimizni xotimasi dinimizg'a futur kelmoqig'a sabab bo'lur. Din uchun, masjid va maktab uchun aqcha, sarvat, davlat, somon\* kerakdur. To'y va ta'ziyag'a sarf qilinaturgon oqchalarimizni biz, turoniylar, ilm va din yo'lig'a sarf etsak, anqarib\* ovrupoyilardek taraqqiy etarmiz va o'zimiz-da, dinimiz-da obro'y va rivoj topar. Yo'q, hozirgi holimizg'a davom etsak, din va dunyog'a zillat\* va miskinatdan boshqa nasibamiz bo'lmaydur.

Qo e'tabaru yo avval ul-absar!'

*«Oyna» j., 1915-yil, 13-son, 338–342-betlar*

<sup>1</sup> Tarjimasi: Ey ko'zi ochilganlar, (atrofga) e'tibor qiling.

## «SART» SO‘ZI MAJHULDUR

Ul zoti anvar amiri Buxoro hazratlarining huzuri humoyun ruscha tarjimoni muhtaram Bahrombek qorovulbegi janoblari: «Biz Turkiston va Buxoro xalqining turkligi ma'lum bo'lib turub... na uchun sart ataydurlar?» — deb mo'tabar «Sho'ro» majallasining 1911-yil 16-adadinda savol etib edilar. Mazkur majallaning 19-adadinda «Oyna» muharriri tarafidan «Sart so'zi majhuldur» unvoni ila ba'zi nimarsalar yozilib edi.

«Sho'ro»ning 24-adadinda samarqandiy marhum Baqoxo'ja tarafidan «Sart lafzi aslsizdur» unvoni ila ba'zi nimarsalar yozilib edi. Mo'tabar «Tarjumon» muharriri muhtaram Ismoilbek janoblari «Tarjumon»da «sart» atamoqni durust emasligi to'g'risinda bir necha daf'a yozib edilar. Sart haqidagi turkiy maqolalarning natijasini mo'tabar ustod Ismoilbek janoblari tafsili ilan Toshkanda chiqaturgon «Turkestanskiy kuryer» ruscha jaridasinda ham yozib nashr qildurub edilar. «Oyna»ning (?) raqaminda<sup>1</sup> yana ushbu to'g'ridan janob Bahrombek qorovulbegi so'z qo'zg'otib edilar. Totor muarrix muhtaram Ahmad Zaki Validiy janoblarining Samarqandda kelganlarinda sart so'zi haqinda ba'zi mukolimalar\* ham bo'lib edi. Turkiston yoshlaridan ushbu to'g'rida bir necha e'tiroz — «pro'test» nomalar ham kelib, u jumladan Toshkandnikini «Oyna»da yozildi. Yana ushbu to'g'ridan idorada savollar kelgan sababli «Sart masalasi» haqinda qisqalik ila minba'd yozilaturgon nimarsalar xulosa qilindi. Va ushbu to'g'ridan asoslik nimarsalar yozaturgon azizlar uchun «Oyna» sahifalari ochuqdur.

Endi matlabg'a kelayluk. «Oyna» muharriri tarafidan 19-adad «Sho'ro»da yozilg'on so'zlarni mazmuni shul edi: fikri ojizicha, turkistoniylarning sart atalishini sababi ma'lum yo'qdur. Bu ism shimol xalqi, ya'ni qazoq va totor qardoshlarimiz tarafidan Turkistonning shahar xalqig'a berilgan ismdur. Ushbu bobdagi mulohazalar shul tariqa xulosa bo'lunur.

1) qazoq va totorlar Turkiston xalqining xoh turk va tojik yo arab bo'lsun, sart derlar;

2) (o'qib bo'lmadi);

3) Turkiston janubidagi Balx, Badaxshon va Chahorvi-

<sup>1</sup> Manbada raqam tushib qolgan.

loyat xalqiki, aksaran turkcha so‘ylashurlar va o‘zlari Afg‘oniston tab‘asidurlar, turkistoniylarni o‘zbek der, Afg‘onistonning afg‘on, tojik, o‘zbekcha so‘ylaydurgon barcha xalqi turkistoniylarning o‘zbek va turk der... Sart degan so‘zni abadan bilmaydurlar;

4) Kafkoz, Eron va Hindiston xalqi sart kalimasini bilmaydurlar, faqat turkistoniylar, turk yo tojik derlar;

5) turkistoniylar bir-biri ila so‘rashganda: «O‘zbekmisan, tojik?», «Mullomisan, xoja?» – deb so‘raydurlar. Turkistonda sayyidlarni «xoja» derlar. Xojasiz arablar-da bordur;

6) Turkistonda mashhur 92 qabila – urug‘ning ismi mashhur bo‘lub, oning ichinda «sart» yo‘qdur.

Xonlar zamonida julus hangomida bu 92 qabiladan muraxxas\* va oqsoqollar Samarqandda jamlanib yangi amir(ng) «xon» ko‘tarib «julus» marosimini ijro etardilar. Samarqand Taxti Temuriysinda julus etgan Buxoro xonlarining eng oxirgisi amiri hozirning jaddi\* Muzaffarxondur. Samarqand Buxoro hukumatining Maskovi erdi.

Amir Muzaffar marhumning ta‘rixi julusi:

Bahri ta‘rixi julusash omad.

Shanbau moh rabbius-soniy. (1277-hijriya)

Turkcha ta‘rix she‘riyasi:

Shoh mulku iqbol ila

O‘lturdi Ko‘ktosh ustina.

Ko‘ktosh amir jahongir Temur Sohibqirondan qolma tosh – bir taxtdurki, Turkistondagi turk ellaridan 92 urug‘ning oqsoqol va bakovullari yig‘ilib, yangi xonni oq bir namad – kacha ustinda o‘tkuzub, 92 urug‘ muraxxas\*lari kachani birdan ko‘tarib, yangi xonni Ko‘ktosh taxtina mindurarlar edi. Va bu ondan e‘tiboran xon va amir e‘lon qilinib, naqora, karnay qoqilib cholinardi. Amir ushbu 92 ning oqsoqollarig‘a oltun va xil‘at, ot va tug‘lar berib, alardan bay‘at\* olardi. Va xon ko‘tarmoqdan avval 92 ning oqsoqollari ba‘zi bir so‘z-u odatlarni rioyati uchun amirdan va‘da va so‘z olar ekanlar. Bu 92 so‘zi al-on xalq og‘zinda mavjud va maqollar hukmindadur. «To‘qson ikkini ichinda... dedi», «Bu yer 92 ni yig‘ilgan yeri, so‘zingni bilib so‘yla», «San badzot, shajarang 92 g‘a yetmaydur».

7) «Temurnoma» va amsoliy kitoblarda sart ismi mavjud (va) urug'lar ichinda ko'ruilmaydur;

8) Turkiston shimolig'a oxirgi vaqtlarda sart so'zi eshitilib, ammo Turkiston janubi va g'arbida xalq og'zinda yo'qdurki, Turkiston shimolig'a bu so'zni joriy bo'lg'oni qazoq, totor va ruslar sababidandur. Masalan, Toshkanda «sart arbasi», «sart choyi», «sart odati»... deyilgan holda Samarqandda «musulmoni aroba», «musulmon shahri», «musulmon odati» derlar;

9) Buxoro o'lkasinda sart so'zi mutloq yo'q. Xalq o'zbek, tojik, qazoq, turkman, arab qabilalarig'a mansub kishilar bo'lub va shu ismlar ila atalurlar;

10) Turkistonning qayu bir cho'l va tog' yo ma'mur yerindagi 60–70–100 g'a kirgon kishidan «sart» so'zi so'ralsun, bilmaydur. Ammo olchin, barlos, tuyoqli, qipchoq, xitoy, turk, qavchin, saroy, mang'it, qoraqalpoq, ming, yuz, qirq, o'roqli, oytamg'ali, qo'shtamg'ali, nayman, qangli, mo'g'ul va bularg'a o'xshash asomai qabila, urug' ismlarining mashhuri va alarning tuganmas sho'ba va shoxalarini bayon qilgan holda bu «majhur sart»ni aslan tilg'a olmaydur. Qari kishilar: falona aslan o'zbek yo tojikdur, der. Aslo sart demas va sartni bilmas, sart degan qabiladan bexabardur;

11) sart so'zini hozirgi mafhumidan xabardor turkistonlilar gumon qiladurlarki, sart so'zi turkistoniy degan so'zni ruscha tarjimai bo'lsa;

12) matbuotdan boxabar Turkiston o'zbek va yo tojik va yo arabg'a «sart» deb xitob qilinsa, o'zlarig'a or his etarlar. Albatta, bir kishini ota-onasi bergan ismi bo'lub va oni mansub bo'lgon qabila va urug'i bo'lub turub, oni boshqa bir ism ila chaqirib va noma'lum va yo ma'lum bir qabila ismini onga taqilsa, oni xushlanmasg'a va e'tiroz qilmoqg'a haqi bo'lsa kerak;

13) Turkiston xalqidan o'zini bilaturgonlari qabila va urug'iga u qadar binosi borki, boshqa qabilag'a qiz bermayturg'onlari bordur. Qizni o'zi xohlab tekkan bo'lsa, qabila orasidan aqcha jamlab da'volashib chiqorib oladurlar. Qabilasining ismini va yetti otasining otini bilmayturgonlarni qul – marquq derlar.

«Sho'ro» majallasining 1911-sanadagi 24-adadinda samarqandiy marhum Baqoxoja janoblari «Sart lafzi aslsiz-

dur» unvoni ila ba'zi nimarsalar yozib ediki, andan minba'd\* yozilaturgon moddalarni xulosa qilarmiz:

1) o'tgan sanalarda sart so'zi haqinda ruslar orasig'a mubohasa bo'lub, «Turkestarski vedomosti» ruscha jaridasida har kim har nima yozib va har nav' faraziyotlar joriy qilinib edi. Qazoq birodarlarimizdan da'vo vakili janob Sherali Lapin<sup>1</sup> yozib ekanki, sart so'zi haqorat so'zlaridan bo'lub, «sarig' it»dan axuz\* muhaqqaqdur\*. Bu lafzni iste'mol qilmasg'a kerak. Hozir Turkistonda joriy turki — o'zbeki shevani «sartski» yoinki «sart tili» demasdan «o'zbeki til» deb atalsun;

2) Astro'mo'f<sup>2</sup> janoblari «Sartlar» isminda taxminan 300 sahifalik ruscha bir kitob tasnif qilgandurlar. Ushbu kitobg'a mazkur janob Sherali Lapin tarafidan bir necha e'tiroz va bahslar bo'lgandur. Ammo janob Astro'mo'f, sartlar kim ekanligini isbot qilib bir joyg'a qaror berganlari yo'q va kitoblari har naf' ixtilof va faraziyot ila to'ludur;

3) Astro'mo'f janoblarini «Sartlar» kitobidan va boshqa bir necha ruslarni yozgan kitobidan ma'lum bo'lurki, Farg'ona va Sirdaryo viloyatlarining xalqi «sart» bo'lub, Samarqand va Buxoro o'lka — viloyatlarining xalqi o'zbek va tojikdurlar;

(«Oyna»: Ammo tarix va adabiyotdan bexabar rus va totora rabta\* besh viloyat Turkistoni Rusiy va Buxoro xonligi xalqini(ng) ayirmasdan «sart» derlarki, bir mahzi\* asari g'aflar va butun g'alati fohishdur\*. Farg'ona va Sirdaryo xalqining sartligi ma'lum yo'qdur.)

4) Geyer<sup>3</sup> janoblari «Turkiston sayohatnomasi»da yoza-durki: «Sartlarni asl va nasablari masalasig'a hozirgacha ulamo tarafidan faysal\* berilgan yo'qdur. Alarni nasablarig'a teyishli har nav bayonotdan sihatg'a yaqini shulki, Turkistonning asl xalqi tojik bo'lub, so'ngra turk — o'zbek xalqi tasxir\* qilib olib va bu ikki xalqni birlashganidan paydo bo'lgan xalqlarni «sart» atalishi taxmin va gumon qilinur;

---

<sup>1</sup> Sherali Lapin — 1917-yildagi «Sho'royi ulamo»ning muassislaridan, so'ng muhojir. 1895-yilda ruscha «O'zbek tili grammatikasi», 1906-yilda «Samarqandda Shohizinda» kitoblarini chop ettirgan.

<sup>2</sup> Mashhur missioner N. P. Ostroumovning 1890—1895-yildagi bosilgan «Sarti» kitobi ko'zda tutilmoqda.

<sup>3</sup> I. I. Geyer — sayyoh.

5) Vamberi janoblari yozadurki: «Sartlarni Buxoro va Xo‘qanda tojik ataydurlar. Inchunin janob Lazar Budago‘f-ni<sup>1</sup> va Shayx Sulaymon Buxoriy<sup>2</sup> janoblarining lug‘atlaridan ma‘lum bo‘lurki, sartlar ahli fors va tojik eroniylardan iborat bo‘lsa, holbuki eroniylar fors va tojikdurlar;

6) Logofet<sup>3</sup> janoblarining «Buxoro xonlig‘i» nom ruscha kitobinda Turkistonda mavjud turk-o‘zbek qabilalarini te‘dod\* etibdurki, «sart» qabilasi yo‘qdur;

7) «Shayboniynoma» sohibi Muhammad Solih, Alisher Navoiy, Boburxon, Abulg‘ozixonlar turkdurlar, bularning ta‘lifotlarindagi\* sartlar kim bo‘lur, ajabo? Albatta, bular Turkistonning tamom o‘zbek va turk xalqini(ng) va o‘z jinsdoshlarini(ng) sart demaganlar. Bunlar eroniylarni va yo boshqa bir toifani (urush zamonidagi dushmanlarini) maqomi tahqir va ochiqda sart degan bo‘lsalar kerakki, «Shayboniynoma»dan shunday bilunur:

8) (o‘qib bo‘lmadi);

9) alhosil, ushbu kun Turkistoni Rusiyning besh viloyatini va Buxoro xonligining barcha turk va o‘zbek xalqini «sart» demak va yozmak insofsizlik, istibdodroy‘i\* boisi shubha va tafriqadur\*, buyuk xatodur, vassalom.

Marhum Baqoxojaning so‘zi munda tamom bo‘ldi.

Yuqoridagi yozilgan so‘zlarg‘a qaraganda, ma‘lum bo‘lurki, sart so‘zi haqiqatan noma‘lum va sart atalmish kishilar yoinki sartlar bukungi Turkistoni Rusiy yoinki Turon, Xorazm va Buxoroda abadan yo‘qdur, balki bir zamonlar bor emishlar-da, qavmi tab’ yoinki hun, hamiriy, osuriy, bobiliy... lardek dunyodan bilkulli safar etib, joylarida boshqalar kelubdurlar. Tarixg‘a qaralsa, bukun musamma<sup>3</sup> yo‘q ko‘b ismlarg‘a uchralurki, sart ismida Turkistonda «ismi bemusamma» hukmindadur. Sartlikni butun Turkistoni Rusiy va Buxoroning turk, tojik va arabdan iborat xalqig‘a toqaturg‘onlardan dalil so‘ralsa, aytaturgonlari albatta shundan iboratdurki:

1. «Shayboniynoma», «Boburnoma», Abulg‘ozixon kitoblarinda ba‘zi bir turkistoniylarni(ng) sart atalibdur.

2. Ovruponing ba‘zi sayyohlari yozibdurlarki, Turkis-

<sup>1</sup> L. Z. Budagov (1812–1878) – sharqshunos.

<sup>2</sup> Shayx Sulaymon Buxoriy (1821–1880) – lug‘atshunos.

<sup>3</sup> D. N. Logofet – sharqshunos.

tonda shahar xalqini yoinki fors xalqini yo tojirni noma'lum zamonda sart atardilar.

3. Nomuayyan bir zamonda Dashti Qipchoq yoinki Xitoy hududidan «sart» isminda bir toifa kelib, Turkistong'a yerlashib, so'ngra boshqalar tarafidan yutulub va boshqa urug'lar ila atalib ketgandurlar.

Ana, Turkistoni Rusiy va Buxoro xalqig'a sartlik ismini toqaturgonlarni dalili shundan iboratdur. Biz takror aytarmizki, mazkur uch ehtimolni qaysi biri chin bo'lgan sur'atda ham nafsul amrda bugun Turonda sart yo'qdur. Hamchunonki, bu kun Ovrupoda va Osiyoda isman «hun» yo'qdur. Tarix hun qavmini sartdan ko'ra yaxshi zabt etgan. Maa fih bukun na Ovrupo va (na) Osiyoda «hun» ismlik urug' yo'q. Farazan, sart qabilasinda bir vaqt bor ekan, ammo endi sart urug'i yo'qdur. Bu qadar mashhur urug'lar Turkistonda bo'lub va atalib turub, ammo sart urug'ini yo'qligi va hech bir qabilani «man sart» demagani bu kunda sarni yo'qligini va zamonida bo'lsa-da, munqariz bo'lganini dalilidir. Xo'b, turoniylarni sartilgini da'vo etaturgonlarni dalili bo'lsa, lutfan bayon etmoqlarini iltimos etarmiz. Va dalillarig'a qarab, albatta, ahli qalam muhokama joriy etarlar. «Sart» atamoqg'a oshiq bo'lganlardan ba'zan derlarki: «Harholda turkistoniy va buxoriylar oxirgi zamonlarda sart atalib va bu ism mashhur bo'lubdurki, muning tark etmog'i mumkin yo'qdur».

Bu so'z bir necha vajhdan to'g'ri emas. Masalan, usuli jadidchi yoinki taraqqiyparvar va madaniyati hozira toliblarini Turkistonda ba'zan kofir «bobiy», Istanbulda «mosun», Eronda hokazo «bobiy» atabdurlar. Holbuki, «bobiy» va «mosun» boshqa, taraqqiyparvar musulmon boshqadur. Bobiy va mosunlik ila faxr qilaturgon nomusulmonlar bo'lganidek, taraqqiyparvar musulmon bobiy va mosunlikni o'zig'a nisbat berishni abadan qabul qilmaydur.

Endi madaniyatparvar musulmonlarning «bobiy», «farra»\*, «mosun» ismlari ba'zi xalq tarafidan bizg'a berilibdur, deb musulmon ismini qo'yub, o'zini «bobiy» va «farra mosun» atamog'i va shul nomag'rub ismlarni o'zig'a toqmag'i munosibmi? Albatta, yo'q dersiz. Bas, turoniylarning o'zig'a maxsus va mashhur urug'lari bo'lub turub, majhul bir urug' ismini o'zlarig'a toqmasliklari tabiiydur, albatta. Derlarki, sart demayluk-da, na deyluk? Javobi niho-

yat oson! Turkiston o'zbeklari, tojiklari, arablari, turklari, ruslari, yahudiylari agarda desalarki, biz Turkistonni turk, arab va forsiyni tashxisdan\* ojiz va barchasig'a umumiy bir ism kerak. Bul suratda dermiz. Unday bo'lsa to'g'ri «Turkistonli», «Turkiston musulmonlari» yozingiz. Yo'q! Bo'lmasa, balki bir asr so'ngra Turkistonda mavjud yahudiy, rus, turk, tojik va arablar bir libos va bir hay'atg'a kirar-da, siz yana barchasini «sart» atarsiz.

Totor muarrixlaridan muhtaram Zaki Validiy afandi «sart» iborati to'g'risinda taqriban shunday deyur: «Bir zamonlar Turkiston xalqi sart bo'lganlar. Ammo Chingizlar va mo'g'ullarni istilosi sababi-la ismlari almashgandur. Samarqand va Buxoroda sart yo'q va ham tojik va arab va o'zbeklar sart emas. Xo'qand va Toshkand xalqi sardur, azbaski, alar urug'ini bilmaydur va ham alar na turk va na o'zbek va na tojik va arabg'a o'xshaydur. Sart ismlik qabila Turonda bo'lmasa-da, eski kitoblarda bor».

Yuqoridagi so'zlar munga javobdur.

(Baqiyasi bor)

*Mahmudxo'ja*

*«Oyna» j., 1915-yil, 22-, 23-, 25-, 26-sonlar,  
314-315-, 338-340-, 386-388-, 478-480-betlar*

## EHTIYOJI MILLAT<sup>1</sup>

«Boshqa millatlarga qaralsa ko'rilurki, muntazam maktablari bor va avval maktabda diniy ilm ustida dunyoviy ilm va fanlar ham o'qilur. Chunki dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo'lur.

50 sana muqaddamgi zamonda, biz turkistonlilar yakka va tanho yashab, boshqalar ila muomala va munosabatimiz yo'q edi. Endi zamon o'zgarib, boshqa millatlar ila maxlut bo'lduk, shari'at va o'z urfimiz ustiga qonun va Ovrupo odatiga itoat qilmoqqa majburmiz.

Ammo qonun va Ovrupo odatlarini bilmaganimiz uchun boyimiz bo'lsun, qozi va milliy hukamomiz va aholimiz bo'lsun ko'b tashvish va zarar ko'rar. Zamoni sobiqda faqat shari'at bilmoq kifoya etardi. Endi qonun va zakunni bilmoq

<sup>1</sup> N. Ochilov nashrga tayyorlagan.



ham lozimdur. Shari'at ilmi madrasalarga, qonun ilmi Rusiya dorilfununlariga o'qilur. Dorilfununga kirmoq uchun, avvalo, o'n sana gimnaziyaga o'qumoq kerak. So'ngra to'rt sana dorilfunun o'qub andan huquqshunos, yurist, ta'bir joiz bo'lsa, zamona faqihi bo'lib chiqar. Sud mahkamalarinda, davlat doiralarinda kirib, har huquqshunos o'z muvakkili va o'z millati va o'z toyifasi va o'z Vatani va o'z davlatining naf'iga so'ylashur, mudofaa qilur.

Masalan, davlat dumasinda biz Turkiston musulmonlaridan shunday huquqshunos vakil bo'lsa, bizni din va millatimiz naf'iga harakat qilur. Ammo shunday odam bizda yo'q.

Davlat dumasi nari tursin, sudga va rasmiy mahkamalarga kirib, bizni mudofaa qiladurgon kishimiz yo'q. Boshimiz og'risa do'qturga boramiz, ammo dardimizni aytmoqqa til yo'q. O'zimizdan do'qtur yo'q.

Ikkimiz bir-birimiz ila nizo qilamiz. Ketamiz zakunchiga, so'ylamoqg'a til yo'q. Oradagi odamlar yana bizg'a firib berar, pul berarmiz, yugurarmiz, yana ishlar barbod, oxiri yo'q.

Imorat qilmoqchi bo'lsak, plon-loyihasi lozimki, injinerga muhtoj bo'larmiz. Ammo biz hanuz «muhandis» ismini bilmaymiz.

Kontur va rasmiy daftar tutib, kassa qurib tijorat etmoq lozim. Ilm tijorat bila furgan buxgalterik hisobi yuritadurgon boylarmizga kerak, ul ham o'zimizdan bir nafar topilmaydur.

Hammollikdan bu ishlar yaxshi bo'lsa kerak. Bir necha boyvachchani bilarmanki, eng qattiq xizmatlarga giriftor. Sababi nadur – ilmsizlik. Holbuki, alarni «to'yi»ga atosi 5 ming so'm sarf etib edi.

Turkiston mevasi, donasi, toshi, tufrog'i, eski nimalsari Ovrupo bozoriga ketar. Muni Ovrupo dallollari kelib oz bahoga olib ketar, mehnatni biz qilurmiz, foydani ular ko'rar. O'z nimarsamizni Ovrupo bozoriga eltib, yaxshi bahoga sotadurgon bizda bir odam yo'q. Azbaski, Ovrupo ila savdo qiladurgon kishini (o'zi) avval o'n sana zamona ilmi o'qumog'i lozim.

Bizda shohi, adras, beqasam, alocha... bofliklar bor. Agar da bir nafar texnik va muhandisimiz bo'lsa, bu dastgohlarni isloh etar, aholi obod bo'lur. Valloh, yaqin vaqtda «doka»

bofillarimizdek zoye' bo'lib ketar. Chunki Ovrupo yangi asbob ila mundin yaxshi qilib chiqorur.

30 sana muqaddam Samarqandni Yomini mahallasinda 300 alochabof ishchi bor edi. Al-on 30 nafar yo'q. 10 sana so'ngra tamoman mahv bo'lur.

Xulosa, maktabimiz, do'konimiz, korxonamiz, mad-rasamiz va har nimarsamizni zamoncha islohi lozimdur. Valloh, har nimarsa qo'ldan ketar, bizda muzdurlikdan boshqa hech ish qolmas. Bir uskuna, do'kon va saroyini ishlatmoqqa ham ilmi zamoniy va zamona shumligini bilmoq lozim. Valloh, bizdan dunyo ilmini yaxshi bilaturgonlarga mulk va asbobimiz o'tar va o'tub turubdur.

Qisqa qilaylik, boshqa millatlarni boylari faqir va yetimlar uchun maktab va dorilfununlar soladurlar, faqir va yetimlarni o'qumog'i uchun vaqf «istipendiyalar ta'yin qilur. Boshqa millat milo'nerlari maktabi ila istipendiyasi-la, idora qilaturgon gazet va majallasi-la, bino qilgan dorulojizin (ayollar universiteti – *N. O.*), barpo qilgan jam'iyati xayriyasi-la faxr qiladur.

Biznikilar juft oti-la, arobasi-la, to'yi ila va...la faxr etar. Hatto, o'z o'g'illarini o'qutmaydurgon boylar bordur.

Bu ketishni oxiri yamondur, o'qumoq, o'qutmoq kerakdur. Bolalarga otalardan ilmi diniy va ilmi zamoniy meros qolsun.

Butun Turkistondan o'n boy yilinda ming so'mdan ber-sa, 25 bola uchun Toshkanda «diniy va zamoniy» bir «pan-siun» layli va nahori 5 mukammal maktab bino bo'lub, har yil hukumat maktabinda 50 bola tayyorlaydur.

O'n yilda bulardin... 200 muhandis, do'qtur, huquqshu-nos, muallim, texnik, zamona tojiri, valloh... chiqar va bizni zamon odamlari qatorida qo'yarlar va davlat ishiga kirarlar. Ruslar ila bizni hasan imtizojlarimizga xizmat qiladurlar.

Al-on millatimiz boylardan shuni ko'z tutar, xaloyiqni barbod etaturgon to'ylarni emas. Oh, bu so'zlarni tushuna-turgon boylar bizda yetushganmi?

*«Samarqand» g., 1913-yil, 12-iyul*

## MILLATLAR QANDAY TARAQQIY ETARLAR?<sup>1</sup>

Millatlar taraqqiyig‘a bir necha sabablar bo‘lub, tub sababi ulamo ila ag‘niyoning hamiiyat va g‘ayratlaridur. Taraqqiy qilg‘on va yo endi taraqqiy qilguvchi millatlar ahvolig‘a diqqat qilinsa, mazkur ikki sinf muhtaramni o‘z millatlarig‘a so‘z va oqcha ila xidmat etganlari favran zohir bo‘lur.

Har millatning ulamosi, ahli qalami, mutafakkiri o‘z millatining oyandasi uchun yo‘l ko‘rsatur, mashvarat berur, millat axloqining islohi uchun masjidlarda pand va nasihat berur, maktab va madrasalarda dunyo va oxiratda kerak ilm va fan, ta‘lim berarlar. Kitob va gazet ila ummatni muslihi\* uchun bahs va mukolamalar qilurlar.

Taraqqiy qilguvchi millatlarning ulamosi zamondin boxabar bo‘lib, o‘z millatining «masoliha zamoniyya»si uchun sa‘y etar, millatni peshraftig‘a oqcha ila, hayrat ila iona qilmoqni millat boylarig‘a taklif etar, tashviq va tahrir etar. Xulosa, har millatni ulamosi, ahli qalami millat uchun so‘ylar, yozar va havoiji milliya va zamoniyani o‘z millat mansubasig‘a bildirarlar. Zamona ag‘niyolari o‘z millatlarini zamoniycha kerakligi yo‘linda oqcha sarf etarlar, masalan, yangi usulda zamonaviy maktablar bino etib, zamoniycha odam tayyorlamoq uchun harakat etarlar. Hukumatni o‘rta va oliy maktablariga o‘qiydurg‘on o‘z millat bolalarig‘a ionat etarlar. Va bechora hamjinslarini diniy va dunyoviy maktablarig‘a berub, o‘z xarajatlari ila o‘qutadurlar.

Rus, armani, yahudiy va boshqa Rusiyadagi vatandoshlarimizni boylari doimo o‘z millatlari uchun katta xayr va ehsonlar qiladurlar, inchunin, Kafkoz, Qirim, Qozondaki musulmon birodarlarimizni boylari, ulamosi va ahli qalami, sohibi fikri o‘z birodarlarig‘a mol, oqcha, qalam va ilm ila iona qiladurlar.

Ammo bizni Turkistonda bu ishlardin so‘ylamoqqa hanuz navbat kelgan yo‘q. Har kim o‘z naf‘i va o‘z shaxsiy ishi ila sargardon, umumiy yoinki diniy va milliy ishlarni oyandasi uchun, millatni zamona odamlaridek taraqqiy etmog‘i uchun, xaloyiqni isloh axloqi uchun g‘am tortuvchi va harakat etguvchi yo‘qdir.

Bir karra diqqat qilib, mahalla-ko‘y va qishloq xalqlariga qaralsun. Avomlik, beilmlik naqadar ko‘paygan. Biz musul-

---

<sup>1</sup> H. Sayidov nashrga tayyorlagan.

monmiz. Musulmonlikga ilm lozim, amal lozim. O'qumoq kerak, nima uchun boshqa millatlarda yuza bir nafar besavod yo'q ekan, biza yuza bir nafar savodlik yo'q?

Boshqa millatning yosh bolalari maktabda, lekin bizniki hammolikda va gadoylikda. Boshqa millat ulamosiga tobe' ekan, bizni ulamo bil'aks avomga tobe'dur. Buning oxiri xarobdur. Yigirma, o'ttuz sana so'ngra yana yomonroq bo'lur, musulmonlik, ilm va odob ila qoim millat axloq, fazl va hunar ila boqiy qolur.

Bugun islohi maktab-madrasa, ya'ni islohi millatga ko'shish qilinmasa, rabi asr so'ngra diyonat barbod bo'lur va aning javobi mas'uliyati bugungilarga qolur, bu mas'uliyatdin qutulmoq uchun millatni diniy ilm va dunyoviy ilmlar fanlar o'qumoq uchun targ'ib qilmoq kerakdur. Diniy ilm va fanlarning o'rni maktab va madrasadur.

Dunyoviy fanlarni o'rni hukumat maktablaridur, ikkisi ga o'qumoq uchun oqcha lozimki, ul oqcha boylarni kishiy hamiyatidan chiqsa kerak.

Har zamon uchun asbobi isloh va taraqqiyi ionat boshqarur. Millatga ionat etmoq uchun, islohi maktab va madaris uchun, rusiy maktablariga bola tayyorlamoq uchun, dehqon va san'atkorlarni rivoj bermoq uchun «hamiyyati xayriya», «nashri maorif», qiroatxonalar, fo'ndlar, kurujuklar, jaridalar, majallalar, nashriyotlar... kerakdur. Millatlar taraqqiysi shul ila bo'lur va bu ishlarga oqcha kerakdur, oqcha boylarda va afrodda!

Maro ba tajriba ma'lum shud daro har kor,  
Ki qadri mard ba ilm ast qadri ilm ba mol.

(Ma'nosi: menga tajribadan ma'lum bo'ldiki, odamda qanchalik ilm bo'lsa ham ilmning qadri moldadur. — H. S.)

«Samarqand» g., 1913-yil, 30-iyul

## QOZOQ QARINDOSHLARIMIZGA OCHIQ XAT<sup>1</sup>

Aziz qarindoshlarim! Musulmon birodarlar! Hammangizga ma'lumdurki, Turkiston, demak — turkiy el bo'lib, mundagi xalqning qozog'i, qirg'izi, sarti, o'zbeki, turkmani, tatari — hammasi aslan... jahongir... Temurning avlodi

<sup>1</sup> H. Sayidov nashrga tayyorlagan.

yoki og'a-inisidurlar. Turkistondagi arab, xo'ja va sayidlar-da o'z tillarini yo'qotib, balki bilkulli turklashib va hatto, arabliklarini eslaridan chiqorib... har jihatdan birlashib ketgandurlar. Turkistonning eng oz shaharlarida va ba'zi tog'larida biroz fors, ya'ni tojiklar borki, alar ham kamolan musulmon va siz ila hammazhabdurlar. Tirikchiliklarining o'zbeklardan farqi yo'q darajadadir.

Bourlar! Bilingki, hozirda Turkistondagi barcha xalqlar uchun muxtoriyat e'lon qilindi va siz bilingki, haq olinur, berilmas. Inchunin, muxtoriyat-da olinur, berilmas. Ya'ni muxtoriyatni Turkiston bolalarining o'zi birlashib, g'ayrat ila olurlar. Albatta, boshqalar tarafidan berilmas. Boshqalarning qo'lidan kelsa, bermaslar. Biz bo'shlik qilsak va Turkistondagi xalqlar birlashib, muxtoriyat yo'lig'a sa'y qilmasak, albatta, hozirgi qog'oz ustidagi muxtoriyatimizni ham yo'q qilurlar, bul albatta, shundaydur va bul so'zga hech kim ixtilof qilolmaydur.

Endi ishlar shu holda ekan, biz hammamiz, ya'ni qirg'iz, qozoq, o'zbek, turkman, arab, fors, xullas, Turkistondagi, Qozog'istondagi va Turkmanistondagi barcha musulmonlar va ham mundagi yahudiyalar va xristianlar birlashib, ittifoq ila shu muxtoriyatning amalg'a kelishig'a sa'y va ehtimom etmog'imiz lozimdur. Agarda bizga o'z boshimizg'a, shariat, urf va odatimizg'a muvofiq tirikchilik qilmoq kerak bo'lsa, hammamiz vaqtlili nizo' va «manman»liqni qo'yib, hamma narsani esimizdan chiqorib, yolg'uz «muxtoriyat» uchun har nimsamizni fido etmog'imiz lozimdur. Munday fursat va zamonning bizg'a qaytib kelishi ma'lum yo'q, qadrini bilib ishlamoq kerakdur. Vaqt o'tgandan so'ngra o'kinmoq foyda etmas.

Shuni-da bilingki, qozoq o'z boshig'a, shahar xalqi va atrofi o'z boshig'a ayrilib, boshqa-boshqa muxtoriyat qilmoqchi bo'lganda, ikkisi ham muddaog'a yetmaydur. Siz, qozoq qarindoshlarimiz, ore, cho'ldasiz, ammo sizdan bir ko'p xalqlar ham shaharlarda va shaharlar tevaragindadir. Tirikchilik shunday nimsarsaki, cho'l ila shahar va qishloq xalqini bir-biriga bog'lagandir. Bir-biridan ajralib yashayolmaydur. Shahar xalqi ila birlashib muxtoriyatni boshqarg'anda sizlarga zarar kelmay, balki foyda kelur.

Muxtoriyatni boshqarmoq uchun yolg'uz siz-da kifoyat etmaganingiz kabi, yolg'uz shahar va atrofidagi xaloyiq ham

kifoyat emas, balki ikkingiz-da keraksiz. Shuni-da bilingki, sizlar turg'un xalq ila birlashib muxtoriyat qilgan ila siz ila turg'un xalq uchun birgina nav' qonun bo'lmay, balki sizning tirikchilik va odatingizg'a muvofiq alohida siz uchun naf'lik qonunlar yozilur. Shariat ham ko'chma va cho'l musulmonlarining urf va odatlarig'a kenglik berg'onidir. Siz o'ylamangki, turg'un xalqi va yo shari'ati bizni qisadur. Yo'q, bil'aks, sizg'a keraklik odatlaringizni sizg'a qoldirib, siz uchun sizning ziyoli vakillaringiz qonunlar tuzaydurlar. Tog' va shahar xalqlari uchun-da, boshqa-boshqa qonunlar tuzalur.

Hatto, Turkistondagi ba'zi uyezd va shaharlar uchun alohida qonunlar tuzalur. Na uchunki, hammaning tirikchiligi bir emasdur. Yahudiy va xristianlar uchun-da, boshqa qonunlar tuza olur. Har bir xalqning odat va mazhabig'a rioya qilinur. Xulosa: muxtoriyatni millat majlisi har bir xalqning naf'ini ko'zda tutub, qonun chiqarar. Agarda siz, qozoq birodarlar, turg'un xalqdan ajralib, o'zga muxtoriyat qilurmiz desangiz, mundan siz-da va turg'un xalq-da zarar ko'rar va ehtimolki, ikkingiz-da muxtoriyatdan nasib bo'lmas, azbaski kuch taralur.

Bobokalonlarimizning mashhur nasihati bor, u o'z o'g'ullarig'a qilib ediki, birlashingiz. Masalan bir dasta tayoqni birga bog'lasangiz, kimsa sindirolmas. Agarda ajratsangiz, birin-birin har kim sindurar. Mana, bobongizning buyrug'i.

Chirog'larim! Boshqa xalqlar, masalan, serblar, italyanlar, armanlar, slavyanlar, polyaklar va boshqalar, hatto, dunyoning u bir uchidagi qarindoshlari ila birlashur ekanlar, boshqa katta va quvvatli davlatlarga tobe' bo'lub, yutlub, hatto, tilini yo'qotgan o'z jinsdoshlarini ajratib olib, birlashmoqg'a jon va kuchlarini sarf etar ekanlar, biz o'z ichimizdagi qarindoshlarimizdan ayrilsak, uyatdur, ahmoqliqdur. Turk tomurig'a bolta urmoqlikdur.

Ongli qozoqlar o'yilasinar, tarixga qarasinlar, ziyoli qozoqlar, Ovruponing ixtilof solib, millatlarni ajratmoq siyosatig'a va ikki yuzligig'a qarasunlar edi. Birlashg'on Turkiston xalqining bo'lunmoqig'a o'zimiz sabab bo'lmasak edi. Barcha ixtilofchilar va boshqalar-da, albatta, zarar ko'rarlar va alar ila barobar tatarlar-da, biz-da, mundan

zarar ko'urmiz va ixtilofimizning jazosini tortarmiz. U kunlarimizga yig'larmiz, ammo foyda etmas.

Chirog'larim, birlashaylik! Ko'rasiz, bu kungi ruslar-da birlashmoqdadurlar. Endi birlashmoq zamonidir. Agarda siz ayrilsangiz, turkman qarindoshlar-da ayrilsa, Turkiston turklari uch yerga bo'linib ketar va barchag'a muxtoriyatdan nasiba chiqmay qolur. Yettisuvdagi musulmon qarindoshlarga ham aytaturg'on so'zim shuldur.

Ondagi xristianlarga kelguncha, alar bilsunlarki, Yettisuvda ko'p bo'lsalar-da, butun tevaraklarini musulmonlar aylantirib olg'on va alarning-da bizning muxtoriyatga qo'shilmoqlari, albatta, o'zlari uchun lozim bo'lg'onidek, Turkistonning boshqa joylaridagi ruslar uchun-da foydalikdur. Chunonchi, alar qo'shilsa, millat majlisinda rus a'zolari ko'payur. Bizning muxtoriyatimiz joriy bo'lg'ondan so'ngra, Yettisuv ruslarining qo'shulmasliklari aslo mumkin emasdur.

Yolg'uz siz ila biz emas, butun Rusiya musulmonlarining birlashmoqlari shar'an va aqlan farzdu.

«Ollohning ipiga birlashingiz va tarqalib ketmangiz» Tangrining so'zidur. Boshqa gazetalarning ko'chirmaklarida rajo o'linur.

*Samarqand, «Hurriyat» g., 1918-yil, 26-yanvar*

## MUHTARAM SAMARQANDIYLARG'A XOLISONA ARZ<sup>1</sup>

Ahli xabaraning ma'lumidurkim, eski hukumat zamonida har nimarsa amr va buyruq ila bo'lg'ur edi. Xaloyiqning diniy va milliy ishlarini islohi va rivoji to'g'risinda qilaturg'on harakatlarga yo'l berilmas edi. Hech nimarsa hukumatdin bejavob va iznsiz qilina olmas edi, hozirda bo'lsa, Xudoyi taolo bizga hurriyat berdi. Diniy va milliy islohot va taraqqiyimiz uchun harakat va say' etmoqga yo'l ochuqdir.

Hurriyatning uchinchi oyindamiz. Lekin biz samarqandiyalar diniy va milliy ishimizni rivoj bermoq uchun hanuz bir ish qila olmaganurmiz. Ahli jamoat va g'ayrat bir necha yoshlar, ahli muruvvat bir necha mo'ysafid va kattalarimiz bir necha kun bir bo'lib, ba'zi yaxshi ishlarni bajarmoqchi

---

<sup>1</sup> H. Sayidov nashrga tayyorlagan.

bo'ldilar. Hatto, ulamoyi kiromdan aksari qo'shulmoqchi bo'ldilar, bilkulli qo'shuldilar.

Yoshlarning ochgan «islomiy qulubi» har kun ulamo, savdogar va ahli kasabadan bir necha daf'a to'lub, bo'sholub edi, ishlar yaxshi ketar edi, umidlar qaviy (kuchli — *H. S.*) edi. Oyandamizning yaxshi bo'lushini istidolar qilur eduk. Ammo ishlar va ittifoqlar uzoqqa surilmadi. Bir necha tajribasiz va tez harakat yoshlar, bir-ikki nafar nafsoniyatga botgan va o'lguncha tuzolmayturg'on kishilar qadima ig'vo va fasodni o'rtaga soldilar, natijada Samarqand xalqi ikkig'a bo'lundi. Balki ikki emas, yuzga bo'lunub, xalqning ko'ngli sovub, ba'zilarining so'z va harakatlaridan nafratlanib, tarqalib ketdilar.

Bukun ma'noyi haqiqiysi ila Samarqandda bir jamiyat yo'q, millat va din oyandasi uchun natijalik bir say' va harakatni boshqaraturg'on bir jamiyat yo'qdur, hozirg'acha aytur edukkim, bizning milliy harakatimizga hukumat mone'dur, ammo endi o'zimiz mone'miz.

Ey hazrati ulamo! Ey tujjor, ahli kasaba va ag'niyo! Ey, g'ayratlik yoshlar! Nifoq va bir-biriga dushmanlikni tashlangiz. Xudo haqi, arvohi anbiyo hurmati va bu kunlarda qornini to'yg'azolmayturg'on yetim va bevalar haqi biri-biringiz ila ittifoq etub, jamiyatlar barpo qilub, xoliq Xudoning naf'ig'a, din va millat yo'lig'a xizmat etingiz. Millat va xalq sizdan xizmat va yaxshilik talab etadur, nafsoniyat va g'urur emas.

Ey yoshlar! Siz ham biroz og'ir va xushso'z bo'lingiz. Hurriyatning avvalida xaloyiq sizga inondi, sizga o'zini tashladi, ammo sizlar tajribasizlik etib va o'z orangizda ixtilof ko'rsatib, xalqning o'z borangizdagi xushgumonligini, afsuskim, yo'qotdingiz. Mana shul yo'qotganingizni qaytarib topmoqqa harakat, say' etingiz. Xalq sizlarga mayl qilg'on edi, sizlar, to'g'risi, bajarolmadingiz. Mana shu tajribasizligingizni xotiringizga keltiringiz va bul yoshlarga darsi ibrat bo'lsun.

Muhtaram yoshlar! Zamon siznikidur, qarilar zamoni o'tkan. Siz kiromga bobasirat bo'lub, o'n daf'a o'lchab, bir daf'a kesingiz. Otashinlik va tezlik ila ish bo'lmas. Al-ajla minashshayton! (Shoshilgan shaytondandir! — *H. S.*) Bu fikrni boshingizdan chiqaringizkim, sizning o'z boshingiz-



g'a taraqqiy qilmog'ingiz mushkuldir. Balki, butun shahringiz va millatingiz ila taraqqiy qilursiz.

Man ham yigirma yildan beri harakat etamankim, taraqqiy paydo bo'lsun, shuni sizlar ham bilursizki, o'n va yigirma nafar ila taraqqiy bo'lmaydi va bo'lmas ekan. Bino-barin, o'rta va bir qadar imkoni ko'proq kishi mayl qilaturgon yo'l ila taraqqiy etmoq kerak va unsiz boshqa chora yo'qdir. Muni men bir necha daf'a sizlarga yuz ba yuz aytganman. Muhtaram hamshaharlarimdan aksari shunday biladurlarki, mening har so'zumni sizlar qabul qilasiz va sizning har bir ishingiz mening mashvaratim ila bo'lur. Xayr unday emas. Yoshlarning ba'zi bir mashvarat va ishlarig'a sherik bo'lsalar ham ba'zidan bexabardurman. Alarning barcha ishlarig'a men mas'ul emasman. Zotan, hech kim hech bir kimning harakatidan mas'ul emasdur.

Aziz hamshaharlarimg'a, mo'tabar ahli vatanim, ham-mangiz bir bo'lub, xalq va dinning rivoji uchun birlashub, oradagi nafratlarni tashlab, Xudoning bergan hurriyat ne'matidan naf'ılanmoq harakatida bo'lmoq kerak va al-on (toki — *H. S.*) bizning harakatsizligimiz bizdan hurriyatni ketkurib, yana boshqalarga bizni asirlik darajasiga tushurur va yuz yillar ila keyin ketarmiz. Bizning avlodimiz hamda xalqi olam bizga rahmat o'rnig'a la'nat o'qurlar.

Bu so'zlar to'g'ri so'zlardur. Yosh va qarilardan, albatta, mandan ushbu so'zlarim uchun ranjiydurg'onlar bo'lur. Ammo nachora, to'g'rini aytmaguncha, ishlar to'g'rilanmas. Oldimizda shahar dumasi saylo'vi, majlisi ma'buson (?) (uchreditulnaya sobraniya) saylo'vi, mamlakat dumasi saylo'vi turubdur. Agarda Samarqand yosh va qarilari shu holatda tursalar, voy bizning holimizg'a! Xalqi olam bizg'a kular. Biz yanadin boshqalarning asiri bo'lurmizkim, bunga tajribasiz yoshlarimiz, taraqqiyni xohlamayturgon kattalarimiz sabab bo'lurlar va ham bizning ishsizligimiz uchun boshqalardan keyin qolishimiz muqarrardur. «Qolu al haq valu kon maran» — «To'g'rini so'yla achchiq bo'lsa-da!»

«Hurriyat» gazetasi, 1917-yil, 13-may

## G'ALLA, ASKARLIK, YER VA TAZMINOTI HARBIYA<sup>1</sup>

Toshkandda bo'laturg'on maorif qurultoyig'a qo'shulmoq uchun Samarqand anjumani maorif jamiyati tarafidan bormoqchi edim. 15 inchi iyulda Samarqand musulmon sho'rosig'a borib, Toshkandg'a bormog'imni bildurib, agarda g'alla to'g'risinda menga biror ish tobshurilsa, bir joy(i) keturishimni ifoda etdim. Musulmon sho'rosi ham g'allalarning zabti va qo'lg'a olinishig'a muqobil ekan. Shuning uchun avvalo manim fikrimni eshitib, foydali bilib, so'ngra man bilan Toshkanddagi Niyozuf otig'a mandan (vakolatnoma) berdilar.

16nchi iyulda Toshkandga kirdim. Yo'lda vago'nda odam ko'bligi uchun o'turib bordik. Onda borib Niyozuf bilan birga hozirgi Turkiston hukumatining raisi Tobulin afandi huzurig'a kirdik. Va ushbu tubandagi mas'alalar to'g'risinda so'ylashduk:

1) g'alla; 2) askar olish; 3) tazminoti harbiya; 4) yer va suv mas'alasi.

Hozirgi hukumat va ham Turkiston musulmonlarining naf'i nuqtayi nazaridan yuqoridagi mas'alalar xususida e'tidol va oson yo'llarni ko'rsatib, taklif etdim va o'zimni yigirma yillik muharrirlik va jurnalistlik, 25 yil xalq ishiga aralashib va bir necha daf'a sayohat etib, dunyo va musulmon, xususan, Turkiston musulmonlarining tirikchiligiga hosil etgan tajribam yuzasindan xulosa va salohiyati vatan va Turkistonning tinchlig'i nomig'a bir xeyli taklifotda bo'ldum. Turkistonning hozirgi doxiliy va xorijiy dushmanlari ahvolini va xaloyiqning ahvoli ruhiya va e'tiqodiy va maishiyasig'a biroz bo'lsa ham ahamiyat bermak va rioya qilmoq kerakligini bildirdim.

Tobulin afandi bu so'zlarg'a ahamiyat bergandek ko'rundi. Niyozuf bilan Jo'raboyuf afandilar ham hozir edilar va manim so'zlarimni tahiyya etdilar. Yuqoridagi mas'alalar to'g'risinda takliflarimning xulosasi shu edi:

Birinchi, g'allani tamoman va o'zig'a zaruridan boshqasini hukumat butun o'z qo'lig'a olib, g'alla olish va sotishni, g'alla bozorini, hatto, xususiy nonvoyxonalarni man' qilmoq va bu haqda loyiha tuzmak uchun mamlakat ozuqa komitetlari tarafinda siyezd chaqirilg'on ekan. Bul to'g'rinda manim

---

<sup>1</sup> H. Sayidov nashrga tayyorlagan.

taklifim shu bo'ldiki: Bozor ochiq bo'lsun, ammo viloyat va uyezdgan g'alla chiqorilmasun va ombordorlarning g'alla olishi man' qilinsun. Taksa (qat'iy baho) aslo bo'lmasun. Faqat g'alla ekan dehqonlar bir botmon ekilgan yerdan to'rt pud g'alla taksa yuzasidan bersunlarkim, bu ham, avvalo, daftar bo'lub, so'ngra berilsun.

Ikkinchi, askar mas'alasidirki, bu har narsadin muhim va muning umumiy bo'lushi lozim. Ammo musulmonlar hanuz shunga o'rganmagan va ham doxili fitnachilar qora xalqning fikridan foydalanib, ehtimolki, ba'zi bir fitnalarga sabab bo'lsalar. Va ham noma'lum va siyosatdan fikri birkulliy noto'g'ri kishilar qo'lig'a yaroq o'tub, ehtimolki, kutulmagan yomon hodisalar paydo bo'lsa. Shuning uchun taklif qilamanki, to xalq o'rganib, biroz ahvol o'zgarguncha umumiy askar olinmay, ko'ngilli tariqida targ'ib va tashviq bilan ham xalqning ahvoliga qarab olinsa edi. Chunki...

Uchinchi, tazminoti harbiya mas'alasidirki, bu Turkistonning har yerindin ziyoda Samarqandda hukm surdi va Samarqandning boylari boshqa joylardan oz bo'lsa ham rus, yahudiy, musulmonlar yolg'iz Samarqandda sakkiz milliyun qadar tazminot va uch milliyun qadar ochliq solig'i berdilar va bu qatorda ba'zi kambag'al va past holli kishilar ham jabr ko'rdilar. Muning taqsimi ustinda ba'zi bir odilsiz va insofsiz kishilar turub rishvatxo'rliklar ham bo'lib o'tdi. Xulosa: harholda Samarqanddin yangidan tazminoti olinmasa edi. Chunki hozirda ma'ishat va siyosat osoyishtalikni talab etadur. Xalq ham ochliq va qimmatchilik va shunga o'xshash og'irliqlardan horigan va asabiylashgandur. Oqcha kerak bo'lsa, boshqa yo'llar bilan solig' tariqida to'planmog'i mumkindur.

To'rtinchi, yerning taqsimi mas'alasidirki, ba'zi bir agarchi kichik dehqonlarniki bo'lsa-da, taqsim qilinmoqchi va balki taqsim boshlanibdur. Ba'zi bir kichik dehqonlarning g'allasini ham tamoman zabt qilmoqga qaror qilgan joylar ham bor ekan. Holbuki, bul bobda hanuz Markaziy Turkiston hukumati-dan bir amr yo'q ekan. Shuning uchun bu ishlarni Markaziy hukumatning chiqarg'on qonunidan so'ngra qilinsa edi. Mana ushbu ishlar ham hozirgi hukumatning siyosatiga zararlikdur. To ta'qiqlanib Turkistonning umum xalqi va yeri istatistik

hisobi-la ro'yxat bo'lib, qonuniy bir qaror chiqarilg'uncha, kichik dehqonlarning va kichik tegirmon va kichik korxonalar va ustaxonalarning «notsiyolizatsiya»si (yoinki taqsimi) mavquf (to'xtatib — *H. S.*) qoldurilsa edi. Holbuki, Turkistonda, boxusus bizning Samarqandda yeri ko'b kishi nihoyatda oz bo'lub, yerlar aksariyati ila dehqon va mayda mulkdorlar qo'lindadir.

Hozirgi hukumatning raisi Tobulin afandi bilan muzokaramiz ikki daf'a bo'lub, bir soatdin ziyoda cho'zildi. Tobulin afandi yuqoridagi mas'alalarning muhimlarini yozib olib, yaxshi va'dalar berdi. G'alla ishi siyezdidida bo'lur, dedi. Samarqandda askarning ko'ngilli ravishda olishinig'a va yangidin tazminot olinmasligiga va ham yer taqsimini mavquf qolishig'a fikri birligini so'yladi. Va bu to'g'rida tadbirlar ko'rarg'a va'da etdi. Va hozirg'i taqsimning noto'g'riligini so'yladi. Samarqanddagi doiralarg'a bul tarzida qog'oz yubormakni ham va'da etdi. Xulosa: so'zimni yaxshi ongladi va yaxshi qaradi. Man shunday bildimki, ma'qul so'zni bolshavik hukumati eshitar ekan, ayb o'zimizdagi qo'shulmaymiz va uzuluq yo'riymiz.

G'alla to'g'risindaki ishni tamom etmak uchun Niyozuf bilan «Turkiston o'rtoq qurultoyi»g'a bordik. Ko'b muzokara va so'zlardan ma'lum bo'ldiki, bir qism a'zolarining fikri shulki: Turkiston butun g'allalarni egasining va dehqonlarning o'ziga kifoya qilaturg'on ovqatindan boshqasini bir yerda jamlab, so'ngra har kimga muqarraridek bir qadoqdin yakun va oz bermakchi va butun g'alla bozorini, hatto, xususiy nonvoyxonalarni berkitmakchi ekanlarki, bu ishlarni avvaldan «palizatsiya» nomini eshitgandin ma'lum bo'lub edi. Muning Turkiston ahlining ma'ishatiga to'g'ri kelmasligi va g'allalarning yer ostig'a kirib ketishi, Buxoro va boshqa tarafdin kelmasligi, xulosa: narx nihoyatda ko'tarilib, kambag'allarg'a va balki butun xaloyiqg'a zarar va mashaqqat bo'lurg'a muni bir necha daf'a taksa tayinlanganda natijasi ko'ruildi. Agarda g'alla olinmoqchi bo'lunsa, uylar va hovlilar axtarilib ma'murlar bilan xalq orasinda ba'zi kutilmagan hodisalar chiqib qolsa ajab emasdur.

Xulosa: ko'b so'ylanganum so'ngra bizning taklifimiz biroz o'zgartirilib ikki kungi majlisdan so'ngra shul ravishda qabul qilindi. Chunonchi, bir disatin (ya'ni to'rt tanob) g'acha ekin ekan kishi hech nima bermaydur. Bir disatindin o'n disating'acha har disatinasidan to'rt puddin beradur. O'n

disatindin 50 disating'acha ekkanlar har disatinasidan sakkiz puddin, yuz disatindin ortuq ekkanlar har bir disatindan 10 puddin berarlar. Va bu oling'on g'allalar muft — tegin olinmaydur, balki taksa tayinlanib pul to'lab olinur. Ushbu taklifim unga maqbul 37 kishining tovush va ikki kishining betarafligi ila qaror berilur. Narxiga kelguncha ixtilof bo'ldi. Boshqalar 30 so'mdin 15 so'mg'acha taklif etibdurlar va ehtimolki har viloyatning taksasi boshqa bo'lsa va mahalliy sho'rolarg'a taksa ishi havola qilinsa. Mana birodarlar, Toshkandg'a borib qilg'on ishimiz shudir. Bu mayda-chuyda g'allalarni rozilik bilan bersak kerak. O'shandoq onbordorlarning g'alla olmoqidin o'zlarini saqlamoqlari kerakdur. Chunki onbordorlarning g'allasini, ehtimolki, tamoman zabt qilinsa.

Manim yuqoridagi taklifim butun Turkiston uchun qabul qilindi va o'z fikrimcha, Turkistonli vatandoshlarimning buni jon va dildin qabul etib, tezlik bilan berishlari lozimdur. Agarda umumdin g'allani olmoqg'a qaror bo'linsa edi, man xalqning ustig'a bo'laturg'on kulfat va og'irliqdin nihoyatda qo'rqar edim. Har kimning uyi oxtarilur edi va balki yomon hodisalarg'a sabab bo'lub, moli va joni ko'b zarar bo'lishini o'ylandim. Lekin, alhamdulillah, bu taklif qabul qilindi va Turkiston uchun milliardlarcha zarar va balki bizning andoza fikriyamiz ham tashqari zarar va kulfatlarning yo'lini bu taklif va qaror bog'ladi. Agarda umum tarafindan bu taklif va qaror yaxshiliq bilan qabul etilib, kam va ziyodasiz ijro qilinsa, o'zimni xushbaxt sanar edim. Muhtaram ulamo, hazrati va ahli fikr bu taklifni ahli xalqg'a tushunturub tezdin o'rung'a keltirmaklikning naf'ini xaloyiqg'a onglatsalar edi. Shuni ham bilmak kerakkim, bir desatin, ya'ni to'rt tanobg'acha ekilgan g'alladan hech bir narsa olinmaydur. Meva va bedazor, yer olmasi (kartoshka), sabzi va boshqa shularg'a o'xshash narsadin olinmay, faqat g'alla, ya'ni doni ekilgan yerlardin olinadur. Turkistonning ba'zi yerlarinda bir desatin 4 tanob va ba'zi yerlarda 6 tanob hisoblanadur. Ammo hozirg'i qoidag'a desatin hisobi ila, ya'ni bir tanobni 300 sorjin hisoblab olinur. Bir tanob 400 sorjinlik joylar bir yarim tanobg'a bir pud g'alla termarlar. Bir desatin 3400 murabba' (kvadrat — *H. S.*) sorjundur.

Fikrimcha, lozimki har daha va qishloq uchun maxsus komissiya saylanub, har kimning necha tanob yerda nima ekkani, avvalo, ro'yxati va o'lpon soliq daftaridek ro'yxat bo'lub, uyezd komissoriyaning va bu to'g'ridaki alohida bosh komissiyaning mustahkam etishidan so'ngra, g'allani yig'ishturub, har bir dehqong'a maxsus daftarda bosma sanad (hujjat — *H. S.*) berilsa edi. Toki, xiyonat bo'lmasun. Albatta, bu ish to'g'risinda har uyezd va viloyat uchun alohida bosh komissiya tayinlansa lozim. Har vo'lustning g'allasi o'zinda to'planib kerakincha boshqa joylarga olinur.

Biz hozir bo'lg'on Toshkanddagi Turkiston o'lkasi o'rtoq qurultoyig'a har uyezd sho'rolaridin uch nafardin kishi chaqirilg'on ekan. Sirdaryo va Farg'onadin bir necha nafar musulmon bor edi. Ammo bizning Kattaqo'rg'on, Xo'jand, Jiz-zax va Samarqand uyezdindin birgina nafar ham musulmon yo'q edi. Demakki, hanuz xalqimiz uyquda bo'lub, o'z naf'i va zaruri uchun qayg'urmay, bolta kelguncha kundadek yotadur. Ustig'a bir yukni qo'yg'ondan keyin dod deyurga ul vaqtda ish o'tgan bo'lur. Bu yomon odatni tashlamoq kerak. Zamon boshqa zamondur.

Toshkandning barcha rasmiy komissoriyati va hukumat doiralari hozirda qaynaydur. Har birinda Turkiston uchun zokun (qonun) loyihalari tuzilmoqdadir. Bir necha majlisg'a kaminani taklif etdilar. Ba'zisi g'a boroldim. Musulmon tilini rusiy hukumat tili etmak majlisig'a va ham Turkiston uchun milliy komissoriyatlar qonunining muzokarasi majlisig'a bir necha daf'a bordim va loyihalari bob-bob o'qulub, bizning taklif va tashihlarimizdin ba'zisi qabul qilindi. Agarda odam bo'lsa, millat naf'ig'a ishlanaturg'on ishlar ko'b ekan.

Turkiston maktab va madrasalari, vaqf va qozixonalar uchun loyihalari tuzilmakdadurki, bizning ahli fikr va donishlarimizning ishtirok etmaklari lozimdur. Musulmon sho'rolarimizg'a vojibdurki, shunday ishlar uchun odam — delegat talab qiling'onda salohiyatlik va munosib kishilarni saylab yuborsalar. Hozirgi hukumatga odam kerakdurki, muni ish ustundagilar ham sezibdurlar. Chunonchi, hukumat a'zolarining bir majlisinda Eron va Afg'oniston davlatlarig'a ko'nsul yubormak mas'alasi qo'zg'olib, ba'zi rus va musulmonlar bu xizmat uchun mani munosib ko'rub yubormakchi bo'lg'onlar ekanki, man

buni eshitib, noxushligim uchun safar mashaqqatini ko'tara olmasligimni bayon etdim. Zotan men maktab va madrasalar uchun bo'laturg'on qurultoyig'a borgan edim. Yo'llarning bog'lang'oni uchun qurultoy mavquf qoldi. Bovujud shul bulturg'idagi komissiyaga bordim. Madrasalar pro'g'rommasini ko'rub biroz zichlashtirmoqg'a taklif etdim. Chunki mutasarruf pro'g'romdagi darslarni madrasalarg'a kirguzmak bilan unday darslarni aytaturg'on mudarrislar yo'qdur... Fanning ibtidoiy ta'limini ko'rmagan kishiga kirguzub ta'lim bermakdin foyda chiqmaydur. Oxirinda shuni mo'al-taassuf iqror etamanki: siyosiy, ilmiy, maishiy va askariy yo'llardan zamon bizdin ko'b ishlar talab etadur va bu ishlar chun zamonimiz musoid-dur. Ammo bizda ishlayturg'on odam nihoyatda oz va bori ham ishlaymaydur va yoinki egri ketadur. Bu fursatlar o'tganlaridek o'tub ketar. So'ngra pushaymonlikdin boshqa qo'lda bir narsa qolmas, masalan, hozirda askariy va ilmiy ishlardan qochamiz-kim, bu bir bolaning maktabdin qochg'onining o'zginasidur.

*«Mehnatkashlar tovushi» g., 1918-yil 2-avgust*

## MAQOLA VA CHIQUISHLARGA JAVOBLARDAN

Mo'tabar rasmiy «Turkiston viloyatining gazetisi» 32-raqamida «Oyna»ning «Sart so'zi majhuldur» maqolalarini yoqturmay va ham boisi fitna va siyosiy deb yozadur. Biz kamoli ehtirom ila bayon qilurmizki, mazkur maqolalarning «boisi fitna va yo siyosiy»ligig'a aqlimiz yetmaydur. Bizcha, ul maqolalar tarixiy, voqeiy va ilmiy bo'lub hamda oni biz ijod qilganimiz yo'q, balki bizni yozganlarimiz muallimi muhtaram O'stromo'f va janob Sherali Lapin va boshqa n-asoro va musulmon muharrir va olimlarning bir necha sanalar muqaddam qilgan bayonini yozmoq va o'z mushohidotimizni arz qilmoqdan iborat edi. Takror aytarmiz, bizni (ng) maslakimiz ilmiy va faniy bo'lub, siyosatg'a aqlimiz erishmaydur. Mo'tabar «Turkiston viloyatining gazetisi»g'a 10 sanadan ziyoda bir muddatdan beri har sana bir necha maqolalarimiz mudiri muhtaram O'stromo'f janoblarning musoadalari ila yozilib kelmakda bo'lub, ul janob maslaki o'jizini «musulmonlarning rus madaniyatig'a tashviqchiligi»g'a ilm hosil etgan bo'lsa kerak. Albatta, biz loyxiti emas, balki

«Sart so‘zi majhuldur» maqolalarig‘a xato bordur. Lekin muni «boisi fitna va siyosiy» deganlarig‘a, to‘g‘risi, ajabg‘a qolarmiz. Digar tarafdin, muhtaram hamdinlarimizdan ba‘zilari bizni rus missyo‘nerig‘a tobe’ bo‘lgan va xalqni rus qildurguchi, deb bilmasdan iftiro qiladurlar.

Boqiy, afvu qusur marjudur<sup>1</sup>.

### «KITOBAT UL-ATFOL»<sup>2</sup> (1908) DAN

...Turkistonning qadim maktablaridagi bolalar 4–5 yil o‘tkargandan so‘ng xat mashq qilib, ba‘dinda insho yoza-durlar. O‘shal insholar nihoyat mushkul suratda arabiy max-lut\* forsiy va turkiy yozilgandurki, shogirdlar nari tursun, ba‘zi maktabdorlar zo‘rg‘a bilur. O‘yla\* mushkul iboratlik uzun insholar, albatta, bola zehni ochmay, balki fikrini yo‘q bo‘lushig‘a sabab bo‘lur. Biljumla mamoliki islomiyaning maktablaridagi bolalar uchun yengil suratda insho tayyor-lanubdurki, ibtidoiyya, rushdiyya, e‘dodiyya maktab talabalarini har birig‘a muvofiq suratda insho ta‘lim beriladur. Ya‘ni shogirdlar ibtidoiy maktabg‘a kirib, qalam yurguzgonidan so‘ng har nav maktub ta‘lim olmoq ila batadrij usuli tahrir va kitobati zamoniya va mahalliy ham adabiyoti milliy tahsilini boshlab, bora-bora tahsillarini oxirig‘acha mahorat hosil etadurlar. Biz ham shul qoidag‘a binoan majmuaning kitobat va insho unvonida avlodi vatan uchun rasmiy va xu-susiy hamda Turkistonning shar‘iy va milliy mahkamalarina ma‘mul\* barcha vasoyiq\* hujjatu biljumla musulmon valasno‘yi upraviteli (nohiya mudiri) huzurinda bo‘laturgon doznaniya, protokol, qabohatnoma va rasmiy har nav maktubotlarni muhtaviy\* bir necha juzdan murakkab bir asar nashr etmoq amalinda eduk. Shu maqsadg‘a ushbu «Ki-tobat ul-atfol»ni nashri ila shuru’ etdim. Maktabimizni asosi bolalar va barcha talaba toqatincha «tavhidi lison»\* ta‘mim\* va tafhim\* maktuboti turkiya va forsiyadan iboratdur. Maa fihi vatanimizdagi kotib va muharrirlarning fikrig‘a, ba‘zi nuqtalarg‘a rioyani lozim bilindi. Inshootning\* kelar juz‘ilarining tadriji tavhidi(ni) lisong‘a xodim ham turkiycha va forsiycha adabiyot

<sup>1</sup> Qusurni afv etish himmatdir.

<sup>2</sup> Bolalar maktubi.



holig'a taqlidan va biroz mufassal yozmoq niyatidaman. Shuni ham aytayinki, Turkistonni qadim va jadid biljumla maktablarig'a forsiy va turkiy nazm va nashr kitoblari maxlut ta'lim o'lunur. Ani uchun inshootlarimiz ham forsiy va turkiy tillarinda muxtalit\* tartib qilindi. Muallim afandilar maktab bolalarig'a mundagi maktublardan oz-oz bo'lub, har kalima va jumla ma'nosini bildirub, saboq va ta'lim bermoqlari va imtihon olmoqlari marju'dur\*. Shul tariqa ila Turkiya, Persiya, Afg'oniston, Hind, Kafkoz va Totoriston mamlakatlari shevasig'a yozilgan barcha maqola va kitoblardan istifoda etmoq ham alar shevasiga qalam ishlatmoq va adabiy til ila har nav xat va tahrirot yozmoq talabamizg'a mumkin va son o'lur umidindamiz.

### Xat yozmoq shartlari

1. Kotib har muddaoni yozmoqchi bo'lganda, o'shal muddaoni o'zi yaxshi tushunub, so'ngra yozsa kerak.

2. O'zi bilmaydurgon lug'atni mumkin qadarincha yozmasun.

3. Har til va lug'at so'zini o'z qoida va imlosi ila yozmoq lozim. Arabiy kalimalarni arabiy harf ila, forsiy va rusiy so'zlarni o'zig'a teyishli tovushi ila va o'qumakg'a mumkin bo'lgudek harf ila yozmoq kerak. Chunonchi: sirot, azim, padar, solo,... Peterburg, Nijni Novgorod...

4. Har kim ma'nosig'a tushunmaydurgon kalima va begona lug'atni so'z ichig'a yozmoq lozim bo'lgonda, harakat qo'ymoq kerak.

5. Xat borib tegadurgon odamni mulohaza qilib, oni fahm va bilishig'a muvofiq yozmoq lozim.

6. Birovni ko'r, kar, o'g'ri, hammor\* va shunga o'xshash ayb va yamon sifatleri bo'lsa, ani ismini yozganda o'shal yamon sifatlerini yozmoq ayb va mamnu'dur\*. Magar yozilmog'i lozim bo'lgan suratda (chunonchi hukmnomalarda)...

7. Yozilaturgon so'zlar ichig'a har kim bilmayturgon lug'at mumkin qadarincha yozmasg'a va inchunun, avomcha va ko'chagi iborat va ayb sanalaturgon kalima va laqablarni yozmasg'a kerak.

8. Xalq orasinda butun unutulgon eski forsiy kalimalarni qasddan yozib, o'quvchilar zehnini tashvishg'a solmaslik behroqdur.

9. Turkiycha yozilur ekan va iboratni turkisi bo'lub tu-

rub, ani o'rnig'a rusiy va ajnabiy ismini yozmoqni ahli donish man' qilgandurlar.

10. Ahli fan, ulamo va udabog'a maxsus yozilaturg'on xatlar, mahkama va dorulqazo maktublari, ilmiy va siyosiy maqolalar yaxshi va adabiy suratg'a yozilsa kerak. Munday maktublarda arabiy, forsiy xatg'a rusiy va fransaviy ba'zi bir ism va lug'atni yozmasg'a iloj yo'qdur. Bovujud shul baqadri imkon o'shal so'zlarni turkiy yo forsiychasini topib va topilmaganda jumla ila tafsir qilmoq lozimdur.

11. Xatni kamso'z, serma'no yozmoq kerak. Eron, Afg'oniston va Turkiyadek shikast va ta'limsiz yozmoqni tark qilmoq va xushxat yozmoqg'a sa'y qilmoq kerak.

12. Uzun bir maqola yozgandan so'ng lug'z\* va ma'nosi, nazokat va odobi va tarzi shevasini tushunub, tas'hih\*, ikkinchi martaba yozmoq kerak. Birinchisini — tasvid\*, ikkinchisini — tabyiz\* ataladur. Maqolalarg'a qaysi shahar va mahalladan yozilgona bildurilsa kerak.

13. Maqolani o'z muallimi va yo ahli do'stig'a ko'rsatib, sahv-u xatolarini bilmoq kerak.

14. G'azab va xafalik va yo nihoyat xursand va behushlik vaqtlarda xat yozmay, holoti daraji e'tidolg'a\* kelganda maktub yozmoq avlodur.

15. Har bir xatni o'qib ko'rub, ba'dinda yuborilsun.

16. Bir nimarsa va yo odamni nihoyat madh va ta'rif va yo yomonlamoq va mubolag'a etmoqdan hazar qilib, barcha holda o'rta qismg'a qalam ishlatmoq kerak.

17. Maktubg'a haqorat, ta'na, hazl, fisq va gunohg'a taaluq so'zlar aslo yozilmasun.

18. Bir kishini to'g'risinda xat yozilur ekan, o'shal odamni oyandagi do'st va yo dushman, yaxshi va yamon bo'lishi va ahvolini tag'yir topilishi ehtimolini yodg'a tutib, xulosa har bir ishg'a dasturilamal hikmat bo'lgon «Xayrul umuri-avsatu xo»<sup>1</sup> hadisi sharifig'a amal lozimdur.

### **Avsof\* va odobi maktub**

1. Yozilaturgon xatlar ikki qismg'a bo'linadur. Biri — umumiy, digari — xususiy. Umumiy xatlar devonxona, qozi-xona, tijoratxonalarda yozilaturgon maktublardurkim, rasmiy atalib, yana shar'iy va urfiy degan qismlarg'a ayriladur.

<sup>1</sup> Tarjimasi: ishlarning yaxshisi o'rtachadur.

Xususiy maktublar ikki kishi orasig'a yozilaturg'on yodno-  
ma, muborakbod va xabarnomalardur.

2. Xususiy maktubni bosh tarafig'a «bismillohir rahmo-  
nir rahim» – xayrul samo iborati va yo shunga monand ismi  
Olloh yozmoq kerak. So'ngra xat borib tegadurgon kishini  
laqab – ismi va yo mansabi sifat va qarobatig'a\* qarab tug'-  
roni ismi Ollodan quyi yozmoq lozim. Ba'dinda xat  
yozadurgonni zikr bo'lg'on sifat va martabasig'a muvofiq  
onga ta'zim va duo qatorindagi iboratlarni yozmoq kerak.  
Soniyan\*, muddao boshlanadur...

### Rumuzlar\*

Alomati savol ?

Alomati nido, taajjub, xitob !

Alomati mu'tariza ( )

Alomati mummayiza « »

Ikki so'zni farq qilaturgon alomat –

Alomati murodafot, ya'ni ikkisi bir pog'onada =

Ozgina turmoq uchun ,

Bayon va tafsil uchun :

Notamom so'zlar, kinoya, mubham\* va mahzuf\*lar  
alomati ...

So'zni oxiri yoki vaqfi tom alomati .

### NAMUNA XATLAR

*Ulug' Tangrim oti ila*

*Mehribon otajonim xizmatlarig'a*

Tangrim soyai davlatingizni boshimdan eksik etmagay,  
aziz qiblagohim!

Bu oqshom uyg'a janobi xalifamni ziyofatg'a taklif qil-  
dim. Onajonim dedilarki, go'sht va birinch yo'qdur, marha-  
mat qilib taomg'a keraklik nimarsalarni olib xizmatkordan  
yuborsalar, xursand bo'lur edim, afandim.

*Qulingiz...*

*Sevikli onam huzuri sharifalarina!*

*Parvardigorim doim sizni eson saqlasun!*

Onajon! Mehribon opamni uyig'a borg'aningizg'a o'n kun  
bo'ldi. Man sizni ko'b sog'indim. Boray desam, maktabdan

qolurman. Ani uchun iltimos qilarmanki, endi uyg'a kel-sangiz, yo'lingizg'a ko'z tutarman, validajonim!

Mushfiqa opamg'a salom aytarmen.

*12-shavvol, yavmul chorshanba.*

*Janobi ustodi kiromim huzuri anvorlarina!*

Parvardigorim fayz-u muhabbat ustodonolarini bizdin eksik etmagay. Boisi donish va saodatim, janobi mavlom! Hazrati vohid al-ato o'tgan oqshom bandangizg'a bir o'g'ul birodar ato etdi. Shul sababli bukun janobi validam xizmatlarig'a turmog'im lozim bo'ldiki, maktabg'a borolmaganing'a janobingizdan afu tilarman, afandim.

*Chokaringiz... 18-zulhijja...*

*Sevikli birodarim va sheriki maktabim!*

Umringiz uzun va ilmingiz fuzun bo'lg'ay! Iydi bosafoi zihig'a musharraf bo'lushingizni do'stona muborakbod etarman, azizim! Marhamatlik parvardigorim ko'b-ko'b iydlarg'a oila va qarindoshlaringiz ila sog'-u salomat yetkurgay, omin.

*Ma'lumingiz...*

*Birodari azizim!*

Dunyoda sabab yo'q. Oxiri har jam'iyat parishon, har xonai ro'zgor vayron bo'lg'usidir. Jahon foniyy, yalg'uz biz ila siz emas, jonliklarning barchasi, hatto, yer-u ko'k hukmi qazo ila yo'q bo'lg'usidir. Boqiy va doim sobit faqat zuljalol hazratlaridur. Bukun va erta hammamiz Tangrining arjai nidosi ila olami arvohg'a ko'chub, ota-boboning muqaddas ruhlarig'a qovushurmiz. Dunyo-yu dun kulfatidan va oloyishidan qutulurmiz. O'lum navbatdur, noguzidur\* va ko'b qo'rqulaturgon nimarsa ham emas. Chunki aning orqasida doimiy tiriklik bor. Va ruhlar boqiydur. O'lumni ilgari va keyin kelishig'a ahamiyat yo'q. Mutlaqo bukun bo'lmasa, ertag'a biz-da ketarmiz. Oning uchun janobi qiblagohini dorulbaqog'a rixlat etganlarig'a haddan ziyoda ma'yus va g'amnok bo'lishingiz ma'qul va mashru' emas. Ollo boshingizni omon etsun. Ota o'lumi merosdur. Biz-u sizdan duo va xayrot kerak. Oh-u voh lozim yo'q. Musibatni o'ziga olmoq foida etmas, balki zarardur. Iymonlik o'lim to'ydur. Ollo taolo ketganlarga iymon va qolg'onlarga umr va sabr bersun. Endi sizg'a lozim

shulki, marhum qiblagoh vasiyatlarini mo‘-bamo‘ o‘rnig‘a keltirub, oilani o‘zingizdan rozi etmoq va otalik vatanini obod va ziyod etib, qadrig‘a yetmak va chirog‘larini o‘chirmaslik lozim. Oilani o‘zingizdan rozi etib, ota arvohini yoddan chiqarmaslik kerak.

Azizim, shuni-da ojizona yozayinki, endi ota o‘rnig‘a oila uchun otadursiz. Va bukundan boshlab boma‘nilik ila otalardek harakatda bo‘lishingiz kerakligini do‘stona arz etarman...

### *Kotib va mirzo afandilardan rijo*

Xatlarda «falon mahalla yo qishloqni fuqarosi» yozilurki, bu yaxshi emasdur. Bizdan boshqalar «...ahli» yozarlar. Bizni muhtaram mirzolar-da fuqaroni (miskinni murodifidur) yozmasdan «ahli» yozsalar yaxshi erdi. Masalan, boyni falon mahallani bechora yo kambag‘ali deb yozmoq yal-g‘on va tahqirdur...

## RASMIY XATGA MISOL

### *Hurmatlu... uyezadini hokimig‘a!*

...shahrini ...qit‘a qozisini ...yili ...oyinda ...raqamli hukmlarin nusxasini ushbuni-la topshurub, iltimos qilarman-ki... sayozd qozilarini so‘rovlarig‘a yuborsalar. Azbaski, mazkur qozi ... so‘m (yoinki bir tanob bog‘) undurub ... o‘g‘lig‘a topshurmoqg‘a hukm qildilar. Mazkur hukmg‘a shariat bo‘yincha manim aytadurgon daf‘i\* va jarhim\* bordur.

...sana ...oyinda.

## «KITOBI MUNTAXABI JUG‘ROFIYAI UMUMIY»<sup>1</sup> (1906)dan

...Asri hozirni tashviqoti ila iste‘dodi ojizonamizcha, bataqdiri hay, qadim fan jug‘rofiyag‘a taalluq ushbu kitobni tahrir va jam‘ aylab, «Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy» yod qilib ba‘zi mahalig‘a ta‘rix, riyoziy, muhokamoti diniy, umroniy, siyosiy va andagi kutubi diniyadan bayon va iqtibos\* qilduk.

Fani to‘g‘risindagi ijmol\* va tafsilot turkiy, arabiy, forsiy, rus lug‘atlarig‘a tasnif bo‘lgan o‘ttuz qadar qadim va

---

<sup>1</sup> Tarjimasi: Umumiy jug‘rofiyadan saylanma kitob.

jadid kutub va rasoili jug'rofiya, hay'ati riyoziy, tarixiy, tabiiylardan mo'tabar nusxa va har guna mazkur lug'atlardagi gazit — jarida, atlas, xarita, kurrai masan\* — kurrayi musattaha\*, istaticheski majmualardan jam' va tartib qilingandur.

Ushbu tartibotimizni o'z sarfim ila bosturub, ilm va xabardo'st ahibboi\* ahli Vatan ma'razu\* mahful\* ilmiyalari'ga manzur qilib, tas'hihi sahvini rijo etmoqni munosib ko'ruldi. Asar va tahrirotimni xatiyyot\* navoqisdan\* mubarroligig'a\* da'vom yo'qdur.

G'alatu sahv bar manu tu ravost,  
Bar jahon ofarin g'alat naravad<sup>1</sup>.

Matlabim arzi hunar va izhori fazl emas, ahli vatang'a qo'lumdan kelguncha bir xidmatdur...

...Insonni nuqson va xatodan xoli bo'lmasligi har bir insonga ma'lum. Biz ham insonmiz. Voqe' bo'lgon sahv-u xatolarim hasan niyat va kambizoatligimg'a bag'ishlanadur umidindayam.

Har firqa arbobi zakovat va fatonat asarimni tas'hih va ikmolig'a nashru ta'mimg'a himmat va muovinat buyursalar, minnatdor va shukurguzor bo'larimni arz va insofi insoniyatni tas'hih, tadqiq va tanqidig'a asarimni havola qilarman.

Otiyag'a\* bayon bo'lgan fan va ilm to'g'risig'a biz hanuz komil emas, navqadammiz. Yana jug'rofiyai olam va ahvoli zamon bu olami ro'zgorni inqilobi va ulumi asriya, fununi zamoniyani taraqqiysi ila har on tag'yir topadur. O'shal tag'yir va tabdilotdan ba'zini otiyag'a zikr qilindi. Ertag'a yana boshqa hay'at va surat ila bu olami kun va fasodg'a necha vuquot, tabdilot, kashfiyoti jadida vujudg'a kelishi tabiiydur. Lohaza\*, bu asarni ba'zi mavodu\* axborig'a, vuquot oyanda muxolifat qilsa kerak. Hamchunonki, jug'rofiya va boaxboroti mutaqqaddimin hukamog'a fununi holiya\* muxolifat etgani kabi...

### «Jug'rofiya» degan so'zni ma'nosi

Jug'rofiya degan so'z yunon(cha), lug'ati arabiyag'a ta'rifi arz manosig'a, ya'ni yer va tufroqni bayon qilaturgon ilmni ataydur. Jug'rofiya ilmni necha nav' qoida va bayonlari

<sup>1</sup>Mendagi sahv-u xato sening rizoliging bilandur, beayb Parvardigordir.

bo'ladur. Anga qarab ushbu ilmg'a teyishli bayon va fanlar bir necha ism ila ataladur. Chunonchi, Yerni shakli (gavda — hajm)dan, osmon ila Yer orasidagi xosiyati va osmondagi nimarsalar ila nisbati va harakatidan bayon qilaturgon ilmni «jug'rofiyai riyoziy», yerni xosiyati, tufroq past va balandligi, har xil giyoh va konlari, tog', daryo, ko'l, mijoz va havosidan bahs qilaturgon ilmni «jug'rofiyai tabiiy» ataladur. Yer yuzidagi katta hodisalar ila urug', hukumatdorlik, xulosa, yer ustig'a bo'lgan voqealar to'g'risinda har bir nav' ishni ushbu ilmg'a bayon qilib, jug'rofiya kalimasini oxirig'a o'shal ishg'a taalluq ilm va fanni oti qo'shuladur. Chunonchi, «jug'rofiyai tarixiy», «jug'rofiyai siyosiy», «jug'rofiyai umroniy» va boshqalaridek. Xulosa, bu zamong'a jug'rofiya ilmi dunyoni va andagi xaloyiq, hayvonot, umronot va har naki dunyog'a bordur, bilduraturg'on kerakli, bir ilmiy jahonnamodur...

### **Jug'rofiya qachon paydo bo'lgan?**

Tarix va jug'rofiya kitoblarig'a yozilibdurki, jug'rofiya ilmi avval martaba Misr mamlakatig'a Hazrat Musodan ilgari, fir'avnlr zamonig'a boshlanib, Yer, tufroq, dengizlar borasig'a bayonotlar yozilib, xarita — kartag'a o'xshash «planlar» ixtiro bo'lingonligi ma'lum bo'ladur. (Fir'avnlr zamoni hijratdan 3—4 ming sana ilgari edi. Va ilgari o'tgan Misr podshohlarini barchasini fir'avn ataladur.) Chin mamlakatig'a ham ushbu ilm siroyat qilib Yu degan podsho Xitoy mamlakati xaritalarini chiniiy kosalar ustig'a naqsh qildurubdur. So'ngra ushbu ilm yunon xalqiga siroyat qilib, alar zamonig'a rivoj topibdur. So'ngra navbat rumiylarg'a tegib, Iskandari kabirni Erong'a qilgan safari sabab bo'lub, hozirgi Turkiston, Hindiston, Sibir mamlakatlari dunyo odamlari yoinki yunoniy va misriy odamlarig'a bilindi. Iskandari kabir miloddan 350-sana ilgari tiriklik qilar edi. Ani ustodi Arastu hakim bu ochilgan maktablar to'g'risig'a bayonnoma-u kitoblar yozib, jug'rofiya ilmini rivoj berdi.

Ushbu hakim miloddan 384-sana ilgari tavallud bo'lub edi (sanai milodiy tavallud hazrat Isodan, sanai hijriy payg'ambarimizni Madinag'a ko'chganlaridan hisoblanadur).

So'ngra Istrabo<sup>1</sup>, Batlimus<sup>2</sup> degan yunoniy olimlar jug'rofiya va hay'at ilmlari to'g'risig'a yaxshi kitoblar tasnif qilib, bu ilmlarni ko'p rivoj beribdurlar. Alarni kitobi yunon tilig'a yozilgan emish. Istrabo'n miloddan o'ttuz, Batlimus sakson sana so'ngra vafot qilibdur.

Osmon to'qquzdur va Yerni atrofig'a aylanadur, degan kishi ushbular va nizomi mahdud egasidur.

Dini islom zohir bo'lgandan so'ngra musulmon ulamolari, ya'ni arablar Andalus, Bag'dod, Shom, Misr mamlakatlarig'a har xil ilmlarni nihoyat rivoj ila o'qub, aqliy ilm va fanlar to'g'risinda ko'p tasnifotlar qilganlaridek, ushbu jug'rofiya ilmini ham avval martaba yunoniy tilidan arabiyg'a tarjima qilib, o'z bilish va tajriba va ko'rgan mamlakatlarini anga qo'shub, sharh qilib, o'shal zamonna(ng) dunyo va quruqligini bilib, jug'rofiya ilmini taraqqiysig'a sa'y qilibdurlar. O'zlaridan ilgari ulamog'a noma'lum turgan yerlarni va mamlakatlarni ochib, o'z musulmoniy jug'rofiyalarig'a yozdilar.

Xulafoi Abbosiyani yettinchisi Abdulla al-Ma'mun bin Xorun ar-Rashid zamoni 198-sanai hijriyag'a va andan so'ngra madrasalarg'a yunoniy ulamolardan vaqtincha mudarris tayinlanib, musulmon ulamolari yunoniycha o'qub so'ngra barcha ulumi aqliyai yunoniyani tahqiqg'a boshladilar. O'shal zamong'a jug'rofiyag'a taalluq «daraja hisobi»g'a amaliyot — o'lchov qildilar. Xulosa: barcha ulumi aqliyani bu kungi daraja taraqqiy qilishig'a ulamoi ahli islom sabab bo'ldilar. Jug'rofiya, hay'at, riyoziy, tib, hikmat, kimyo, hisob, ilmi tabaqot ul-arz<sup>3</sup> va boshqalarig'a ko'p kitoblar tasnif qilib, rasad va asbob iste'mol qilib va mazkur ilmlarni ba'zisi, chunonchi, kimyo, ilm al-arz fanlarini ixtiro va ijod qildilar. Mazkur musulmon ulamolardan bir nechalarini tasnif etgan kitoblari ila munda yozarmizki, u jumladan 290 tarixi hijriyag'a Abulqosim Ubaydulloh «Kitob al-masolik va-l-mamolik» va «Kitob as-

---

<sup>1</sup> **Strabon** (miloddan oldingi 64/63-yillar — milodiy 23–24-yillar) — qadimgi yunon geografi, tarixchisi; 17 kitobdan iborat «Geografiya» asarining muallifi.

<sup>2</sup> **Ptolomey** (taxm. 90–160-yillar) — qadimgi yunon munajjimi.

<sup>3</sup> Ilmi tabaqot ul-arz — yer qatlamlari ilmi.



samo»ni tasnif qilgan va jugʻrofiya toʻgʻrisidagi kitobi Fransa va Girmoniya tillariga tarjima boʻlgandur. Abu Isʻhoq Istaxriy «Kitob al-aqolim»ni, Abulqosim Marxitdiy hayʻatgʻa «Taʻdid al-kavokib» kitobini 390-sanagʻa, Ibn Havqal Tujjor «Kitob al-masolik va-l-mamolik va-l-magʻoriz»ni 28-sana sayohatidan soʻngra tasnif qildiki, farang tillarigʻa tarjima boʻlgandur. Abul Fido VII asr hijriyagʻa «Taqvim al-buldon» nom kitobi jugʻrofiyagʻa tasnif qildiki, farang tillariga tarjima boʻldi. Fuqahoi shofeʻa<sup>1</sup>dan Sirojiddin Hifs «Xaritat ul-ajoyib» kitobini toʻrt asr ilgari tasnif qildi. Sakkizinchi qarn\* hijriyagʻa arab ulamolaridan Abu Abdulloh ibn Batuta 25-sana doimiy sayohat qilib, oʻz vaqtindagi dunyoni hammasini koʻrub, jugʻrofiya va bir necha tasniflar qilganki, baʻzisi farangiy tillarigʻa tarjima boʻlgandur. Oltinchi asr ulamosidan Muhammad binni Abulqosim Abulfattoh Shahrisoniy «Kitob al-mulk va-l-nahli» bir necha farangiy tillarigʻa tarjima boʻldi. VIII asr ulamosidan Shihobiddin Abul Abbosni oʻttuz jilddan ziyoda «Masolik al-absor fi-l-mamolik va-l-amsor» ismlik kitobi Parij shahrigʻa bosildi. Mundan boshqa musulmon donishmand va ulamolaridan Abulfaraj Bagʻdodiy, Yoqut Hamaviy, Masʻudiy, Bahrom Damashqiy, Ibn Ayoq, Abu Ubayd al-Bakriy, Sharif Idrisiy, Samarqandiy Ali Qushchi, Ulugʻbek Koʻragon, Abu Ali ibn Sino va gʻayrilariki, tarix va jugʻrofiya va hayʻatgʻa tasnifot qilib edilar. Farang — Ovrupo tillarigʻa yuzlar yilgʻa ilgari bilinmagan va eshitilmagan jazira, mamila musulmon ulamosini kitoblardan necha yuzlar ila tarjima va tabʻ boʻldiki, jugʻrofiya ilmini bukungi taraqqiysigʻa qarun vasatadagi\*, yaʻni besh yuz yil ilgari oʻtgan ulamoyi islomiyani sabab boʻlishigʻa kimsa munkir boʻlolmaydur. Oʻshal islom ulamo va sayyohlari Yer yuzini ahvoli jugʻrofiyasini mufassal yozib, yana Yerni ich tarafini ahvolidan bahs ochib, yangi ilmlarni boshlab, xulosa misriy, yunoniy zamonlaridan koʻra dunyoni kattaroq qilib olam ahligʻa bildurdilar, deb moʻtabar kitoblargʻa yozilgan va ahli vuquf va tarix oʻqiydurgon odamlargʻa maʻlumdur.

Musulmon ulamolaridan soʻngra farangiylarni ahli donishi va Ovrupo olim va sayyohlari dengiz va quruqlikni har tarafigʻa arablardan ziyoda himmat va gʻayrat ila yura boshlab,

<sup>1</sup> Shofeʻilik mazhabiga daxldor faqihlar.

dunyomizni ibroniy, yunoniy, arabiy zamonlaridan ko'ra xeyli kattaligini bilib va dunyo ahlig'a bildurdilar. Avvalgi zamonlarga oti eshitilmagan Amrika, Po'liniziya, Orazi Qutbiyya va minglar ila jaziralarni topib, hozirgi barcha mamlakat va jazira va dengizlarni masohati\* ila hamag'a bilinmoqig'a bois bo'ldilar. Dunyo ilmi birdan rivoj topdi. Sanai 1450-milodiy — 854-hijriydan boshlab, bani odam ilmig'a dunyomiz avvalgidan ko'ra kattaroq bo'lishig'a Ovrupo donishmandlari xizmat qilib va o'z davlat va millatlarig'a ko'p naflar yetkurdilar.

898-sanai hijriyag'a farangi toifasidan Xristoforo'f Kolumb degan ilmi riyoziyg'a dono va dengiz safarig'a mohir kishi dengizg'a o'z ishig'a borib turub, Amrika yerlarini topdi. O'nlanchi asr<sup>1</sup> hijriyag'a Rusiya odamlaridan Yermak degan kishi hozirgi Sibir mamlakatini kashf qilib, rusiya hukumatig'a qo'shdi. XI asrni avvalig'a beshlanchi qit'a yerimizg'a tobe' Po'liniziya atalguvchi ko'p adad jaziralarni Ovrupo donishmandlari topib, o'z hukumatlarig'a tobe' qildilar. 1700 lanchi yilg'a Rusiyag'a imperator bo'lib turgan Petr a'zam podshoh zavjasi (malika Yekaterina) amri ila Aziyya qit'asini shimoli-sharqi tarafig'a azbaroyi kashfiyot uchun ikki kema yuborildiki, 1741-sanai milodiyag'a Bering, Cherikof degan kemachi kaputanlar Shimoliy Amrikag'acha borib, Sanika degan jazirani topib, Yangi Arxangil degan shaharni bino qilib, Bering bo'g'ozini topdilar. Xulosa, uch-to'rt asrdan beri yildan yilg'a ilgari bilinmagan va eshitilmagan jazira, mamlakat va qutblar tarafidagi yerlarni ahvoli farangiy — Ovrupo ulamoyi jug'rofiyyun va sayyohlarini g'ayrati ila olam yoinki ilm ahlig'a bilindi va farangiylarni din va dunyolarig'a ushbu sayohat va jug'rofiya ilmi nihoyat ko'p naflar yetkurdi. Hanuz jug'rofiya ilmni rivojig'a sa'ylari bordur. Barcha maktablariga o'qitadurlar. Hozir har bir katta davlat va hukumatlarni «jamiyati jug'rofiya» degan katta majlislari va ul majlislarni ulamoyi jug'rofiyyundan chlone — a'zolari bordur. Dunyodagi barcha jamiyati jug'rofiyani bir-birig'a xat-u xabari bo'ladur. Yangi topgan nimarsa va yangi sayohatlaridan bir-birig'a xabar beradur. Hozirgi jug'rofiya ilmi nihoyat martaba

---

<sup>1</sup> O'ninchi asr. Muallif Sibir istilosini Rusiyaning rasmiy hukmron nuqtayi nazaridan yoritadi.

tuzatilib, mukammal bo'lgandur. Xulosa, jug'rofiya ilmig'a ul misriy, rumiy, yunoniy odamlari, so'ngra musulmon ulamo va sayyohlari, uchunchi martabag'a – farang sayyohlari xidmat qildilarki, har birini ahvolig'a ilmi tarix va jug'rofiya shohid...

### **Turkiston donishmandlari**

Aqliy va fanniy ilmlarg'a kitob tasnif qilgan musulmon ulamo va hukamolari nihoyat ko'pdur. Inchunin, Turkiston muzofotig'a o'sub shar'iy va aqliy ilmlarg'a kitob tasnif qilgan nihoyat mashhur ulamolarni adadi necha yuzdan o'tadur. Bu kitobimiz aqliy va fanniy ilmlarg'a taalluq uchun aqliy va fanniy ilmlarg'a kitob tasnif qilgan va nihoyat mashhur Turkistoniy ulamo va hukamo va muarrix musanniflarni\* munda yozarmizki, ushbudur. Agarda aqliy va naqliy ilmlarg'a kitob tasnif qilgan Turkiston ulamolarni hammasini ahvoli va tasnifotini yozmoq lozim bo'lsa, ushbu kitobimizdan ham kattaroq bir kitob tayyorlamoq kerak bo'latur. Shayx ur-ra'is Ibn Sino. Bu Ali lug'at, mantiq, jug'rofiya, musiqa, axloq, kimyo, abtoli ahkomi nujum, tabiat, mofuq at-tabiat, hikmat, tib, rasad, nujum, ilmi nabotot, ilmi tavhidg'a yuzdan ziyoda kitob tasnif qilgandurki, musulmon hukamolarni avvalidur. Aksar kitobi Ovrupo tillarig'a tarjima bo'lgan va farangiylar Avisin ataydurlar. Vafoti 428- sanag'atur. Abu Nasr Farobiy zamonidagi barcha tillarni bilar ekanki, «qonun» degan asbobi tag'anniyni\* ijod qilib ekan. Barcha tasnif qilgan kitobi 80 qadar. Va ilmi tavhid, fiqh, musiqiy, riyoziy, hay'at\*, mantiq, hikmat ilmlarig'a tasnifoti bor. Vafoti 339-sanag'atur. Xoja Faxriddin – hikmat, tib, falakiyot, hay'atg'a tasnifoti bor, vafoti 868-sanag'a. Hakim Azraqiy Marviy – hikmat, tib, she'rg'a. Badriddin Samarqandiy – tibg'a. Najibiddin Samarqandiy – tibg'a. Abdurahmon Xorazmiy – hozirgi nasta'liq xatni ijod qilgan, vafoti 9-asri hijriyag'a. Abu Yazid Balxiy – tib, hikmat, tashrihg'a\*. Abdurahmon Marvoziy – hay'at, tib, hikmatg'a. Abdurazzoq Hirotiy – tarixg'a, vafoti 887-sanag'a. Abu Ibrohim Gurgoniy – tibg'a, 531- sanag'a. Sharif Xorazmiy – tibg'a, Ahmad bin Tabib Saraxsiy – tib, mantiq, jug'rofiya, tarix, hikmat, musiqi, ilmi tavhid, falakiyot, ilmi jabrg'a, vafoti 283-sanag'a, barcha tasnifoti

50 qadar. Abu Mash'ar Balxiy – hay'at, nujumg'a, o'ndan ziyoda tasnifi bor va ilmi hadisg'a shug'li ko'p ekan, vafoti 286-sanag'a. Abu Ja'far Xorazmiy – yunon tilig'a mohir, nujum, ilmi jabr, jug'rofiya, hikmat, hay'atg'a tasnifi bor. Ahmad Farg'oniy – hay'at, nujumg'a tasnifoti borki, lotin tilig'a tarjima bo'lgon, vafoti 226-sanag'a, Muhammad Chag'miniy Buxoriy – hay'atg'a, mo'tabar kitobi bordur. Ali Qushchi Samarqandiy – hay'at, jug'rofiya, sarf, hisobg'a tasnifoti bor, vafoti 879-sanag'a. Shamsiddin Samarqandiy – handasa, riyoziyag'a tasnifoti bor, vafoti 600-sanag'a. Mirzo Ulug'bek Ko'ragoniy Samarqandiy – hay'at, nujumg'a go'yo mujtahid ekan. Samarqandg'a rasadxona bino qildi. Zij kitobini tasnif qilganki, farang tillarig'a tarjima bo'lgan, vafoti 853-sanag'a. Muhammad Xo'jandiy – hay'at, nujum ulamosidan va usturlob iste'mol qilingandur. Ali binni Mojur va o'g'li Hasan – hay'atg'a tasnifoti bor. Abdulloh Farg'oniy – hay'at, riyoziy ulamosidandur. Abu Rayhon Xorazmiy – yunon, hind tilig'a mohir, 40 sana sayohat qilib, tarix, jug'rofiya, nujum, falakiyot, tib, tarixi tabiiy, hay'atg'a 26 mujallad kitob tasnif qilgon va bir nechasi farangiy tilig'a tarjima bo'lgan, vafoti 430-sanag'a. G'iyosiddin Samarqandiy – riyoziy ilmig'a mohir edi. G'iyosiddin Muhammad Hirotiy – tarixga tasnifi bor, vafoti 942-sanag'a. Muhammad Farg'oniy – tarixga tasnifi bor. Hofizi Abro' Hirotiy – tarixga tasnifi bor, vafoti 834-sanag'a. Abu Said Sam'oniy – 30 jild tarixga tasnifi bor, vafoti 562-sanag'a. Abdurazzoq Samarqandiy – jug'rofiyag'a tasnifi bor. Mir Abdulkarim Buxoriy – tarixga tasnifi borki, farangig'a tarjima bo'lgandur. Bulardan boshqa aqliy ilmlarg'a kitob tasnif qilgan bir necha Turkistoniy donishmandlarni tarix va tarjimayi hol kitoblarig'a ko'riladur. Ushbu mahalg'a shu yuqorig'a bayon bo'lganlar ila iktifo\* qilduk. «Qomus ul-a'lom»<sup>1</sup> («Ilmlarning dengizi») va «Turkiston ulamosi»<sup>2</sup> risolasidan muxtasar naql qilindi.

---

<sup>1</sup> **Sh. Somiy** (1850–1904) 1888–1889-yillarda Istanbulda nashr etgan 6 jildlik qomus.

<sup>2</sup> **I. Gasprali** (1851–1914) asari.

## Jug'rofiya o'qumoqni naf'i

Odam bolasini qancha ilmi ziyod bo'lsa, dunyo, tarix, jug'rofiya ilmidan xabari bo'lsa, shuncha yaxshidir. Bu ilm odamg'a butun dunyoni va ko'b nimarsalarni bildiradur. Dunyo odamlarini din va mazhabi, tiriklik va raftori, taraqqiy yo tanazzul sababi, yaxshi va yamonliklari, mamlakatlarni tinch va osoyish yo zulm va javrg'a turgoni, xulosa, butun ahvoli dunyoni, podsholarni quvvati, davlati, odamlarini odati, yer yuzini ahvolini bildiraturgon ushbu ilmdur. Hozir yer yuzidagi odamlarg'a qaraganda, aksar musulmon toifasi ilm-u fan, davlat va hukumat to'g'risig'a keyin qolib, ilmlik musulmonlarga qaraganda biz turkistoniylar zamonidan be-xabar qolibmiz. Masalan, Xitoy va Hindiston mamlakat va odamlari to'g'risindagi bilgumiz butun bekor va beasldur. Aksar dunyo ishlari to'g'risig'a ham bizlarni bilishimiz xatodur, ya'ni dunyodan xabarimiz yo'qdur. Ovrupo yo Rusiyani o'n besh yashar bir shogirdi bizni ellik yashar savdogar yo mullo taroshimizdan dunyo ilmi to'g'risig'a yaxshi xabardordur. Yer yuzidagi ilmiylik musulmonlarimizni ham bu jug'rofiya ilmig'a sa'y-lari ko'b, faqat biz turkistoniylar bu ilmdan bebahramiz. Zamonamizg'a paraxo'd, temir yo'l, havog'a uchaturg'on asboblar, tiligrof (muxbiri havoyi) va boshqa minglar nav' moshinalar (hikmati tabiiy'ya) degan ilmni xudo xalq qilgon\* kunidan Ovrupo ulamolarini sa'y va g'ayrati ila chiqorildi. Uzoq yo'llar yaqin bo'ldi, bilinmas yerlar bilindi. Oni uchun bilguvchilar istilo qilib mamlakatimizg'a keldilarki, ko'rarmiz va bizlarga siroyat\* qiladurlar. Sharq ila G'arb arosig'a qatnov, muomala, majlis ochildi. Yana ota-bobomiz eshitmagan shaharlar otini eshitarmiz, ko'rmaganlarni ko'rarmiz, bilmaymizki nadur. Yoinki yerni o'rtasi xatti istivog'a\*, kecha va kunduz doim barobar bo'lgan suvratg'a, bizni Turkistong'a na uchun goh uzoq va qisqa bo'lub, kunimiz 9 ila 15 soat arosig'a yuradur? Har qancha yerni shimol yo janubidagi chet (qutb)larig'a qarab borilsa, kun va yo tun uzayadur? Qutblar tarafig'a bir-ikki, hatto, 6 oyg'acha kun botmaydur? Peterburg shahrig'a qish olti soat, yoz 19 soat kunduz bo'lib turadur? Sababi nima, deb bir kishi so'rasa yoinki

bir oy kun botmaydurgon joyg'a musulmonni ibodatlar va amri nahyini qanday barjoy kelturuladur? Yoinki na uchun kecha va kunduzni farqi yer ila osmonchadur? Har shaharni tulu\* va g'urubi\* na uchun oldin va keyindur deb so'ralsa, bizlar, xususan, ulamomiz na javob berarmiz? Bilmaymiz, yoinki «unday bo'lmasa kerak»dan boshqa javob aytolmasak kerak. Bu savollarg'a jug'rofiya o'qumaguncha javob berib bo'lmaydur va jug'rofiya ilmi javob beradur. Shar'iy savollarg'a javob bermoq ulamoyi din zimmasig'a lozimdur. Ammo na foydaki, bizlar xatti istivo\* ila qutb arosidagi hodisa va ixtilof, kecha va kunduzdan xabarimiz yo'qdur. Ani uchun munkir yo mulzam bo'larmiz. Dini islomg'a ushbu sababdan ajnabiy-lardan ta'na tegadur. Mazkur xabarlar va hodisalarg'a munkir bo'lmoq ma'lum bir nimarsag'a munkir bo'lgandekdur. Yerni lo'ndaligi, harakati butun yer yuzidagi donishmandlarga ma'lum emish va ammo biz bilmaymiz. Istanbul, Misr, Hind va Arabiston bo'lsun, har bir o'qugon donishmand musulmon ulamosi ushbug'a iqror va hatto, yerni yurushi, yumaloqligi shariatg'a zarar kelturmeydur, deb kitoblar tasnif qildilar. Faqat biz turkistoniylarg'a ma'lum yo'qdur. Muxtasar shulki, jug'rofiya ilmi katta va kerakli ilm va bilmaslikdan bilmoq, o'qumoq afzaldur, xususan ulamomizg'a, Payg'ambar alayhissalom aydilar: «Holitul hukamoi» («Hukamolar ila aralash bo'lingiz»).

### **Jug'rofiya o'qumoq musulmonlarga lozimdur**

Ba'zi kitoblarimizg'a yer to'g'risig'a har xil so'zlar yozilgan va o'shal kitoblar ko'b yillardan beri o'qulub, fikrimizg'a qolgan. Avomimiz bo'lsa, har na rosti va yalg'on so'z kitobg'a yozilgan bo'lsa yoinki «kalom un-nos biqadri uqulu hum»<sup>1</sup> mazmunicha yozilgan bo'lsa ham inonadur. Bora-bora ul e'tiqodg'a ulamolar ham odat qilib, aralashib, qabihi\* nomal'um bo'lib ketadur. Shul tariqa ishlarni birov sababini so'rasa, yo noto'g'riligini isbot qilsa, tinglamay, durust javob bermay, kofir ko'zi ila anga qaraladur. Shul tariqa xilofi aql va naql so'zlik hikoyat kitoblar bizlarni iste'molimizg'a borki, ilm va xabarlik odam zehn qo'ysa biladur. Chunonchi,

---

<sup>1</sup> Tarjimasi: «Har kimning so'zi o'z aqliga ko'radur».

mutolaamizg'a yurgan ba'zi kitoblarg'a yozilganki, yer yalpoq, bir boshdan boshqa boshig'acha besh yuz yillik yo'l, atrofig'a Ko'hi Qof degan zabarjaddin devori muhiti\* bor. Yer ho'kuz shoxiga, ho'kuz balig'ga, balig' suvg'a, suv havog'a, kazo-kazo (holo osmon to'g'risidagi so'zlarni qo'yduk)... Ammo hozirgi jug'rofiya ilmi tajriba va ro'iyati bashariyyadan bilinadurki, yer kurraviy (yumaloq), ostig'a ho'kuz, balig' yo'q, atrofig'a devori yo'q (muhiti toshdan emas, boshqa) va yer aylanadur, havog'a muallaq turadur. Bizni nazarimizg'a sokin va ammo haqiqatdan aylanadur. Bu aylangani ko'z ila ko'rumay, xususan, to'rt-besh asrdin beri ilm, tajriba, qoidai asbob va aql ila sobit bo'lgandur, deb har bir hukamo xoh musulmon bo'lsun va g'ayri musulmon bo'lsun, aytadur va kitoblarig'a ham yozibdurlar. Bas, ikki yo'l arosig'a qolduk. O'tgan ulamolarni kitoblarig'a yer sokin, yangi ulamolarni kitobig'a yer aylanadur deb ta'kid qiladur. Bu ikki ilm yoinki kitob insonni ko'b tashvish va iztirobga soladur. Hukamo yo ding'a dushman qiladur. Har na bo'lsa, ushbu ixtilof eskidur, chunki Imom G'azzoliy hazratlari va Ibrohim Haqqiy janoblari ushbu ho'kuz, balig' to'g'risig'a «Tahofat ul-falosafa...» (ma'rifatnoma) degan kitoblarig'a ochiq bayon va javoblar yozibdurlar. Va boshqa kitoblarg'a ham ushbu to'g'rig'a ulamolar javob va ta'vil yozib, ho'kuz va balig'ni yo'qligig'a va yerni muallaqligi durustligig'a taslim qilgandurlarki, inson to o'shal arabiy va turkiy kitoblarni o'qub ko'rmasa, girdobi vahshatangiz hayratdan chiqolmaydur. G'azzoliy hazratlari va boshqa muhaqqiqini kirom\* yer va osmon to'g'risig'a har xil dalillarni hikmat va aqli basharg'a qarab ta'vil qilib, musulmonlarni bul to'g'ridagi iztiroblardan najot topishlarig'a sabab bo'lubdurlar. Ushbu ta'villarni\* munda yozmoqg'a mahal yo'q, maqsudimiz jug'rofiyai riyoziy va tabiiydan namuna ko'rsatib, so'ngra yer yuzidagi obodlikdan bayon qilmoq edi. Inshoollo, zamoni oyandag'a ilmi hay'at to'g'risinda bir kitob yozib, o'tgan ulamo va hukamo va hozirgi ulamo va hukamoni ixtilof, dalil va ta'villaridan ochiq yozarmiz (ushbu kitob tayyor bo'lgan va oyandag'a bosilsa kerak, inshoollo taolo). Bizlar bu ta'villar va o'tgan ulamoi ahl shar'iyni aql va hikmatg'a muvofiq yozgan kitoblari va hozirgi ahli shar' ulamoni yangidan tasnif qilgan kitoblarini o'qub ko'rmasa, bexabarona jug'rofiya ilmig'a munkir bo'lub, yerni atrofig'a devori bor va ho'kuz

ustig'adur, desak, jug'rofiyadan xabarli kishi o'z o'g'lumiz bo'lsa ham, bizni aqlsiz fahmlab, yoinki dini haq Muhamma-diyg'a shak keltiradur. Chunonchi, holo aqliy ilmlarni o'qub, ilm dini o'qumagan kishilarni kam e'tiqodligidek.

Agarda jug'rofiya o'qumasak, dunyog'a taraqqiy qilol-maymiz. Dunyog'a taraqqiy qilmasak, din ishlarimizni barjoy keltirolmaymiz. Maa fihi, jug'rofiya o'qugonlar og'iz ila, kitob va gazit ila bahs qilib, jug'rofiya vajhidin bizni dalil aqli ila mulzam qilib, oxiri dinimizg'a ta'na beradur. Ilmi dinni kam bilaturgonlarimizni bo'shatadur. Hozir dunyoni katta shaharlarini maktablarig'a jug'rofiya ilmidan o'qutmoq odat va lozim bo'lubdur. Istanbul, Misr, Arabiston, Hindiston, Rusiya mamlakatlaridagi odamlar va musulmonlar bu ilmdan o'qumoqni lozim bilibdurlar. Rusiya maktablarig'a o'qugon bolalarimiz o'quydirlarki, yer yumaloq va muallaqdur, atrofig'a Ko'hi Qof yo'q, ho'kuz, balig' yo'q. Va alarg'a ma'lumdurki, Peterburgdan bir odam temir yo'l ila Valodivosto'kg'a borub, andan Amrikag'a paraxo'd ila chiqib va Amerikadan yana paraxo'd ila yerni ul tarafi (osti) ila yurub Fransiya mamlakatig'a chiqib, yana temir yo'li ila yurub, xulosa, Sharqdan borub G'arbdan Peterburgg'a kelib, 40 kundan kam muddatg'a yerni bir aylanmoq mumkindur. Xarita — globus va o'qugon ilmlari yuzasidan alarg'a ushbu safar nihoyat ma'lum va sobit bo'ladur. Maktabg'a jug'rofiya o'qumaganlar ham forsiy, turkiy tilig'a yozilgan jug'rofiyalarni o'qub, agarda ilmi diniydan kamxabar bo'lsalar, albatta, dini islomg'a shubha qiladurlar. Endi bu ikki toifa arosig'a kirib, yer va osmon to'g'risidagi naqliy dalillarg'a G'azzoliy...dek muhaqqiqlar so'zlarini bildirmoq kerak. Toki yoshlarimiz va nodonlarimizni e'tiqodi sust va zaif bo'lmasun. Bu bahslar jug'rofiyai riyoziy, tabiiy, tarixiyni o'qub bilmoq ham ulamoyi mutaqqaddimin va mutaoxirin ahli islomni yer to'g'risidagi dalillari va ta'vilot va istidlol\*larini diqqat qilib ko'rmoq ila bo'ladur. Ya'ni ilmi tafsir, hadis, hikmat va hay'ati qadima ham hikmat va hay'ati jadida ilmlarini tabsil va taftish qilmoq kerak. Ilgari zamong'a hukamolarni kashfiyoti qaysi yo'l ilaki dinimiz va e'tiqodimizga irod\* va zarar keltursa, ulamoyi dinimiz favran\* o'shal yo'lg'a bandi vajh tayyorlabdurlarki, kitoblardan ma'lum bo'ladur.

Bukungi hukamoni irodig'a kerakki, bukungi ulamomiz



saddu dalil tayyor qilsalar, lohaza\*, avvalan yangi hukamoni barcha muddao va kashfiyot-u so'zini bilmoq va tarjima qilib, har kim o'z holicha ulamog'a arz qilmoq kerak, toki alar tanqid qilsunlar. Valloh, kelar zamong'a e'tiqodimizg'a zarar keladur. Bas, lozim bo'ldiki, jug'rofiya, hay'at ilmlarini avval o'qub, e'tiqodimizg'a muxolifat qilaturgon joylarg'a vajh etmoq kerak. Ilgari o'tgan yunon hukamolar so'zini lozim bo'lsa, kitoblarimizdan chiqarmoq kerak. Ushbu kitobni oyanda varaqlarig'a «tafsil va tanbih» degan faslig'a ushbu maqsadg'a teyishli ba'zi bayon va shar'iy dalillar yozilgandur, diqqat qilinsun. Hozir na mullo va na avomlarimizg'a jug'rofiyani beradurgon xabari ma'qul bo'lmaydur. Ma'qul bo'lsa, iste'molimizdagi ba'zi musulmoniy kitoblaridan ko'ngli soviydur. Asl afsuslik joyi shudur. Ikki ilmdan ham ko'broq o'qulsa, bu ixtilof va ishtibohlar, tavahhumlar\* yo'q va yakso' bo'latur, dini pokimizg'a e'tiqod mustahkamroq bo'latur. Yerni sayyorligini bilib, yana dini islomni munga moniyi yo'qligini bilsa, ding'a shubha qilmaydur. Holo, yerni sayyor deb aytaturgonlarni xilofi zohirni aytatur deb malomat qiladurlar. Jug'rofiyachilar bo'lsa, shunday odamlarni nodon yoinki dalili qanday dalildur, xilofi nafs ul-amr va aqlni aytatur, deb yana shubha qiladur.

Va ikki taraf arosig'a ma'naviy bir nifoq paydo bo'latur. Olloh bu nifoqni yo'q etgay. Turkiston ulamolari yigirma yil muddat o'qub, xatm qiladurlarki, besh sanasi ilm, ibodat va aqidag'a sarf bo'lsa, baqiyasi yo'q bo'lgan hukamoi yunoniya va farqi zollai muharrirama tarafidan oid bahslarni javobi va xasmi mafuzani mujodalasi ila o'tatur, yaxshidur<sup>1</sup>. Mutaqaddimimiz\* hukamo va farqi zolai asriyalarig'a yaroq tayyorlab, falon bahsig'a bu javob, ul raddig'a bu istidlol deb daloyili aqliy\* va naqliy ila zafar topibdurlar. Hozirgi zamonamizni hukamosi va farqi zola va dahriyasini so'zi irodai kashfiyoti aqliyoti bus-butun boshqa. Va bularg'a yarasha asbob kerakdur. Hukamoi jadid olamni hudus\* va fano\*sig'a qoyil va ammo boshqa nav' e'tiqod va kashfiyotlari borki, ani javobini hama

---

<sup>1</sup> Ma'nosi: ...qolgan o'tib ketgan yunon olimlari va nasroniylarning bahs va muhokamalariga javob berish, muxoliflarning fikr-mulohazalari bilan bahslashishga sarf bo'ladiki, bu yaxshi, albatta.

bilmog‘i lozimdur. Matlabimiz jug‘rofiya edi, falsafa va kalom tarafig‘a moyil bo‘lganimni ko‘rdum. Bu so‘zlarni biz o‘zimizdan aytmay, balki musulmoniy kitoblardan ba‘zisini olib yozduk, ba‘zisini ko‘rduk, bahs va javobini boshimizdan o‘tkarduk.

### **Eski va yangi donishmandlar**

Yer va osmon to‘g‘risig‘a ilgaridagi yunoniy ulamolari ila hozirgi Ovrupo donishmandlarini arosig‘a farq ko‘bdur. Yunoniy va rumiylar barcha osmonlar Yerni atrofig‘a aylanadur. «Yer — markazi olamdur» deb qaror berib edilar. Alarni ba‘zisi Yerni yalpoq va oxiri yo‘q, atrofi Qof degan tog‘ ila ihota bo‘lgan, Yerni to‘rt dan birig‘a odam turaturgon joy bor, baqiyasi noma‘lum va ul tarafi jin va parilarg‘a teyishli deb aytarlarki, yunoniy va ibroniylarni shul tariqa so‘z-u hikoyatlari hammag‘a yoyilg‘andur.

Eski odamlar yerni yetti iqlim sanar edilar. O‘shal qadima qoidalarig‘a qaraganda iqlimni adadi yuzg‘a turmay o‘tadur. Oxirgi vaqtlarg‘a boshqa qoidalar yuzasidan iqlimlarni taqsim qilib yurmoq befoyda chiqdi. Eski hukamolar hozirgi katta besh bo‘lak quruq Yerdan ikki parchasini aslo bilmay, hatto, bilaturgon uch parchani ham ba‘zi joylarini bilib, chetlarini aslo bilmas edilar. Bovujud, shul eski yunoniy va hindistoniy hukamolar Yer yalpoqdur, oxiri yo‘q, fil yo‘ ho‘kuz ustig‘a deb har xil so‘zlarni aytib ekanlar. Bir qo‘lg‘a eski yunoniy va ibroniylar Qafqoz, ya‘ni hozirgi Kafkoz tog‘ini sharqi tarafidan bexabar va shul tog‘ni muhiti olamlarni bilar ekanlar. Yerni sokin va doim turg‘uvchi gumon qilganlaridan ko‘z ila ko‘runguvchi besh sayyorani, Oy va Oftobni «sab‘ai sayyora» deb atar, har birig‘a bir osmon va yurmaydurgon yulduzlarg‘a alohida bir osmon va yana bu sakkiz falakni ustig‘a yulduzsiz bir falak bor deb, jam‘i to‘qquz falak yo to‘qquz osmon qaror berib, osmonlar nihoyat tezlik ila o‘zlarig‘a yopishgan yulduzlar ila birga Yerni olti jihatidan yigirma to‘rt soatg‘a bir martaba aylanib bo‘ladur, deb hukm qilib ekanlar. Shul toifani «ahli hay‘ati mutaqqaddimin»<sup>1</sup> ataladurki, alarni kattasi Batlimus hakimdur. Bizni kitoblarg‘a «to‘qquz falak — na toq, na ravoq» deb yozilgan, to‘qquz

<sup>1</sup> Ahli hay‘ati mutaqqaddimin — qadimiy astronomlar.

falakni ilgaridagi yunoniy, rumiy odamlari taxmin va e'tiqod qilgandurlar. Va ham ushbu osmonlarni «qattig' nimarsa — salb» deb aytur ekanlar. Ammo biz musulmonlarni e'tiqodimizg'a osmon yettidurki, Qur'oni sharifg'a «sab'i samovot» xabar berilgandur (agarda qavli\* hakim hech kerak bo'lmasa musulmon udabo va shuarolari na uchun «to'qquz falak va toq...» deb kitoblarni to'ldirdilar). Ahli hay'ati muta-oxirin<sup>1</sup> Yer, osmon va yulduzlar to'g'risig'a butun boshqa bayon va dalil keltiradur. Qadima hukamoni e'tiqod va taxmini beasboblik va Yer yuzini hama joyini ko'rmagonlikdan butun «g'alat»\*tur, deb yuzlar, minglar ila dalil ko'rsatadurlarki, hay'at va jug'rofiya ilmidan xabardor yuz minglar ila musulmon va milyo'nlar ila g'ayri musulmong'a ma'lumdur. Yangi, ya'ni besh yuz yildan beri paydo bo'lgan hukamolar xoh musulmon va (xoh) g'ayri musulmon bo'lsun, aytadurki, Yerni yumaloqligi va havog'a muallaq turib yumalamog'i of-tobdek ma'lum va shubha yo'qdur, ani bilmog'i jug'rofiyai riyoziy ilmini o'qumoq ila bo'ladur. Biz bu kitobg'a andan ozgina bayon qilarmiz. Hozirgi musulmon ulamolari Yerni harakati lo'nda va muallaqligi dini islom dalillarig'a zarar kelturmeydur, deb arabiy, turkiy tillarig'a bir necha kitoblar tasnif qilgandurlarki, «Ma'rifatnoma» («Tahofat ul-falofa-safa»...), «Tanqid al-osor» «Hay'ati jadida usulini nususi\* shar'iiyag'a tadbiqu\*» va boshqa kitoblar shu jumladandur. Xulosa, yangi hukamolar eski hukamolarni bir necha so'z va e'tiqod va qarorlarini g'alati va noto'g'rilikg'a chiqordilar. Darvoqe', xilofi nafs ul-amr<sup>2</sup>dur. Oni uchun bizni ba'zi kitoblarimizni so'zi yo mo'tabar kitoblarimizg'a hukamoni qavlu\* istidlol\* idin yozilgan sharh va tamsil-u hikoyatlar «naql astki, rivoyat kardaanki, ovardaanki, vaqiyl, guftaandki»<sup>3</sup> degan sarlavhalar ila yozilgan so'zlar, ya'ni hay'at, hikmat, tarix kitoblaridan olinib, musulmoniy kitoblarg'a yozilgan jumalardan ba'zisi xilofi zohir va yalg'on chiqib qoladur. Bularni yalg'on chiqishi qadimi hay'at, hikmat, jug'rofiyani ba'zi joyi tag'yir topilganidandur...

<sup>1</sup> Ahli hay'ati mutaoxirin — so'nggi davr astronomlari.

<sup>2</sup> Xilofi nafs ul-amr — mohiyatan zid.

<sup>3</sup> Tarjimasi: «Aytadilarki, rivoyat qiladilarki, keltiradilarki va shunday deydilarki».

Bir necha asrdurki, yangi asbob va ilmlar paydo bo'lib, ilm va fan taraqqiy qildi. Durbin, xo'rdabin\*, bolun\*, paraxo'd, tilgirof, simsiz tilgirof, dengiz ichig'a cho'kib ketaturgon, havo yuzig'a uchib ketaturgon kemalar, minglar nav hikmat moshinalari va boshqalari ijod qilindi. Bu asboblar ila ahvoli Yer va osmon va ajrom\* avvalgi asridan ko'ra yaxshiroq bilindi. Eski hukamo zamonig'a nishonsiz asboblar chiqdi. Oni uchun eski hukamo sahvini ochiq-ochiq bildiradur. Yangi hukamolar Yerni sayyor, ya'ni oftobni atrofig'a yurguvchidur, oftob bo'lsa «Va-sh-shamsi tajrill mustaqar liha» oyatini xabarig'a muvofiq o'z mehvarig'a mustaqarrig'a\* aylanguvchidur. Yulduzlar va Yer Oftobni o'zig'a nishon tutub, oni atrofig'a aylanadur va shul hisob yuzasidan Oftobni mag'ribdan chiqishi durustdur, deb qoyil bo'ldilar. Bu olam yo'q ekan, so'ngra xalq bo'lib, boz yo'q bo'ladur. Faqat Yer emas, boshqa yulduzlar ham yo'q va fano bo'ladur deb «Hudusi fano»g'a iqror bo'ldilar. Bovujud shul bularni ham ba'zi so'zlari dinimizg'a bahs yetkuradur, ani uchun ulamomizg'a lozimdurki, hozirgi hukamo so'zini bilib, din tarafidan javob va kitob tayyor qilsunlar, hamchunonki eski hukamolarni javobig'a raddig'a o'tgan ulamoyi dinimiz javob va kitob tayyor qildilar. Bukung'i hukamog'a eski hukamo uchun tayyor bo'lgan javoblarni ba'zisi raddiya tushmaydur. Shul vajhdan ulamomizni bilmoqlari uchun yangi ahli hay'at va hukamolarni ba'zi so'zini ushbu kitobg'a yozdim. Hammasini yozmoqg'a agarchi, biz roqimi huruf, hikoyachi bo'lsam ham. Yana takfir\* toshlaridan qo'rqib yozmadim. Ham birdan yozib bo'lmaydur...

### **Yangi hukamolarni so'zidan namuna**

Ahli hay'ati jadida, ya'ni yangi hukamolar aytadurki, Oftob dunyoni o'rtasig'a xalq bo'lubdurki, Atoruddan boshlab qadima besh sayyora va yangi topilgan ikki sayyora va ko'z ila ko'runmay, yangidan durbin ila topilgan uch yuzg'a yaqin sayyoralar va bularni ichig'a biz ustig'a turgan Yerimiz Oftobni atrofig'a har biri o'zig'a teyishli doira – aylanasig'a aylanib yuradurlar! Yerimiz Oftobg'a nisbat uchlanchi sayyora (yurguvchi yulduz)dur. Yurguvchi yulduzlarni hammasi benur va yorug'likni Oftobdan oladur. Barchasi va ul qatorg'a

bizni Yerimiz ham hech bir nimarsa ustig‘a turmay, tegmay (markuz\* bo‘lmay, jismi sablg‘a yopushmay), barchasi havog‘a muallaq va Oftobni tortqich — jozibasig‘a giriftor bo‘lub (ya‘ni Ollo taolo xalq qilgon va hukamo tilincha qonuni joziba sababi ila), o‘zlarig‘a teyishli aylanma maydonni havog‘a aylanib yuradur. Oftob ham biror nimarsag‘a markuz (mixlangan) emas, fazo, ya‘ni Xudo taoloni xalq qilgon bo‘shliq dunyosig‘a ham harakat mehvari va ham harakat jarayoni ila do‘nadur — yumalaydur. Gunbadg‘a\* o‘xshagan qattig‘ to‘qquz osmon ma‘lum bo‘lmaydur. Barcha ajromi samoviy, ya‘ni osmoniy narsalar (ko‘k—bo‘shliq), ya‘ni fazoi lotinoho alhiyya Xudoni maydoni qudratig‘a balig‘ni suvg‘a suzub yurganidek, doim harakatg‘adurlar. Barcha osmonni nimarsalar o‘zig‘a teyishli nizom ila Oftob atrofig‘a aylanib yurub, qoida bo‘yicha oxiri barchasi oldin va keyin fano (yo‘q) bo‘lub, buzulub ketadur. Oftobni nuri ham oxiri ketib bo‘lub, bu olam hozirgi holini yo‘qotib kazo-kazo bo‘ladur. Boz bir tarafdin boshqa olamlar paydo bo‘ladurlar! Ammo mazkur hukamolar hozirgi dunyomiz nega ushbu Oftobg‘a tobe‘dur, xalq bo‘lgonidan beri ushbu kung‘acha va yana yo‘q va fano bo‘laturgon vaqtincha qoidai hay‘ati jadida ila hisoblab, dadillar tayyor qilgandurlarki, ba‘zisi Qur‘on va Hadis xabarig‘a to‘g‘ri va ba‘zisi to‘g‘ri kelmaydur. Hozirgi misriy, turkiy, no‘g‘oyi ulamolari hay‘ati jadidai hukamolarini tayyorlagan kitoblarini o‘qub, bilib va ba‘zi kitoblar o‘z taraflaridan qilibdurlarki, hozirgi hukamoni ba‘zi so‘zi ayni shar‘dur. Va ammo, afsuski, o‘shal kitoblarni o‘qumog‘i bizni Turkistong‘a tezlik ila rasm bo‘lmaydur. Yangi hukamolar osmondagi yulduzlarni ahvolidan eskilardan ko‘ra yaxshiroq ogoh bo‘lubdurlar. Chunonchi, aytadurlarki, yulduzlarni ba‘zisi bizni yerimizdek tosh va tufroqlik, qor-yomg‘urlik nimarsalardur. Mirrix (Mars) yulduzini ustig‘a tufroq, tosh, o‘t, suv, giyoh, bulut, yomg‘ur, qor bordur. Mirrixni giyohlari qizildur. Avvalgi asrlarg‘a yo‘q ekan, o‘tgan asr ichig‘a Mirrixga ikki qanal (katta ariq) paydo bo‘lubdurki, reja tortib qozg‘ondek to‘g‘ri va ikkisini arosi uch yuz chaqirimdan ziyoda. Uzunliklari 5000, eni bir yuz chaqirimdur. Bularni qozilishi ilmi handasa va rejag‘a muvofiq bo‘lgon uchun, hukm qiladurlarki, albatta Mirrixga odam bor va ilmi bizlardan ziyodadur. Odam bo‘lmasa, bu ikki

katta arigʻ qanday tartib ila tayyor boʻladur, deb xayol qiladurlar. Durbin ila Mirrixga qaralsa, dengiz va daryolarini toshquni va suvi tortilgoni va qancha quruq yerini suv bosgani maʼlum boʻlub, yer yuzidagi toshqunlardek muqarrariy fasllargʻa boʻladur. Mirrixni yerimizgʻa yaqin kelaturgon vaqtlari boʻladurki, oʻshal holatgʻa dunyodagi barcha rasadxonalar, Mirrixga rasad va katta durbinlar ila qarab diqqat qiladurlar. Bizni Yerni qutblari doim qor ostigʻa yotgandek, Mirrixni qutblarini qori ham aslo ketmas emish. Oni bir kecha-kunduzi 24 soatdan ziyoda va bir yili bizgʻa qariyb ikki yil boʻladur. Oʻzi yerimizdan olti marta kichik va kecha-kunduz, yoz-qish, kazo-kazolari bordur. Oy (qamar)i ikki adad emishki, har oqshom biri gʻarb, boshqasi sharqidan chiqib yarim oqshomgʻa Mirrixni osmoni (ufqi) oʻrtasigʻa ikki oy bir-biri ila yoʻluqub, har biri oʻz magʻribigʻa ketib, bir kecha-kunduzigʻa bir davrasini tamom qilar emish. Hozirgi hukamolar oʻshal Mirrix oylarini xusuf, yaʼni tutulishini Yerdan turub hisoblab, muntazir boʻlub vaqtigʻa koʻradurlar. Sayyora, yaʼni yurguvchi yulduzlarni hammasi qarongʻu va nurni oftobdan oladur. Bizni Yerimizdek boshqa yulduzgʻa odam boʻlsa, bizni Yerimizni ham yulduzdek yorugʻ koʻrmoqlari tayindur. Yangi hukamolar yalgʻuz Mirrix emas, barcha sayyoralar ahvolini tahqiqlab, voqif boʻlibdurlar. Har biri toʻgʻrisigʻa ajib bayonlari bordur. Yalgʻuz Mirrixni barcha axborotini dalillari ila yozmagʻa besh-oʻn varaq lozim. Ani uchun shugina xabarni tarjima qilib, boshqalarini aniq bilmoq uchun hayʼati jadida kitoblarini oʻqumagʻa kerakligini arz qilarman. Oʻzumni forsiy tiligʻa yozgon hayʼat kitobimni, Xudo yetkursa, bosturub chiqorsam, nihoyat mufassal va ochiq bayon va yulduzlarni ahvoli va xabari anda oʻqulsa kerak. Turkchani bilaturgonlar Istanbul, Qozon kitobfurushlaridan hayʼati jadida kitoblarini talab qilub, oʻqusalar, bahra topadurlar. Mirrixga Yerdek odam borligi, kazo-kazoligi dini islom xabarlarigʻa zarar yetkurmay, balki naf yetkursa kerak. Chunki baʼzi ulamo va tafsir qilgʻuvchilar Yerni yetti qabat va baʼzilari yetti adad, har birigʻa hayvon xalq bor deb yozgʻandurlar. Holo hukamolar barcha yulduzlarni tahqiqlab, oʻz xayollaricha bilgan kishi boʻlub kahkashon (somon yoʻli)-dagi oq-oq bulutgʻa oʻxshagan va yana koʻz ila koʻrunmay,

durbin ila ko'runaturgon «bulut parchalari» to'g'risinda tahqiq boshlab, o'shal parchalarni har biri bizni olami shamsdek milyo'nlar olami shamsni qabatma-qabat, ustma-ust turganlari va muncha nuroniy nimarsalarni, nihoyat bizdan uzoqg'a turganlari sababidan bizg'a abr shu'lasidek ko'runsa kerak, deb qoida yuzasidan hisob qiladurlar. Bu so'zlarig'a qaraganda milyo'nlar ila oftob-u olam bo'lishi lozim keladur. Oftobg'a nisbat sakkizlanchi sayyorag'a ilgari ma'lum yo'q edi. 1346-sanayi milodiyg'a topilgan Neptun sayyorasini oftobdan uzoqligi 4175 milyo'n chaqirim va bizni Yerdan sakson besh martaba katta va doirasini kattaligidan bizni 165 sanamizg'a bir martaba Oftob atrofig'a aylanib bo'ladur. Bir dona qamari bordur, kazo-kazo deb hukm qilgandurlar. Oftobdan so'ngra osmong'a bizni nazarimizg'a katta ko'runaturgon nimarsani biri Oy ediki, eski hukamolar ikkinchi sayyora hisob qilar edilar. Yangi hukamolar Oyni sayyoralik mansabidan tushurub, Yerni tobe'i degan ismni qo'ydilar. Kurrai qamar ustidagi tog', soy, cho'l, o'chgan tog'lar<sup>1</sup> va daralarini durbin ila tahqiqlab, o'lchab, plonini oldilar. Har joyig'a keraklik va munosib ismlar qo'ydilar. Bu yangi hukamolarni qilgan ishlarini o'n bu qadar va ellik muncha kitobqa yozilsa ham tamom bo'lmaydur. Bu tag'yiroq va tabdi-lot yangi ishlar va ajoyiblarg'a sababi ilm, tajriba va sa'ydur. Hikmati ilohiya ila xalq bo'lgon\* Yerdagi nimarsalar tabiatini farang hukamolari yunoniylardan yaxshiroq bildilar, yaxshi va sa'y ila ishladilar. Hikmati tabiiya ilmuni yaxshi tajriba ila o'qudilar. Oni uchun oylik yo'lni kung'a, yillik xabarni daqiqag'a yurmoqg'a, kelmoqg'a asbob tayyor qildilar. Shul tariqa osmondagi nimarsalarni bilmoq uchun ajib asboblar tayyorladilar, ya'ni nazariyoti ilmiyani tajriba ila badihoti amaliyag'a solishturub, amalga kirguzgonlaridan tilgirof, tilifo'n, tilgirofi havoyi, paraxo'd, temur yo'l, bolun, telesko'p, mikrosko'p, kazolar chiqardilar. Va ushbu asboblar sababi ila Yer yuzig'a butun g'alaba qildilar. Shul tariqa osmon to'g'risig'a ham asbob ila eski hukamolardan yaxshiroq ilm hosil qildilar. Holo tilgirof va temur yo'lni natija va xosiyatidan bexabar bir odamg'a bayon qilinsa, hech-hech bovar

---

<sup>1</sup> Yonartog'lar, vulqonlar deyilmoqchi.

qilmaydur, ishonmaydur, balki kuchi yetsa uradur. Muncha jahli bor ekan, albatta, o'lduradur! Oriy, ko'rmaguncha ishonmaydur, ko'rgandan so'ngra, to o'qumasa bilmaydur. Ya'ni u nodon, johil, zamondan, tabiati ashyodan, podoshi sa'ydan... bebahradur. Ilgari zamonlarga osmondagi yulduzlarni, ot, ayiq, ho'kuz(ni) ba'zilar Xudo deb atadilar, parastish qildilarki, ilmni kamligidan ekan... Hozirgi ilm va asboblar ilgarigi zamonga bo'lsa, shunday bukungi ishlar, haqiqatlar, badohatlar ko'bi ilgari shoyon bo'lar edi. Bukung'a balki qanday taraqqiy qilar edi. Agarda bu zamonga ham ilm bo'lmasa edi, osmon, Yer va ashyo to'g'risidagi so'z va bahslar qadima holig'a turar edi. Chunonchi, bir cho'pon va bir toifai sahroyi beilm va befandan so'ralsa, ashyo va olam to'g'risiga 2000 yil ilgari yozilgan afsona va ko'rugan tushlarni aytib va inonadur, nafs ul-amrni\* yalg'on biladur. O'zig'a, dinig'a o'z nodonligidan ta'nani sotib oladur. Hazrati Imom Muhammad G'azzoliy alayhi rahmatul-boriyni marhamat qilganidek, do'sti nodon (sadiqi johil) sifatiga kirib, nodon musulmon dini islomga zarar keltiradur. Ollo taolo shul tariqa nodonlikdan bizni saqlagay, omin...

Yangi ilmdan bexabar ulamolarimiz... chuqur o'ylamay, bizga o'xshash noqillarni yamon ko'rub, yamon ko'z ila qaraydurlar. Bilmaydurlarki, eski hukamo va hay'atchi va sayyohlarni so'zi «hikoyat» maqomiga tafsirlarimizgaacha so'qulgani uchun «Oyati faylasuf so'zidur, hakim va rohib kalomidur» deb bahs qilaturgon hozirgi ba'zi ahli zamonimiz va ajnabiylarga birgina dalil va kam ilmlar oldiga dastai hujjat bo'ladur. Shul sababli asotiri avvalin (eski afsonalar) hisobiga kirgan so'zlardan kitoblarimizni tozalamoq kerak deb goh-goh olami matbuotga dovush (sado) eshitaladur. Taqsirlar, bu so'zni faqat man aytganim yo'q, musulmon donishmandlari aytadurlar.

Darvoqe', hay'ati jug'rofiy, hikmati tabiiya va kazoni bilaturgon yoshlarimiz, haqiqati islomdan bexabarlarimiz eski afsonalarni musulmon kitoblariga ko'rub, musulmon kitoblaridan e'tiqodlari bo'shaydur. Keyingi vaqtga shunday kam e'tiqod yoshlarimiz tez ko'zga ko'runadur. Endi munga bir davo chora lozimdur. Xudoga shukrki, yana chorasi eski va yangi ilmlarni o'qumoq va sa'y qilmoq ila bo'ladur. Ammo afsuski, eskilarimiz, xususan, Turkiston-



g'a eski holg'a va yangilarimiz o'z raftorlarig'a bir-birlaridan xabarsiz va balki nafrat qiladurlar, tonimaydurlar. Ey azizlar, eski va yangilar, bir-biringizdan xabar olmoq va fikringiz, ilmingiz, ishtibohingizni aytmoq, eshitmoq, dardingiz davosig'a chora axtarmoqingiz lozimdur. Valloh, bu holat ila biz kundan kun zohiran va botinan keyin qolarmiz. Koshki faqat o'zimiz keyin qolsak, balki ahkomi diniyamiz keyin qolgandek, e'tiqodimiz ham keyin qolib dunyo va oxiratg'a zomin va mas'ul bo'larmiz. Ollo taolo barchamizni bee'tiqod va nodonlikdan saqlab, ilm va xabardan bonasib etgay. Lekin yalg'uz duo ila bo'lmas, sa'y va g'ayrat lozimdur...

### **Yer aylanganda ustidagilarni yiqilmasligi**

Maqnatus, ya'ni ohanrabo temurni, kahrabo somonni o'zig'a tortib saqlab turgan nimarsalar har kimg'a ma'lumdur. Maqnatus va kahrabog'a temur va somon parchalarini tirmashgan va turgan joylarini, agarchi past tarafg'a ag'darilsa va aylantura berilsa, ostun-ustun qilinsa va har qanday harakat berilsa ham tirmashib turub tushmaydur. Ya'ni mazkur ikki nimarsani zotidagi xalq bo'lgan quvvai jozibasiz yubormaydur. Modomiki, alarni quvvatidan ziyodacha bir quvvatg'a tobe' bo'lmasalar, o'shal temur va somon andan ayrilmaydur. Bu tariqa quvvai joziba Yer, Oftob va barcha yulduzlarg'a va hatto, barcha ashyoga baqadri jism va holi bor. Ammo ba'zig'a ko'b va ba'zig'a oz emish. Yana bir quvvai dofe'ani\* borligidan bu kurralarni Oftobki, hammadan katta va quvvati ko'b va zo'rdur, tortib ololmaydur, agarda hozirgi masofatidan yaqinroq bo'lsa, Yerimizni Oftob o'zig'a tortib olmoqi qoidadandir...

### **Atrof\*. Jihoti\* asliya. Xarita. Plan**

Qutb shimoliy yulduzi, ya'ni Temur Qoziq tarafi «shimol» jihati hisoblanadur. Ani o'ng tarafimizg'a olib, kun botishg'a qaraganda, yuzimiz «g'arb», orqamiz «sharq», chap qo'limiz «janub» taraflarig'a bo'ladur. Qiblanamo (kompas) degan asbob shimol tarafini bizg'a ko'rsatadurki, andan iqlim va mavzeyiga qarab qibla tarafini taxmin qilinadur. Ammo

yer yuzini har iqlim va qit'asig'a qibla tarafi boshqa va bir-biridan farqlikdir. Chunki ba'zi mamlakat Baytulloni sharq, ba'zi g'arb, ba'zi shimol va janub taraflarig'adur. Ani uchun Yer yuzidagi mamlakatlarni qiblasi boshqa-boshqa taraflarg'a moyildur. Ushbu sharq, g'arb, shimol, janub taraflari «jihoti asliya» ataladurki, bir xarita yo plang'a qaragan odamni ko'zini yuqorisi shimol, quyi tarafi janub, o'ngi sharq, so'li g'arbdur.

Bu to'rt jihoti asliya arolarig'a yana to'rt jihoti far'iyya\* borki, to'rt jihatni kunji hukmig'adur. Sharqi-shimoliy, g'arbi-shimoliy, sharqi-janubiy, g'arbi-janubiy ataladur...

Muncha bizni fikr-u aqlimizg'a sig'maydurgon dunyoni yer yuzi shaklini bir taxta kog'az ustig'a naqsh qilibdurlar, degan holg'a ushbu katta dunyoni qanday bir tarroh\*, akkos\*, planchi yurub, necha muddatg'a naqsha\*sini oldi? degan savol keladur. Bir akkos, bir planchi emas. Ming-ming ustodlar, sayyohlar, muhandislar dunyo yuzig'a avvaldan, xususan, besh yuz yildan beri paydar-pay, doim yurub, o'lchab, yozib ohista-ohista hozirgi martabasig'a jug'rofiya ilmini va dunyo naqshasini kelturdilar. Ammo katta bir qit'a yoinki bir botmon yerni bir taxta kog'az ustig'a planini ko'rsatmoq tariqasi shudurki, masalan: bir yerni uzunligi 60 sajin, eni 40 sajin ekan, ushbu tul va arz masofatlarini bir varaq kog'az ustig'a 60 sajin o'rnig'a 60 nuqta masofatini ko'rsatgan ila fahmlanmangi, «tarsim»\* qilinmoqi mumkindur. Har bir plan, xarita ustig'a oxirig'a bir uzun xat tortilgan va ustig'a bir necha sifr va raqamlar borki, «miqyos» («mashtob»)<sup>1</sup> ataladurki, o'shal xaritadagi mamlakatni asl vus'atidan ushbu xarita qancha martaba kichikligini bilduradur. Chunonchi, bir joyni tuli yuz chaqirim ekan, kog'az ustig'a bir versho'k xat uzunligi bor va xarita oxirig'a, «bir versho'k yuz chaqirimdur», degan ishora va miqyos bordur. Mazkur xaritadagi mamlakatg'a tog', ro'd, shaharlar haqiqat holg'a bo'lub, yana ushbu xarita ustig'a ishorat — alomat qo'yulganki, ushbu miqyos qoidasi ila mazkur tog' va nahr va shahar mamlakatni qayu tarafig'a, uzunligi qancha, eni qancha, nahr qayu tarafig'a oqadur?... hama ushbu miqyos va mezon ila faqat xarita yuzasidan bilinadur. Mufassal xarita, planlar bordurki, tog'larini balandligi, toshlarini xosiyati, hay'ati, nahrlarini chuqurligi, ba-

<sup>1</sup> Masshtab deyilmoqchi.

lig'larini kamarigacha ko'rsatadur. Ya'ni, nihoyat, mufassal xaritalar borki, mamlakatlarni, tog' va nahrlarini tul va arzi sahin\*i, havosi chuqurligi, daralarini masohati, masofati, ekilaturgon ziroat va giyohlari, issig' va sovuqligini ishorat qilingon va tortilgon xatlari ila darajai tul va arzi va oni sababi ila o'shal mamlakatni kecha va kunduzini uzun va qisqaligi, yoz va qishlarini bo'lishi, alhosil ahvoli jug'rofiyasi avzoi tabiat, iqlim ob-havosi, dengiz yuzidan past va balandligi butun-butun faqat xaritag'a qaralgan ila bilinadur. Hatto, ul mamlakat xalqlarini jins, mazhab, millatlarini boshqa-boshqa ajratib bildiraturgon xaritalar bordur. Ammo o'shal xaritalarg'a boqib, ahvoli arz va mamlakatdan voqif bo'lmoq-g'a ba'zi ilmdan xabardorlik kerakdur. Xaritai xususiya, umumiya, to'po'grofiya, zao'lo'jiya, tabiiyya, bahriya, zi-roiya, etno'grafiya, kazo-kazo ataladurki, yer yuzidagi ni-marsani har birini ahvolidan bayon qilguvchi xaritalarni oti boshqa bo'lub, ushbu tariyqa xaritalarni anvo' va a'dodi ko'payadur. Odamni shakl-u hay'atini naqadar katta yo ni-hoyat kichik qilib ko'rsatmoq suratkashlarg'a mumkinligi-dek, ilm ahlig'a yerni shaklini istaganlaricha kichik qilib ko'rsatmoq mumkindur. Alarni miqyoslari dyuym yo ver-sho'klari ming chaqirim, o'n ming, yuz ming chaqirim, bir uzun masofatg'a ham evaz bo'ladur. Ammo xaritani kichigidan kattasini yaxshi va mufassalligig'a va fahmg'a yaqinligig'a so'z yo'qdur. Bir necha xaritalarni bir jamlab, kitob shaklig'a tayyorlangan bo'lsa, atlas ataladur.

### **Hukumat va hukmronlar**

Yer yuzidagi badaviy va madaniy xalqlarni hukmdor va sardorlari bo'ladurki, bek, amir, shoh va boshqa ism va lug'atlar ila ataydurlar. Har bir tilg'a hukmdorlarni lug'ati boshqadur. Ovrupo xalqi imperato'r, qirol, do'qa, prins, prezident, knaz, tsar va boshqa lug'atlar ila ataydurlar. Bu lug'atlar ila atalgan har bir hukmdorni martaba va hukumati boshqa nav'dur. Hozirg'a faranglar o'rtasig'a mo'tabar uch qism hukumat yo hukmronlik bordur. Birinchi — idorai mustaqilla (idorai mutlaqa)ki, oni ustidan qaraguvchi podshoh sohib ixtiyor va har bir roi va amri zako'n va nizom bo'ladur. Amri, hukmi, royi\* nofizdur\*. Qo'l ostidagi barcha

majlislar, maslahatxonalarni ittifoqi, xohishi, hukmi o'shal imperato'rni mustahkam qilishi imzosig'a mavquf\*dur. Shunday imperato'rlarni yangidan mansub bo'lishi har bir davlat va hukumatg'a muqarrariy qonun va odatlar bo'yuncha meros yoinki valiahdlik qoidalari va o'shal hukumatni qo'yan tartib va tadbirig'a muvofiq bo'ladur.

Ikkinchi qism — idorai mashruta hukmronligidurki, bu hukumatg'a tobe' odamlar aksari ahli ilm va xabardurlar. El va urug'lari ilm, hunar va dunyo ishlarig'a taraqqiy qilgandurki, shul tariqa fuqarolar o'z arolaridan insoflik, ilm va dunyodan xabarlik odamlarin o'zlarig'a katta va boshqarg'uvchi vakil saylaydurlar. Shul tariqa saylangan vakillarni podshoh jamlab, muqarrariy mahkamalarg'a, mamlakatdorlik ishlarig'a aralashib, mashvarat ila tuzatilmoq va muhofazat qilmoqg'a ko'z bo'lmoqlari uchun qaror beradurki, alarni majlis va mahkamalarini «millat majlisi», «maslahatxona», «parlamentu», «go'sudarski dum», «majlisi sinodiy», «el majlisi» degan ismlar ila yod qilinadur. Yana ba'zi maslahatxonalar borki, maslahatboshilarni, hukmdorlarni o'zi tayin qiladur. Ushbu «millat majlisi»ni chilonlari mashvarat ila mamlakatdorlik ishlarig'a aralashib, nizom va qonun tuzatib, hukmdor va podshohlarni qilaturgon ishlarig'a aralashadur. Podshoh bu majlis amrig'a tobe'dur. «Majlisi mab'uson»\* ni royi bo'lmaguncha katta ishlarini boshlanmoqig'a amr va hukm qilolmaydur. Xulosa, imperato'r sohib ixtiyor bo'lmay, durustroq ishlarig'a qonun va nizomlarni chiqarilmoqig'a butunila majlisg'a tobe' bo'lub turadir. «Idorai mashruta»ni tariqasi shudur.

Uchunchi qism — «Idorai jumhuriyat»durki, aksar fuqarosi ahli ilm bo'lub, bu ahli donish aholini saylagan vakillari ba'zi hukumatg'a yetti yilg'acha o'z mamlakat va hukumatlarini boshqarmog'i uchun o'z arolaridan bir nafar donishmand odamni boshliq saylaydurlarki, «raisi jumhuriyat», «sadrinishini millat», «perizdent» ataladur. Bu rais go'yo bir orizi\* omonat podshohdur. Har bir hukm va amr va tartibni mamlakat va ko'bg'a taalluq ishni «Millat majlisi»ni qilib bergon dasturulamal, ya'ni qonun va nizomnomalarig'a muvofiq qilib, butun elg'a tobe' bir kishidur. Har bir

ishg'a «millat majlisi» hukmig'a tobe', alarni hukm-u talablarini o'rnig'a kelturguvchidir. Bu ikki toifani podshohi ba'zi mamlakatga «Elg'a tobe' bo'lub turarman» deb qasam ichib, ba'd mansabg'a chiqadur. Katta vazirlar mamlakatdorlik mutasaddilarini taftish qilmoqg'a — tergovga bermoqg'a, hatto, o'shal soatg'a birdan bekor qildurmaqg'a ba'zi millat majlislarini ixtiyori bordur. Hozirgi Ovrupo hukumatlarini raftori\*, odati shu uch usulni birig'a doxil, tobe' va muvofiqdur. Mustaqil hukmdorlarni qo'l ostig'a ham majlislar va mashvarat mahkamalari bordur. Ilmsiz hukumatlardek necha milyo'n xalqni maishati, raftori, ixtiyori bir nafar odam — podshohni ixtiyor yo royi va hukmig'a yo'qdur. Bir nafarni aqli, fikri ila o'n nafar arosig'a na qadar farq bordur? Ushbu sabablardandurki, ozgina Ovrupo xalqi butun kurrai arzg'a hokim va mutasarrif\*durlar. Sabab, hukumat, ilm va davlat, qonuni musovot\*, mashvarat va tadbirdur.

### Din va odat

Bani odamni hama firqa va toifasi ushbu olam va barcha odam va hayvonlarni xoliqi borligig'a iqror, ammo sone'i olam<sup>1</sup> ilmi, xudoshunoslik, ya'ni e'tiqod to'g'risinda har toifa va har millat va mazhab ahlini e'tiqodi boshqadur. Ilm va hidoyat topgan firqalar Olloh taoloni bemisl va besharik va bir biladurki, shunday firqani muvahhad\* ataydurlar. Olloh taoloni bir bilmay, adad tayin qilaturgonlarni mushrik\* yoinki majus ataladur. Muvahhad va mushrik firqalarini har biri yana bir necha din va har bir din bir necha mazhablarg'a bo'lunib ketgandur. Hatto har bir din va mazhablarg'a bir necha odat, rasmlar qo'shilub, agarchi, haqiqatda muxolif mazhablari bo'lsa ham odat bo'lgan uchun ayni mazhab sanalib, amal qilinadur. Muvahhad, ya'ni Xudoni bir bilguvchilardan birinchi: hazrati Muhammad alayhissalomni payg'ambar va rasuli Xudo va xotami nabiiyun, deb imon keltirub, chin inongan firqadurki, ahli islom — musulmon muhammadiy atalarmiz. Hozir dunyog'a uch yuz milyo'ndan

---

<sup>1</sup> Olamning yaratilishi.

ziyoda musulmon bormizki, ushbu adadni uchdan biri musulmon hukmronlari qo‘l ostig‘a va boshqasi nasoro va majuslar qo‘l ostig‘a va bu xon va amirlardan aksari beilm va ba‘zisi nasoro davlatlarini himoyatig‘adur. Ikkinchi qavm hazrati Iso alayhissalomga: bular muvahhad va kitobiydurlar, «isaviy», «nasoro», «xristian», «ahli salib» ataladurlar. Holo, dunyomizg‘a bularni adadi to‘rt yuz milyo‘ncha taxmin qilinadur. Yer yuzini aksari bu firqani tasarruf va tasallutig‘a\* va holo dunyomizni mutasarrif ozhirisi va g‘olibi shulardur. Nasorolardan boshqa kuchlik va dunyo to‘g‘risig‘a taraqqiy qilgon va ilmlik xalq yo‘qdur. Uchunchi – hazrati Muso alayhissalomni qavmidurki, «yahudiy», «musaviy», «ibriy» ataladurlar. Bular ham muvahhad va kitobiy va ammo xeyle ozayganki, hozirg‘a adadi o‘n milyo‘nchadur. Bu xalq oz-oz har bir mamlakat va hukumatg‘a bor va tobe’ va o‘zlaridin hukmronlari yo‘qdur. «Mushrik va butparast», ya’ni majuslar, kitobsizlar dunyog‘a hama ahli kitob va muvahhaddan ko‘bdur. Adadlari sakkiz yuz milyo‘ncha taxmin qilinganki, bu dahi «brahma», «majus» qismlarig‘a atalib, nav’-nav’ firqalarg‘a bo‘linub, mazhablari ko‘payadur. Bular otash, kun, yulduz, hayvonot, ma’daniyot, nabetotdan yasalgan suvrati sanamlarg‘a parastish\* qiladurlarki, barchasini «majus», «abdi asnom»\*, «butparast» atalib, kitobiylarg‘a munosabati yo‘qdur. Yuqoridagi uch firqa kitobiylar bir-birig‘a yaqin shar’an va munosabatlikdurlar. Yana «dahriy» degan toifa oz-oz borki ibodat qilmaydur. Ahli islom Ovrupo qit‘asini janubi-sharqiy ila shimoli-sharqiy taraflarig‘a, Osiyoni o‘rta va janubiy taraflari va jaziralarig‘a, sharqiy va g‘arbiy jihatig‘a, Afriqoni shimoliy va o‘rta jihatlarig‘a sokin\* va muntashardurlar\*. Amriqo va Avstraliyo qit‘alarig‘a ham musulmonlardan bor. Ammo Amriqog‘a kam va Avstraliyog‘a ko‘bdur.

Xristianlar Ovruponi hama joyig‘a va boshqa qit‘alarni ba‘zi joylarig‘a muntashardurlar. Majuslarni aksari Osiyoni sharqig‘a, Afriqoni janubig‘a sokin va dunyoni aksar joylarig‘a majuslar bordur. Dunyog‘a uch mingdan ziyoda lison – til va bir mingdan ziyoda din, mazhab borki, har biri o‘zlarini haq va boshqani botil\* biladur. Aqllik hakim va alloma odamlarni tahqiq va iqrorig‘a qaraganda, dunyog‘a dini

islomdan boshqa aql va hikmatg'a muvofiq va mustaidi tamaddun\* bir din yo'qdur. Oni uchun har mazhabdagi bu zamon allomalarini ba'zisi musulmon bo'ladurlarki, sharofati ilmdur...

### O'lchak — miqyos, mablag' — pul

Keyingi zamonlarga fransuz donishmandlari o'lchov — gaz to'g'risig'a bir qoida vaz' qilgandurki, go'yo barcha olam ahli o'shal o'lchovni iste'mol qilmaqg'a majburdur. «Kurrai arz»<sup>1</sup>, «doirai nisf an-nahoriy»<sup>2</sup>ni go'yo o'lchab, ilmi hisob ila mazkur doirani to'rtidan bir masohatini bilib «rub'i doira»<sup>3</sup>ni o'n milyo'ndan birini otini bir «metru» atabdurlarki, doirai nisf an-nahorni qirq milyo'ndan birini masohasini to'li e'tibor qilinib, «metru» atabdurlar. Yana bir metru o'n detsimetr, yuz santimetr, ming millimetrg'a taqsim topiladur. Bir «metru» Rusiya hisobig'a 22,5 versho'k bo'ludur. Ming metru bir «kilometru», o'n ming kilometru bir miryometru ataladur. Bizni Rusiyani «vyorst» — chaqirimi besh yuz sajin, har sajin uch arshin yo yetti fut, yoinki ikki metru ham  $13\frac{9}{20}$  santimetrg'a hisob topiladur. Bir arshin o'n olti versho'k, yo 28 dyuym,  $\frac{3}{20}$  yoinki 71 santimerg'a barobardur. Shul miqyos bo'yincha bizni bir vyorst bir kilometru ham  $66\frac{4}{0}$  metrug'a barobar bo'ludur. Va bizni bir murabba' chaqirim 25 ming murabba' sajindurki, bir murabba' kilometru ham 13160 murabba' metrug'a barobardur. Bir sajin murabba' 9 arshin murabba' yo 49 fut murabba', yo 4 metru murabba' ham 55 detsimetra murabba' ham  $25\frac{1}{2}$  santimetra murabba' — dur. Bir desatin 2400 sajin murabba' yo 21600 arshin murabba', yo 10924 metru murabba', 40 detsimetru murabba' — dur. Shariatg'a gaz urfi mo'tabar, ammo har mamlakatni urfi gazi bir-birig'a to'g'ri kelmaydur. Chunonchi, Samarqand gazi 18 versho'kdan 20 g'acha, Farg'ona va Toshkand gazi 16 versho'kdan 20 g'acha va yer yuzidagi har mamlakatni gazi bir-biridan farqlikdur. Bu gazlar hozir faqat havuz va yerlarni odamlar orasig'a o'lchanmoqig'a iste'mol bo'ludur...

<sup>1</sup> Yer kurrasi.

<sup>2</sup> Meridian.

<sup>3</sup> Kvadrat.

## «MUNOZARA» HAQIDA

«Usuli jadida» maktablarni nafli va fununi zamoniya tahsilining buxoriylar uchun luzumi to'g'risida farangiy afandi ila mudarris Buxoriy janoblarini oralarida bo'lgan bahs va suhbat — «Munozara» ismidida bir risola shaklida forsiy tilg'a tab' va nashr bo'lubdur. Biz-da ko'zdin kechurdukki, haqiqatan buxoriylar uchun nofe'dur.

Farangiy va mudarris tilidan bu muhim bahslik risolani tahrir etuvchi vahmi zoin'g'a arzi tashakkur qilarman. Inshoollo, bu risola buxoriylarni uyg'onmoqig'a bois bo'lub, «Munozara» muharririni rahmat ila yod etarlar.

Va al-on bu risola turki tilinda janob muallim hamshahrimiz Hoji Muin afandi tarafidan tarjima va ushbu gazit ila nashr bo'lib turubdur.

Va ammo bizni fikrimizcha, Buxoro uchun eng muhim bir bahsni farangiy afandi faromush etibdurlar. Va ul eng muhim bahs buxoriylarni ruscha o'qumoq va rus madaniyatidin nafbardor bo'lmoqg'a targ'ib etmoqdin iborat edi.

Xayr, balki farangiy afandi faromush etmay, ehtimolki, buxoriylarni taajjublari qo'zg'olmasun va «Munozara» risolasidin umid etilgon manfaati ma'naviya favt bo'lmasun<sup>2</sup> tavhimi-la<sup>3</sup> ruscha o'qumoq bahsidin ko'z yumgandur, deb zan qilarmiz. Va-lo farangiy afandini natijai ma'lumotig'a nazaran o'rischa o'qumoqg'a tarafdordur, deb istidlol qilinadur va har bir ko'zi ochuq kishi-da buxoriylarni ruscha o'qumoqlarini, albatta lozim bilur.

Buxoriy qarindoshlarimizni ruscha o'qumoqlari to'g'risida muxtasaran biroz yozmoqni biz munda kerak bilduk va umid qilamizki, «Munozara» noshiri ikkinchi tab'ina ruscha o'qumoq luzumini ham risolag'a olmoq etdirsa.

Rusiya davlati — 100 mln xalqlik va yer yuzini qaviy davlatlaridan biri. Buxoro hukumati ani himoyasig'a va aning uchun buxoriylarni ruscha o'qumoqlari o'zlari uchun lozim va foe'<sup>4</sup>dir.

Buxoriylarni savdo ishlari Rusiya iladurki, tijorat ishla-

<sup>1</sup> Go'zal taxayyul egasi.

<sup>2</sup> Nobud bo'lmasin.

<sup>3</sup> Vahimasi bilan.

<sup>4</sup> Nafliq.



rini taraqqiy qildirmoq uchun, albatta, ruschag'a ehtiyoji tom'alari bordur.

Buxoroda tilgirof, po'chta, temur yo'li va bonk va mol, anjomaning hamli<sup>2</sup> va naqli<sup>3</sup> va optek, do'qtur va hizil sihata teyishli ishlar va lavozimoti madaniya va zamoniya va xorijag'a mutaalliq<sup>4</sup> barcha mavod<sup>5</sup> kofa<sup>6</sup> ruslar vositasi-la joriy bo'lurki, bul to'g'rilardan ruschag'a buxoriylarni ehtiyojlari shadid<sup>7</sup>dur.

Rusiya ila tijorati bor har bir buxoriy va Buxoroni har bir hukumat doiralarini ruschaga bor ehtiyojini har kimdan avval buxoriylarni o'zleri iqror edarlar.

Kishi yo'qligidin al-on Buxoro hukumatini xidmatidagi tarjimonlar kafkaziy va turkistoniylardind iboratdur.

Buxoriylarni ruscha o'qumoqlari uchun dalil lozim bo'lsa, faqat Rusiyani...<sup>8</sup> jihatidin Buxorog'a hamsoyaligi eng oliy dalildir. Holbuki, Buxoro davlatimizni himoyasida, ya'ni hovuchindadur.

Nasoro va majus davlatlarini aytmay qo'yduk. Bul vaqt Usmonli islom davlati katta maktablarig'a ruscha o'qutadur va Rusiyag'a talaba yuboradur. Turk qarindoshlarimizni har biri Rusiya musulmonlarini ruscha o'qumoqg'a tashviq etarlar. Hatto, Istanbul shayxulislomi hazratlari Rusiya musulmonlarini ruscha o'qumoqg'a buyuradurlar.

Chunonchi, o'tgan sana Samarqand hojilaridan ikki nafar mudarris shayxulislom janoblarini xizmatlariga musharraf bo'lub ekanlarki, usuli jadid va ruschani luzumidin bayon etib, Turkistoniylarg'a ruscha o'qumoqg'a tashviq etmoqg'a buyurubdurlar.

Misrdin, Shom va Arabistondin, Istanbuldin va Erondin Rusiya maktablarig'a talaba kelganda, Buxorodin na uchun talaba kelmaydur? Buni sababi buxoriylarni g'aflati va zamondin xabarsizligi deyurlar.

---

<sup>1</sup> To'la.

<sup>2</sup> Yuki.

<sup>3</sup> Tashish.

<sup>4</sup> Aloqador.

<sup>5</sup> Moddalar.

<sup>6</sup> Barchasi.

<sup>7</sup> Katta, shiddatli.

<sup>8</sup> O'qib bo'lmadi.

Bul joyg'a buxoriylar u qadar kaholat etdilarki, hatto, rasmiy doiralarida birorta tarjimonlari yo'qdur.

Xo'b, Buxoroda usuli jadidani qo'ymaganlaridek, ruschani-da ulamo qo'ymadilar deduk. Ey, shogirdlarni Samarqandda, Turkistonda va yo doxiliy Rusiyag'a na uchun yuborilmaydur?

Samarqandda Buxorodin gado, o'g'ri, qimori, juvonbachcha kelar. Hatto, deyurlarki, fohishalar ham kelur, bularg'a ulamo bir shay demas va xabardor bo'lmas.

Talabag'a tamoman mone' bo'lurlar. Yo'q, bul joyg'a ulamog'a yopishmoq kerak emas, balki boshqalarg'a lozumdur.

Buxoroning muhtaram hukmronlarina, Buxoroning tujjori kiromig'a biz min g'ayri had<sup>1</sup> arz qilarmizki, ruscha o'qutmaqni muborak fikrlarig'a keltirsalar, Rusiya davlati Buxoroning faqat bir hamsoyasi emas, balki homiysi, vasiy<sup>2</sup> va murabbiyi davlatidur. Aning uchun ruscha bilmoq va rus oliy va katta maktablarig'a kirmoq buxoriylarni hayoti va saodati uchun alram<sup>3</sup>dur.

Ikki milyo'n buxoriylardin nisfi asr zarfi<sup>4</sup>da bir nafar tarjimon chiqmaganligi buxoriylarni loqaydliklarig'a dalil bo'lur. Bu nimadan kelur? Albatta, Buxoro ila Rusiya orasidagi munosabatni bilmaslikdin kelur. Binobarin, Rusiya ila Buxoro beyin<sup>5</sup>dagi munosabati siyosiyani har zamon aholig'a bildirmoq kerakdur. Biz siyosiy kishi emas va illo bul to'g'ridagi fikrimizni ochiq suratda yozarduk. Shu qadar bilarmanki, rasman Buxoro hukumati Rusiya davlatini himoyatig'adur. Buxoroning bosh hukmroni ma'n'an baoliy<sup>6</sup> amir hazratlarini amoralari Rusiya davlati tarafidin tasdiq qilinadur. Buxoroni xorijiya ishlari Rusiya davlati tarafidin ijro qilinadur.

Xorijiya davlatlari, masalan, Eron, Afg'on va yo Usmonli davlatlari-la Buxoro hukumatini xat va xabar qilmog'i lozim kelsa, Rusiya davlati vositasi-la muomala qiladur. Buxoro ahli xorijiyag'a chiqmoqchi bo'lsa, Rusiya rahol<sup>7</sup> hukumatini

---

<sup>1</sup> Haddan tashqari.

<sup>2</sup> Tarbiyachi.

<sup>3</sup> Ayb ma'nosida.

<sup>4</sup> Hozirgi sharoitda.

<sup>5</sup> Orasidagi.

<sup>6</sup> Asl, oliy.

<sup>7</sup> Yo'l ishlari.

ruxsati lozimdur. Buxoro uchun boj va po'shlina Rusiya davlatini ixtiyori ila bo'lar.

Bilmoq kerakki, o'ruscha o'qumoq ila kishi kofir bo'lmaydur va yo o'ruslar bizg'a dinlarini ta'lim qilmaydur. Masalan, bukun Samarqand muxtalif maktablarig'a yuzdin ziyod musulmon bolasi bor va alarni hech birig'a nasoro dinini ta'lim qilinmaydur. Samarqand e'dodiy gimnoziyo maktabida bukun undin ziyoda musulmon bolasi bor. U jumladin biri manim o'g'lumdur. Va na vaqtqi, bolalarg'a nasoro dinini ta'lim berarlar, g'ayri ruslarni, xoh musulmon va yo yahud va hatto, armani bo'lsun, maktabdin chiqoradurlar. Hatto, nasoro aqidasi ta'limi vaqtida yoshirin maktabda qolgan g'ayrirus shogirdg'a jazo beriladur.

G'ayiruslar ruscha o'qugandan ilmi dunyoviy va hayotqa mutaalliq funun o'quydurlar va har bir musulmon-da rumcha va yo farangcha shuni o'quydur.

Buxoroni o'rta millati uchun avomcha so'ylayinki, turklar, ibroniylar, turkistoniylar, qozoniy, o'runburg'iy va kafkuziylar hamchunonki, ruscha o'qusalar ham kofir bo'lmaydilar. Buxoriylar ham ruscha o'qugan ila kofir bo'lmaydurlar.

Afg'on hukumati ila ingliz davlati orasida munosabati siyosiya mavjud va ham hamsoyadur. Oni uchun afg'onlar Hindiston inglisig'a va nufusi Angliyada o'z nafii uchun talaba yuboradur. Holbuki, hech bir afg'on ingliz bo'lgan yo'q. Inchunun, buxoriylar-da Turkiston ustig'a va yo Rusiyag'a o'z naflari uchun talaba yuborsalar, xotirjam bo'lsunlarki, o'rus bo'lmaydurlar. Shuni-da yozayin, buxoriy qarindoshlarimiz bilsunlarki, bu so'zlarni biz musulmonligimiz uchun va Buxoroni taraqqiysini xohlaganimiz uchun yozarmiz. Gumon qilinmasunki, o'ruslar bizg'a yozdiradur.

Farangiy janoblarini fikrig'a biz ham tobe' va biz ham deymizki, Istanbul, Misr, hatto, Kafkoz va Qozong'a Buxorodin talaba borsun va ammo bu qatorda ruscha o'qumoq uchun Turkiston va Peterburg'g'a ham.

Samarqand dorulqazo muftiylaridan  
Mahmudxo'ja bin Behbudxo'ja<sup>1</sup>.

«*Turkiston viloyatining gazet*», 1911-yil,  
29-sentabr, 73-son

---

<sup>1</sup> Behbudiyning mazkur maqolasi Fitratning «Munozara» asari Hoji Muin tomonidan o'zbekchaga tarjima qilinib, «*Turkiston viloyatining gazet*»da chop etilishi munosabati bilan yozilgan.

## MUFTI MAHMUDXO‘JA HAZRATLARINING QANDAY SHAHID BO‘LG‘ONLIG‘I VA ONING TOMONIDAN YOZILG‘AN «VASIYATNOMA»<sup>1</sup>

Turkiston taraqqiyparvarlarining ustози va peshvosi bo‘lg‘on samarqandli mufti Mahmudxo‘ja Behbudiy hazratlarining Turkistonda tanimayturg‘on kishi bo‘lmasa kerak.

O‘z vatani va xalqi uchun, fikr va qalami ila yigirma yil chamasi xizmat qilg‘on mana shunday peshvomiz, oxiri vazifa va xizmat yo‘lida Buxoro tuprog‘ida zolim beklar qo‘lida vahshiyona suratda shahid etildi.

Behbudiy afandi 1919-yil 25-martda, yo‘ldoshlari Mar-donquli Shomahmud o‘g‘li va Muhammad O‘rinboy o‘g‘il-lari bilan Samarqanddan Buxoro tuprog‘ig‘a o‘tkan va shun-dan qayerg‘a borg‘onlig‘i bilinmay, bu to‘g‘rida turli so‘zlar so‘yangan va muxtalif gumonlar qiling‘on edi. Oxiri xalq orasida shoyi‘ bo‘lg‘on so‘zlardan gumon g‘olib ila onglashil-g‘on edikim, Behbudiy afandi mazkur ikki yo‘ldoshlari bilan zolim amir Olimxonning g‘addor beklari qo‘lida shahid bo‘lg‘onlar. Mana shul gumon g‘olib ila muhtaram shahidla-rimizning g‘oyib bo‘lg‘onlarig‘a bir yil to‘lish munosabati ila 1920-yil 25-martda Samarqandda tantanali suratda ta‘ziya marosimi ijro etilgan edi.

Bultur (1921-yil) mart oyida Buxoro tuprog‘idan kel-gan o‘rtoq Hojimurod Xudoyberdi o‘g‘li Behbudiy hazrat-lari bilan yo‘ldoshlari Muhammadqul Murodqul afandilar-ning Qarshi shahrig‘a begi Tog‘aybek tomonidan qanday shahid etilganligi haqida ma‘lumot kelturdi.

O‘rtoq Hojimurod Buxoro inqilobi boshlang‘on kunda Samarqanddan hukumat tomonidan bir ma‘muriyat ila Shahrissabz va Kitob taraflarg‘a borib, onda bir ish ila Qarshi shahrig‘a o‘tkan va o‘shal taraflarda 6–7 oy xizmat qilib yurg‘on bu muddatda xeyli ishlar qilgan va ko‘p voqealarni ko‘rgan.

Hojimurod afandi Qarshi begida bir necha vaqt «mah-

---

<sup>1</sup> Ushbu «Vasiyatnoma» va maqola 1922-yilda «Inqilob» jurnalining 1-sonida bosilgan. 1988-yilda «O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati» haftaligida (16-sentabr, nashrga tayyorlovchi Sh. Turdiyev), 1993-yilda «Milliy uyg‘onish» to‘plamida (nashrga tayyorlovchi J. Xudoyberdiyev) qayta chop etildi.

ramlik» xizmatida bo'lg'on farg'onali 17 yashar Sodiqjon-  
dan Behbudiy va oning yo'ldoshlari haqida ko'b ma'lumot  
olg'on.

Behbudiy afandi va yo'ldoshlari boshlab Shahrisabzda  
qo'lga tushub, taxminan ikki oydan so'ng Qarshi shahrig'a  
yuborilib, onda (zindonda) bir necha kun yotqondan keyin  
mazkur Tog'aybek tomonidan shahid qiling'on.

Behbudiy afandi va yo'ldoshlari Qarshi zindonida yotqon  
vaqtlarida, Qarshi begining birinchi mahrami ham zindon-  
boni Ahmad ila 2-nchi mahrami Sodiqjon Behbudiy o'rtoqlari  
ila yoshurun musohaba etib, alarning kim ekanliklarini bilganlar.  
Va har vaqt ularning ahvolidan xabardor bo'lib turg'onlar.  
Nihoyatda, Behbudiy afandilarning suhbatlari ta'siri bilan  
mazkur ikki mahram bularg'a muxlis va mehribon bo'lg'onlar.

Hatto, bir kun mazkur mahramlarning rijo va xohishlari  
ila bek Behbudiy va yo'ldoshlarini o'z huzuriga chaqirib: «Sizlar  
na uchun qo'lg'a tushdingiz?» — deb so'rag'on. Behbudiy  
afandilar: «Bizlar Baytulloni ziyorat etmak uchun Samar-  
qanddan chiqg'on edik, yo'lda amir ma'murlari «sizlar jadid,  
kofir va tilchi», deb bizni qo'lg'a oldilar. Taftish qilinsun,  
bizning gunohsizligimiz shoyat ma'lum bo'lur», — deganlar.

Bek: «Sizlar jadid va kofirdirsiz. Buxorog'a janob oliyg'a  
tig' tortqon sizning maslakdoshingiz emaslarmi edi? Sizlarni  
o'ldurmak kerak. Sizlar qutulmoq uchun Baytulloga bor-  
moqni bahona etib ko'rsatasiz», — degan.

Bekning birinchi mahrami va zindonboni Ahmad bek-  
ning bu haqsiz so'zlarig'a chiday olmay, Behbudiy afandi-  
larni mudofaa uchun bekka qarab: «Taqsir. Ul bularning  
ishlarini haqiqatlab ko'ring. Agar gunohlari sabab bo'lsa,  
so'ngra o'ldurung», — deganda, bek achchiqlanib: «Emdi  
bildimki, sen ham jadid ekansan, chunki jadidlarg'a taraf-  
dorlik qilasan. O'ldurulaturg'on jadidlar uchta edi, endi sen  
bilan to'rtta bo'ldi, seni ham o'ldurmak kerak», — deb  
Ahmadni tahdid etkan, Ahmad ko'ziga yosh kelgan holda,  
qo'rqqonidan indamay turg'on.

So'ngra, bek odamlarg'a Behbudiy afandilarni ham maz-  
kur Ahmadni zindong'a qamarg'a buyurg'on va amirdan yaqin-  
da kelaturg'on farmoyish ila bularning o'ldurajagini bildirgan.

Behbudiy afandi, oyoqg'a turub jasorat ila tubandagi

soʻzlarni soʻylagandan soʻng yoʻldoshlari ila yigʻlay-yigʻlay zindon sari borgʻonlar:

«Bizlar oʻlumdan qoʻrqmaymiz. Balki haq yoʻlida oʻlmakni oʻzimiz uchun bir sharaf deb bilamiz. Munday yoʻlda yolgʻiz biz oʻlmagan, balki koʻp kishilar toʻgʻrilik va inqilob yoʻlida shahid boʻlgʻonlar».

Mundan bir necha kun oʻtgandan soʻng, Sodiqjon amirdan bekka qatl buyrugʻi kelganini Behbudiy afandilargʻa bildirgan. Soʻngra Behbudiy afandi, oʻzining hayotidan umiddin uzib yigʻlay-yigʻlay tubandagi «Vasiyatnoma»ni yozib, Sodiqjonga tobshurmoq uchun Ahmadga bergan va har qanday yoʻl ila boʻlsa-da, shul vasiyatnomaning Samarqandgʻa yuborishini oʻtingan. Vasiyatnomaning ostida boshlab Behbudiy afandining oʻzi, soʻngra Mardonquli va Muhammadquli afandilar qoʻl qoʻygʻonlar.

### **Vasiyatnoma ushbudir:**

«Ey, Turkiston maorif ishlarida boʻlgʻon oʻrtoq va oʻgʻlonlarim! Men oʻzim garchand bandi boʻlsam-da, sizlarni esimdan chiqarmayman va sizlarga biroz vasiyat qilib oʻtaman. Mani sevar oʻrtoqlarim! Manim soʻzlarimni quloqlaringizgʻa olingizlar! Biz ikki oydan beri Buxoro shaharlarida bandi boʻlib yurub, axir oʻn kundan beri bir yerda (Qarshi shahrida) bu zolimlarning qoʻligʻa tushib bandi boʻldik. Jadid, kofirlik otini koʻtardik. Bu yerdan qutulmogʻimiz gumon boʻldi. Oʻrtoqlarim Siddiqiy, Ayniy, Fitrat, Qori va Akobir Mahmud va oʻgʻlonlarim Vadud Mahmud, Abdulqodir Shakuriy!

Sizlargʻa vasiyat qilaman. Maorif yoʻlida ishlaydurgʻon muallimlarning boshini silangizlar! Maorifgʻa yordam etingiz! Oʻrtadan nifoqni koʻtaringiz! Turkiston bolalarini ilmsiz qoʻymangizlar! Har ish qilsangiz jamoat ila qilingizlar! Hammaga ozodlik yoʻlini koʻrsatingizlar! Buxoro tuprogʻiga tezlik ila yoʻl boshlangizlar! Ozodlikni tezlik ila yuzaga chiqaringizlar! Bizning qonimizni zolim beklardan talab qilingizlar! Maorifni Buxoro tuprogʻida joriy qilingizlar!

Bizning otimizgʻa maktablar ochingizlar! Bizlar ul choqda qabrimizda tinch yoturmiz. Maning oʻgʻlonlarimgʻa salom

yetkuringizlar. Bu hamrohlarimning avlodlaridan xabardor bo'linglar! Ushbu vasiyatimni yozib Ahmadga berdim».

Bu vasiyatnomadan 3–4 kun o'tar-o'tmas, bek Behbudiy afandi va yo'ldoshlarini ham Ahmadni o'ldurug'a buyurg'on va alar zindonning yonidagi podshohlik bir chorbog'ga yuborilganlar. Shunda alarning qotillari o'zlarig'a bildirilgan va o'zlari uchun shu bog'da to'rt qabr qazdirilg'on. So'ngra Behbudiy afandi va yo'ldoshlari tahorat olib namoz o'qimoqchi bo'lg'onlar. Lekin shu choqda rahmsiz jallod muovnlari ila yetishub kelib, alarni namoz o'qirg'a qo'ymog'on va eng avval Behbudiy hazratlarini joynamoz ustida boshini kesgan. Bu holni ko'rib Mardonquli, Muhammadquli va Ahmad afandilar tavhid va shahodat kalimalarini o'qib, o'limni kutib turg'onlar. Andin keyin jallod alarni bir-bir boshin kesgan. So'ngra bekning xizmatkorlari mazkur shahidlarning na'shlarini chiqarib, o'zlari qazg'on qabrlarg'a ko'mganlar va qablarni (bilinmasun deb) yer ila tegiz etganlar.

Bekning mahrami Sodiqjon bu voqeaning boshidin oxirigacha ko'rgan va bilgani uchun ham Behbudiy afandilarg'a muxlis bo'lg'onidan shu voqeani bir dafarchada yozib qo'yg'on va ondin o'rtog' Hojimurod ko'chirib olib, fojiani teatr shaklida tartib etub, otini «Maorif qurbonlari» qo'yg'on.

Uch pardadan iborat bo'lg'on mazkur risolani biz ko'rduk. Risola kerak ibrat, sahnaga qo'yish jihatidan xiyla nuqsonlidir.

Agar risola teatr olamida xabardor bo'lg'on biror-bir kishining qalami ila tuzatilsa, birinchi teatru risolasi qatorig'a kirishi shubhasizdir.

O'rtoq Hojimurodning so'zig'a ko'ra, mazkur Sodiqjon 1920-yil 21-dekabrda amir tomonidan Shahrisabz, Kitob va G'uzor taraflarida qozg'atilgan isyonchilar tarafidan Shahrisabzda o'ldirilgan. Shuning ila Sodiqjon yozgan voqea ila vasiyatnomaning asl nusxasida o'shal choqda yo'qolib ketgan.

*Samarqand, Hoji Muin Shukrullo o'g'li,  
1922-yil 7-yanvar*

## BEHBUDIY VAFOTIGA BAG'ISHLANGAN MARSİYALAR

---

FITRAT

### BEHBUDIYNING SAG'ANASINI IZLADIM

Cho'kmishdi yer uzra olam to'sig'i,  
O'ksuzlik boyqushi qanot qoqardi.  
Botuvda qizorib turg'on bulutdan  
Ezilgan ko'nglimga motam yog'ardi.  
Haqsizlik shahrining qon hidli yeli  
Armonim gulidan bir yaproq uzub,  
Bahorsiz cho'llarg'a sovurib qo'ydi.  
Ul nozli yaprog'im so'lub, sarg'ayub,  
Yo'qsul qolg'anlarday har yon yugurdi.  
Zolimlar, mazlumlar, zulmlarning-da,  
Barig'a uchradi, barchasin ko'rdi.  
O'z yo'qotqonin izladi, so'rdi.  
Bir darak topmag'och, birdan bir tikildi,  
Bor kuchin to'pladi,  
Zolimning taxtini titratgan bir tovush  
Qichqirdi:  
— Otamning qabrini qay yerga yoshurding?!  
Bot so'yla!...  
Kirli toj ko'b qo'rqdi botir tovushdan,  
Seskanib, titrab... yoshundi  
Bir javob bermasdan.

S. AYNIIY

### BEHBUDIY RUHIG'A ITHOF

*(Shabi hijron havosig'a)*

Sani mundin buyon Turon ko'rolurmu, ko'rolmasmu?  
Saning mislingni Turkiston topolurmu, topolmasmu?  
San, ey ustodi oliyshon, eding ajubai davron,  
Otingni tilga har inson buyuk hurmat-la olmasmu?  
Saning tarixiy davroning, saning osor-u urfoning,  
Saning noming, saning shoning jahon qoldiqcha  
qolmasmu?



Saning ko'ksung cho'kulganmu, saning beling bukulganmu?  
Saning qoning to'kulganmu? Muni(ng) hech kim so'rolmasmu?  
Boshingni kesduran qotil, u badtiynat, u sangin dil,  
Xudodan gar esa g'ofil, xaloyiqdan uyolmasmu?  
Vatan avlodi yod etdi, sani hurmat-la shod etdi,  
Va lekin intiqomingni ololurmu, ololmasmu?  
Jahonda zulmdur zohir, jahon xunxo'r, jahon jobir,  
Jahondan bir zamon oxir sitamgarlik yo'qolmasmu?  
Behisht-u hurin g'ilmon sanga Haq aylasun ehson,  
Sanga rahmat, sanga g'afyon Xudoyim yetkazolmasmu?!

### **BEHBUDIY AFANDINI ESGA TUSHURIB, QATL VA QATLGOHIGA XITOBAN**

Ey madfuni insoniyat, ey maqtuli ahror!  
Ey markazi vahshoniyat, ey mahmani ashror!  
Minglarcha yigitlar boshini tandan ayuruding,  
Minglarcha asoratzada o'g'lonlari qirding.  
Qon to'k, yana qon to'k, yana qon to'k!  
Qon seli bilan oqibat-al-amr, yoril, cho'k!  
Qon to'k-da, cho'mul qong'a! Yiqil qong'a! Bo'g'ul, o'!  
To qonga bulg'anmasin ozoda biror qo'!  
Ey devi jaholat uyi, ey, qon-la to'lan g'or!  
Shod o'l bu kun!

Ammo bu kunning ertasi ham bor!  
Bir dasti riyo, dasti jafo, dasti xiyonat  
Mumkinmi sani aylasa ketdikcha siyonat?!...  
Ey qotila, ey fojira, ey fitnai Turon!  
Turon eli fitnang ila bo'lsunmi parishon?!  
Minglarcha yigit boshini kaltak bilan ezding,  
Minglarcha yigit nash'ini sarjin kabi tizding.  
Zindonlarga minglarcha tiriklarni chirutding,  
Tezob ila minglarcha o'luklarni eritding.  
Qur'onni, shariatni ayog' ostida bosding,  
Behbudiy kabi dohiyi Turonni-da osding!  
Bosh kes, yana bosh kes, necha kun kayf-u safo sur!  
Lekin ko'zingni och! Kelasi kunlaringi ko'r!  
Bilgilki, bu ahmol emas!

Ahmoli ilohi!

Bilgil, abadiy qolmayajak muncha malohi!  
Bir kun kelur albat, kelur albat, kelur albat!

Ey xoina! O'ch olmag'a ojizlarga navbat!  
Ey maqtuli ahror!  
Ey mamkini ashror!  
Qon to'k, yana qon to'k!  
Qon to'k-da, yoril, cho'k!  
Bir dasti xiyonat  
Aylarmi siyonat  
Doim osor?  
— Aslo!

Bir kun kelur albat, ojizlarga navbat  
O'ch olmag'a sandan.  
Ey manbayi nakbat,  
Ko'rsam o'sha kunni!

*1920, IV, Samarqand*

*CHO'LPON*

### **MAHMUD XO'JA BEHBUDIY XOTIRASI**

Bilgisiz qabringni qora tunlarda  
Amalimning shamin yoqib izladim.  
Qizil va pok qoning islarin sochgach,  
Kuchsiz ko'yi yurishimni tezladam.

Amalimning yulduzikim, ko'z tikdi  
Qora, jirkanch o'lim koni yerlarga.  
Savol berdim: «Yo'qotganim qayda?» — deb,  
O'zimni ham yutmoq bo'lgan erlarga.

Qo'limdagi tutam-tutam gullarim  
Qabring topib, sochmoq uchun terindi.  
Gul o'rniga zahar tilar muhitda  
Uning qilgan bu ishlari bo'sh endi.

Men-da ojiz u muhitning oldida  
Qabring topib ko'z yoshimni to'kmakka.  
Hamda achchiq hiddatim-la ul yerda  
Oq kallalik qora devni so'kmakka.

Shuning uchun yulduz kabi yarqirab,  
Elda qolgan isming bilan turaman.

Shul ismni eslab, chizgan yo'lingdan  
Yiroq ketmay, qimirlamay yuraman.

Aziz otam, qo'limdagi gullarning  
Motam guli ekanligin bilmaysan.  
Shodlik guli ko'pdan beri so'lganin,  
Yer ostida pok ruhing-la sezmaysan.

Ana sochdim qalbidagi gullarni,  
Termak uchun chaqiraman qo'llarni.

1920-yil

INGEBORG BALDAUF

## MAHMUDXO'JA BEHBUDIY FALASTINDA

### Samarqandlik jadidning «Sayohat xotiralari» asarining olmoncha tarjimasini o'qib...

Quddusi Sharif va Falastin sayyohlarning xotira kitoblari-da e'tibordan chetda qolgan, tilga olinmagan joylardan emas. Yigirmanchi asrning ikkinchi o'n yilligida ham ko'plab sayyohlar bu muqaddas joylar to'g'risidagi o'z taassurotlarini qog'ozga tushirganlar<sup>1</sup>. Bizning esa asosiy maqsadimiz 1914-yili nashr etilgan bu maqolani, garchi uning muallifi bo'lmish o'rta osiyolik ziyoli Falastinni ziyorat qilgan boshqa sayyohlar tilga olmay o'tib ketgan narsalarni tasvirlagan bo'lsa-da, qaytadan chop etib, mazkur joy to'g'risidagi ma'lumotlarning kemtik joylarini to'ldirish emas. Aksincha, maqsadimiz sayyohning o'zi haqida ba'zi ma'lumotlarga ega bo'lish hamda ushbu xotiralar oynasida aks etgan sayyohga juda yaqin bo'lgan, ehtimolki, uning ko'ngil torlarini chertib o'tgan narsalarga bir nazar tashlashdir.

Hali fanda «Sayohat xotiralari»ning muallifi Mahmudxo'ja Behbudiyning (1875–1919) hayoti va ijodi o'zining aniq-tiniq ifodasini topmagan. Shu sababli maqolamni Behbudi shaxsiyati<sup>2</sup> va «Sayohat xotiralari»ning muallif ijodida hamda Rusiyadagi jadidlar harakati doirasida tutgan o'rmini ko'rsatuvchi muxtasar muqaddima bilan boshlamoqchiman.

Mahmudxo'ja Behbudiyni O'rta Osiyodagi barcha jadid-

larni birlashtirishga intilgan yirik namoyanda desak, xato qilmaymiz. U butun chor Rusiyasidagi hur fikrli, ma'rifatparvar musulmonlar bilan muntazam aloqada bo'lib turar, ayniqsa, Ismoilbey G'aspralining ashaddiy muxlisi edi. Ismoilbeyning ma'rifatparvarligi, kelajakka umid ko'zi bilan qarashi «musulmon jamiyati ijthod eshiklarini lang ochib, yaxshilik tomon yuz tutadi, hozirda hukm surib turgan bid'at, xurofotdan xalos bo'ladi», degan fikrlarini Behbudiy jondildan ma'qullar, o'zi ham shunday fikrda edi. U musulmonlardan dunyoga ochiq ko'z bilan qarashni, zamonaviy xo'jalik yuritishda bilim, fan bilan qurollanib faollik ko'rsatishni talab etardi<sup>3</sup>. Mahmudxo'ja tarixiy islomiy-sharqiy ta'limotdan voz kechmagan holda, Rossiya va Ovrupo ziyolilarining bilimlaridan ham bahramand bo'lishga intilardi<sup>4</sup>. U O'rta Osiyo xalqlarini «boylik» (ya'ni kapitalizm) tomon eltadigan birdan bir ishga yaroqli tarbiya usuli sifatida Ismoil G'aspralining «usuli jadid»ini tinmay targ'ib qilardi. Dunyo beayov «hayot-mamot kurashi maydoni»ga<sup>5</sup> aylangan bir paytda, Mahmudxo'janing fikricha, o'rta osiyoliklarga birinchi navbatda bilim va «boylik» kerak edi. Faqat shulargina xalqning bu bo'hrondan omon chiqishi va mustaqilligini kafolatlaydigan telefon, telegraf, temiryo'llar, havo yo'llari kabi ilg'or texnika vositalariga egalik qilish imkoniyatini tug'dirardi.

Mahmudxo'ja faoliyatining g'oyat o'ziga xosligidan qat'i nazar, u Qrimdagi G'asprali, Qozon tatarlarining Qayum Nosiriysi, usmonli turklarning Ahmad Midhati singari O'rta Osiyoning xalq muallimi edi. U hayotning turli sohalariga taalluqli zamon ruhidagi bilimlarni yuksak tarbiyaviy talabchanlik bilan boshqalarga qaraganda maroqliroq, qiziqarliroq, oddiyroq tarzda, xalq tilida<sup>6</sup> yoyishga intildi. Xalqning ilmga chanqoqligini qondirish maqsadida Behbudiy bir qancha ilmiy-ommabop jug'rofiy kitoblar va Turkistonning tabiiy xaritasini chop etdi. Ko'plab o'quv materiallari, o'qish kitobi va diniy kitoblar, maktub yozish qo'llanmasini yaratdi. Bu asarlarning ba'zilari forsiyda, ba'zilari turkiyda yozilgan bo'lib, Behbudiy ularni Samarqandning yangi shahar qismida joylashgan o'zining shaxsiy do'konida tarqatgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy xalq muallimi bo‘lishga intilarkan, maqsadga erishishning osonroq, qulayroq yo‘llarini axtaradi. Savodsiz, o‘qish-yozishni bilmaydigan omi xalq orasida ziyo, ma’rifat tarqatish maqsadida u yerlik xalq orasida birinchi bo‘lib yangi teatr va kinoni targ‘ib etdi<sup>7</sup>, o‘zi 1914-yili «O‘rta Osiyo hayotidan bir fojia» yoki «Padarkush» pyesasini yaratdi. 1913-yili esa milliy aktyorlar truppasini tashkil qildi, bu guruh 1914-yilning yanvarida «Padarkush» pyesasini birinchi milliy teatr asari sifatida Samarqandda sahnaga olib chiqdi<sup>8</sup>.

Behbudiy jurnalist sifatida, ayniqsa, sermahsul ijodkor edi. Bir necha vaqtli matbuot nashrlarini chiqarish bilan birga, «Xurshid», «Tujjor», «Haqiqat» (keyinchalik «Shuhrat»)<sup>9</sup> kabi gazeta-jurnallarda hamkorlik qildi. Behbudiy «Oyna» jurnalining muassisi va bosh muharriri edi. Ilk bora shu jurnalda uning Quddusi sharifga haj sayohati to‘g‘risidagi xotiralari dunyo yuzini ko‘rdi. Yuqorida nomlari tilga olingan gazeta-jurnallardagi maqola va xabarlarning katta qismini Mahmudxo‘janing o‘zi yozardi. U murojaat etgan mavzular juda xilma-xil: arxeologiya, astronomiya (ilmi hay‘at), jug‘rofiya, savdo, gigiyena, qishloq xo‘jaligi, adabiyot, xalq udumlari... Behbudiy bu mavzulardagi maqolalarini o‘quvchilarga shirali tilda nimkulgili ohanglarda taqdim qiladi. Odatda muallimlar har doim ko‘rsatkich barmoqlarini yuqoriga ko‘tarib, biror narsadan ogohlantirib turishadi. Mahmudxo‘janing muallim sifatidagi shunday holati uning biron mavzuni izohlagan paytdagi yumoristik ruhiga butunlay ziddir. Adibning maqolalarida esa, shu ikki bir-biriga zid holat g‘ayritabiiy ravishda uyg‘unlashib, o‘quvchilarni o‘ziga tortuvchi ohanraboga aylangan.

Behbudiy barcha musulmon xalqlari to‘g‘risidagi bilimlarini chuqurlashtirishga alohida bir muhabbat bilan intiladi. Shu sababli u islom dunyosidan olingan turli asl, ishonchli xabarlarni chop etdi, usmonli turk, tatar, fors, afg‘on gazetalarining xabarlarini sharhlab, vatandoshlariga islom dunyosi ular to‘g‘risida qanday fikrda ekanligini bayon qildi<sup>10</sup>.

«Millat qayg‘usi» Mahmudxo‘jani ko‘plab dasturiy maqolalar yozishga undadi, bu maqolalar achinish, o‘kinch hisslariga yo‘g‘rilgan bo‘lsa-da, ularda «musulmonlarni hozirgi

ruhiy va moddiy tushkunlikdan faqat ma'rifat bilan fan, bilim qutqara oladi», degan fikr yarq etib ko'zga tashlanib turadi. Mahmudxo'janing gazeta va jurnalidagi, yuzaki qaraganda, tushkun, kishilarning e'tiborini tortmaydigan maqolalarning mo'l-ko'lligi ularning uzluksiz ravishda moliyaviy tanglikka tushib qolishiga sabab bo'lgan bo'lsa kerak. Mahmudxo'ja Behbudiyning tabarruk yurtga qilgan haj safari to'g'risidagi maqolasida ma'lumotlar va amaliy yo'llanmalar bir-biriga uyg'un holda ifodalanadi.

1913-yili u o'z jurnali «Oyna»da bosilgan «Oyna nima?» degan maqolasida o'zgaga qarab o'zini ko'rish, yutuq va kamchiliklarini his etish vazifasini ko'ndalang qo'ygandi:

«Oyna shunday bir narsaki, odam unga o'zini ko'rish, yuzining qandayligini bilish uchun qaraydi. Yuzi esa, turli fizik va psixik omillar ta'sirida qizil, sariq, qora yoki oq bo'lishi mumkin. Kishi oynaga nogahoniy payqab qolishi mumkin bo'lgan dardlarini davolash uchun qaraydi».

«Oyna» chor Rusiyasidagi (hamda Usmonli Turkiya, Erondagi) musulmon turk ma'rifatparvarlarining an'anaviy dasturulamali edi. Ismoilbey G'asprali ham o'zining «Tarjumon» nomli gazetidan ilgari chiqarib turgan varaqlardan birini «Mir'oti jadid», ya'ni «Yangi oyna» deb atagandi<sup>11</sup>. «Tarjumon» gazetining birinchi soniga kelgan xatlarning birida «Bu gazet asr oynasi bo'lsin» degan tilak bildirilgandi.

Qozi Abdurashid Ibrohimov 1902–1909-yillarda «Mir'ot – Ko'zgu» degan islohiy panislomiy «qalin jurnal» chiqarib turgan. 1910-yili esa xuddi shu nomda birmuncha vaqt ozarboyjoncha-turkcha adabiy jurnal chop etilgan. Mahmudxo'ja Behbudiy 1913-yilning avgustida Samarqandda xuddi shunday, ammo to'rt til va to'rt nomdagi «Oyna – Ko'zgu – Mir'ot – Zerkalo» jurnalining birinchi sinov sonini chiqarib, o'z ustozlaridan ancha ilgarilab ketdi. Bu jurnaldagi maqolalar fors, turkiy va rus tillarida chop etilishi lozim edi, ammo ular faqat turkiy va fors tillaridagina chop etildi<sup>12</sup>. Mahmudxo'janing aytishicha, oyna yasash uchun shishaning orqasiga simobning ba'zi moddalar bilan aralashmasini yopishtirish kerak. Oynani tayyorlashdan maqsad esa, kishi unda o'zining va o'zgalarning aksini ko'ra olishi, o'zini o'zgalar

bilan taqqoslash imkoniyatiga ega bo'lishidir. Behbudiy she'r-laridan birida o'sha amalgama, ya'ni simob qotishmasi «uxlab yotgan va jangovar, ishbilarmon moddiyunchi, tarbiyachi – idealist, aqidaparast, xayolparast va ma'rifatparvar O'rta Osiyo kishilaridan tashkil topishi kerak», deydi. Behbudiy faqat shu dastur bilan kifoyalanib qolmadi. U «Oyna»ni chinakam dunyo ko'zgisiga aylantirdi, O'rta Osiyo burjuaziyasiga Parij bilan Yaponiya orasidagi zamonaviy hayotni ko'z-ko'z etdi.

Mahmudxo'ja «Do'stlar bir-birining oynasidir» degan xalq maqolini tez-tez takrorlar, ehtimol, shu yo'l bilan u O'rta Osiyo musulmonlari «Oyna»da o'zlarining boshqa xalqlarga qaraganda aftodaholroq qiyofalarini ko'rib qolishganda paydo bo'ladigan noxush ahvolning oldini olishga harakat qilgandir. Samarqandlik o'qituvchi va shoir taniqli jadid Siddiqiy Ajziy<sup>13</sup> Mahmudxo'janing eng yaqin hamkorlaridan biri edi. «Oyna» dunyoga kelishidan ilgari u «Mir'oti ibrat», ya'ni «Ibrat ko'zgusi» nomli bir xayoliy asar yaratgandi. Ajziy bu asarida xayoliy mamlakatlarga sayr qiladi va ko'z o'ngida namoyon bo'lgan o'zining va Behbudiyning ona shahri bo'lmish Samarqandning orzudagi timsolini tasvirlaydi. «Ibrat ko'zgusi» avval Tiflisdan nashr etilib, ancha vaqtdan keyingina, ya'ni 1914-yili Samarqandda bosilganiga e'tibor bersak, shirin orzu bilan achchiq haqiqat orasida qanchalar katta tafovut borligini yaqqol sezamiz<sup>14</sup>.

Mahmudxo'ja vatandoshlariga ularning ayanchli ahvolini ko'rsatish uchun oson va tushunarli usullarni tanlaydi. «Sayohat xotiralari» qiziqarli va yengil tilda yozilgan. Muqaddas yurtga haj safari to'g'risida maqola yozish orqali Behbudiy Vatan haqidagi achchiq haqiqatlarni tilga olishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan edi. Xotiralar 1914-yilning kuzidan yil oxirigacha yetti qismga bo'linib chop etildi. Bizning qo'limizdagi tarjima matni, afsuski, to'liq emas, aftidan davomi tushirib qoldirilgan bo'lsa kerak. Ammo men maqolaning tarjima matni xotimasidan keyin ham davomi bo'lgan deb isbotlay olmayman<sup>15</sup>. Harholda muqaddas yurt haqidagi xabar xuddi shu yerda tugaydi... Fikrimcha, Behbudiyning asosiy maqsadi muqaddas qadamjolarini ta'rif-tavsif etish bo'lmagan. Shu sababli muallif ularni o'zgina ta'riflash bilan ki-

foyalangan (maqolada yahudiylar qadamjolari, nasroniylar muqaddas hisoblaydigan joylar va islom osori atiqalarini tasvirlashga qariyb teng joy ajratilgan). Shu ishi hamda tasvirlyotganda ehtirosga berilmasligi, o'zidan qo'shib-chatmasligi orqali Behbudiy tom ma'noda o'zidan ilgari nasihatimiz «Hajnoma»lar bitgan mualliflarning an'alaridan chetga chiqadi. Biroq, shunga qaramasdan, Behbudiy maqolasi tasvir tiniqligi jihatidan ilgari bitilgan, safarning barcha tafsilotlari mufassal keltirilgan yo'l ko'rsatkichnamo «Hajnoma»larga o'xshab ketadi<sup>16</sup>. Behbudiy 1910-yillarda tatar va O'rta Osiyo gazetalarida tez-tez chop etilib turgan, hojilar uchun berilgan maslahatlar qabilidagi maqola yozishni maqsad qilmagan bo'lsa-da, kelajakda O'rta Osiyodan hajga yo'l oladigan kishilar uchun juda ham hayotiy maslahatlar beradi<sup>17</sup>.

Mahmudxo'janing «Sayohat xotiralari» asarini qaysidir ma'noda «Sayohatnoma»larning keyingi asrlarda shakllangan chig'atoycha namunalariga mengzash mumkin. Ma'lumki, o'sha sayohatnomalarning mualliflari jug'rofiy tasvirlar orqali savdo va diplomatik munosabatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatishga uringanlar. Behbudiy ham vatandoshlarini Falastin bilan savdo-sotiq hamda sayohat sohasida hamkorlikka undash ishtiyoqida bo'lgan. Shu ma'noda u bergan ma'lumotlar juda mufassaldir, ammo, baribir, bu xabarlar sayohat taassurotining foydali, qo'shimcha ma'lumoti kabi tuyuladi.

Tipologik va uslub jihatidan Mahmudxo'janing asari 1751-yili diplomatik yo'l bilan Hindistonga borgan va xotiralarini yarim sarguzasht, yarim hisobot tarzida yozgan notanish tatar savdogarining bitiklariga favqulodda juda o'xshab ketadi. Biroq Mahmudxo'janing asari tatar savdogarining bitiklaridan farqli o'laroq ta'limiy-tarbiyaviy xususiyatga ega<sup>18</sup>.

1913-yili «Vaqt» gazetida Quddusi sharifga qilingan haj to'g'risidagi boshqa bir badiiy sayohatnoma tatar tilida bo'linib-bo'linib chop etilgandi<sup>19</sup>. Ehtimol, shu asar Behbudiyini «Sayohat xotiralari» asarini yozishga ilhomlantirgandir. Tatar tilidagi bu esse muallifi ijtimoiy-tarixiy tahlildan qochib, sof tavsifchilikka berilgan, o'qilishi oson, bozori chaqqon asar yozish uchun Quddusi sharif sayohatini vosita



qilib olgandi. Mahmudxo‘ja esa Quddusi sharifga sayohati bahonasida o‘quvchilarga ko‘nglining tubida cho‘kib yotgan g‘am-anduhlarini, O‘rta Osiyoning dard-tashvishlarini bayon etish hamda vatandoshlariga ularning xatolarini ko‘rsatib berish uchun bu asarni bitgan. Mahmudxo‘ja Falastinni bekordan bekorga o‘z dardlarini aytish uchun vosita sifatida olgani yo‘q. U Falastinda yashovchi musulmon arablar hayoti bilan O‘rta Osiyoda yashovchi musulmon yurtdoshlarining hayotini bir-biriga taqqoslab ko‘radi. Ayon bo‘lishicha, har ikkala xalq ham ajnabiylar istibdodi ostida yashaydilar va har ikkala holda ham mustamlakachilar ovrupoliklardir. Mahmudxo‘ja Falastinda Usmonli davlati emas, balki Ovrupo imperialistik kuchlari hukmron ekanligini aniq ko‘radi. Xuddi O‘rta Osiyo musulmonlari bilan yerli hamda chetdan kelib qolgan yahudiylar va tatarlar Rusiya imperiyasi tashib ketganidan keyin qolgan-qutgan moddiy boyliklar ustida talashib-tortishganlaridek, Falastindagi musulmon arablar bilan nasroniy arablar, yerli yahudiylar turli Ovrupo mamlakatlari vakillari va sionist ko‘chmanchilardan qolgan-qutgan narsalar ustida talashib-tortishadilar. U yoqda ham, bu yoqda ham yerli musulmonlar ijtimoiy tabaqalanishning eng quyi pog‘onasiga tushirib qo‘yilgandi. Behbudiyning fikricha, nochor ahvolga tushib qolishlarida musulmonlarning o‘zlari ham aybdor, chunki ular mustamlakachi hukumatning «bilm olinglar» degan taklifini rad etadilar, o‘zlari ham xalqni ma’rifatli qilish uchun qo‘llarini sovuq suvga urmaydilar<sup>20</sup>. Behbudiy o‘quvchilarga Falastinda yashovchi arab musulmonlarining taqdirini namoyish etadi. Ba’zilar bu qiyoslash orqali Behbudiy panislomizm g‘oyalarini yoyishga harakat qilgan, deb o‘ylashlari mumkin. Yo‘q, aksincha, Behbudiy bunga mutlaqo intilmaydi, ba’zi hollarda esa, falastinlik musulmonlarni «kir-chirga botgan arablar» deb tasvirlab, hurmat-e’tiborga ko‘proq loyiq bo‘lgan turkistonliklar bir chekkada qolib, imperiyachi kuchlar arablarning e’tiborini qozonishga urinayotganidan g‘ayirligi qo‘ziganini ham yashirmaydi. Bir dindagi kishilarning yaqinligi yasamadir, chinakam birdamlik emas; kamdan kam hollardagina Behbudiy «barcha musulmonlarning birligi» to‘g‘risida so‘z

yuritadi. Mahmudxo‘ja tushunchasidagi birdamlik faqat uning o‘z millatiga taalluqlidir. Millat esa, faqat diniy emas, balki diniy va makoniy nuqtayi nazardan ta’riflanishi lozim, ya’ni Behbudiy «barcha musulmonlarning birligi» deganda fikrimizcha, birinchi navbatda, O‘rta Osiyo musulmonlarining birdamligini tushungan bo‘lsa kerak. Shu birdamlik tushunchasi Behbudiyning siyosiy nuqtayi nazarini ham belgilaydi. U ruslarning Falastindagi ishlarini maqtar ekan, Rusiya fuqarosi sifatida bu mamlakatdan juda g‘ururlanadi, biroq ruslarning mustamlakachi sifatida O‘rta Osiyo millatiga nisbatan xatti-harakatlarini tasvirlayotganda ularning imperiaalistik qiliqlarini kuchli tanqid o‘ti ostiga oladi. Sionist ko‘chmanchilarning Jaffadagi faoliyati to‘g‘risida Behbudiy tomonidan aytilgan gaplar vatandoshlariga qarata: «Mustamlaka zanjirlarini parchalab tashlang!»— degan chaqiriqqa o‘xshab jaranglaydi: yahudiy ko‘chmanchilar bugunchalik markani konvertning ichki tarafiga yopishtirayotgan bo‘lsalar, tez orada konvert ustiga yopishtiradigan bo‘ladilar — o‘rta osiyoliklar ham yahudiylar singari ishga kirishsalargina kelajakdagi mustaqillik va istiqbolga umid bog‘lashlari mumkin.

Mahmudxo‘ja Ismoilbey G‘aspralini qanchalik hurmat qilmasin va islom dunyosiga qanchalar umid bog‘lamasin, baribir, G‘aspralining panislomistik qarashlarini, maqsadlarini ma’qullamaydi. Aksincha, u butunlay boshqa, jadidcha prinsiplarga sadoqat ila rioya qiladi. Behbudiyning «Sayohat xotiralari»da uning, asosan, dunyo bilan hamjihatlik, ma’rifatga yuz burish, madaniy muassasalarni kengaytirish, xo‘jalik yuritishda ilg‘or fan yutuqlaridan foydalanishga alohida e’tibor berganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xotiralar so‘ngida biz uning islom ruhoniyyati, xalqchil islom amaliyoti va Behbudiy uchun asosiy eng dolzarb masalalardan biri bo‘lmish islomiy axloqqa nisbatan bo‘lgan munosabati bilan tanishamiz. Qo‘limizdagi tarjima matnida shunday va bundan boshqa Behbudiy faoliyatiga taalluqli tafsilotlar izohlar orqali ko‘rsatilganligi uchun endi e’tiboringizni izohlarga jalb etmoqchiman.

## IZOHLAR

1. Peter Tomzenning «Falastin adabiyoti» (Leypsih, 1916) kitobida aytilishicha, 1910–1914-yillar orasida yuzdan ortiq «Sayohatnoma»lar bitilgan. Rusiyadan kelgan yahudiylar va musulmonlar yozgan bu asarlar Qozon, Saratov va Odessada chop etilgan.

2. Behbudiyning eng yaqin kishilaridan biri bo‘lmish Hoji Muin ibn Shukrullo «Inqilob»da Sharq yo‘qsullari ozodligiga xizmat etuvchi ikki haftada bir chiqadigan jurnalda Behbudiy vafotiga bag‘ishlab yozgan ta’ziasini e‘lon qilgan («Inqilob», 1922-yil, fevral, 36–38-betlar). Ta’ziyaning sarlavhasi: «Tarjimayi hol Mufti Mahmudxo‘ja Behbudiy hazratlarining qandoq shahid bo‘lganliklari va aning tomonidan yozilgan vasiyatnoma»: «O‘zbek ensiklopediyasi»dagi va «Adabiyot tarixi» kitoblaridagi maqolalar esa, shunchaki xo‘jako‘rsinga yozilgandir. Ular juda qisqaligi uchun kam ma‘lumot beradi. Qayta qurish boshlangach, jadidlik va Behbudiy asarlariga munosabat biroq o‘zgargan bo‘lsa-da, biroq haligacha to‘g‘ri bahosini olgani yo‘q. Qarang: «Qatl etilgan adib» («Guliston», 1988, 10-son).

3. Xuddi shunday talab 1908-yili «Shuhrat» gazetasining 4-sonida Bektemirov degan muallif tomonidan ham ko‘tarib chiqilgan.

4. «Ikki emas, to‘rt til lozim» («Oyna», 1913-yil, 1-son 12–14-betlar).

5. «Istiqbol qayg‘usi» («Oyna», 1913-yil, 2-son).

6. Behbudiy eskicha millat tushunchasi tarafdoridir. Uning fikricha, millat diniy va makoniy nuqtayi nazardan ta‘riflanishi kerak. Ammo u qavm yoki millat deb atagan tushunchalarni til va etnik tomonlardan ham ta‘riflagani sababli adibning asarlarida ba‘zan «musulmon tili», ya‘ni O‘rta Osiyoda yashovchi turkiy yoki forsiyda so‘zlashuvchi aholi tili hamda «arab dini», ya‘ni Falastinda yashovchi arablarning islom dini degan iboralar ham uchrab turadi.

7. Yerli xalqning tatar tilidagi teatri Turkistonda 1904-yildan beri mavjud edi («Tarjumon», 1904-yil, aprel). Behbudiyning teatr va kinoga qiziqqanligi xususida qarang: «Ovrupoda teyatrolar» («Oyna», 1913-yil, dekabr).

8. Mamajon Rahmonov. Узбекский театр с древнейших времен до 1917 года. Toshkent, 1981.

9. Aleksandr Benigsen. La presse et le mouvement national xes lez musulmans de russiye avant 1920. Parij, 1964.

10. «Turkistonda odatiy qabiha». «Oyna», 1913-yil, 5-son.

11. Boqchasaroy, 1882-yil.

12. «Oyna»da chop etilgan maqolalarning to‘rtidan uch qismi turkiyning Samarqand shevasida, qolganlari esa forsiyda yozilgan. Behbudiyning «ikki tilda va xalq tilida» yozishi ko‘p martalab tanqidga uchragan. Ba‘zi

o'quvchilar forsiyga butunlay qarshi bo'lishgan: «Forsiy aslo kerak yo'q» («Oyna», 1914-yil 15-son). Boshqalari esa, forsiydagi maqolalarning ko'paytirilishini talab qilishgan. Yana ba'zi bir o'quvchilar hammaga tushunarli, oson tilda yozish kerakligini uqtirishgan: «Lozimki, oson va ham nihoyatda oson o'zbeki ila yozsangizlar» (o'sha sonda). Ba'zi o'quvchilar esa, noshirni o'zbek tilini buzib yuborayotganlikda ayblaydilar: «Oyna» tilini avomcha va ko'chagi qilib yuborilibdir» (o'sha sonda).

13. Behbudiyning Siddiqiy-Ajziyga munosabati xususida qarang: Vadud Mahmud. «Turk shoiri Ajziy». «Inqilob», 1924-yil, 11–12-sonlar. Xuddi Behbudiyniki singari, Ajziyning ham hayoti va ijodi O'zbekistonda yangidan o'rganilib, yangicha baholanishi lozim. Taqqoslang: Begali Qosimov. «Shoir xotirasini izlab...» «Sharq yulduzi», 1989-yil, 10-son, 178–184-betlar.

14. Siddiqiy. «Tarjimai Mir'oti ibrat». Samarqand, 1332 (1914); Begali Qosimov. «Shoir xotirasini izlab...» «Sharq yulduzi», 1989, 10-son, 180-bet.

15. Moskvadagi Lenin kutubxonasida saqlanayotgan «Oyna» jurnalining ushbu olingan nusxasi, afsuski, to'liq emas. Leningrad va Xelsinkiidagi nusxalar ham shu ahvolda.

16. А. Х. Алиева. «Списки «Muhammad Amin sayohatnomasi» и живая народная речь в ее языковой структуре («Истоки татарского литературного языка»). Казань, 1988; В. Riftin. «Типология и взаимосвязи средневековых литератур Востока и Запада». Москва, 1974.

17. Chinakam sayohat maslahatnomalarida ruxsatnoma olish, sayohat, oziq-ovqat, tunash joylari va ularning baholari, xavfsizlik masalalari bo'yicha mufassal maslahatlar berilgan. Ularning eng to'liq hisoblangani 1913-yil iyulda Qozog'istonda chop etilgan «Haj yo'li» kitobchasidir.

18. Bu maqola 1903-yili Qozonda chop etilgan («Ismoil sayohati». Rizouddin ibni Faxruddinning so'zboshi va izohlari bilan). Mahmudxo'ja bu kitobchani o'qigan bo'lishi kerak, chunki u tatar adabiy hayotida faol ishtirok etar, noshir bilan esa do'stona munosabatda edi. Ismoil maqolasi oddiygina, ammo Mahmudxo'janing asari tom ma'noda yuksak badiiy saviyada yozilgan.

19. Asar 1913-yilning sentabr, oktabr oylarida «Vaqt» gazetasida chop etilgan. Bu sayohatnoma uslubi jihatidan Mahmudxo'ja maqolasidan mukammalroq, ammo unda tarbiyaviy xususiyat yetishmaydi. Har ikkala maqolaning bitta umumiy tomoni bor, ular zamirida falastinlik musulmonlar ahvoriga qiziqish bor.

20. Behbudiy takror va takror ruslar bilan bir qatorda yahudiylar va armanlarning Turkiston musulmonlariga qaraganda boy-badavlat, to'kin-sochin hayot kechirish imkoniyatlariga ega ekanliklarini ta'kidlaydi. Taqqoslang: «Xurshid», 1906-yil, 6-son; «Taraqqiy», 1906-yil, 7-son; «Oyna», 1913-yil, 8-son («Xo'qand va musulmonlar» maqolasi).

## LUG'AT

### A

**Abdi asnom** – sanamlar quli  
**Abo** – yengsiz ustki jun kiyim  
**Adam** – yo'qlik  
**A'dod** – adadlari, turlari  
**Adras** – matoh  
**Af'ol** – fe'l-atvor  
**Ahad** – kimsa, kishi  
**Ahibbo** – do'stlar  
**Ahodis** – hadislar  
**Ajala shayton** – shoshqaloqlik – shaytonning ishi  
**Ajrom** – osmon jismlari  
**Akkos** – aks ettiruvchi, fotograf  
**Akobir** – ulug'lar  
**Alam** – timsol  
**Al-on** – hozirgi paytda  
**Aloyiqi ro'zg'or** – ro'zg'orga bog'lanib qolish  
**Ammoma (amoma)** –salla  
**A'mo** – ko'r  
**Amud** – ustun  
**Anbiyoi izom** – ulug' nabilar  
**Anfosi qudsiya** – muqaddas nafas  
**Anqarib** – qisqa fursatda, ko'z ochib yumguncha  
**Ansor** – do'st, homiy, madadkor  
**Anvo'** – navlar, xillar  
**Aqsoyi safar** – safar yakuni  
**Arz** – yer; en  
**Arzi mav'ud** – orzu qilingan yer, jannatmonand joy  
**Asaflik** – taassuflanarli  
**Asari yos** – katta umidsizlik, chorasizlik  
**Asfal** – tuban  
**Askala** – pristan, port  
**Atf** – qayta, yana bir bor

**Atibbo** – tabiblar  
**Atrof** – tomonlar  
**Atroshom** – atir taratuvchi  
**Avajoj** – egilma  
**Avsof** – vasflar, maqtoqlar  
**Axuz** – olingan  
**Ag'niyo** – boylar  
**Ashrof** – ulug'lar

### B

**Badaviy** – madaniyatdan uzoq, sahroyi  
**Ba'd az i'sho** – xuftondan keyin  
**Ba'd az zuhr** – tushdan so'ng  
**Bahri abyazi mutavassit** – O'rta yer dengizi  
**Bahs-u jidol** – tortishuv, munozara  
**Baladiya** – shahar hokimligi  
**Bandar** – port  
**Baqiya** – davom  
**Barroqlik** – yaltiroqlik  
**Ba's** – qiyomat  
**Baxshish** – sadaqa, hadya  
**Bavvob** – qorovul  
**Bay'at** – qasamyod  
**Bay'ona** – bay puli  
**Baytul mol** – davlat xazinasi  
**Bayzo** – oq  
**Beljiklar** – belgiyaliklar  
**Besha** – to'qay, chakalakzor  
**Bilonixtiyor** – ixtiyorsiz  
**Bini** – burun  
**Bir rub'** – to'rt dan bir ma'nosida  
**Bir suls** – uchdan bir ma'nosida  
**Bizans** – Vizantiya  
**Bob** – eshik  
**Bodgo'ya** – shamolgo'h  
**Bodi Kubo** – Boku shahri

**Bolo** — yuqori  
**Bolun** — havo shari, aerostat  
**Boniy** — asoschi  
**Borgoh** — huzur; joy  
**Botil** — behuda, buzuq  
**Boxari** — bug‘  
**Burdai ubudiyat** — xoksor qul  
**Buyro‘kratiyai mustabid** — mutlaq monarxiya  
**Buq‘a** — masjid, ibodatgoh; maqbara; hujra  
**Bo‘g‘ozichi** — Bosforning ikkinchi turkcha nomi

## D

**Daf‘i** — raddiya  
**Dalil** — yo‘l boshlovchi, gid  
**Daloyili aqliy** — dono dalillar  
**Dang** — qo‘zg‘almas mulkning oltidan biri  
**Daroyatli** — tushunchali, bilimli  
**Davr etmoq** — doira yasamoq  
**Dorilqazo** — sud mahkamasi, qozixonona  
**Doro** — ega  
**Do‘rag‘a** — xona

## E

**E‘dodiy** — tayyorlov  
**Ehmol** — qiyinchilik  
**E‘tidol** — mo‘tadil  
**E‘tinosislik** — beg‘amlilik, e‘tiborsizlik  
**Evet** — ha, to‘g‘ri

## F

**Fajr** — tong  
**Fano** — kechmish, yo‘qlik  
**Faqr-u zarurat** — faqir-u muhtojlik  
**Farah** — rohat  
**Far‘iyya** — ikkinchi darajali  
**Farra** — ajoyib

**Farsh qilinmoq** — to‘shalmoq  
**Favqal bahr** — suv usti  
**Favran** — achchiqlanib; darhol  
**Favt** — yo‘qotish  
**Faysal** — yechim, qaror  
**Fazla** — ko‘p, ortiqcha  
**Fashang** — sovrin ma‘nosida  
**Fiy-ya** — holat  
**Fosila** — oraliq masofa

## G

**Garon** — og‘ir  
**Gerehmo‘** — murakkab tugunli, jimjimador  
**Gulla** — zambarak o‘qi, snaryad  
**Gunbad** — gumbaz

## H

**Hafif** — yengil  
**Hajari asvod** — Makkadagi qora tosh  
**Hammor** — ichuvchi, mayxo‘r  
**Hanjor** — yo‘l, usul  
**Hasan** — yaxshi, chiroyli  
**Hasir** — bo‘yra, bordon  
**Havondor** — quyuq  
**Havoriyin** — Iso payg‘ambar izdoshlari  
**Havos** — hislar  
**Havoyij** — ehtiyoj  
**Hay‘at** — astronomiya  
**Hayvon notiq** — gapiruvchi jon-zotlar, ya‘ni odamlar ma‘nosida  
**Haziz** — tuban  
**Hifzan** — yoddan  
**Himam** — himmatlar  
**Hizb** — partiya  
**Hosilxiz** — serhosil  
**Hudus** — tasodiflar, hodisalar  
**Hulyo** — xayol  
**Hunyor** — tartib  
**Husnizan** — yaxshi fikr  
**Huviyyat** — shaxsiyat

## I

**Iflos** — bankrot  
**Ifratparast** — haddidan oshuvchi  
**Ihyo etuvchi** — tiriltiruvchi, tiklovchi  
**Ijmoliy** — xulosa, muxtasar  
**Ijtimo'xona** — odamlar to'planadigan xona  
**Iktifo** — kifoya  
**Iltizom** — lozim  
**Intio** — mol  
**Intizoj** — birikish  
**Infioi daruniy** — ichki hayajon  
**Inshoot** — maktublar  
**Iqtibos** — ko'chirma  
**Irod** — e'tiroz  
**Irtifo'** — balandlik  
**Iskutvo** — jim bo'linglar!  
Sukut saqlanglar!  
**Istibdod ro'yi** — zulmatparastlik  
**Istidlol** — dalil keltirish  
**Ithof** — bag'ishlov  
**Ittihad** — birlashuv  
**Izo** — ozor, azob; izza qilmoq  
**Ishtirokiyo'n 'omiyun** — xalq sotsializmi

## J

**Jabali Libnon ayalat** — Libnon tog'lik viloyati  
**Jabha** — tomon, old  
**Jadd** — bobo, buvi  
**Jalliy** — yirik  
**Jamod** — quruq, qattiq  
**Jarh** — e'tiroz  
**Jarida** — gazeta  
**Jaroid** — gazetalar  
**Jazira** — orol  
**Jihot** — jihatlar, tomonlar  
**Jimnastiq xonalar** — sport (gimnastika) inshootlari  
**Jobulso va Jabulqo** — Sharq va G'arbning ikki afsonaviy shahri

**Joniy** — hayotiy  
**Jonxarosh** — jon azobi, iztirob  
**Joyxoblar** — o'rin-ko'rpa, choyshab va h. k.  
**Jozibai qamar** — oyning tortilishi  
**Jubba** — keng, uzun to'n  
**Juhhol** — johillar  
**Juvar** — yon, atrof, qo'shnili

## K

**Kafili hadidmand** — o'tkir kafil  
**Kaloba to'p** — bir kalava arqon  
**Kanor** — chet, chekka  
**Kasolat** — yalqovlik  
**Keshti** — kema  
**Kofiy** — yetarli, kifoya  
**Koza** — chayla  
**Koshi** — naqshin bo'lak, kafel  
**Kulliyon** — butunlay, tamoman  
**Kunj** — burchak  
**Kurrai masnua** — globus  
**Kurrai musattaha** — Yer shari  
**Ko'y** — ko'cha

## L

**Latif-ul-hamim** — qaynarbuloq  
**La va naam** — yo'q va ha  
**Layli** — kechki  
«Lohavl» — qo'rqqanda o'qiladigan duoning ilk so'zi  
**Lohaza** — shu sababli  
**Lohutiy** — ilohiy  
**Loyanqoti'** — to'xtovsiz  
**Loyantahi** — nihoyasiz  
**Loyatimmu** — tinim bilmas  
**Loyihoti** — bashoratchi, folbin  
**Lug'z** — so'z

## M

**Maa** — birga  
**Maa taassuf** — afsuski  
**Maa fiyyat** — xizmat haqi

**Maa fih** — shunday vaziyatda, shunga qaramay  
**Ma'bad** — ibodatgoh  
**Mabni** — bino qilingan  
**Madfan** — qabr, go'r  
**Madfun** — dafn qilingan  
**Madhal** — kirish joy  
**Madyun** — burchli  
**Ma fiyyahu** — undan tashqarida  
**Mafrush** — to'shalgan  
**Mahal** — joy  
**Mahfil** — davra  
**Mahtob** — oydin  
**Mahz** — faqat; g'irt; toza  
**Mahzuf** — tushib qolgan  
**Majjoniy** — tekin  
**Majlisi mab'uson** — deputatlar palatasi, parlament  
**Majzubona** — maftunkor, jozibali  
**Mak'ab** — o'ringa qarab, kub yo kvadrat ma'nolarida ishlatiladi  
**Maktabi sanoye'i** — san'at (hunar) maktabi  
**Mamnu'** — man etilgan  
**Ma'mul** — amaldagi  
**Manbit** — ko'kalamzor  
**Manhadam** — xarob  
**Manhiy** — taqiqlangan  
**Manhus** — naxsda qolgan  
**Maqsura** — mehvar  
**Maqtul** — qatl etilgan  
**Ma'raz** — namoyish joyi  
**Marbut** — tutash, bog'langan  
**Marja'** — murojaatgoh  
**Marju'** — o'rinli  
**Markabi bahriya** — dengiz ulovi, ya'ni kema  
**Markuz bo'lmagan** — qoqilmagan, osilmagan  
**Marrat** — martalar  
**Marsabi bahriya** — dengiz otlari  
**Masahi** — mahsi  
**Masdar** — sarchashma, sababi asosiy

**Masmuot** — eshitlesh  
**Masna'** — bunyod etilgan  
**Masolih** — zarur ashyo  
**Masohat** — o'lchov  
**Masrif** (masorif) — isrofgarchilik  
**Masrof** — sarflamoq, xarajat  
**Matin** — mustahkam  
**Matof** — tavof etish joyi  
**Mavod** — moddalar  
**Mavohaza** — tanbeh, dashnom  
**Mavqif** — bekat  
**Mavquf** — bog'liq  
**Maxatta** — bekat  
**Maxlut** — aralash, qorishiq  
**Mayyit** — o'lik  
**Mazbalagoh** — axlatxona  
**Ma'tal** — zaif ma'nosida  
**Ma'zirat** — uzr  
**Maziyyat** — ustunlik  
**Mag'ora** — g'or  
**Mag'oz** — magazin, do'kon  
**Mas'h etmoq** — yuziga qo'l tortmoq  
**Mashruta** — konstitutsiya  
**Mashru'** — shariat yo'l qo'yan  
**Miftahdor** — kalitdor  
**Mil** — quvur  
**Minba'd** — bundan buyon  
**Minokori** — sirlangan  
**Miz** — stol  
**Moddatan** — aslida  
**Mohazi** — ro'para  
**Morpech** — ilonso'qmoq, yolg'iz-oyoq yo'l; o'ymakor naqshning bir turi  
**Muarrab** — arabcha  
**Muavvaj** — qiytiq  
**Muayyana** — nazorat  
**Muazzot** — izzat, hurmat  
**Mubarro** — xoli  
**Mubham** — noaniq  
**Muboshir** — boshqaruvchi  
**Mudavar** — yumaloq, aylana



- Mudoxala etmoq** — aralashmoq  
**Muft** — bekorchi, arziyas  
**Muhaqqaq** — to'g'riligi isbotlangan  
**Muhaqqiqini kirom** — ulug' haqiqatchilar  
**Muharriri ma'rozlar** — voqea va hodisalarni bayon, tasvir etuvchi  
**Muhmal** — bema'ni  
**Muhosara** — qamal  
**Muhovara** — savol-javob  
**Muhtaviy** — o'z ichiga olgan  
**Mujallo** — yaltiroq, jiloli  
**Mukolima** — so'z, gap  
**Mulavvan** — ziynatlangan, naqshlangan, bo'yalgan  
**Mulki askariy** — davlat askariya maktabi  
**Mulki e'dodiy** — davlat tayyorlov maktabi  
**Mulkiyai rushdiya** — davlat o'rta maktabi  
**Mumayiz** — ajratilgan, ayri  
**Mumtahan** — imtihondan o'tgan  
**Munabbat** — yog'ochga o'yib ishlangan naqsh  
**Munazzam** — nazm-u tartibga kirgan  
**Munqariz bo'lmoq** — tugab bitish  
**Munqod** — itoat etish  
**Muntashar** — yoyilgan  
**Muoyana etmoq** — ko'zdan kechirmoq  
**Muqarnas** — qubbali naqshlar  
**Muqovolot** — shartnoma  
**Muqtadir** — iqtidorli  
**Murabba'** — to'rtburchak  
**Murattib** — tartib beruvchi  
**Muraxxas** — imtiyozli odam  
**Murodif** — sinonim  
**Musaddas** — olti qirrali ma'nosida  
**Musakirot** — mast qiluvchi ichimliklar  
**Musallahlik** — qurolli  
**Musamma** — yuqori aytilgan  
**Musannif** — kitob tuzuvchi, muallif  
**Musattah** — tekis, yassi  
**Musavvir** — suratli  
**Muslih** — isloh  
**Musofirat** — musofirlik  
**Musoid** — imkon beruvchi  
**Musovot** — tenglik, barobarlik  
**Mustamlakot** — mustamlakalar  
**Mustand** — iste'dodli; asosli  
**Mustandi tamaddun** — madaniyatga tayyor  
**Mustaqar** — aylanish chizig'i  
**Mustatil** — cho'zilgan  
**Mustashar** — maslahatchi  
**Mutallo** — quyma  
**Mu'tamad** — e'timodli, ishonchli  
**Mutanoze'** — nizo, janjalli  
**Mutaqaddimin** — qadimda o'tgan  
**Mu'taqid** — e'tiqodli  
**Mutasarraf** — egalik qilish  
**Mutavajjih bo'lmoq** — yuz tutmoq, iltijo qilmoq  
**Mutavassit** — oraliq  
**Mutavattun** — vatan tutgan  
**Muttafiq** — ittifoqchi  
**Muttasil** — tutash ma'nosida  
**Muvahhad** — bir xudolik  
**Muxtalif** — xilma-xil  
**Muzbala** — q. Mazbalagoh  
**Muzdurlik** — yollanib ishlash  
**Muzohaka** — kulgili  
**Muzoyiq** — zich, siqiq, tor  
**Mo'tabaronlar** — ulug'lar  
**Mo'todicha** — odaticha  
**Mushaxxis** — aktyor, ijrochi  
**Mushorun alayh** — unga dalillik qiluvchi  
**Mushrik** — kofir  
**Mushtamil** — o'z ichiga olgan

**Mushtariy** — xaridor, jazman  
**Mushtirama** — umumiy

## N

**Na'bon etmoq** — chiqmoq  
**Nadva** — anjuman, majlis  
**Nafsi jome'** — jome'ning o'zi  
**Nafsi imorat** — imoratning o'zi  
**Nafsimg'a** — o'zimga  
**Nafsi Turkiston** — Turkiston ahli  
**Nafsul-amr** — mohiyat  
**Nafuz** — ta'sir  
**Nahr** — daryo, oqar suv  
**Naql qildirmoq** — olib kelmoq  
**Naqsha** — xarita  
**Nardbon** — narvon  
**Nasoro** — xristian  
**Nasyachin** — nasya yig'uvchi, qarzni undiruvchi  
**Navha** — yig'i, tantanali ijro  
**Navoqis** — nuqsonlar  
**Naxn etmoq** — taqiqlamoq  
**Nazarfirib** — maftunkor, jozibali  
**Nachur** — dezinfeksiya  
**Nimkola** — yarim-yorti  
**Nisf** — yarim  
**Noguzirdur** — chetlab o'tmaydi  
**Nohalaf** — nomunosib ma'nosida  
**Noqis** — nuqsonli, qalbaki  
**Noqus** — qo'ng'iroq  
**Norgila** — chilimga o'xshash narsa  
**Noxudoyi** — xudosizlik, iymon-sizlik  
**Nufuz** — e'tiborli  
**Nuqud** — naqdinalar  
**Nusus** — matn

## O

**Obchakorlik** — sug'oriladigan ekinzor  
**Odina** — juma  
**Ofoq** — olam

**Oilai kirom** — buyuk, karamli  
**Omburi hukumat** — hukumat bosh-qaruvi  
**Ore** — ha  
**Oriz** — tasodifiy  
**Orizali** — sun'iy o'rmon; baxtsizlik  
**Osiyoi Vasati** — O'rta Osiyo  
**Otiya** — quyi  
**Oviza** — osma  
**Oyanda** — kelajak  
**Oyot** — oyatlar  
**Og'ushta** — band bo'lmoq

## P

**Parastish** — e'tiqod, ixlos  
**Penir** — pishloq  
**Peshaki** — oldindan  
**Piyodaguzar** — piyoda o'tar yo'l  
**Popos** — pop  
**Popur** — paroxod  
**Porina** — sho'rlik, bechora  
**Poru** — suprindi, go'ng  
**Poruxona** — axlatxona  
**Po'stxo'rda** — po'choq  
**Po'shish** — yopinchiq

## Q

**Qabihi** — buzuqi, behayo  
**Qabl az asr** — asr namozi oldidan  
**Qanodil** — qandillar  
**Qarag'asa** — qora tuproq  
**Qarib** — yaqin  
**Qarina** — kundalik ishlari ma'nosida  
**Qarobat** — yaqin kishilar, qarindoshlar  
**Qarun vusta** — o'rta asrlar  
**Qasaba** — shaharcha  
**Qator** — poyezd  
**Qavl** — so'z  
**Qazaf** — dashnom

**Qit'a** — bo'lak  
**Qiyo** — qoya  
**Qofila** — karvon  
**Qonuni musovot** — tenglik qonuni  
**Qubba** — gumbaz, kupol  
**Qulfl** — qulfl  
**Qutr** — ko'ndalang  
**Quvvai dofe'a** — daf qilish, mudo-  
faa quvvati

## R

**Rabt etilmoq** — bog'lanmoq  
**Rafoqat** — rafiqlik, do'stlik  
**Raftor** — yurish-turish  
**Rasoil** — risolalar  
**Raxom** — marmar  
**Ray'** — fikr  
**Rextim** — joy ma'nosida  
**Rijo** — umid  
**Rijol** — arbob, kadr  
**Rijoli tarixiya** — tarixiy arboblar  
**Rifohiyat** — faraxli  
**Rub'i maskun** — quruqlikning  
to'rtidan biri  
**Rukn** — ustun  
**Rushdiy (rushdiya)** — o'rta maktab

## S

**Sad** — 100  
**Sahhor** — sehrgarlar  
**Sahih** — sog'lom, bexato  
**Sahobagoni buzurgvor** — ulug'  
sahobalar  
**Sahobai izom** — buyuk sahobalar  
**Sajdai ubudiyat** — mute'ona sajda  
**Sajjoda** — joynamoz  
**Sajin (sarjin)** — 3 gaz yoki 2,13  
m.li uzunlik o'lchovi  
**Salb** — chormix, krest  
**Saloh** — ezgulik  
**Saloha** — solihlar qismi (paneli)-  
ga ziynat  
**Samoq** — devorning quyi uchun  
ishlatiladigan oq tosh

**Samti xorij** — tashqari  
**Sanad** — raqam (nomer), hujjat  
**Saqo** — suv mashinasi (vodovoz)  
**Saqqolik** — suvchi, meshkobchi  
**Sarbasti** — xufiya  
**Sari farr** — boshdagi toj  
**Sarrof** — pul almashtiruvchi  
**Satr** — parda (paranji)  
**Savq** — da'vat  
**Savqut-tiyn** — yershunoslik  
**Savome'** — ibodat qiladigan  
**Saxin** — qalinlik  
**Saxlatturmoq** — to'xtatmoq  
**Sayfiya** — ekinzor, yozgi joy  
**Sibyon** — bolalar  
**Sihhiya doirasi** — tibbiy kuzatuv  
**Sil ar-riya** — o'pka sili  
**Silk** — saf, qator  
**Sina(e) matograf** — kino  
**Sirf** — sof  
**Siroyat** — ta'sir  
**Sivo** — xalos, bundan boshqa  
**Siyosat** — muhofaza  
**Sodot** — sayyidlar, payg'ambar-  
zodalar  
**Sokin** — istiqomat qiluvchi  
**Sokit** — tinch, sokin  
**Somon** — qudrat, boylik ma'no-  
sida  
**Soniyani** — ikkinchidan, shundan  
keyin  
**Sorib olmoq** — o'rab olmoq  
**Suls** — uchdan bir  
**Sum'a** — ibodatxona  
**Suruklamoq** — to'plamoq  
**Suud qilmoq** — yuqoriga ko'taril-  
moq  
**Suxra** — qoya

## T

**Taammuq** — o'y, fikr  
**Taarruz** — hujum  
**Taassubi huquq** — huquq himoya-  
chisi

- Tabdili makon** — joy almashuvi  
**Ta'biya** — mudofaa uchun hozirlangan pistirma joy  
**Tabyiz** — oqartmoq  
**Tadanniy** — tushkunlik  
**Tadrij** — sekin-asta  
**Tadris** — dars berish  
**Tahammul** — chidam, toqat  
**Tahfim** — tushuntirish  
**Tahiyya** — duo, salom  
**Tahvil ma'** — suv keltirish vositalari  
**Tahqiq** — tekshirish  
**Taht al-bahr mino** — dengiz osti minasi  
**Taht al-Jabal** — Jabal tog' osti  
**Tahvin etmoq** — tuzmoq  
**Tajdid qilmoq** — yangilamoq  
**Takfir** — kofirga chiqarish  
**Ta'lifot** — asarlar  
**Tal'in** — la'natlash  
**Talof** — qaroqchi  
**Tamaddun** — madaniyat  
**Tamanno** — istak, orzu  
**Tamboku** — tamaki  
**Ta'min** — yoyish  
**Tanvir** — yoritish  
**Tanzil** — tushish, kirishish  
**Taovun** — yordam  
**Taqrir** — bayon  
**Tarafayn** — ikki taraf  
**Tard etmoq** — chetlashtirmoq  
**Tardih** — ezish, maydalash  
**Tarje'** — takror  
**Tarjih** — afzal  
**Tariq** — yo'l, uslub, tarz, chora  
**Tarix binosi** — qurilish tarixi  
**Taroz** — kelishuv  
**Tarroh** — tarhini chizuvchi  
**Tarsim** — rasm  
**Tarziya** — qoniqish  
**Tasallut** — hukmronlik qilish  
**Tafriqa** — ajrab ketish  
**Tas'hih** — tuzatish  
**Ta'sif** — afsuslanarli  
**Ta'xir** — sekinlik  
**Taslih** — tuzatish, yaxshilash  
**Tasxir qilmoq** — zabt etmoq  
**Tasvid** — qoralash  
**Tasvidod** — yozmoq, ko'chirib yozmoq  
**Tavahhum** — vahima  
**Tavahhush keltirmoq** — yovvoyilashmoq  
**Tavaqquf** — to'xtalishga muhtojlik  
**Tavassul** — vosita  
**Tavhiddi lison** — til birligi  
**Ta'vil** — so'zni boshqa ma'noga burish  
**Tavof** — ziyorat  
**Tavono** — baquvvat  
**Tavzei mukofot** — mukofot taqsimi  
**Taxiyya** — duo, salom  
**Tazalzul** — zilzila  
**Tazyinot** — ziynat, bezak  
**Tag'anniy** — nag'ma  
**Tag'rit** — g'oratchi  
**Tag'yiri qiyofa** — qiyofani o'zgartirish  
**Tashrih** — anatomiya  
**Tashxis** — e'tiroz etish, aniqlash  
**Te'dod etmoq** — sanab chiqmoq  
**Tek** — bitta  
**Tevachi** — tuyakash  
**Tezob** — azot kislotasi ko'zda tutiladi  
**Tiriza** — deraza  
**Toati qilmoq** — almashtirmoq  
**Tul** — uzunlik  
**Tuloni** — uzunchoq  
**Tulu** — kun chiqish

**Tu'ma** – taom, ovqat  
**Turba** – qabr  
**Turma** – tryum (kemaning yuk ortadigan pastki qismi)

## U

**Ubudiyat** – bandalik taomili  
**Ujra** – haq, ijara puli  
**Ul zumrodin** – shu jumladan  
**Uqqol** – oqillar  
**U'rafo** – shogird, o'quvchi  
**Ustiu** – qiyom (tush) payti

## V

**Vajd** – zavq-shavq; hayajon  
**Vajha** – mashhur, e'tiborli  
**Vaqtoki** – vaqti kelib  
**Varasa** – merosxo'rlar  
**Varis** – merosxo'r  
**Vasat** – o'rta  
**Vasoyiq** – vasiqalar  
**Virasa** – meroslik  
**Vosi'** – keng  
**Vuquot** – voqea, vaziyat  
**Vuzu'** – tahorat

## X

**Xabis** – qabih  
**Xalq qilgon** – yaratgan  
**Xamula** – yo'lovchi, passajir  
**Xartuxar** – parokanda, tartibsiz  
**Xatti istivo** – ekvator  
**Xattiyot** – kamchiliklar, xatolar  
**Xayoli fosid** – o'rinsiz, buzuq xayol, fantaziya  
**Xays** – mumsik  
**Xon** – stol  
**Xoriqa** – favqulodda hol  
**Xotam** – muhr  
**Xuddom** – xodimlar, xizmat-chilar

**Xurram** – tozalik, yaxshilik  
**Xushmand** – ziyrak, aqlli  
**Xushu ila** – g'oyat itoatkorona

## Z

**Za'f** – o'jizlik, zaiflik  
**Zahra** – tekislik ma'nosida  
**Zarina** – oltin  
**Zavjai mutahhara** – jufti halola  
**Zavvor** – ziyoratchi mehmon  
**Zillat** – tubanlik  
**Zoiq** – zavqboxsh  
**Zoti sotuda** – zoti sharifi  
**Zoviya** – burchak  
**Zuafo** – zaiflar, ayollar  
**Zuhurot** – kutilmagan voqea  
**Zujjoj** – shishalar  
**Zuljalol** – azamat, buyuk

## O'

**O'ram** – ko'cha  
**O'tel-no'mra** – mehmonxona bo'l-masi  
**O'yla** – shunday

## G'

**G'alat** – noto'g'ri  
**G'alati fohish** – qo'pol xato  
**G'anoyim** – o'lja  
**G'arro** – ajoyib  
**G'izo etmoq** – ovqatlanmoq  
**G'urub** – kun botish

## Sh

**Shabaka** – jimjimador panjara  
**Shabakalangan** – to'silgan  
**Shaqiy** – yaramas odam  
**Sharafa** – karniz  
**Sharr** – yomonlik

**Sharrot** – yovuzlik

**Shatorat** – epchilik

**Shay** – narsa

**Shaytanat etmoq** – firib bermoq

**Sha'sha'lik** – shu'lavor, yarqiragan

**Shimitmali** – simiraylik

**Shodurvon** – favvora

**Shog'il** – band etuvchi

**Shuru' etmoq** – kirishmoq

## Ch

**Chahortark** – chorqirra

**Chahorchashm** – to'rtko'z

**Chodir** – ro'mol

**Chosht** – choshgoh

## MUNDARIJA

Karvonboshi ( <i>B. Qosimov</i> ) .....	5
<b>Badiiy asarlar</b> .....	40
Padarkush yoxud o'qumagan bolaning holi ( <i>pyesa</i> ) .....	40
Oq elpog'ichli chinli xotun ( <i>hikoya</i> ) .....	51
Bir a'mo bolaning hasrati .....	54
<b>Sayohat xotiralari</b> .....	55
Qasdi safar .....	55
<b>Maqolalar</b> .....	147
Xayrul umuri avsatuho .....	147
Ikki emas, to'rt til lozim .....	151
Bayoni hol .....	153
Turkiston .....	155
Sherdor madrasasi .....	157
A'molimiz yoyinki murodimiz .....	158
Favqulodda takfir .....	161
Bizni hollar va ishlar .....	162
Zo'raki boy .....	164
Jaholat dardlaridan .....	166
Oh, bonkalar bizni barbod etdi .....	167
Yoshlarga murojaat .....	169
Tarixi ixtiroi bashar .....	171
Tanqid — saralamoqdur .....	173
Teyotr nadur? .....	175
Muhtaram yoshlarga murojaat .....	177
«Turkiston tarixi» kerak .....	179
«Sart» so'zi ma'lum bo'lmadi .....	180
Ismoilbek hazratlari .....	182
Til masalasi .....	184
Bizni kemirguchi illatlar .....	190
«Sart» so'zi majhuldur .....	194
Ehtiyoji millat .....	200
Millatlar qanday taraqqiy etarlar? .....	203
Qozoq qarindoshlarimizga ochiq xat .....	204
Muhtaram samarqandiyarga xolisona arz .....	207
G'alla, askarlik, yer va tazminoti harbiya .....	210
Maqola va chiqishlarga javoblardan .....	215
«Kitobat ul-atfol» (1908) dan .....	216
«Kitobi muntaxabi jug'rofiyai umumiy» (1906) dan .....	221
«Munozara» haqida .....	248
Mufti Mahmudxo'ja hazratlarining qanday shahid bo'lg'onlig'i va oning tomonidan yozilgan «Vasiyatnoma» .....	252
<b>Behbudiy vafotiga bag'ishlangan marsiyalar</b> .....	256
<i>Fitrat.</i> Behbudiyning sag'anasini izladim .....	256
<i>Ayniy.</i> Behbudiy ruhiga ithof .....	256
<i>Ayniy.</i> Behbudiy afandini esga tushurib, qatl va qatlgohiga xitoban .....	257
<i>Cho'pon.</i> Mahmudxo'ja Behbudiy xotirasi .....	258
<i>Ingeborg Baldauf.</i> Mahmudxo'ja Behbudiy Falastinda .....	259
Izohlar .....	267
Lug'at .....	269

*Adabiy-badiiy nashr*

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY

TANLANGAN ASARLAR

*Toshkent «Ma’naviyat» 2009*

Muharrir *U. Qo‘chqorov*  
Musavvir *G. Shoabdurahimova*  
Tex. muharrir *T. Zolotilova*  
Musahhah *O. Bozorova*  
Kompyuterda tayyorlovchi *Sh. Sohibov*

Bosishga 07.08.2009-y.da ruxsat etildi. Bichimi 84×108/32. Tayms garniturası. Ofset bosma usulida bosildi. Shartli b. t. 14,70. Nashr t. 15,14. 1800 nusxa. Buyurtma № 673. Narxi shartnoma asosida.

«Ma’naviyat» nashriyoti. Toshkent, Buyuk Turon, 41-uy. Shartnoma № 21-09.

«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasining bosmaxonasida bosildi. 700083. Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy. 2009.





*Manavixi*

ISBN 978-9943-04-093-9



9 789943 040939